Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, bahs-munozaralarda ishtirok etadilar va muammoli vaziyatlarni yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uy vazifalarini bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Xalq pedagogikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 10 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalarning mustaqil ishlari har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ishlarning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 4) adabiyotlar bilan ishlash;
- 5) ijodiy ish;
- 6) ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Jahon ta'limi tizimi to'g'risida qo'shimcha adabiyotlar tahlili.
2. Internet ma'lumotlari asosida jahon mamlakatlarida pedagogika fani rivojlanishining o'ziga xosliklarini qiyosiy tahlil etish.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. muddat.	Hajmi (Soatda)
	«Xalq pedagogikasi» fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	1-2 - xaftalar	6
	Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	3-4xaftalar	6
	Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	5-6- xaftalar	6
	Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	7-8- xaftalar	8
	Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	9-10 - xaftalar	8
	Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	11-12- xaftalar	6
	Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	13-14- xaftalar	8
	Xalq pedagogikasida milliy o'yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		6
	Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	14-15- xaftalar	6

0	Xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	15-16- xaftalar	8
1	O'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish	17-18- xaftalar	6
2	Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		6
3	Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz-o'qituvchi kasbining ulug'lanishi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		8
4	Xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muhofaza qilish va sog'lom turmush masalalari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		6
5	"Qiyosiy pedagogika" mustaqil fan sifatida	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
6	Qiyosiy pedagogikaning nazariy – metodologik asoslari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
7	Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
8	Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
9	Pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiqot qilish bosqichlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
	Qiyosiy	Adabiyotlardan		4

0	pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va OO‘Yularida ta’lim variativligi	konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		
1	Oliy ta’lim tizimining tipologik-tasnifiy mezonlari va ta’lim muassasalari nufuzi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
2	Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
3	Osiyo mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlili	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		6
4	AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta’lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
5	Jahon mamlakatlari ta’limi taraqqiyotining ayrim masalalari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish. Referat yozish. Texnologik xaritalar tuzish		4
	Jami			140

O`quv yuklamasini 5 -semestrlar bo'yicha xajmi

	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	
		5-semestr	jami
.	Ma'ruza	38	38
	Amaliy	8	8
	Seminar	32	32
	Laboratoriya	-	-
	Mustaqil ish	46	46
	Jami	124	124

O`quv yuklamasini 6 -semestrlar bo'yicha xajmi

	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	
		6-semestr	jami
.	Ma'ruza	36	36
	Amaliy	8	8
	Seminar	32	32
	Laboratoriya	-	-
	Mustaqil ish	48	48

	Jami	124	124
--	-------------	------------	------------

O`quv yuklamasini 7-semestrlar bo'yicha xajmi

	Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	
		7-semestr	jami
.	Ma'ruza	38	38
	Amaliy	6	6
	Seminar	30	30
	Laboratoriya	-	-
	Mustaqil ish	46	46
	Jami	120	120

Bilimlarni reytingli baxolash ko'rinishlari bo'yicha ballar taqsimoti

Semestr	Ma’ruza	Seminar	Mustaqil ta’lim	Joriy baholash 35						Oraliq baholash 35						YaB 30	
				Amaliy				Mustaqil		Ma’ruza			Mustaqil				
				Soni	Ball	Jami	Soni	Ball	Jami	Soni	Ball	Jami	Soni	Ball	Jami	Ball	Turi
	0	6	4		25	25		10	10	1	25	25	1	10	10	30	yoz

NAZORAT TURLARINI O`TKAZISH TARTIBI

1. Joriy nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- uy vazifalarini tekshirish;
- amaliy mashg`ulotlarni tekshirish;
- test sinovlari o`tkazish;
- nazorat ishlarini o`tkazish;
- og`zaki so`rov.

2. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhdagi barcha talabalar ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi:

- kollokvium;
- og`zaki so`rov;
- test sinovlari o`tkazish;
- yozma ish.

3. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida "Yozma" tartibda o`tkaziladi.

"Xalq pedagogikasi" fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Xalq pedagogikasi” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«**Xalq pedagogikasi**» fani bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi maksimal 100 ballik tizimda baholanadi.

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot Q}{100}$ bu yerda:

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

Q - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball qisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 o'aftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda o'atnasha olmagan talabaga o'ayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

	Ko'rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O'zgarish oralig'i
	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashgulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	10	0-10
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-10
	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	15	0-15
	Jami JN ballari	35	0-35

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

	Ko'rsatkichlar	ON ballari	
		maks	O'zgarish oraligi
	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'ligligi.	10	0-10
	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	5	0-5
	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	20	0-20
Jami ON ballari		35	0-35

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilib, sinov 10 variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Har bir amaliy topshiriq ham 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Yakuniy nazorat “Yozma” shaklida o'tkazilishi belgilanganligi uchun u maksimal 30 ballik tizimda o'tkaziladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska - Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).

video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok)

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. 287-297-b.
4. Vulfson B.F. Sravnitel'naya pedagogika M.: «Prosveteniye», 2003 g.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995 y.
2. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1994 y.
3. G'aniev J.G'. Xorijda ta'lim. T.: Sharq, 1995.

4. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,
5. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries.

Elektron ta'lim resurslari


1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped

IV. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Quyida ta'lim jarayonida qo'llayotgan interfaol metodlardan misollar keltirib o'tamiz:

I. “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) grafik organayzeri (GO). U talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.


Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Grafik organayzerdan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:



II. Debatlar. Muayyan mavzulardan biri bo'yicha o'quvchilar ishtirokida muhokamani tashkil etish imkonini berib, ulardan ko'proq sinfdan tashqarida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Muhokama jarayonida o'quvchilar qo'yilgan muammo yuzasidan shaxsiy qarashlarini ifoda eta olishlari zarur bo'ladi. Debatda o'quvchilar guruhli yoki individual shaklda bahsga kiritishlari mumkin va unda bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlarning bildirilishi tabiiy sanaladi.

Ta'lim jarayonida debatlardan foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda bahs-munozara yuritish layoqatini shakllantirish, shuningdek, ularning shaxsiy fikrlarini mustaqil, erkin bayon etish, o'z fikrini himoyalash, asoslash, muayyan holatlarga muvofiq aniq xulosalarga kelish ko'nikmalarini tarbiyalashdan iboratdir. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda debatlardan foydalanish o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish bilan birga ularning og'zaki nutqlarini o'stirishga ham yordam beradi.

Debatlar ham ma'lum shartlarga amal qilingandagina kutilgan ta'limiy natijani beradi. Ya'ni:

- 1) o'quvchilar belgilangan vaqtdagina gapirish imkoniga ega bo'ladilar;
- 2) bir o'quvchi so'zlayotganda, kolganlar uni diqqat bilan eshitishlari, fikrini bo'lmasliklari maqsadga muvofiqdir, zero, ana shundagina sinf (auditoriya)da ortiqcha shovqin yuzaga kelishining oldi olinadi va bildirilgan fikr boshqalar tomonidan to'g'ri qabul qilinadi;
- 3) so'zlayotgan o'quvchi "raqib" guruh yoki o'quvchiga qarab emas, balki o'qituvchi yoki umuman barcha o'quvchilarga qarab fikrlarini bayon etishi lozim.

Debatda imkon qadar o'quvchilarning xohish-istaklari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mavzuni tanlash va savollarni tuzish pedagogik jihatdan samarali bo'ladi. Bahs-munozaralar uchun quyidagi savollarni o'rta tashlash mumkin:

Bugungi kunga an'analarga yoshlarning munosabati qanday?

Unitilayotgan va yangi paydo bo'layotgan an'analarga haqida fikringiz.

Debatda ishtirok etish natijasida tinglovchilarda muammoni aniqlash va ajratish qobiliyati, dalillar va fikrlarni aniqlash mahorati, tanqidiy fikr yuritish, muhim bo'lgan ma'lumotni muhim bo'lmagan ma'lumotdan ajratish, sabab va uning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga baho berish, xulosa chiqarish, muammolarni ajratish va samarali yechim topish malakalari, o'zining fikr yuritishiga, tafakkur jarayoniga baho berish ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nutq so'zlash madaniyati shakllanadi.

Ushbu usuldan dars jarayonida ***“O'zlikni anglash”, “Ajdodlarga munosib voris bo'laylik”*** kabi mavzular mohiyatini o'zlashtirishda, mustahkamlash darslari jarayonida qo'llash mumkin.

III. Amaliy treninglar ham interfaol ta'lim ko'rinishlaridan biri bo'lib, ularda asosiy e'tibor nazariy jihatdan o'zlashtirilgan materialni mustahkamlashga qaratiladi. "Trening" so'zi umumiy ahamiyatga ega. Ularda odatda turli metod va texnik vositalar (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar hamda ma'lum pedagogik vaziyatlar, guruhli bahslar) qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda ishchanlik muloqotlarini hosil qilishga yo'naltirilgan amaliy treninglar o'zaro hamkorlikni yuzaga keltirishdagina emas, balki rahbarlarning ma'lum sohalar bo'yicha layoqatlarini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning 90-yillarida rahbarlar shaxslar o'rtasida quyidagi amaliy trening turlari ommalashdi:

1) kelishuvlarni tashkil etishni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish imkonini beruvchi amaliy treninglar;

2) turli namoyish (prezentatsiya)ni o'tkazish ko'nikmalarini hosil qiluvchi treninglar.

Amaliy mashg'ulotlarni samarali innovatsion shakllarda olib borish maqsadida treningdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, "Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar, marosimlarning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati" mavzusida trening tashkil etiladi.

IV. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (ingliz tilida "case-study" nemis tilida "fallsude") so'nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan metodlardan biri sanaladi. Mazkur metoddan shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirish, shu bilan birga o'zbek tilini o'rganish ko'nikmalarini hosil qilishda keng qo'llanilmoqda. Metod o'quvchilarni axborotlarni tahlil qilish, asosiy muammoni aniqlash, ularni hal etishning muqobil yo'llarini tanlash va baholash, eng samarali yo'lni topish hamda harakat dasturini ishab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodining o'quvchilarda o'zaro muloqotni yuzaga keltirishdagi afzalliklari quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanlararo aloqani o'rnatish;
- obrazli tafakkurni rivojlantirish;
- muqobil variantlarni baholash;
- tahlil natijalarini namoyon etish;
- qaror qabul qilish bilan bog'liq jarayonda davomiylikni ta'minlash;
- muloqotga kirishish va guruh yoki jamoada ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyati mavjud.

Amalda muammoli vaziyatlarni ishlab chiqishda quyidagi ikki yo'ldan birini tashlash mumkin:

- 1) aniq hayotiy voqea-hodisalar misolida;
- 2) sun'iy asoslangan hodisalar, harakatlar asosida.

Ta'lim amaliyotida pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda samaradorlikka erishishni kafolatlovchi quyidagi asosiy tamoyillar ishlab chiqilgan:

1. Muammoli vaziyatlar birgina mavzu yoki predmet doirasida olib borilmaydi. Ular odatda boshqa muammolar va masalalar bilan bog'liq bo'ladi.

Shu sababli o'quvchilar fanlararo aloqadorlikdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

2. Muhokama jarayonida o'quvchilar muammoli vaziyatlarning tashqi jihatlariga emas, balki ichki sabablarga e'tiborni qaratishlari pedagogik jihatdan to'g'ri sanaladi.

3. O'quvchilar muhokama jarayonida ma'lum fan yoki o'quv materiali bo'yicha o'zlashtirgan nazariya, qoida, ta'rif yoki aksiomalarni o'rinli qo'llay olishlari, shuningdek, ulardan muammoli vaziyatlar yechimini topishda va tavsiyalar ishlab chiqishda foydalana olishlari kerak.

4. Birgina muammoli vaziyatning yechimini topish bilan kifoyalanib qolmay, qoltan muammolarning yechimini ham izlash va yo'nalishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

5. O'quvchilarga tahlil va ilgari surilayotgan tavsiyalarning to'g'riligini tasdiqlashda shaxsiy tajribalariga tayanib ish ko'rish tavsiya etilishi lozim.

6. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga yondashish tizimli, izchil va o'rinli bo'lishi zarur.

V. Namoyish yoki himoya (prezentatsiya) so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilayotgan metodlardan biri bo'lib, u ham o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqot, fikr almashish va bahs-munozarani yuzaga keltirishga yordam beradi. Muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha namoyish yoki himoya (prezentatsiya) oldindan tayyorlanadi va ularni tayyorlash uchun ma'lum vaqt belgilanadi. Ularni tayyorlashda qanday yo'l tutish zarurligini o'quvchilarning o'zlari belgilaydi, shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda muammoning asosiy masalalari muhokamaga olib chiqiladi. O'quvchilar tomonidan namoyish yoki himoya (prezentatsiya)ni tayyorlashda o'qituvchi maslahatchi rolini bajarib, zarur o'rinlarda nazariy hamda metodik jihatdan yordam ko'rsatadi. Namoyish yoki himoya (prezentatsiya) ijodiy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilar ularni individual yoki guruh asosida tayyorlashlari mumkin. O'quvchilarning shaxsiy tajribalari, ijodiy qobiliyatlari hamda tanlangan (yoki o'rganilishi talab etilgan) mavzu

(muammo)ni qay darajada chuqur bilishlari namoyish, himoya (prezentatsiya)ning rasmiylashtirilishi, bezatilishida samaraga erishishni kafolatlaydi.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarini qo'llashda talabalar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda

Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish sanaladi.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Ayni paytda Umumiy pedagogika fanidan «Ta'limni tashkil etish shakllari» modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda ayrim interfaol ta'lim texnologiyalari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash tartibi to'g'risida tuxtalib o'tamiz.

O'qitish usullari va texnikasi: “Keys-stadi”, “Blits-so'rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Zinama-zina”, “Munosabat”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Zig-zag”, “Idrok xaritasi”, “Muzyorar”, “Bahs-munozara”, “T-jadval”, (**Grafik organayzerlar**): “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Toifalash jadvali”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar¹.

• **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhliy, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.

¹ Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006

- **O‘qitish vositalari:** odatdagi o‘qitish vositalari (darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

«**Tushunchalar tahlili**» metodi. Ushbu metod o‘tilgan (chorak, semestr, yoki o‘quv yili tugagach) o‘quv predmeti yoki bo‘limning barcha mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, biror mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda izoh berishga, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan. Metodning maqsadi -talabalarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch ushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholash, yakka va guruhda ishlash, guruhdoshlari fikrini hurmat qilishga va o‘z bilimlarini tizimga solishga o‘rgatadi.

Qo‘llanishi. O‘quv o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun, o‘quvchilarni joriy va oraliq, yakuniy baholash uchun ishlatiladi. Yangi mavzuni mashg‘ulotlarining barcha turlaida, darsning boshlanishida, dars oxirida, bir bo‘lim tugaganda o‘tilgan mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning mavjud bilimlarini tekshirib olishga mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashhulotning ayrim bosqichlarida yakka, kichik guruhda yoki jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Shuningdek uyga vazifa sifatida ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda individualizm chekinib, uning o‘mini faol ravishda o‘zaro hamkorlik tamoyili egallamoqda. O‘qituvchining: talaba bilan; talabalarlar bilan o‘zaro faol munosabatga kirisha olishi, qolaversa, o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarning o‘zaro (talaba-talaba) sxemasida ishlay olishlari pedagogik hamkorlikning asosi sanaladi. Bugungi kunda interfaol ta’lim metodlaridan o‘qitishda foydalanish o‘ziga xos dolzarblik kasb etmoqda Bu esa o‘z navbatida har bir fan o‘qituvchilaridan bu turdagi ta’lim metolarian xabardor bo‘lishni, o‘z faoliyatida maqsadli, samarali qo‘llay olishni talab qiladi. Shu

o‘rinda turli interfaol metodlardan pedagogik jarayonda maqsadli, o‘rinli foydalanish pedagogningkasbiy bilimi va pedagogik mahoratiga bog‘liq.

TUSHUNCHALARNI ANIQLASH

Maqsadi:

- tinglovchilarni gapdagi har bir xorijiy tildagi so‘zni tushuna olishga o‘rgatish;
- tinglovchilarning gapdagi har bir so‘zga e‘tiborli munosabatda bo‘lish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;
- o‘quv topshirig‘ini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘qituvchi izohni **tushunish** – bu tinglovchilarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur eta olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki so‘zni tushunishning birinchi darajasi.

So‘zni to‘liq tushunish qachonki, tinglovchilar narsa yoki hodisaning tuzulishiga oid tarkibiy qismlar(nimalardan tashkil topgan) va uning funksional o‘ziga xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

Mashg‘ulot quyidagi tarzda o‘tkaziladi:

1. Barcha tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘linishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi gaplardagi notanish so‘zlarni topish va izohli lug‘atlar, o‘qituvchining yordamida ularning ma’nosini izohlab berishni so‘raydi.

3. Guruhlarda matn ustida ishlash boshlanadi. Tinglovchilar birgalikda notanish, tushunarsiz so‘zlarni topishadi va ularning ma’nosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib bo‘linganidan so‘ng, “kichik guruhlariga hujum” boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qur’a tashlash yo‘li bilan

aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbati bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh a'zosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan so'ng uning to'g'riligi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 balldan 5 ballgacha bo'lishi mumkin.

5. Yakunlarini chiqarish. O'qituvchi ko'p ball yig'gan guruhni e'lon qilishi mumkin. Mazmuni noto'g'ri tushunilgan so'zlarga izoh beriladi.

O'ZARO O'RIN ALMASHINUVCHI JUFTLIKLAR VA GURUHLAR

Maqsadi:

- tinglovchilarni materialning tuzilishi, asosiy fikrlarni belgilay olish, esda saqlab qolish mumkin bo'lgan shaklda ularni tasavvur eta olishga o'rgatish;

- nutq madaniyatini rivojlantirish;

- fasilitatorlik qobiliyatini tarkib toptirish.

1. Birinchi bosqichda pedagog asosiy fikrlarni tasavvur etishning turli shakllari haqida hikoya qilib beradi.

Asosiy fikrlarni tasavvur etishning birinchi turi oddiy – bu asosiy fikrlarni so'z yoki qisqa gaplar tarzida tasavvur etishdir. Mazkur so'z yoki gaplar ustunlar tarzida nomer qo'yish orqali yoziladi.

Asosiy fikrlarni tasavvur qilishning ikkinchi shaklida o'zak belgilab olinadi va ana shu o'zak atrofida asosiy fikrlar jamlanadi.

Asosiy fikrlarni shakllantirishning uchinchisi shakli – bu ularni qisqartirish yoki shartli belgilar bilan almashtirishdir.

2. Ikkinchi bosqichda tinglovchilar kichik guruhlariga birlashadilar. Har bir kichik guruh o'ziga berilgan matnni oladi va uni o'qiydi. Matnlar hammada har xil.

3. Shundan so'ng guruhda har bir tinglovchi mustaqil ravishda mazkur matnga doir tayanch konspektini tuzishadi.

4. Navbatdagi bosqichda tinglovchilar juftliklarda o'zlarining tayanch konspektlari haqida fikr almashishadi. Mazkur bosqichda o'zining tayanch konspektini o'zgartirish imkoniyati mavjud.

5. Navbatdagi bosqichda tayanch konspekt guruhiiy muhokama etiladi. Guruh o'zaro kelishgan holda qandaydir yaratilgan tayanch konspekti qabul qiladi. Mazkur bosqichda guruh butun jamoaning oldida "ovoz chiqarib" aytib beruvchi tinglovchini aniqlab olishi kerak.

6. Mazkur bosqichda guruhning bir a'zosi aniqlangan tayanch konspekt bo'yicha chiqish qiladi va o'qilgan matnning mazmunini bayon etadi. Barcha tinglovchilar eshitishlari kerak. Mazkur davrda me'yorlarning bajarilishini ta'minlaydigan texnik ekspertning majburiyati namoyon bo'ladi.

7. Birinchi guruh a'zosi chiqishini tugatgandan so'ng boshqa guruh savol berishi mumkin. Savollarga javob beriladi. Mazkur turdagi ish baholanishi mumkin (ballar jadvalda qo'yiladi). Savollarning navbat bilan berilishini texnik ekspert yo'lga qo'yadi.

8. Sakkizinchi bosqichda boshqa guruhning vakili agar asosi mavjud bo'lsa, qilingan chiqishni to'ldiradi.

9. To'qqizinchi bosqichda boshqa guruh vakili chiqish, savollarga javoblar bo'yicha noroziligini ifoda etadi.

Ana shu yerda birinchi matn bilan ishlash yakunlanadi. Pedagog yoki ilmiy ekspert yakunlarni chiqaradi.

Keyingi bosqichda boshqa guruh vakili o'zining tayanch konspektini namoyish etadi. Mazkur harakat hamma chiqishlar tugaguncha davom etadi.

Inssenirovka yakunlarni chiqarish bilan tugallanadi. Har bir guruh to'plagan ballarni hisoblash va jami ballar ustuniga yozib qo'yilishi kerak. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'rinlarni ham belgilash mumkin.

KONSEPTUAL JADVAL

Uchta va undan ko'p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu metod, ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal

bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo'yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalar joylashtiriladi.

Masalan, konseptual jadval orqali pedagogik qobiliyatlarni taqqoslab ko'rsatish mumkin.

Qobiliyatlar	Qaysi kasbiy kompeten-siyaga taaluqli ekanligi	Qo'llanilish doirasi	Ahamiyati
Gnostik			
Kommunikativ			
Empatik			
Suggestiv			

T-Chizma

T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan "Pedagogik nizolar" matnini "tarafdor va qarshi" tamoyiliga asoslanib o'qilganidan so'ng, bir juft tinglovchi quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqadan keyin, chizmaning chap tomonida pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozishi mumkin. So'ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko'p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o'z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

Pedagogik nizolarni yuzaga keltiruvchi sabablar	Pedagogik nizolarning oldini olish imkoniyatlari

TUSHUNCHALAR ASOSIDA MATN TUZISH

“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma'lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo'ladi.

Mazkur metodni qo'llash texnologiyasi:

Masalan, “O'qituvchi faoliyatida pedagogik takt” mavzusi bo'yicha:

- 1) takt, taktika, pedagogik taktika, pozitsiya, “yuqoridan pastga”, “pastdan yuqoriga”, “yonma-yon”, aralashmaslik;
- 2) nizo, pedagogik nizo, turlari, nizoli vaziyat, konfliktogen;
- 3) odob, etika, axloqiy sifatlar, pedagogik odob, pedagogik deontologiya.

O'N MINUTLIK ESSE

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik essenini yozish qoidalari (“Zamonaviy pedagog” mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.

2. “Pedagog deganda ko‘z oldimga ... keladi”, “Mening fikrimga ko‘ra pedagog ... bo‘lishi kerak”, “Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak” kabi jumladan foydalaning.

3. O‘zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo‘lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuvingizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

BLITS-O‘YIN

O‘yinni o‘tkazish tartibi:

1) tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;

2) dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o‘ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini “indiv. javob” ustuniga (masalan “1” raqamli tushunchaga “10” raqamdagi javob) yozish so‘raladi;

3) so‘ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya‘ni “guruh javobi” ustuni to‘ldiriladi. Kichik guruh a‘zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo‘lishi lozim;

4) o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni o‘qiydi. Tinglovchilar o‘zlariga berilgan qog‘ozning “kalit” ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.

5) tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, “individual xato” va “guruh xatosi” ustunlarini to‘ldiradi. Har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining pedagogiklik kasbiga doir qarashlarini o‘rganishga doir BLITS-o‘yin

Fikrlar	Gu	G	K	In	In	Pedag
----------------	-----------	----------	----------	-----------	-----------	--------------

	ruh javobi	uruh xatosi	a-lit	div. xato	div. javob	og-olimlar
Ustoz shogirdiga zugʻum qilishga, koʻp hollarda yon berishga intilmasligi kerak						Alisher Navoiy
Ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitarli, meʼyorida boʻlishi kerak						Abu Nasr Forobiy
Mudarris ota- onasining mansabi, boyiligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.						Imom Al-Buxoriy
Yaxshi oʻqituvchi tinglovchilarga tayyorini bermaydi, tushuntirishga oʻrgatadi						Abu Ali ibn Sino
Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy boʻlish lozim						Adolf Disterverg

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys

harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys: O‘qimay kelganlar to‘rga o‘sin

Shuncha urinishlarga qaramay, baribir darsga tayyorlanmay keladigan tinglovchilar bor edi. Buni yashirish yoki inkor qilish kerakmas.

O‘qimay kelgan tinglovchilar uchun ham o‘zimning qat’iy prinsipim bor edi. Fikrimcha, o‘qimay kelgan tinglovchi ham, mening darsimdan quruq qo‘l bilan chiqib ketmasligi kerak edi. O‘sha darsda u shunchaki jasad bo‘lib ishtirok etmasligi, faqat yo‘qlamaga ko‘rinish uchun kelmasligi lozim edi.

Shu sababli men o‘qimay kelgan tinglovchilarni eng oldingi partaga o‘tqazardim. Blitz savol-javoblar vaqtida har bir savolning javobini ulardan qayta aytishlarini so‘rardim. Masalan, boshqa bir tinglovchi savol beraman, u javob berdi deylik. Keyin xuddi shu savolni o‘qimay kelgan tinglovchiga yana qayta beraman. U kursdoshi aytgan javobni takrorlaydi. Aytolmasa, yana takrorlattiramiz, diqatini jamlaymiz.

Shunaqa qilib, dars oxirigacha u ko‘p ma’lumotni eshitadi, gapiradi. Va natijada darsimdan nimadir (kam bo‘lsa-da) olib chiqib ketadi.

Ha, esimda, ba’zi tinglovchilar oldingi partada o‘tirmaslik uchun ham o‘qib keladigan bo‘lgandi.

Keysning SWOT tahlili

Kuchli tomoni	
Kuchsiz tomoni	
Imkoniyatlari	
Tahdidlari	

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish

faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan maʼruza mashgʻulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini oʻrganishda, yangi maʼlumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashgʻulotlarda esa mavzu yoki maʼlumotlarni oʻzlashtirish darajasini baholash, shuningdek, oʻz-oʻzini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, oʻqituvchining ijodiy yondashuvi hamda oʻquv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qoʻshimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi toʻgʻri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Тест

Педагогик фаолиятнинг қайта
идрок этилишига доир
компетенция қандай
номланади?

- А) Ахборот олиш
- В) Когнитив
- С) Рефлексив
- Д) Коммуникатив



Қиёсий таҳлил

“Компетенция” ва
“компетентлик”
тушунчалари ўртасидаги
ўхшашлик ва фарқли
жиҳатларни таҳлил этинг.



Симптом

Ўқитувчининг педагогик
фаолиятга назарий
тайёрлиги...



Амалий кўникма

Педагогик техниканинг
асосий элементларидан 3
тасига мисол келтиринг.

INSERT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni oʻzlashtirilishini yengillashtirish maqsadida

qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1- matn	2- matn	3- matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

“BRIFING” METODI

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiya.

O‘tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga

dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. Tinglovchilar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.

“PORTFOLIO” METODI

“Portfolio” – (ital. portfolio-portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

V. MA'RUZA MATERIALLARI

1-Mavzu: Xalq pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari.

Tayanch iboralar: Xalq pedagogikasi, milliy pedagogika, milliy tarbiya, xalq tajribalari, ta'lim tarixi, tarbiya tarixi, Avesto, Zardo'shtilik dini.

Reja

1. Xalq pedagogikasini o'rganishning maqsidi.
2. Milliy pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalq pedagogikasining vazifalari.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita boq'liqdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy odob-ahloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza ahloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita boq'liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

O'zbek xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. O'zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Allomalarimiz «Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim» deya nasihat qiladilar, bu inson o'z tafakkuri yordamida ta'lim-tarbiya olishi, odob-ahloq normalarini egallashi, o'zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos, ma'naviy-ahloqiy ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtirish lozimligini taqozo etadi.

Respublikamizda «Xalq pedagogikasi» fanini o'rganishga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiy ta'lim maktablarining milliy sinflari o'qituvchilari uchun, oliy o'quv yurti talabalari uchun, aspirant va magistrilar uchun zarurdir.

Xalq pedagogikasi – ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida muhim jarayon bo'lgan inson tarbiyasi, uning shakllanishi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishini o'rganish bilan birga xalqning qadimiy tarbiya usullarini, qo'shiq, topishmoq, maqol va o'yinlarini to'playdi, umumlashtiradi, tizimga soladi va ta'lim jarayoniga tadbiq etadi.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o'zni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o'rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan.

Shu o'rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o'tish o'rinli. Buyuk pedagoglar ko'proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk pedagog Ya. A. Komenskiy ham o'zining faoliyatini xalq oq'zaki

ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatlari to'q'risida material to'plashdan boshlagan.

X.X.Niyoziy «Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan» - deb ta'rif beradi. U yana o'zbek xalqi tarbiya sohasida o'ziga xos tizimga ega ekanini aytib o'tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy q'oya – maqsadlarga qaratilgan bo'lganligidir.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o'gitlaridan baxra olish va tarbiya jarayoniga tadbqiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlarga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga yetish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevisish, milliy odob-ahloq ma'yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

“Avesto”dagi ta’limiy-axloqiy g’oyalar

The Avesta /ə'vɛstə/ is the primary collection of sacred texts of the ancient Aryan religion known as Zoroastrianism, composed in the otherwise unrecorded Avestan language. The Avesta texts fall into several different categories, arranged either by dialect, or by usage. The principal text in the liturgical group is the Yasna, which takes its name from the Yasna ceremony, Zoroastrianism's primary act of worship, and at which the Yasna text is recited. The most important portion of the Yasna texts are the five Gathas, consisting of seventeen hymns attributed to Zoroaster himself. These hymns, together with five other short Old Avestan texts that are also part of the Yasna, are in the Old (or 'Gathic') Avestan language. The remainder of the Yasna's texts are in Younger Avestan, which is not only from a later stage of the language, but also from a different geographic region.²

Avesto o'zida dastlabki Zardushtiylik dininomi bilan mashhur bo'lgan muqaddas matnlar toplami iborat. Kitob o'sha davr lahchasidayozilgan. “Avesto” matnlari ma'lum tartibda joylashgan bo'lib, umurojaat mazmuniga ega. Avestoning asosiy qismi Yasna deb yuritiladi, Yasna atamasimarosim nomidan olingan. Zardushtiylik kabag' ishlangan madhiyalarda n iborat. Yasnaning asosiy 5 iborat bo'lib, ularning 17

²<https://en.wikipedia.org/wiki/Avesta>

bobiGotlardebyuritiladi.YasnaningtarkibiyqismibolganengqadimgiAvestoAvestoti lidayozilgan.

YasnaningmatniparchalaridaKichikAvestobayonqilinganma'lumotlarorqalinafaqatt ilhaqida, balkio'shahududgadoirmuhimgeografikma'lumotlaraksetgan.

Zardushtiyar hayotining Asosiy qismmazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob oy-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning Asosiy qismburchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

O'zbek xalqi bugungi mustaqillikni qo'lga kiritgan bir davrda ota-bobolar, ajdodlar erishgan yutuqlardan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq etish puxta o'rganish zarur. Bu esa yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyq'ularini vujudga keltiradi va ular o'tmish an'analariga sodiq bo'lishga harakat qiladilar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyq'ulari hosil qilinadi.

Shunday qilib, universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar o'zbek xalq pedagogikasini quyidagi maqsadlarda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. birinchidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, mutaxassis sifatida yosh avlodga milliy q'oya va milliy mafkura mohiyatini tushuntira olish ko'nikmasini hosil qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, biz kelajagimizni bugungi yoshlarga ishonib yashayapmiz. Bugungi talaba ertangi rahbardir. U qanchalik ma'naviy barkamol, qo'li, dili, vijdoni pok bo'lsa, kelajagimiz shu qadar buyuk bo'ladi. bu esa Siz bilan bizga, bo'lq'usi rahbarlarning tarbiyachilariga ko'p jihatdan boq'liq.

Har bir shaxs, xalq va millatning o'ziga xos orzu-umidlari va ma'naviy qarashlari bo'ladi. Ular orasida ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj alohida o'rinni egallaydi. Chunki har bir soq'lom insonda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud. Aslida fikr doirasi keng va tarbiyali insongina o'zini erkin va baxtli his qiladi.

Har qanday davlat o'z xalqining taraqqiyot bosqichiga mos ijtimoiy tuzumni tanlab oladi. Davlatning ma'rifat tizimi jamiyat tanlab olgan tuzumning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bizning bugungi maorif tizimimiz demokratik davlat va bozor munosabatlariga asoslangan bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov birinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisining birinchi ssesiyasida qilgan ma'ruzasida hur O'zbekistonda Demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini aytgan edi. Bu fikrlarni Prezidentimiz keyingi chiqishlarida ham bir necha bor ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tarixiy o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish va kadrlar masalasini

O'zbekistonning XXI asrda rivojlanishining eng ustivor yo'nalishlardan biri sifatida olq'a suradi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotganlar tafakkuri, ahloqi yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirishga va moddiy ne'matlar yaratishga astoydil yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga ega bo'lgan insonni tarbiyalash ta'lim-tarbiya tizimi zimmasiga yuklatilgan.

Yaqin o'tmishimizdagi «sovet pedagogikasi»ning ta'lim-tarbiya berish usullari barcha odamlar bir xil qobiliyatga, bir xil dunyoqarashga, bir xil ehtiyojga ega, degan ijtimoiy hayot qonuniyatiga zid, «taqlid qilish» usuliga asoslangan edi. Shu bilan birgalikda, o'qishga hammani jalb qilish maqsadida didaktikaning olti qoidasi bo'lgan diqqat qildirish tamoyiliga zid holda o'qitishga harakat qilindi. Vaholanki, pedagogika ilmi va amaliyotining ma'lumotiga qaraganda, o'qituvchi talabalar diqqatini o'ziga qaratib, uni dars oxirigacha saqlab turish uchun sinfdagi bolalar soni 15-20 dan oshmasligi kerak ekan. Aks holda, darslarni ijro bo'lmasligiga, yosh avlodni esa, «maktabga borib keluvchilar», «bitiruvchilar» va «hech narsani bilmaydigan» kishilar toifasiga aylantira boradi.

Undan tashqari, «kommunizm kishisi» andozasidan kelib chiqib, hammani birday tezkorlik bilan bilimdon qilib tarbiyalash maqsadida o'qishning har bir bosqichida haddan tashqari ko'p fanlar kiritilib, hatto o'rtacha qobiliyatga ega bo'lgan bola ham bilimini qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Natijada o'quvchi va talabalar me'yoridan ancha ko'p axborotni ongiga siq'dira olmasdan, bora-bora o'qishga loqayd munosabatda bo'la boshlaganlar. Berilayotgan bilimni to'liq egallayman, degan tirishqoq bolalar bu bilimlarni faqat taqlid usuli orqali yod olib ulgurishgan, xolos. Mexanik ravishda yod olingan bilim turq'un bo'lmay, bola xotirasidan tez o'chib ketadi.

Shu bilan birgalikda «sovet pedagogikasi» o'ta mafkuralashtirilgan bo'lib, faqat materialistik dunyoqarash, sinfiy qarama qarshilik, milliy va hududiy xususiyatlarni hisobga olmaslik va hokazolar barcha fanlar, shu jumladan pedagogika fani maq'iz-maq'ziga singdirilgan edi. Bunday jonsiz nazariy pedagogik adabiyotlarni tubdan qayta ko'rib chiqib, milliy istiqbol mafkurasi va XXI asrdagi O'zbekiston taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, jahon ilq'or pedagogik fikrlari asosida milliy pedagogika dastur va darsliklarini yaratish zarur.

Milliy pedagogika deganda davlat konstitutsiyasi, ta'lim to'q'risidagi qonun hamda istiqbol rivojlanish dasturlari, jamiyatning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari va jahondagi ilq'or pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan ta'lim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublar majmui tushiniladi.

Har qanday davlatdan yuqori taraqqiyot darajasiga erishish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning ustivorligini ta'minlash, mavjud tabiiy, iqtisodiy va inson resurslarini ishga solish va eng asosiysi odamlar ma'naviyatini zamon talabiga javob beradigan tarzda shakllantirish talab etiladi.

Ma'naviyat – bu shaxsning egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'iy nazar) uning hayotida bir necha bor takrorlanishi natijasida ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tib, ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan ijobiy ijtimoiy sifatlaridir. Demak, ma'naviyat, axloq va odob madaniyati, dunyoni ilmiy

bilish ma'naviyati, texnik ma'naviyat, kasbiy ma'naviyat va boshqalar. Axloq va odob ma'naviyati inson ijtimoiy mohiyatining eng ustki qobiq'ini tashkil qiladi. Shuning uchun ba'zilar ma'naviyatini kishining axloq va odobiga oid bilimlarining hayotda aks etishi, deb tushuniladi. Bu ma'naviyatni tor ma'noda tushunishdir.

Kishi bilimni qanchalik chuqur egallagan bo'lsa hamda bu bilimlarni amaliyotda qanchalikko'p qo'llagan bo'lsa, uning ma'naviyati shunchalik boy va mukammal bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay oladi, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda».

O'zbekiston xalqi asriy orzusi – mustaqillikka erishib, barqaror taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Endilikda xalqimiz o'z taqdirining haqiqiy egasi, o'z tarixining ijodkori, milliy ma'naviyat va qadriyatlarning chinakam sohibiga aylanmoqda. Milliy ana'nalar, dinimiz, tariximiz qaytadan tiklanmoqda, o'zligimizni tobora chuqur anglab yetmoqdamiz.

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyat maorifchiligi oldiga xalq xo'jaligi uchun zamonaviy va yuqori malakali kadrlarni tayyorlab berishdek ijtimoiy buyurtmani ko'ngdalang qilib qo'ygan.

Respublikamizda yuqori malakali va ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalab yetishtirish maqsadida bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar yaratilgan.

Prezidentimiz «Ta'lim to'q'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni tahlil qilar ekan, ta'lim-tarbiya islohotini bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga muvofiq, deb ta'kidlagandi. Birinchi bosqich o'tish davri bo'lib, uni 1997-2001 yillarda amalga oshirish rejalashtirilgan. Ikkinchi bosqich 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib, bunda Milliy dasturni keng miqyosda amalga oshirish mo'ljallangan. Va, nihoyat, uchinchi bosqich 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, bu bosqichda to'plangan tajribalarni tahlil etishg va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Prezidentimiz Milliy dasturni sharhlar ekan, kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko'rsatishning asosiy tamoyillarini amalga oshirish vazifalarini sanab o'tdi. Bularga:

barcha xil va turdagi ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini joriy etish va ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish;

ixtisoslar, malaka darajasiga ko'ra mutaxassilarga ega bo'lgan umumdavlat va mintaqaviy talablarning istiqbolini aniqlash;

ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloh qilish uchun o'qituvchilarni va murabbiylarni qayta tayyorlash;

davlat va ijtimoiy muassasalarning kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish. Bunda kasb tanlashning bozor ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur, toki har bir shaxs o'ziga mos kasbni egallay olsin;

o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat,

mehnatga vijdonana munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

ta'lim muassasalarini, birinchi navbatda umumiy ta'lim maktablarini davlat tomonidan moliyaviy va moddiy-texnikaviy to'liq ta'minlash me'yorlarini oshirish va uning mexanizmini takomillashtirish;

kadrlar tayyorlash tizimi iste'molchilari – korxonalar, muassasalar, firmalar, hissadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa tuzilmalarning imkoniyatlaridan, birinchi navbatda, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari va oliy o'quv yurtlarining moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun mumkin qadar kengroq foydalanish;

kadrlar tayyorlash va ta'lim sohasiga chet el sarmoyalari, xalqaro donorlik tashkilotlari va jamq'armalarning mablaq'larini jalb etish;

qonun doirasida o'quv rejalari, dasturlari va o'qitish yo'riqlari, ta'limiy xizmatlarni belgilashda ta'lim muassasalariga, birinchi navbatda, oliy o'quv yurtlariga mustaqillik berish va o'zini-o'zi boshqarish usullarini joriy etish.


Shundan so'ng, Prezidentimiz ta'lim-tarbiya sohasining asosiy bo'q'ini hisoblanagan uzluksiz ta'lim bosqichlarini batafsil tavsiflab berdi, kadrlar tayyorlashning bu dasturini amalga oshirishning murakkab tomonlarini ko'rsatdi. Prezidentimiz aniqlab berganidek, dasturni amalga oshirishning eng murakkab tomoni o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmunini belgilash, ularni maxsus dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash masalasidir. Ushbu darslik bundan oldin chop etilgan o'quv dasturi bilan birgalikda ma'lum darajada bu muammoni hal qilishga yo'naltirilgan. Dasturda belgilab qo'yilgan vazifalarni ro'yobga chiqarishda yangi tarkib topayotgan milliy pedagogika ilm-fani yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki mustaqil fikr yurituvchi, o'z sohasining bilimdoni, baynalmilal va demokratik dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni faqat milliy pedagogika yordamida tarbiyalash mumkin.

Yangi shakllanib kelayotgan milliy pedagogika fanining vazifasi. Respublikamizda va boshqa mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogikaga oid maqola, risola va monografik asarlarni yiq'ish, ularni jahon pedagogika fani to'plagan umumiy tamoyillar ko'rigidan o'tkazish, so'ng ularni yana bir bor sinovdan o'tkazib, milliy pedagogika nazariyasini yaratib berish hamda shu nazariyadan kelib chiqib Markaziy Osiyo hududiga mos ta'lim va tarbiya berish usul va uslublarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Pedagogika fanining fazifalaridan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin: Pedagogika fani, deb ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni mushtarak holda jamlab, ularni saralab, sinovdan o'tkazuvchi va bir tartibga keltiruvchi, ularni boshqalarga o'rgatuvchi inson faoliyat turiga aytiladi.

Pedagogika fanining birinchi vazifasi butun dunyodagi ma'rifat sohasiga tegishli bilimlarni to'plab, ularni didaktika ko'rigidan o'tkazish. Didaktika ko'rigidan o'tkazish deganda, pedagogikaga tegishli maqola, risola va yirik asarlar mazmuni va mohiyatini didaktika tamoyilidagi talablarga solishtirib ko'rishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chop etilayotgan pedagogikaga oid asarlarning 7-10 foizi didaktikaning tamoyillariga to'q'ri kelar ekan. Shuning uchun pedagogika fanining birinchi vazifasi nashrdan chiqqan pedagogikaga oid asarlarni didaktika tamoyillariga taqqoslab, tahlil qilishdir. Amaliyotchi – o'qituvchi va

pedagoglarning vazifasi esa pedagogik adabiyotlarni o'z faoliyatida ko'r-ko'rona qo'llayvermasdan, ularga tanqidiy yondoshib, didaktika tahlilidan o'tkazib qo'llashdan iboratdir.



Pedagogika fanining ikkinchi vazifasi, muayyan asar didaktikaning barcha tamoyillariga mos kelishligi ma'lum bo'lgandan keyin, uning mahalliy sharoitga to'q'ri kelish-kelmasligini aniqlashdir. Chunki, har qanday ijtimoiy voqeilikda, shu jumladan ta'lim-tarbiya jarayonida ham, hukm suruvchi qonuniyatlar ma'lum bir ijtimoiy sharoitning ob'ektiv borliq'ini qanchalik to'la ifoda etgan bo'lishiga qaramay, boshqa ijtimoiy sharoitga to'q'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham maorifchi olimlar, o'z hududidan tashqarida pedagogikaning hamma qonuniyatlariga asoslanib yaratilgan ta'lim-tarbiya usul va uslublarini o'z hududida qaytadan sinab ko'rishlari shart. Aks holda chetdan keltirilgan usul va uslublarni pedagogik samara beradi, deb qo'llansa, kutilgan ijtimoiy natijani bermasligi mumkin. Yaqin o'tmishimizda bunga misollar juda ko'p. Lipetsk usuli, Amonashvili, Shatalov usullarini qo'llaymiz deb, hech qanday natijalarga erishilmadi. Chunki ular boshqa hudud sharoitlarida shakllangan usullar edi.

Pedagogika fanining uchinchi va asosiy vazifasi pedagogik sohada asrlar davomida to'plangan bilimlarni dars berishning ma'lum usuli va uslublari yordamida, tasdiqlangan reja va dasturlar asosida o'qituvchilarga berish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatishdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. 287-297-b.
5. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,
6. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

7. Hoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995 y.
8. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O‘qituvchi, 1994 y.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Xalq pedagogikasi fan sifatida.
2. Xalq pedagogikasini o‘rganish zaruriyati.
3. Milliy pedagogikaning tarixiy rivojlanish bosqichlari.
4. Eng qadimgi tarixiy yodgorliklar.

Muhim tayanch atamalar

National pedagogi- Notsionalnaya pedagogika-Xalq pedagogikasi. Xalqning boy ta’lim- tarbiya borasidagi tajribalari, mutafakkirlarning ilg‘or pedagogik g‘oyalari hamda diniy manbalar ta’lim-tarbiya borasidagi g‘oyalarini qamrab oladi.

Education- Vospitanie-Tarbiya. Ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

A cultural and educational-Kulturno-vospitatelno’y- Madaniy-tarbiyaviy. Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloq’iy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qaramurlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy va ma’naviy boyliklarni yoshlar ongiga singdirish.

Avesta- Avesta- Avesto. “Ogohnoma”, “Donishnoma” ma’nolarini ifodalaydi. U zardushtiylk dinining muqaddas kitobi.

Nazorat savollari

1. Xalq pedagogikasi tushunchasigi ta’rif bering.
2. Fanni o‘rganish zaruriyati.
3. Inson tarbiyasida milliy tarbiyaning o‘rni.
4. Milliy pedagogika tushunchasiga izoh bering.

“Xalq pedagogikasi” fanidan 1-mavzu uchun test savollari

1. **Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosi- bu...**
 - a) bilib, ko’nikma va malaka;
 - b) yangi pedagogik texnologiyalar, AKT, interfaol metodlar;
 - c) *Ajdodlarimizning pedagogikaga oid asarlari, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy” dasturi.
 - d) dars, mashg’ulot, seminar, konferentsiya, forum.

2. “Muallimi soniy” tahallusini olgan buyuk SHarq qomusiy olim kim?

- a) Yusuf Xos Xojib;
- b)* Abu Nasr Farobiy;
- c) Alisher Navoiy;
- d) Abdulla Avloniy.

3. Quyidagi javoblardan milliy pedagogikaga berilgan to’g’ri tahrif berilgan javobni toping.

- a) jamiyatdagi sog’lom avlodni tarbiyalash haqidagi fan;
- b) yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan;
- c) sog’lom avlodni tarbiyalashning qonununiyatlarini o’rganadigan fan;
- d) har tomonlama rivojlangan sog’lom, barkamol avlodni o’qitish, tarbiyalash, ma’lumotli qilish va uning qonuniyatlarini o’rganadigan fan .

4. SHarq pedagogikasida xozirgi davrgacha o’z dolzarbligini yo’qotmagan milliy metodlar qaysilar?

- a)* tushuntirish, namuna, rag’batlantirish, jazolash;
- b) so’zlash, tushuntirish, ko’rgazma;
- c) “Aqliy hujum”, “CHarxpalak”;
- d) sayohat, tushuntirish, baholash.

5. SHarqda Ta’lim-tarbiyaning ilk tizimi qaysi asarda berilgan?

- a) “Fozil odamlar shahri”;
- b) “Qobusnoma”;
- c) * “Avesto”;
- d) “Mahbub-ul-qulub”.

2- mavzu: Xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari.

Reja:

1. Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning bayon etilishi.
2. Qadimgi mi’lflarda bayon etilgan pedagogik fikrlar.
3. Qadimgi turkiy etnopedagogika manbalarida komil inson tarbiyaviy sifatlarining talqini.
4. O’zbek xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot yo’li.

Tayanch iboralar: pedagogik tasavvurlar, etnopedagogika, pedagogik fikrlar, komil inson.

1-masala. Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning bayon etilishi

Xalq pedagogikasi – xalq ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shunday ekan Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti ham mahalliy xalq ma’naviy madaniyatining o’sishi bilan bog’liqdir. Xalq pedagogikasining rivoji esa nazariy pedagogika ilmi taraqqiyoti bilan bevosita bog’liq. Biz ushbu holni Markaziy osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti misolida ko’rishimiz mumkin.

Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Xorazmiy, Dehlaviy, Xayyom, Navoiy, Forobiy, Sa'diy, Nosir Xisrav va boshqa mutafakkirlar ilmiy merosi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning pedagogik qarashlari bevosita xalq pedagogikasi manbalari tizimi: maqollar, matallar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mantiqiga mos keladi. Ayni paytda ko'plab rivoyatlar va ertaklar mazkur mutafakkirlarning hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liq holda vujudga kelgan. Demak, Markaziy Osiyoda ham xalq pedagogikasining ijodkori, yaratuvchisi xalq ommasidir. Uning paydo bo'lishida mehnat hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mehnat jarayonida odamlar samaradorlikni g'oyat oshiruvchi g'aroyib mashinalar haqida orzu qilganlar: "uchar gilam" lar, "uchar ot" lar, "oynai jahon" lar, "chopqir etik" lar, "sehrli dasturxon", "ur to'qmoq" larni orzu qilganlar. Chunki, ibtidoiy ishlab chiqarish usullari, darajasi kishilarni qoniqtirmagan. Ular bir kechada ko'plab mato to'qishni, bir lahzada uzoqlarga borishni orzu qilib, otga minishni, qayiqda suzishni, himoyaga bardoshli qasrlar qurishni, kamon otishni, to'quv dastgohlari, charx yasashni o'rganganlar.

Mehnat turli tarmoqlarga bo'lina borib, so'z san'ati xilma – xil xarakter kasb eta borgan. Og'zaki so'z paydo bo'lganida ibtidoiy odam so'zning magik (ilohiy) qudratiga sig'inar va o'z mehnati samarasini unga bog'lar edi. Oqibatda so'z bilan marosim bog'lana borib, so'zda u yoki bu marosim mohiyati ifoda etila boshlandi.

Jamiyat taraqqiy etgani sari ommani itoatkorlikka chorlovchi, diniy ruhdagi asarlar paydo bo'la boshladi. Ko'pincha, etnopedagogik asarlarda zulm va yovuz kuchlar ustidan g'alaba qiluvchi, komil shaxs darajasiga ko'tarilgan qahramonlarni tasvirlash kuchaydi. Ularda eng oliy insoniy (tarbiyaviy) sifatlar: ilm egallash, kasb-hunar o'rganishga undaydi. Adolatli jamiyat va odil hukmdorlar orzu qilindi. Vatanparvarlik, ma'naviy va jismoniy komillik, halollik va adolat, insonparvarlik, do'stlik g'oyalari targ'ib etildi.

Xalq pedagogikasi asarlarida xalq ideal darajadagi fazilatlar sohibi bo'lib, barcha yaxshi va yomon tarbiyaviy sifatlarni ko'ra biladi. Shuning uchun u eng barkamol, ommani ergashtira oluvchi qahramonlarnigina tan oladi. Shuning uchun ularda ijobiy qahramonlar tipiklashtiriladi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li, Avaz, Ravshanxon, Nasriddin afandi, Aldar ko'sa va boshqalarda yuksak tarbiyaviy sifatlar mujassamlashgan. Dostonlarda qahramon va uning dushmani, ertaklarda dono dehqon va zolim boy, o'gay ona va jafokash qiz kabi obrazlarda xalqona kamtarlik va hukmrona takabburlik zuhr etilgan.

Xalqning yuqorida qayd etilgan azaliy orzu-umidlari aks etgan etnopedagogika manbalari vositasida buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari ham shakllangan. Chunonchi, Ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil" asaridagi "Maktabda bolalarni o'qitish va tarbiyalash" deb nomlangan bobida umumta'lim g'oyasi olg'a suradi. Ta'limda suhbat metodini qo'llashni, aqliy mashg'ulotni jismoniy mashg'ulotlar bilan almashib turishni tavsiya etadi. Jamoada o'qitish afzalliklarini uqtiradi. Bunday ilg'or pedagogik fikrlarni Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Sa'diy, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom, Burxoniddin Zarnudjiy, Ahmad Yugnakiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shakl va mazmuniga ko'ra xalqning

pedagogik donishmandligi bilan uyg'unlashib ketgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Demak, xalq pedagogik g'oyalari buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari bilan hamohang shakllanib, ular bir-birini takomillashtirib, boyitib borgan. Donishmandlar asarlarida xalqning amaliy pedagogikaga doir fikrlari ilmiy pedagogik tusga kira borgan. Shu taxlitda pedagogika ilmi takomillasha borgan.

2-masala. Qadimgi miflarda bayon etilgan pedagogik fikrlar

Porloq kelajakka umid ko'zi bilan boqqan ajdodlarimiz inson qobiliyati va qudratini ideallashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Mifologik obrazlarning ilk namunalari qadimiy mif va afsonalarda o'z aksini topgan.

Mif grekcha "myfhos"-so'z, rivoyat so'zidan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to'qima afsonalardir. Mifologiya - miflarni o'rganuvchi fan bo'lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi (bo'ron, sel, zilzila, dovul...) tufayli ularga qarshi kurasha oluvchi g'ayritabiiy obrazlar yaratishga ehtiyoj tugilgan. Natijada yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo'lgan. Olam haqidagi bunday ibtidoiy miflar ta'sirida osmon, oy, quyosh va turli hayvonlar, xudolar, g'ayritabiiy pahlavonlar haqidagi miflar vujudga keldi. Hayvonlar va tabiat stixiyalariga qarshi kurashga qaratilgan (so'z kuchi, afsun "avrash" vositasida ularga ta'sir etish tufayli, yovuz kuchlarga teng keladigan qurol inson ixtiyorida bo'lmagan bir paytda) miflar yaratildi. Ko'rinib turibdiki, miflar insonga osoyishta yashash, yovuz kuchlarni yengishga ko'maklashuvchi orzular ifodasidir.

Miflarda yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xudbinlik, yorug'lik va zulmat orasidagi kurash jarayoni tasvirlanadi. Komil insonlar hamisha yaxshilik, go'zallik, yorug'likning tantana qilishi ko'maklashadi. Aniqroq aytilganda, miflarni o'qigan o'quvchi ijobiy qahramonlarning tarafdoriga aylanadi. "Avesto" da yaxshilik – Axura Mazda, yomonlik – Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Kitob g'oyasiga ko'ra barcha hodisalar (tabiat va jamiyatdagi) ana shu ikki yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqadi.

Mitra – quyosh va yorug'lik xudosi, Noxit – obodonlik, farovonlik xudosi, Xumo – baxt, tole xudosi va boshqa yaxshilik tantanasiga ko'maklashadi. Yomonlik kuchlari: ajdar, dev, jin, yalmog'iz va boshqa mifologik obrazlarda tasvirlangan. Shuningdek, Kayumars va Jamshid haqidagi miflar ham O'rta Osiyoda qadimdan tarqalgan. Uning turli variantlari mavjud ("Avesto" da, "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar" da, "SHohnoma" da va b.) Kayumars "G'iyosul lug'at" da Govmard (inson - buqa) deb ta'riflanib, Amudaryo bo'yida yashagan, bo'yi daryoning narigi betiga yetgan va hokazo

Miflardagi ijobiy obrazlar xalq manfaati uchun, adolat, go'zallik uchun kurashadi. Kishilarga hayotda, kurashda yordam beradi. Ularga oliy insoniy sifatlarda o'rnak ko'rsatadi, kasb-kor o'rgatadi. Demak, miflarda xalq ommasining ilk pedagogik tafakkuri o'z ifodasini topgan, deyish mumkin.

Jamshid haqidagi mif O'rta Osiyo va Eronda keng tarqalgan bo'lib, unda Jamshid najotkor qahramon sifatida ko'rsatilgan ("Avesto" da).

Jamshid adolatli podsho bo'lib, uning ming yillik shohlik davrida qahraton sovuq, jazirama issiq, kasalliklar va o'lim kamaya borgan. Uning yerida mollar va odamlar ko'paya borgach, u yerni uch marta ko'paytiradi, chorva va qushlarni ham ko'paytiradi. Ammo, to'satdan qahraton qish, toshqin boshlanadi. Odamlarni qutqarish uchun Jamshid (yima) ariqlar ochadi. Bu afsona A. Navoiyning "Mulki Ajam", Firdavsiyning "SHohnoma" asarlarida tasvirlangan. Bunday mifologik obrazlar keyinchalik ertak va dostonlarda rivojlantirildi.

"Odami Od" hikoyasida Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan usta yordamida chinordan kema yasatib, odamlarni kemaga o'tqazib, o'zi kemani torta ketibdi ("Od" – fors-tojikcha "ulkan odam"). "Er Xubbi" mifi ham insonga g'amxo'rlik timsolidagi etnopedagogik asardir. U Xorazm va Farg'onada keng tarqalgan. Xubbi insonparvar, daryoning hokimi, Amudaryoda 700 yil yashagan va bu davrda daryoga jinlar yaqinlasha olmagan. Jamshid taxtga o'tirishi bilan u dom-daraksiz g'oyib bo'lgan. Bundan Xubbinin opasi aza tutgan, u bilan birga daryo, tog'u-toshlar, qushlar, hayvonlar, odamlar, osmonda farishtalar, yer ostida devlar yig'lagan. Ular Xubbi tirik, qiyomatgacha yashaydi, deb tasavvur qilganlar.

"To'maris", "SHiroq" rivoyatlari, Rustam haqidagi epos, qadimgi qo'shiqlarda ham yuksak tarbiyaviy sifatlar targ'ib etilgan. Ularda kishilar yaxshilik qilishga, xushxulq bo'lishga, yomon odatlardan xalos bo'lishga chorlangan. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" da quyidagi pedagogik g'oyalar madh etiladi:

***Boqmas jahon sovuq so'z,
SHilqim, yuzsiz, baxilga.
Yoqimli bo'l, xushxulq bo'l,
Qolsin noming ko'p yilga ...
Ov qushlarin ushlashib,
Tulki, to'ng'iz tishlashib.
Itlarimiz ishlatib,
Hunar bilan gerdaydik.***

Yoki qish – yozning kamchiliklarini shunday ochadi:

***Senda barcha yomonlar,
Chivin, pashsha ilonlar.
Du mi gajak chayonlar,
Hamla qilib yugurishar.***

Yoz qishga deydi:

***Sendan sa'valar ketar,
Bulbullar sayrab qo'nar.
Menda qaldirg'och tunar,
Naru - moda uchrashur ...***

3-masala. Qadimgi turkiy etnopedagogika manbalarida komil inson tarbiyaviy sifatleri talqini

Biz oldingi bandda turkiy etnopedagogika manbalari jumlasiga kiruvchi qadimgi miflarda pedagogik fikrlar qay tarzda targ'ib etilganligini yoritishga harakat qildik. Garchi, mazkur miflarda g'ayriinsoniy qiyofalar timsolidagi qahramonlar tarbiyaviy sifatlariga doir fikrlar ushbu bandga ham aloqador bo'lsada, biz bu bandda yoritish ko'zda tutilgan muammoni etnopedagogikaning boshqa janrlari – dostonlar, maqol va matallar, hikmatli so'zlar misolida buyuk ajdodlarimiz pedagogik qarashlariga tayangan holda yoritamiz.

Xalq pedagogikasining bosh ob'ekti – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidir. Shuning uchun xalq tarbiyaning mohiyatini qanday tushunishi, tarbiya jarayonida qanday metod va usullardan foydalanishi, tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini qanday talqin etishi haqidagi masalalar qiziqarlidir. Shuningdek, xalq asrlar davomida to'plangan, ilmiy-pedagogik tushunchalar bilan boyib borgan bilimlarni oilaviy tarbiyaga qanday tadbiiq etganligini ham tahlil etish zarur.

Xalq hamisha yosh avlod tarbiyasi mohiyatini to'g'ri talqin etgan. Bu yo'ldagi qiyinchiliklar va quvonchlarni, uning bebaho ish ekanligini to'g'ri anglab yetgan. Shuning uchun: “Tarbiya – bebaho boylik” deganlar. Turkmanlar: “Bola-aziz, odobi undan aziz” desalar, o'zbeklar: “Aql bahosiz, tarbiya esa chegarasiz” deb bejiz aytmagan. Chunki tarbiya jarayoni tarkibiga ko'plab yo'nalishlar kiradi. Ammo, bunda eng muhim yo'nalishni aqliy tarbiya tashkil etadi. Shuningdek, tarbiya jarayoni g'oyat murakkab ish, u alohida e'tibor, bilim va malakani talab etadi. Xalq inson tarbiyasini ona qornidayoq boshlash zarurligini allaqachon anglab yetgan. Agar bola tarbiyasida vaqt o'tkazib qo'yilgan bo'lsa, yoki tarbiya noto'g'ri olib borilgan bo'lsa, qayta tarbiyalash zarurligi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan.

Xalq pedagogikasi manbalarida bola tarbiyaviy sifatlarining shakllanishi bevosita ota-onaga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlangan. Chunonchi: “Bolaning qadami oiladan boshlanadi”, “Yomon o'g'il uchun ona, yomon nabira uchun buvi javobgar”, “Sababi otada, natijasi bolada”, kabi maqollar shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rnini yuqori baholab, “Tadbiri manozil” asarida: “Agar oila tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalansa, u hayotda baxtga erishadi. Oilada bosh tarbiyachi – otadir, onaning yumshoq ko'ngilliligi bola xarakterini buzadi”, - deydi.

Xalq bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ham hayratlanarli darajada to'g'ri tushunadi. Shuning uchun yomon xislatli bolalar muhiti bola tarbiyasini buzib qo'yishi mumkinligi quyidagiga takidlanadi: “qovun-qovundan rang oladi”, “Oriyatsiz odamdan qoch!” “Yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang yetarsan murodga”, “Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqor” kabilar. Shuning uchun Ibn sino pedagogik jarayonni yaxshi xulqli bolalar jamoasida olib borishni tavsiya etib: “Barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini jamoada olib borish zarur. Chunki bolalar jamoa muhitida do'stlashadilar, bir-birlarini hurmat qilishni o'rganadilar, yaxshi xislatlarni ham bir-birlaridan o'rgandilar”-degan edi. (“Tadbiri monozil” asaridan).

Bola tarbiyasida yomon tomonga og'ish yuz berishi ham mumkinligini to'g'ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: “Buyumni suv bilan, insonni o'rgatish bilan tozalashadi”. Lekin, Rudakiy

ta'kidlaydiki: "Agar kim olmasa hayotdan ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim". Yoki: "Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo'q.", "Toptalgan o'tloqda ham gul unadi" va boshqalar shular jumlasidandir.

Muslihiddin Shayx Sa'diy bolani oilada yoshlikdan tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolani yoshligida istalgan maqsad yo'nalishida tarbiyalash mumkin. Chunki, bola yoshligida ho'l novda singari tarbiyaviy ta'sirga tez beriladi. Shuning uchun: "Ho'l novda egilar qay holda egsang, qurigach to'g'rilar uni o't-otash,"-deydi Shuningdek, u hatto: "Temirchining bolasi o'qisa bulur olim"-deb ta'kidlaydi. Xalq pedagogikasi manbalarida ta'kidlanganidek: "Bir otaning bolalari ham har xil bo'ladi", "Beshta barmoq teng emas" kabi maqollar mazmuniga tayanab ish ko'rgan.

Xalq pedagogikasida tarbiya jarayonida uning mezonlariga amal qilish lozimligi ko'rsatib o'tilgan, kattalarning o'rnak bo'lishi, o'z-o'zini tarbiyalash singari metodlar ham e'tibordan chetda qolmagan. Shuningdek, tarbiyada bolaning ruhiy va yosh xususiyatlari ham inobatga olingan: jumladan: "Bola tarbiyasini beshikdaligidan, buzoqnikini qoziqdaligidan boshla!,-" maqoli ushbu fikrning isboti bo'la oladi.

4-masala. O'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'li

Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklor asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devoni lug'otit turk" asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g'oyalar targ'ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha yetib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallashib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo'shiqlar paydo bo'lgan.

Demak, o'zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Qadimiy etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida yetib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o'zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqlar, qo'shiqlardan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoda feodalizm davri (XI-XX asr boshigacha) g'oyat ziddiyatli taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davr xususiyatlari etnopedagogika manbalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo bu davrga xos ma'lumotlar bizgacha to'la yetib kelmagan. Mavjud taraqqiotlarda ko'rsatilishicha, eng qadimgi davrlarda miflar, rivoyatlar, aytimlar, mehnat va marosim qo'shiqlarida pedagogik fikrlar targ'ib etilgan. Ayniqsa, dostonchilik vujudga kelgach, kishilar ularda madh etiluvchi

qahramonlarning tarbiyaviy sifatlaridan ruhiy madad, zavq olganlar. Yoshlar halollik, ma'naviy va jismoniy yetuklik timsolini his etganlar. Etnopedagogika manbalarining ilk yozma nusxasi O'rta Osiyoda XII asrda ("Abu Muslim" kitobi) yozilgan. XIV asrda Amir Temur o'z g'olibona yurishlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan.

Manbalarda o'zbek dostonchiligining ilk bo'g'ini Ergash Jumanbulbul o'g'lining yetti ota-bobosi (XVI asr) aytgan dostonlarga borib taqalishi ta'kidlangan.

XVII-XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida gullagan davr bo'ldi. Bu davrda "CHambil qamali", "Rayhon arab", "Tulumbiy", "SHayboniyxon", "To'lg'anoy" singari vatanparvarlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, aqliy va jismoniy komillikni madh etuvchi asarlar, shu ruhdagi maqollar, matallar, xalq qo'shiqlari yuzaga keldi.

Rusiya bosqinchiligi davrida xalq ommasi boshiga tushgan beadam azob uqubatlar XIX asr etnopedagogika namunalarida o'z aksini topdi. Jumladan:

***Non tishlatdim bolamga, mardikordan qaytsin deb,
Zolimlarni qarg'adim, Ilohi, yer yutsin, deb.***

Yoki; mahalliy xalqning bosqinchilarga nisbatan nafrati quyidagi qo'shiqda yanada kuchliroq ko'zga tashlanadi.

***So'k oshini ichmayman, Hech haqimdan kechmayman.
Etigimni yechmayman, Mardikorga olgan Nikolayni
Qorda qarag'ay kesganman, Taxtdan yiqitmay qo'ymayman.***

SHuningdek, zulmkor mahalliy hukmdorlarga nisbatan nafrat ruhini ug'otuvchi quyidagi qo'shiqlar ham e'tiborga loyiqdir:

***Isfandiyor zolimliging bildirding,
Non o'rniga kunjarani yedirding, ...
Haddan oshding, zolim, yoning so'kilsin,
Boshing kesilsinu, qoning to'qilsin! va boshqalar.***

Ko'rinib turibdiki, XX asr arafasida tarixiy qo'shiqlarga ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash ruhi kirib kela boshlagan. Bosqinchilik va zulmga nisbatan nafrat ruhi targ'ib etilgan, milliy ozodlik orzusi vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuchaya borgan.

SHo'rolar tuzumi davrida etnopedagogika manbalarini to'plash, yozib olish, nashr etishga etibor kuchaygan bo'lsada, mavjud tuzum ruhiga mos kelmagan manbalarni o'qish, ulardan foydalanish o'tmish va din sarkiti nomi bilan taqiqlab qo'yildi.

Faqat milliy istiqlol tufayli xalq pedagogikasi manbalaridan keng miqyosda foydalanish imkoniyati tug'ildi. Xalqning madaniy merosini, tarixiy haqiqatni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Biroq, etnopedagogika Respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g'oyat boy tarixiy taraqqiyot yo'lini ilmiy pedagogik jihatdan puxta o'rganish va tizimga solish ishlari o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "O'zbekiston", 1998.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov va b.. Toshkent, "SHarq", 1998.
3. O'zbekistonning milliy istiqlool mafkurasi. Toshkent, "O'zbekiston", 1993. -110 b.
4. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 1996.
5. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi-mualliflar: M. Xayrullaev va b.. Toshkent, "FAN", 1997.
6. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. Moskva, "Prosveshenie". 1991.
7. Ubaydullaev S. Pedagogika kursini o'rganishda o'zbek xalq pedagogikasi ashyolaridan foydalanish. Toshkent, "O'qituvchi", 1983.
8. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,
9. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

2-mavzuga oid muhim tayanch atamalar

Perfest man- idealno'y chelovek- komil inson–“Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot”.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Sulture-kultura-madaniyat-insonning egallagan bilimlari va xosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning bayon etilishi.
2. Komil inson tarbiyasi.
3. O'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'li.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning bayon etilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi miflarda pedagogik fikrlar qanday bayon etilgan?
3. Komil inson qanday inson?
4. O'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'li haqida gapirib bering.

Test savollari

1. O'zbek xalq pedagogikasi deganda nimani tushunasiz?

- a) xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq kishilar qilib yetishtirishdagi g'oyalari;
- b) ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidan iboratdir.

s) muayyan bir xalqqa mansub bo'lgan xalq pedagogikasi mazmuni, xususiyatlari;

d) xalq og'zaki ijodi namunalari;

ye) a va b.

2. O'zbek xalq pedagogikasi qanday shaklda mujassamlashgan?

a) dostonlar, ertaklar, asotirlar, askiyalar;

b) latifalar, qo'shiqlar, naqlar, rivoyatlar;

s) afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar;

d) topishmoqlar, tez aytimlar, o'yinlar, erkalashlar va h.k.;

ye) a, b, s, d.

3. O'zbek xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar

a) insonparvarlik, saxovatlilik, poklik, to'g'ri so'zlik;

b) haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, tinchliksevarlik;

s) baynalmilallik, vatanparvarlik, yaxshi qo'shnichilik;

d) yosh avlodni aqliy va mehnatsevarlik ruhida barkamol inson qilib tarbiyalashdir;

ye) a, b, s.

4. "Avesto" singari qaysi muqaddas kitoblar uzoq asrlar mobaynida ta'lim-tarbiya manbai bo'lib xizmat qilgan?

a) "Injil";

b) "Tavrot";

s) "Rigveda", "Shashtra";

d) "Qur'oni Karim";

ye) a, b, s, d.

5. "Avesto" dagi "...ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal" qanday fazilatlarni shakllantirishda dasturilamal vazifasini o'tagan?

a) fikrlar sofliqi;

b) so'zning sobitligi;

s) amallarning insoniyligi;

d) xayrli ishlarni qilish;

ye) a, b, s.

6. Sparta va Afina usulidagi ta'lim-tarbiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini nimadan iborat?

a) spartaliklar bolalarni 7 yoshgacha uyda tarbiyalay;

b) keyin "agella" deb ataluvchi tarbiya muassasiga topshirar, 18-20 yoshdan "efebalar" guruhiga o'tkazilar;

s) afinaliklar bolalarni 7 yoshgacha uyda tarbiyalay, keyin 7 yoshdan 14 yoshgacha "grammatist" va "kifarist", keyin esa "polestra" maktablarida o'qitishadi;

d) "gimnasiy" maktabida o'qishni davom ettiradi;

ye) a, b, s, d.

7. “Tarbiya davlat tomonidan tashkil etilmog‘i vahukmron guruhlarining ... manfaatlarini ko‘zlamog‘i lozim” degan nazariyani qaysi mutafakkir ilgari surgan edi?

- a) Sokrat;
- b) Demokrit;
- s) Platon;
- d) Arastu;
- ye) Ptolemey.

8. “Ulug‘ dao hamma yoqqa qarab oqadi... U tufayli jami mavjudot tug‘iladi, bu mavjudot hamisha o‘zgarishda bo‘lib bir joyda to‘xtab qolmaydi” degan ta’limot qaysi mutaffakkir tomonidan ilgari surilgan?

- a) Lao-szi;
- b) Kun Futszi;
- s) Konszu;
- d) Kun Chjunni;
- ye) Konfutsiy.v

3-4mavzular: Sharqda ilk uyg‘onish davrida movarounnaxr mutafakirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari

Reja

1. Sharq ilk uyg‘onish davri.
2. Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari.
3. Forobiy ta’lim va tarbiyaga oid g‘oyalari.
4. Ibn Sino va Beruniyning pedagogik qarashlari.

Tayanch so‘zlar: Uyg‘onish davri, Movarounnahr, geodeziya, “Baytul Hikma”, ta’lim-tarbiya yo‘llari.

Sharq ilk Uyg‘onish davri IX asrdan boshlanib XII asrgacha davom etdi. Bu davrining buyuk olimi, **Abu Abdulloh ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)** osiyolik bir guruh mashhur olimlar singari Bag‘dod xalifalari – Abbosiylar sulolasidan bo‘lmish **al-Ma’mun (813-833)**, **al-Mu’tasim (833-842)** va **al-Vosiq (842-847)** saroylarida yashab, ijod etdi. **Xorun ar-Rashid (786-809)** va uning o‘g‘li **al-Ma’mun (813-833)** davrida. Bag‘dod Sharqning yirik va madaniy markaziga aylandi, ayniqsa, falsafa, riyoziyot, tibbiyot va boshqa fanlar rivojlandi.

Bag‘dodda ochilgan **“Baytul Hikma” (“Donishmandlar uyi”)**ga Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Xorazm, Shosh, Forob, Marv, Qobul va boshqa qo‘shni o‘lkalardan kelgan olimu fozillar, shoiru tarjimonlar va hattotlar to‘plangan edi. “Baytul Hikma”ning ko‘p yillik faoliyati mobaynida mashhur yunon olimlarining bir qancha asarlari arab tiliga tarjima qilindi, shuningdek, riyoziyot, falakiyot, jo‘g‘rofiya va boshqa fanlarga doir bebaho asarlar bitildi.

“Baytul Hikma” huzurida yirik kutubxona ochilgan bo‘lib, unda xalifalik va qo‘shni mamlakatlardan olib kelingan nodir kitoblar jamg‘arilgan edi. Ma‘mun davrida kutubxonaga “akademiya”ning ko‘zga ko‘ringan olimi sifatida Muso al-Xorazmiy boshchilik qildi. “Baytul Hikma” kutubxonasidan tashqari uning ixtiyorida ikki rasadxona ham bo‘lib, ulardan biri Bag‘dodning Shamossiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog‘ida barpo qilingan edi. Al-Xorazmiy ana shu rasadxonani ham boshqarib, asosan falakiyot ilmi bilan shug‘ullanadi. Olim IX asrning 20-yillarida o‘zining mashhur astronomiya va trigonometriya jadvallariga doir “*Zij fi ilm al-falak*” risolasini yozib tugatadi.

Al-Xorazmiyning bu asariga tayanib arab tilidagi ilmiy adabiyotlarga birinchi bo‘lib Sayyoralar, Oy va Quyoshning harakatlari, sayyoralarning sutkalik harakatlari va ularni aniqlash yo‘llari, Oy va Quyosh gardishining kattaligi, sinuslar jadvali va tangens kiritilgan edi. Asar XII asr boshlarida lotin tiliga tarjima qilingan. Al-Xorazmiy “Ziji”ga ko‘pgina olimlar izohlar, tushuntirishlar yozishgan.

Al-Xorazmiy “Ziji”dan tashqari Quyosh soatlari, astrolyabiyaning tuzilishi va qo‘llanishiga oid “*Kitob ul-amal bil asturlabat*” (“*Astrolyabiya bilan ishlash haqidagi kitob*”) risolasini ham yozib, amaliy falakiyotning rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Al-Xorazmiyning bu astronomiyaga oid asarlari Quyosh, Oy va Sayyoralar harakatini kuzatishda, daryo va ko‘l suvlari harakatini yo‘lga solishda, sel va toshqinlarning oldini olishda, olis joylarga dengiz orqali va quruqlikda safarga chiqqan vaqtda astronomik chamalashda, suvsiz yerlarga suv chiqarish va suv inshootlarini bunyod etishda, qishloq xo‘jalik ishlarining boshlanishi yoki tugallash vaqtini belgilashda, dehqonchilik uchun kerak bo‘lgan mavsumiy kalendarlarni tuzishda, xalqning kundalik amaliy maqsadlari va hayotiy ehtiyojlariga hojatbaror bo‘ldi.

Al-Khwarizmi and his colleagues the Banu Musa were scholars at the House of Wisdom in Baghdad. Their tasks there involved the translation of Greek scientific manuscripts and they also studied, and wrote on, algebra, geometry and astronomy. Certainly al-Khwarizmi worked under the patronage of Al-Mamun and he dedicated two of his texts to the Caliph. These were his treatise on algebra and his treatise on astronomy. The algebra treatise Hisab al-jabr w'al-muqabala was the most famous and important of all of al-Khwarizmi's works. It is the title of this text that gives us the word "algebra" and, in a sense that we shall investigate more fully below, it is the first book to be written on algebra.

Al-Xorazmiy va uning hamkasbi Banu Muso Bag'dodda Baytul xikmadaolimlar bo‘lganlar. Ularmavjud yunon ilmiy qo‘lyozmalarini tarjima qilidilar, ularni o‘rgandilar va algebra, geometriya, astronomiya oid asarlar yozdilar.

Albatta, al-Xorazmiy Al-Ma'mun rahnamoligida ishlagan va xalifaga bag'ishlab ikki asar yozgan. Bu uning algebra haqidagi va astronomiya haqidagi risolalari edi. al-Xorazmiy asarlari ichida eng mashhur va muxim ahamiyatga ega bolgani “Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”edi. Shu asar “algebra” tushunchasini yoritilgan eng birinchi kitob edi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi.

Shuningdek, al-Xorazmiyning falakiyot ilmiga oid asarlari ma'lumotlaridan ikki asrdan ko'proq vaqt davomida ko'plab rasadxonalarda foydalanib kelindi. Xususan, Sharqda va G'arbiy Yevropada (Nyuton, Gershel asarlari paydo bo'lganga qadar) asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, al-Xorazmiy “Donishmandlik uyi”da falakiyot, riyoziyot va boshqa soha olimlari orasida o'zining ulug' salohiyati, qobiliyati bilan ajralib turgan. Al-Xorazmiy bu davrda o'zining ilmiy faoliyati, tabiiy-ilmiy qarashlari bilan ilg'or ma'rifiy-pedagogik tafakkur va tabiiy-ilmiy fanlar rivojiga keng yo'l ochdi. Riyoziyotda mavhumlikni (abstraksiyani) kengaytirdi. *Induksiya* yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal qilib, *deduksiya* hamda umumiy usullari yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. Uning kashfiyotlari va asarlari dunyoviy, ya'ni aniq fanlarni mustaqil rivojlantirishga keng imkon yaratdi.

Shuning uchun ham al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy kashfiyotlari bilan o'zidan keyingi butun ma'naviy taraqqiyotga, tabiiy-ilmiy tafakkurga, haqiqatni aniqlash uslublari juda katta ta'sir o'tkazdi. Al-Xorazmiy ob'ektiv munosabatlarning, tabiiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini o'rganish zarurligini, atrof-muhitni tadqiq etishda insonning ongi va ilm-fanning ahamiyatini yuqori baholadi.

Shularni e'tiborga olsak, o'z vaqtida al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy fanlarning, ayniqsa, riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiyaning rivojlanishiga, bu fanlarning mustaqil taraqqiyotiga to'g'ri yo'nalish berishda o'zining tutgan yo'li bilan ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu boisdan ham hozirgi zamon olimlari IX asrning birinchi yarmini “Al-Xorazmiy davri” deb atayotganlari bejiz emas.

O'sha davrda savdo munosabatlarini yuritish, meros taqsimlash muammolari, sun'iy sug'orish ishlari, dambalar, saroy va mudofaa inshootlarini barpo qilish

ishlari, falakiyot ilmiy masalalari, kalendar tuzish, uzoqdagi narsalarning masofasi va o'lchamini aniqlash kabi bir qator muammolar tabiiy fanlarni, xususan, algebrani rivojlantirishni taqozo qilardi. Bu amaliy talablar tenglamalarga bo'lish, ularni yechish qoidalarini topishni hamda riyoziyotning boshqa masalalarini hal etishni taqozo qilar ediki, bu mushkul vazifalar al-Xorazmiy zimmasiga tushdi. Al-Xorazmiyning "*Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va -l-muqobala*" ("*Aljabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob*") nomli asari algebra faniga asos soldi, uning mazmuni, asosiy tushunchalari va qoidalarini belgilab berdi.

Al-Xorazmiyning "*Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va -l-muqobala*" asarida "*Al – jabr*" so'zi asrlar davomida o'zgara borib, "*algebra*" atamasiga aylanganki, bu riyoziyotning alohida bir bo'limidan iborat fan hisoblanadi. Olim "*al-jabr va al-muqobala*" so'zlari orqali ikkita amalni tushungan va ularni tenglamalar yechishga tatbiq etgan. "*Al-jabr*" amali orqali tenglama hadlarini bir tomondan ikkinchi tomonga ko'chirish bajariladi. "*Al-muqobala*" esa tenglamadagi o'xshash hadlarni yig'ish amalidir. Demak, "*Al-jabr*"ning lug'aviy ma'nosi to'ldirish, "*Al-muqobala*" qarshi qo'yishni bildiradi. Al-Xorazmiyning bu asarida o'sha davrdagi boshqa asarlar kabi hech qanday formulalar va simvollar bo'lmay, balki tenglamalar va uning yechilishi so'zlar bilan ifodalangan. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi va ikkinchi darajali tenglamalar, ularning yechimlari xususiy hollarda bundan ming yillar oldin qadimgi Misr va Vavilon xalqlarida, keyinroq yunon matematiklarida uchraydi. Ammo ularning yechimlari faqat xususiy holda bo'lib, ular kvadrat tenglamalarni yechish uchun umumiy qoidalar bermaganlar. Bunday qoidalar va ularning isbotlarini al-Xorazmiy birinchi bo'lib o'zining "*Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va -l-muqobala*" asarida to'la va uzviy bayon etdi.

Darhaqiqat, al-Xorazmiy tomonidan algebra metodining yaratilganligi matematikada induksiya va deduksiya birligining namunalaridandir. Chunki *induksiya metodisiz* tenglamalarning hech bir turini yaratish mumkin emas edi. Shuningdek, berilgan tenglamalar turining umumiy yechish qoidasi xususiy masalalarni *deduksiya* usulining amaliy ifodasidir.

Al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi asari – "*Kitob al jam va tafriq bi hisob al-Hind*" ("*Hind arifmetikasi hisobi bo'yicha qo'shuv va ayiruv kitobi*") ham riyoziyot fani tarixida muhim rol o'ynaydi. Asarda hind o'nlik-pozitsion qo'shish tizimlari haqidagi metod tasvirlangan edi. Bu o'nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida chinakam inqilob bo'ldi. 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, raqamlari hanuz jahonda "*arab raqamlari*" nomi bilan yuritiladi. Lekin bu "*arab raqamlari*" Ovrupoga Sharqdan emas, Yunonistondan kelgan deguvchilar ham bo'lgan. "Arab raqamlari"ni boshqa qo'shni xalqlarga tarqatgan Muhammad al-Xorazmiy ekanligini isbotlashda yurtdoshimiz, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari hal qiluvchi dalil bo'ldi.

Demak, boshqa xalqlar hindlarning o'nlik pozitsion tizimi bilan al-Xorazmiyning "*Hind arifmetikasi hisobi bo'yicha qo'shuv va ayiruv kitobi*" risolasi orqali tanishdilar. Al-Xorazmiyning bu asari ingliz olimi va tarjimoni Robert Chester tomonidan 1145 yilda arabchadan lotin tiliga tarjima qilinib,

Ovrupa mamlakatlarida keng tarqaladi. Bu asarning muqovasidagi “**Dediki al-Xorazmiy**” soʻzi esa “**Dediki algoritm**” deb tarjima qilinadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, hisoblash tarixida **algoritm, algorizm** soʻzlarining lugʻaviy maʼnosi XIX asrgacha nomaʼlum boʻlib kelgan edi. Faqat 1849 yildagina fransuz sharqshunos olimi Jozef Tussen Reyno (1795-1867) bu atama “**Al-Xorazmiy**” soʻzidan kelib chiqqanligini aniqladi. Shu yoʻsinda “**algoritm**” – “**Al-Xorazmiy**”ning lotincha transkripsiya natijasidan hosil boʻlgan ekan.

Al-Xorazmiy nomining sinonimi boʻlmish **algoritm**-riyoziyotda muhim va dolzarb kategoriyadir. Alloma qoʻshish, ayirish, koʻpaytirish, boʻlish, kvadrat ildizni hisoblash algoritmini oʻnlik tizimida yechishni yaratibgina qolmasdan, bundan tashqari, u bir jinsli boʻlmagan sonlarni koʻpaytirish algoritmini ham ishlab chiqdi.

Demak, al-Xorazmiyning algebraga oid asarlarining riyoziyot tarixida tutgan ahamiyati juda ham katta, chunki algebra fani olim tomonidan birinchi marta mustaqil fan darajasiga koʻtarildi. Al-Xorazmiy tomonidan asoslangan matematik metoddan koʻpgina Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq olimlari oʻz ilmiy ishlarida keng foydalandilar. Jumladan, XI asrda yashab ijod etgan al-Nasav, XII asrda yashagan Iqbol-Bomat va boshqalarni eslatish mumkin. Bularning ishlarida al-Xorazmiy yaratgan matematik metodlar rivoj topdi va shu asosda yangi-yangi muammoli sohalar vujudga keldi. Al-Xorazmiyning bevosita taʼsiri va ijodi tufayli dunyoga kelgan asarlar ham oz emas. Masalan, XIII asrning mashhur olimi pizanlik Leonardo ikkinchi darajali algebraik tenglamalarni yechganda xususiy al-Xorazmiy metodlariga asoslangan. Hatto, jahonga mashhur matematiklardan Fibonnachi, Pichioli, Tartalpya, Kardano, Ferrari, ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abul Vafo, Umar Hayyom va boshqa olimlar ham oʻz davrida al-Xorazmiy asarlaridan keng foydalanganlar.

Al-Xorazmiy joʻgʻrofiya va geodeziya fanlariga oid muhim ilmiy izlanishlar ham olib borgan. U barcha astronomik kuzatishlarda faol qatnashdi va bir necha (Vizantiya, Afgʻoniston va Volga quyi oqimidagi Xazoriyaga boʻlgan) ilmiy safarlarga boshchilik qilgan. Jumladan, 827 yilda Al-Xorazmiy rahbarligida Yer Kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi oʻlchab chiqildi. Buning uchun Mesopotamiyada shimoliy kenglikning 35° va 36°lari orasida chiziqli masofa bevosita oʻlchov chizmasi bilan meridian yoʻnalishida aniqlanib, burchak oʻlchash esa yulduzlarning meridian balandliklarini kuzatish asosida bajarilgan edi. Meridian gradusi uzunligi 56 - 2/3 arab milyasiga, yaʼni oʻrta hisobda 112 km ga teng qilib olingan. Bu natija ancha aniq boʻlib, undan tashqari, oʻlchash usulining oʻzi ham katta ilmiy ahamiyatga ega edi. Shu tariqa Yer meridiani bir gradusining uzunligi al-Xorazmiy oʻlchashlarida 111815 metrga teng. Hozirgi zamon oʻlchashlari esa uning 110938 metrga teng ekanini koʻrsatadi.

Al-Xorazmiy riyoziyot, falakiyot, geodeziya muammolarini matematik joʻgʻrofiya, kartografiyani tavsifiy joʻgʻrofiya bilan bogʻlab oʻrganishga katta eʼtibor berdi. Olimning joʻgʻrofiyaga oid asari – “*Kitob surat al-arz*” deb ataladi. Bu lotincha “geografiya” soʻzining arabchaga aynan tarjimasini boʻlib, arz – yer, grafa – tasvirlash, surat degani. Al-Xorazmiy bu asarini 836-847 yillar orasida

yozib tugatgan. Shundan 1037 yilda ko‘chirilgan yagona nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Al-Xorazmiyning “*Kitob at-tarix*” asarida miloddan avvalgi 312 yildan to milodning 828 yilgacha xalifalikda yuz bergan voqealar hikoya qilinadi. Shunday qilib, al-Xorazmiyning “*Kitob-at-tarix*” asari xalifalik tarixining unchalik ma’lum bo‘lmagan taraflarini yoritadigan muhim harakatlar, xalq qo‘zg‘olonlari haqida muhim xabarlar, fan va madaniyat tarixiga oid qimmatbaho dalillar keltiriladi.

Endi “*Kitob at-tarix*”ning o‘rta asrlar tarixnavisligida tutgan o‘rniga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, olimning bu asari butun o‘rta asrlar mobaynida Sharq tarixnavisligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib kelgan. Shunga ko‘ra, al-Xorazmiy o‘rta asr tarixnavisligida muayyan an’anaga asos solgani va uning ilk vakillaridan biri bo‘lgani shubhasizdir.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, al-Xorazmiyning “*Quyosh soatlari haqida risola*”, “*Musiqqa haqida risola*”, “*Yahudiylarni eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola*” kabi asarlari ham bo‘lgan.

Shunday qilib, al-Xorazmiyning eng sarmazmun davri xalifa al-Ma’mun davri bo‘lib, u xalifalikda birinchilar qatorida kundalik hayotda turli tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlarning kerakligini va ilmsiz rivojlanish bo‘lmasligini tushunib yetgan edi. U ilm-ma’rifat inson hayotini osonlashtirishini, uning kundalik faoliyatida yordam berishini anglab yetgan olimlardan edi. Al-Xorazmiy olamni bilishga intilib, diniy va milliy yoki irqiy chegaralarni tan olmay, turli din va millatga mansub xalqlarning ilmiy yutuqlarini o‘zlashtirgan edi. U moddiy olam hodisalarini talqin qilishda, undagi qonuniyatlarni bayon etishda faqat ilmga va tajribaga tayangan. Al-Xorazmiy arifmetikaga doir “*Hisob al-hind*” risolasida aytadi: “*Men hindlar 9 ta harfdan (ularni o‘zlari xohlaganlaricha joylashtirishlariga ko‘ra) istagan sonlarini tuzishlarini ko‘rganimdan keyin, o‘rganayotganlarga osonlik uchun bu harflardan nima hosil bo‘lishini ko‘rsatishni azm qildim*”.

Al-Xorazmiy o‘z ilmiy izlanishlarida insonparvarlik g‘oyalariga asoslanib inson hojatini chiqarish va uning manfaati uchun ijod etar edi. Al-Xorazmiyning quyidagi so‘zlari uning dunyoqarashini belgilab beradi. Algebraga doir “*Aljabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob*” asarida u aytadi: “*Men kishilarga hisoblashda nima kerakligini (tekshirib) qaraganimda, buning hammasi son ekanligini ko‘rdim*”. Agar al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkala asari ham umuman olganda hisob va songa taalluqli ekanligini nazarda tutsak, olim bu asarlari bilan insonning kundalik hayotida hisobga ehtiyojini qondirishga harakat qilganligini ko‘ramiz.

Al-Xorazmiy inson tafakkurining quvvatiga, kishilarning imkoniyatiga ishonar va o‘z asarlarini ularga bag‘ishlar edi. U algebraga bag‘ishlangan risolasida... “*bu asarni yozishdan maqsadi kishilar unga o‘z nigohini qaratar degan umid*” ekanligini uqtiradi. Demak, u insonni kundalik hayotida o‘z aql-idroki, tafakkur quvvatiga tayanishga undaydi.

Al-Xorazmiyning insonparvarlik g‘oyalari olimlarning vazifasi va burchi, ularning insoniyat oldidagi mas’uliyati haqida aytgan so‘zlarida ham namoyon bo‘lgan: “*O‘tmish davrlarda o‘tgan xalqlarning olimlari fanning turli tarmoqlari va*

falsafaning turli bo‘limlari sohasida asarlar yozishda tiyilmas edilar. Bu bilan ular o‘zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar va bular tomonidan o‘zlaricha (sarf qilingan) kuchlariga munosib mukofot bo‘lar degan umid tutardilar hamda shon-sharaf va yod tutish bilan mukofotlanardilar, rostgo‘y lablardan maqtovlar aytiladi deb ishonardilar. Chunki ular fanning maxfiy sirlarini ochish uchun o‘z bo‘yinlariga olgan qiyinchiliklar va mehnatlarini bunga arzimas deb biladilar. Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qila olmagan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi”. Mutafakkirning bu so‘zlarini ilk o‘rta asr davrida olimlar va tadqiqotchilar uchun umumiy deb e‘lon qilgan axloq qoidasi (me‘yori) deb qarash mumkin. Avvalo, buyuk olimning bunday axloq dasturi uning dunyoqarashini belgilab beradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u o‘z hayotini insoniyat baxt-saodatiga bag‘ishlaydi.

Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy, ma’rifiy-pedagogik qarashlari algebra fanining kelib chiqishi va unga bag‘ishlab asar yozishi sababini bayon etishda ham aniq ko‘rinadi: “...men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi “Aljabr va-al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni ta’lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o‘lchashda, kanallar o‘tkazishda, xandasa va boshqa shunga o‘xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”. Demak, al-Xorazmiyning bu so‘zidan ravshanki, risola hayot taqozosi tufayli vujudga kelgan.

Al-Xorazmiyning ilmiy jasorati, bashariyat oldidagi buyuk xizmati shundaki, u o‘z asarlari bilan zamonasining buyuk matematik, mohir geodezist, ajoyib geograf, zabardast astronom, yetuk tarixnavis olimi va murabbiysi sifatida tabiiy-ilmiy fanlar, yosh avlod kamoloti va tafakkuri, ilm-fan ravnaqi uchun xizmat qildi, insoniyatning ma’rifiy yuksalishiga katta hissa qo‘shdi.

Allomaning asarlari nazariy-amaliy ishlar bilan uzviy bog‘langan o‘rta asrlar riyoziyotining ajoyib namunasi. Hayotda tabiiy kuchlar bilan kurashda insonga ko‘maklashish, uning og‘irini yengil qilish al-Xorazmiy asarlarining asosiy maqsadidir. Uning “arifmetikasi” va “algebrasi” hammaga birdek qo‘llanma bo‘lgan va hamon kishilarga xizmat qilib kelmoqda, jahondagi hamma maktablarda arifmetika va algebra o‘rgatiladi. Hisoblashning har xil mashinalari, jumladan, elektron hisoblash mashinalari al-Xorazmiy tamoyillari asosida xalq xo‘jaligiga xizmat qilmoqda.

Al-Xorazmiyning qomusiy ilm tizimi jahon ma’rifat ko‘zgusidagi mo‘‘jizalar lavhasi bo‘lib, uni hozirgi va kelgusi avlodga targ‘ib qilish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu bilan Sharq xalqlari o‘zligini anglashga yaqindan yordam beradi.

Muhammad al-Xorazmiyning “*Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l-muqobala*” asari fiqh ilmi taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Alloma mazkur asarni

yozilishi sababini quyidagicha bayon etadi: "...men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr va-l-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, xandasa va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir".

Demak, Muhammad al-Xorazmiyning bu asardan asosiy maqsadi musulmon huquqiga qat'iy amal qilgan holda merosxo'rlar o'rtasida mulkni taqsimlash masalasini nazariy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan. Bu murakkab masalani sof arifmetik usulda hal qilish qiyin bo'lganligi sababli, ob'ektiv ravishda algebraik usulni qo'llaydi va algebraning asosiy bo'limi – tenglamalarni meros taqsimlashga mohirlik bilan tadbqiq qiladi. Garchi al-Xorazmiydan avval meros taqsim qilish masalasi bilan Bobil, Misr va yunonlar shug'ullangan bo'lsalar-da, al-Xorazmiy bu masalani musulmon huquqi asosida meros taqsim qilishning nazariy va amaliy asoslarini birinchi bo'lib ko'rsatadi. Shuning uchun ham Muhammad al-Xorazmiyni meros taqsim qilish nazariyasi va amaliyotning asoschisi deyishimiz mumkin.

Darvoqe, Muhammad al-Xorazmiy "*Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l-muqobala*" asarining oxirgi qismini "*Vasiyatlar kitobi*" nomi bilan ataydi va bu qism hajm jihatidan asarning beshdan ikki qismini tashkil qiladi. Bu qismda, o'z zamonasining kundalik talablariga va musulmon huquqiga qat'iy amal qilgan holda, merosxo'rlar o'rtasida mulkni taqsim qilishga doir bir necha bobda turli nomlar bilan murakkab masalalar beriladi. Masalalar shartiga ko'ra, tenglama tuzishda hech qanday belgi va ramz ishlatilmaydi va uni yechish qoidasi so'z orqali bajariladi. Biz quyida ana shunday meros taqsim qilishga doir murakkab masalalarni ikki-uchtasini yechish namunalarini izohlari bilan keltiramiz:

1-masala. Vafot etgan kishidan ikki o'g'il qolgan va u molining uchdan birini boshqa odamga vasiyat qilgan. U naqd o'n dirham va o'g'illaridan birining (ulushiga teng) qarzga bergani qoldirgan. Qoidasi bunday: Qarzdin olinadigan narsa deb qabul qil va uni naqdiga, ya'ni o'n dirhamga qo'sh. O'n va narsa hosil bo'ladi. Bundan uchdan birini ayir, chunki u molining uchdan birini vasiyat qilgan, bu uch – u uchdan bir dirham va narsaning uchdan biri. Olti-yu uchdan ikki dirham va narsaning uchdan ikkisi qoladi. Buni o'g'illar orasida taqsimla. Shunda har bir o'g'ilning ulushi – uch – u uchdan bir dirham va narsaning uchdan biridir. Bu olinadigan narsaga teng. Shu yerda narsaning uchdan birini narsaning uchdan biriga ro'para qo'y. Qolgani uchdan ikki dirhamga teng uch dirham va narsaning uchdan ikkisidir. Sen narsani to'ldirishga muhtojсан (bunga uning yarmiga tengini qo'sh va uch – u uchdan birga uning yarmiga tengini qo'sh, besh dirham hosil bo'ladi. Mana shu narsa bo'lib), u qarzdin hosil bo'ladi.

1. Izoh. Agar qarzga berilgan X desak, butun mol $10+X$ bo'ladi. Ikkala o'g'ilga va vasiyat qilinganga tegadigan ulushlarning har **biri teng bo'lib, u – $(10 + X) / 3 + X$ bo'lgani uchun bundan $10/3 = -2/3 \cdot x$ va $x=5$**

2-masala. Vafot etgan kishining xotini, uning bitta ota va onadan ikki ukasi va ikki singlisi qolgan va u boshqa bir odamga o'z molining to'qqizdan birini vasiyat qilgan. Qoidasi bunday: agar sen merosning bo'laklarini qirq sakkiz

qismdan iborat desang, uning (sanog'ini) aniqlagan bo'lasan. Sen bilasanki, agar molning hammasidan to'qqizdan birini ayirsang, sakkizdan to'qqizi qoladi va ayrilayotgan qolayotganning sakkizdan biriga teng. To'qqizdan sakkizta uning sakkizdan birini qo'sh va qirq sakkizta uning sakkizdan birini, bu olti, qo'sh, bu bilan sening moling to'liq bo'ladi. Ellik to'rt hosil bo'ladi. To'qqizdan biri vasiyat qilingan kishi bundan oltisini, ya'ni butun molning to'qqizdan birini oladi. Qolganini, ya'ni qirq sakkizni merosxo'rlar orasida ularning ulushiga ko'ra taqsimlanadi.

1 Izoh. Islomda meros taqsim qilish huquqi shariat qonuniga ko'ra belgilangan bo'lib, unga Qur'oni Karimdagi "Niso" surasining 11-12-oyatlari asos qilib olingan: "Alloh farzandlaringizga (tegishli meros) haqida bir o'g'il uchun ikki qiz ulushi barobarida meros berishni amr qilur. Agar merosxo'rlar ikkidandan ortiq bo'lsa, ularga er qoldirgan narsaning uchdan ikkisi, agar yakka qiz bo'lsa, unga (merosning) yarmi tegur. Agar marhumning farzandi bo'lsa, ota-onasining har biriga qoldirgan merosidan oltidan biri tegur. Endi agar farzand bo'lmay, faqat ota-onasi (merosxo'r) bo'lsa, u holda onasiga uchdan bir tegur (qolgani otasiga qoladi). Agar uning aka-ukalari bo'lsa, onasiga oltidan biri tegur. (Qolgan qismi otasiga tegadi, zero marhumning aka-ukalarini yedirib-kiydirmoq va uylab-joylash otaning zimmasidadir. Bu taqsimotlar). Marhum qilgan vasiyat va uning qarzlari ado etilganidan keyin bo'lur. Ota-onalaringizning qaysi birlari sizlar uchun foydasi teguvchiroq ekanini bilmaysizlar. (Binobarin o'zingizga qolsa, meros taqsimotini ham adolat bilan hal qila olmaysiz. Shu boisdan kimga qancha meros tegishi) Alloh tomonidan qat'iy farz qilib qo'yildi. Albatta, Alloh bilim va hikmat egasi bo'lgan zotdir. Sizlarga xotinlaringiz qoldirgan merosdan – agar ulardan farzand qolmagan bo'lsa, yarmi tegur. Endi agar ularning farzandlari qolgan bo'lsa, sizlarga ularning merosidan to'rttdan bir tegur. (Bu taqsimot) marhuma qilgan vasiyat va uning qarzlari ado etilgandan keyin bo'lur. Ularga (xotinlaringizga) sizlar qoldirgan merosdan agar – sizlardan farzand qolmagan bo'lsa – to'rttdan bir tegur. Endi agar sizlarning farzandingiz qolgan bo'lsa, ularga sizning merosingizdan sakkizdan bir tegur. (Bu taqsimotlar) sizlar qilgan vasiyat va qarzlaringiz ado qilingandan keyin bo'lur. Agar merosi qolayotgan erkak yoki ayolning na ota va na onasi bo'lmay, (ona tomonidan) bir aka yoki ukasi yoxud bir opa yoki singlisi qolgan bo'lsa, ularning ikkovidan har biriga oltidan bir tegur. Endi agar ular birdan ortiq bo'lsalar, ular merosini uchdan bir hissasiga teng sherik bo'lur. (Bu taqsimotlar) merosxo'rlari zarar yetkazmaydigan holda qilingan vasiyat va qarzlari ado qilingandan keyin bo'lur".

2-masala. Bir kishi o'ladigan kasal bo'la turib, bir ayolga yuz dirhamga uylandi va uning bundan bo'lak moli yo'q edi, ayolning o'zi baravar mahri o'n dirham edi. So'ngra ayol o'ldi, u molining uchdan birini vasiyat qilgan edi. Keyin eri o'ldi. Qoidasi bunday: u ayoldagi yuzdan uning mahrini, ya'ni o'nni ayir. Unda to'qson dirham qoladi, vasiyat qilganini ana shundan hisoblanadi. Vasiyat qilganni narsa deb ol va uni shunday ayir. Narsasiz to'qson qoladi. Ayolning qo'lida o'n dirham va narsa qoladi. U o'z molining uchdan birini, ya'ni uch – u uchdan bir dirham va uchdan bir narsaning vasiyat qilgan. Olti-yu uchdan ikki dirham va uchdan ikki narsa qoladi. Bundan eri merosining o'ziga qaytadigan – yarmi, ya'ni

– uch – u uchdan bir dirham va uchdan bir narsa. Erining merosxo‘rlari qo‘lida narsaning uchdan ikkisisiz to‘qson uch – u uchdan dirham qoladi. Mana shu xotini merosining ikki baravaridir, ya’ni narsa, chunki xotin eri qoldirgan merosning uchdan birini vasiyat qilishga haqi bor. Uning vasiyat qilganining ikki baravari ikki narsadir. To‘qson uch - u uchdan birni uchdan ikki narsa bilan to‘ldir va buni ikki narsaga qo‘sh. Hosil bo‘ladi: to‘qson uch - u uchdan bir dirham ikki-yu uchdan ikki narsa teng. Bitta narsa shuning sakkizdan uchi, ya’ni o‘ttiz besh dirhamdir.

1. Izoh. Mahr – islom shariat huquqida uylanuvchi kishi ayolning “*mahriga tushgan*” pulni to‘lashi kerakligi qonuniylashtirilgan bo‘lib, ayol esa o‘z “*mahriga tushgan*” pulni xohlaganicha sarflash huquqiga ega bo‘lgan.

2. Ayol vasiyat qilayotgan narsani X desak, mahri bilan birga $10+X$ bo‘ladi, erining qaramog‘idagi pul esa $100-(10+X)-90-X$ bo‘ladi. Ayol o‘z molining uchdan birini vasiyat qilishi mumkin, bu **3 dan 1 ($10+X$)** bo‘ladi. Eriga undan qolganining yarmi, ya’ni **3 dan 1 ($10-X$) tegadi**, qolganning ikkisi yarmini ayolning vorislari oladi. Shuning uchun erining vorislariga **$90X+3$ dan 1 ayiruv ($10+X$) tegadi**. Boshqa jihatdan, xotin eridan qolganning faqat uchdan biriga egalik qilishi mumkin bo‘lgani uchun erining vorislariga **$2X$ tegadi**. Shuning uchun **$90-X+3$ dan 1 ($10+X$)- $2X$, ya’ni $X-35$** bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad al-Xorazmiyning matematik asarlaridagi meros taqsim qilishga doir masalalar qaysi zamonda, qaysi davrda bo‘lmasin, na faqat musulmon huquqi uchun, balki hozirgi kundagi huquqshunoslik fani taraqqiyoti uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.³

Sharqning buyuk qomusiy olimi “**Muallimi soniy (Ikkinchi muallim) Abu Nasr Forobiy** (873-950) ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan “*Fozil odamlar shahri*”, “*Ilmlarning kelib chiqishi*” asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim bilan tarbiya birligi haqida qimmatli fikrlar bildiradi.

Forobiy “*Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida*” nomli risolasida ta’lim-tarbiya birligi haqida fikr yuritarkan, unda ta’lim berish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishi lozimligini ko‘rsatadi. Forobiy insonning ma’naviy olamida, uning ikki tomoniga: aqli va axloqini tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratadi. Ta’lim va tarbiya Forobiy fikricha, insonni aqlan va axloqan komil shaxs qilib shakllantirishga qaratilmog‘i kerak. Xuddi shuning uchun ham, ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi olam va insonlar haqida mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Sharq pedagogikasida Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan allomadir: «**Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida, nazariy bilim berish, tarbiya berish degani esa insoniy fazilatlarini, ma’lum xunarni yeki kasbni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor-normalarini o‘rgatishdir**».⁴

³ Хасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996, 79-63-бетлар., Расулова Ф., Дўстжонов Т., Хасанов С., Хоразм Маъмун академиясининг олис-яқин юлдузлари. –Т.:2005, 15-59-бетлар.

⁴ Абу Наср Форобий. Рисолалар. –Т.: “Фан”, 1975, 71-72-бетлар

Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri anglab oladi, umr kechirish jarayonida to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan halol, adolatli munosabatda bo'ladi. Jamiyatda o'rnatilgan oqilona tartib va qoidalariga rioya etadi.

Forobiy ta'lim va tarbiya ishini boshlashdan oldin tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini bilish va ta'lim-tarbiya berish jarayonida murabbiyning barkamolligini nazarda tutish zarurligini ko'rsatadi. Chunonchi, uning fikricha, murabbiy xohish-ixtiyor, iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik nima ekanligini yaxshi bilgan odam bo'lishi zarur. Chunki, inson ruhiga xos bo'lgan xohish-irodani, uning qobiliyatini aniqlamasdan turib, tarbiya ishiga kirishish kutilgan natijani bermaydi, deydi alloma.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi fikrlari ham g'oyat qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan: ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, deb ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, ta'lim nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirsa, tarbiya esa insoniy fazilat, amaliy kasb-hunar, xulq-odob malakalarini rivojlantirib boradi, ta'lim so'z o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirib boriladi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi. Shuningdek, Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, dob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb ko'rsatadi.

Abu Nasr Forobiy «*Baxt-saodatga erishuv to'g'risida*» risolasida ta'lim-tarbiyani ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bulardan birinchisi — qanoatbaxsh so'zlar, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi va shaxsdagi g'ayrat-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi usul — majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaxslarga nisbatan ko'llaniladi.⁵

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada *rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini* ko'rsatgan. Bu har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadida qo'llanilgandir.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omildir. Bu masalaga, ayniqsa, Sharkda juda katta e'tibor berilgan. Musulmon olamida mavjud an'anaga ko'ra, ustoz shogirdni qabul qilgan birinchi kundan boshlab, uning ma'naviy javobgarligini o'z bo'yniga olgan. Tarbiyalanuvchining ota-onasi o'z bolasini ustozga: "*Eti sizniki, suyagi bizniki*" deb topshirgan. Ustoz shogirdga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki u shogirdiga keng ma'nodagi tarbiyani ham beradi.

Ustoz shogirdning ham axloqiy, ham kasbiy qiyofasini shakllantiradi. "*Ustoz otangdan ulug'*", degan maqolning hikmati shunda. Qadimda shogirdlar ustozni benihoya hurmat qilganlar.

⁵ Ўша жойда, 76-бет.

Shu munosabat bilan Forobiy o'qituvchining ijtimoiy hayotda o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, o'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishni, yolg'onni va yolg'on aytganni yomon ko'rishi, o'zi fahm-farosatli bo'lishi va or-nomusini qadrlashi, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlangan maqsadga erishishda qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i lozim.

Forobiy *“Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida”* risolasida muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham, o'ta bo'shanglikka ham yo'l qo'ymasligi kerak, chunki o'ta hokimlik shogirdga “muallimga nisbatan nafrat uyg'otsa, o'ta bo'shanglik esa shogirdning muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan mensimaslik xislatini paydo qiladi”, deb ta'kidlaydi.⁶

Bu fikrlari bilan u ustozlik ta'lim va tarbiyada nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir karra uqtiradi. Shunday qilib, mutafakkir ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasi adolatli jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat, el-yurt uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb bilgan. Forobiy pedagogik ta'limotining asosida axloqiy go'zal, mustaqil fikrlovchi, barkamol insonni shakllantirish masalasi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy orzu qilgan ta'lim va tarbiya birligi hozirgi davrimizda ham yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Forobiy *“Aql ma'nolari to'g'risida”*, *“Baxt-saodatga erishuv to'g'risida”* asarlarida yoshlarning bilimiga bo'lgan intilishlarini har tomonlama keng yoritishga xarakat qiladi: “Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bir holati-ni biladi, ongini o'sha predmet shaklidagi bilimga yo'naltiradi. Bu o'zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir”. Forobiyning bilish to'g'risidagi nazariy asoslarini, xususan, mantiq fanida bilish jarayoni va bilish shakllariniing mohiyati birinchi marta ochib berildi. Bu jarayonlar mantiqda unga rioya qilish tafakkurini takomillashtirish va murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini olish qonunlari sifatida aks etadi.

Forobiy fikrlash faoliyatini faollashtirishning didaktik tamoyillari va metodlarini asoslab berdi. Unga o'qitishning amaliy yo'nalganligi; nazariy bilimlar uzluksizligi va bilish metodlari; mantiqiylik va uzviylik hukm metodlari va usullari; induksiya va deduksiya metodlari kiradi.

Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan fanlar tasnifi ilmiy bilimlar g'oyasining rivojlanishini ta'minlaydi. U shunday yozadi: “Fanlar tasnifi insonga zarur, foydali, tugallangan, haqqoniy va kuchli va qaysi birlari u qadar zarur emas va kuchsizroq, shuningdek, o'rganish uchun nimadan boshlash, xususan, nimani o'rganish, nima yaroqli, qaysi biri yaroqsiz va qay darajada uni egallashga yordam beradi. Shunday qilib, uning fanga bo'lgan munosabati ko'rlikka, nodonlikka emas, balki bilim va nodonlikka asoslanadi”.

⁶ Ўш жойда, 23-24-бетлар.

Forobiy tomonidan asoslangan pedagogik ta'minot o'zida quyidagi asosiy g'oyalarni ifodalaydi:

- ma'naviy tarbiyani tashkil etish va shaxsda aqliy sifatlarni tarbiyalash uning kamolotga erishishini kafolatlaydi;
- odob tarbiyalanuvchi qiyofasida namoyon bo'luvchi axloqiy xislatlarning eng asosiysi bo'lib, insonda olijanob sifatlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsda odob ko'nikmalarini shakllantirishda ularga inson xulqi va odobini muhim ma'naviy – axloqiy sifatlarni ekanligini hayotiy misollar yordamida yoritib berish muhim ahamiyatga ega;
- tarbiyalanuvchida irodaning hosil bo'lishi atrof-muhit hamda tarbiyaviy faoliyat mazmuniga ko'p jihatdan bog'liq.

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya samaradorligini yuqori baholagan pedagogik, didaktik tamoyillar, ta'lim – tarbiya shakllari va usullari quyidagilar:

- ta'limning ilmiyligi va amaliy ahamiyatga eagaligi;
- tizimlilik, mantiqiylik va ketma-ketlik;
- hayot bilan bog'liqligi;
- tushunarli bo'lishi;
- kuzatish va tajribalar;
- dialektik, isbotli, tortishuvli, ritorik va she'riy mulohaza yuritish usullari;
- induksiya va deduksiya usuli;
- mashqlarni bajarish, takrorlash va h.k.

Shunday qilib, Forobiyning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi teran fikrlari, ibratli mulohazalari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Sharqning ulkan qomusiy olimi, jahon ilmi va pedagogik fikrlarining eng mashhur namoyondalaridan **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) ta'lim – tarbiya masalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi pedagogik - psixologik qarashlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini xayratda qoldiradi.

Ibn Sino *“Risalat at-tayr”* (*“Qush”*), *“Xayy ibn Yaqzon”*, (*“Uyg'oq o'g'li tirik”*), *“Donishnoma”* kabi asarlarida o'zining pedagogik va psixologik qarashlarini ifodalaydi. Masalan, u *“Hayy ibn Yaqzon”* asarida yoshlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi: *“... bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar”*.⁷ Shuningdek, alloma shaxs fe'l-atvorini tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmining, ya'ni ilmiy mantiqni bilishga da'vat qiladi. Chunki ilmiy-mantiq shaxs didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. U bu haqda shunday deydi: *“Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoni fe'l-atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan”*.

Shuning uchun ibn Sino ta'lim-tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakllari va metodlariga juda diqqat va e'tibor, mas'uliyat bilan qarash kerakligini

⁷ Ибн Сина. Фалсафий қиссалар. –Т.: “Ўқитувчи”, 1963, 486-бет

ta'kidlaydi. Olimning e'tirof etishicha, ko'rsatmalilik ta'limni aniq, yorqin va qiziqarli qiladi, kuzatuvchanlik va fikrlash, mushohada yuritishni o'stiradi. Uningcha, inson narsa va hodisaning tashqi jihatlarini, ko'rinishlarini o'rganib, uni yanada chuqurroq bilishga intiladi. Narsalarning aslini yoki ularning suratini ko'rish orqali bolalarda ular haqida ma'lum bir tasavvur hosil bo'ladi. Ibn Sino ko'rsatmalilikni ko'rish, eshitish singari sezgi organlari orqali bog'laydi. Olim o'qitishning oddiydan murakkablikka tomon yo'naltirishdan kelib chiqqan holda mashqlar qildirish, o'qitishni esa faqat chuqurlashtirish asosida, ya'ni sinf tarzida o'tkazish zarur, deb hisoblaydi.

Yuqorida ibn Sino muntazamlilik va uzviylik prinsipiga amal qilish zarurligini ta'kidlagi haqida aytilgan edi. O'quvchilar kuzatish va tajribalarini muntazam va uzviy jarayonga aylantirish orqali esa o'quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati rivojlanadi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, o'quv va jismoniy mashqlarni bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda suhbatlar, tushuntirishlar bilan birga qo'shib olib borish kerak. Yakka tarzda o'qitgandan ko'ra guruhlarda (sinfda) o'qitish ko'proq samara beradi, chunki guruhlarda o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zidan musobaqa paydo bo'ladi, deydi: "Bola-larni guruh qilib o'qitish tashkil qilinsa, juda yaxshi samara beradi. Chunki bu jarayonda ular bir-birlaridan ibrat oladilar..

Guruh qilib o'qitish jamiyatga katta foyda keltiradi. Chunki bunda o'quvchilar bir-birlari bilan do'stlashadilar, ular o'rtasida o'zaro hurmat paydo bo'ladi, o'zaro fikrlashib bahslashadilar, huquq va burchlari xususida muhokama yuritadilar, musobaqalashadilar".⁸

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida o'rin olgan "Ro'zg'or yuritish haqida risola"sida bola tarbiyasiga oid juda ko'p pedagogik va fiziologik tavsiyalar bayon etilgan. Tarbiyadan maqsad, - deydi olim, bolaning aqliy va jismoniy quvvatlarini o'stirishdir. Chunki bola yaxshi yoki yomon, yovuz yoki olijanob bo'lib dunyoga kelmaydi. U bu xususiyatlarga tarbiya, atrofdagilar ta'siri tufayli erishadi. Ibn Sinoning fikricha, bola qalbi, misoli "Pokiza oyna". Unga istalgan shaklni chizish mumkin. Bolada olijanob ma'naviy – axloqiy xususiyatlarni shakllantirish uchun mashq uslubidan foydalanish, ya'ni uni hayotda qo'llashga o'rgatish kerak.

Ibn Sino ta'lim-tarbiyaning alohida guruhlar bilan suhbat uslubini tavsiya qiladi. Eng muhimi bolaning shaxsini hurmat qilishdan boshlash kerak: "bolaga zug'um qilib, unga xurmat-sizlarcha munosabatda bo'lmaslik, aksincha, tengdosh o'rtoqlarday gaplashish lozim".⁹ Olim suhbat, tushuntirish, misol keltirish singari uslublarning imkoniyatlari haqida so'z yuritadi. "Salbiy xislatlarni tuzatish, shaxsni qayta tarbiyalash muammosi haqida ham mulohaza bildiradi. Buning uchun avvalo bolani har tomonlama o'rganish va shu asosda undagi salbiy qiliqlarni bartaraf etish, ijodbiy fazilatlarini shakllantirishga kirishish mumkin. Olim ayniqsa, jismoniy mashqlarga katta e'tibor beradi. Tug'ilgan kundan boshlab

⁸ Антология педагогической мысли Узбекистана.-М.: "Просвещение",1986, с.86.

⁹ Ўша жойда, 86-бет.

bolaning jismoniy rivojlanishi xususida qayg'urish kerak, deydi. Buyuk tabib bola jismidagi har bir a'zoning salomatligini ta'minlash uchun lozim bo'lgan maxsus mashq usullari ishlab chiqqan. Bu mashqlarni tananing holatiga muvofiq bajarish, kamquvvat, zaif a'zolari og'ir jismoniy mashqlar bilan toliqtirmaslikni ta'kidlaydi.¹⁰U ishlab chiqqan mashqlar kichik va katta, juda kuchli va zaif, tez va sekin, keskin va tez xarakatni taqazo etadigan harakatlarga bo'linadi. Olim usullarni ham bayon qiladi.

Ibn Sino ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roliga katta e'tibor bilan qaragan, yosh avlodni o'qitadigan tarbiyachi quyidagi talablarga muvofiq faoliyat olib borishi lozimligini uqtiradi:

- o'quvchi-talabalar bilan munosabatni tashkil etishda mo'tadil (o'rtacha) bo'lish;

- o'quvchi-talabalarning bilim va mahoratlaridan hayotda foydalana olishlariga e'tibor berish;

- o'quvchi-talabalar bilan ishlashda turli usullarni qo'llay olish;

- o'quvchi-talabalarda bilim olishga nisbatan qiziqishni kuchaytirish;

- o'qituvchining gaplari va fikri o'quvchi-talabalarga tushu-narli bo'lishi uchun har bir so'zini imo-ishoralar bilan bajarishi (binobarin, bu uslub bolalarda his-hayajonni uygatadi);

- tarbiyalanuvchilar ongiga kuyidagi yuksak axloqiy tamoyilni singdirishi "faqat o'zi uchun emas boshqalar uchun ham yashash kerak".

Alloma asarlarida quyidagi pedagogik va didaktik tamo-yillar, o'quv-tarbiya shakl va usullari xususida so'z yuritiladi.

- tajriba;

- sabablarning o'zaro bog'liqligi tamoyili, analiz, sintez, umumlashtirish;

- bolani darhol kitob o'qish bilan bog'lab qo'yimaslik;

- jamoa bo'lib o'qish;

- mashqlar (ularning me'yorlanganligi, imkoniyat borligi, jamoatchilik, o'quvchi-talabalarning qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish);

- o'qitishning asta-sekin, ketma-ketligi, osonidan murakkabga o'tib borishi;

- o'quvchi-talabalarning individualliklarini hisobga olib, tushunarli bo'lishi;

- nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, umumiydan xususiyligga o'tish, tizimlilik va mantiqiylik ifoda etish va mulohazalarining bir tekisligi va ketma-ketligi kabi usullar;

- kuzatish, tajriba, amaliyot.

¹⁰ Ибн Сино. Канон врачебной науки. Книга I, -Т.: "Медицина" 1981, с.17

Ibn Sinoning “Donishnoma” asarining ikkinchi bo‘limi o‘rta asr falsafasining asosiy qismlaridan hisoblagan “Metafizika” deb nomlanib, falsafiy bilimlar ikki turga ajratiladi: amaliy va nazariy. Birinchisi bizni dunyodagi ishlarimizni qay yo‘sinda uyushtirmoqqa o‘rgatadi. Ikkinchisi esa narsalarning mavjudoti to‘g‘risida xabar beradi, uni “nazariy bilim” deyiladi. Bu esa o‘z navbatida uchga bo‘linadi: birinchisi – tabiatdan tashqari narsalar to‘g‘risidagi bilim; ikkinchisi – matematik bilimlar; uchinchi – tabiat to‘g‘risidagi bilimdir.

Demak, har ikkala bilimning har biri o‘z navbatida uch qismga ajraladi. Birinchisi – oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini ta‘minlab turish uchun zarur bo‘lgan masalalarni o‘rganuvchi bilimdir. Bu bilim ham ikki qismga bo‘linadi: 1) diniy-shariat qonunlari; 2) siyosat – bu davlatni idora etish va boshqarish, hukumat va fuqarolar hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta‘minlash masalalarini o‘rganadi. Ikkinchisi – davlat fuqarolari, er-xotin va farzandlar, xo‘jayin va xizmatkorlar o‘rtasidagi munosabatlarning adolatli bo‘lishini o‘rganadi. Nihoyat, uchinchi – insonning xulq-atvori qanday bo‘lishi to‘g‘risidagi bilimdir.

Umuman, ibn Sinoning huquqiy tarbiyaga oid qarashlaridagi e‘tiborga molik narsa shuki, alloma davlatni boshqarish siyosati, ijtimoiy tabaqalar, huquq, qonun va qoidalar haqida keng va izchil ma‘lumotlar beradi. Ibn Sino o‘zining “Risolatu tadbiri manzil” asarida shunday deb yozadi: “Jamiyatda kishilarning me‘yorli yashashlari uchun o‘zaro hamkorlik sharoiti yaratilmog‘i lozim, buning uchun esa jamiyat a‘zolarining hammasi uchun bir xil bo‘lgan oqilona qonun va sud bo‘lmog‘i kerak: “O‘zaro bog‘liq va almashuv jarayonida insonlar bir-birini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv zarur bo‘lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o‘rnatiladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo‘lgan majburiyat tusini beradi. Shuningdek, u yomon ishlarni qiluvchilarga ham, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaruvchilarga ham baho berishi zarur. Buning uchun oliy qonunshunos va sudyani tan olish zarurki, insonlar o‘z faoliyatlarida ularning hukmlaridan foydalansinlar”.

Ibn Sino kishilarni jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan vazifalariga ko‘ra uch guruhga ajratadi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar;

b) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lganlar;

v) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlovchi harbiylar (jangchilar).

Mutafakkir kishilarning bunday tabaqalanishini ma‘qullab, “Risolai tadbiri manzil” asarida shunday deb yozadi: “Aqlli kishilar biladiki, agar hamma kishilar hukmdor va podshoh bo‘lganlarida edi, ularning hammasi yo‘qolib ketardi; agar hamma mehnat qiluvchilarga aylanib qolib, ularning orasida hukmdor va sultonlar bo‘lmasa, ular ham yashab qololmas edilar va halok bo‘lardilar, shuningdek, ularning barchasi moddiy ta‘minlanganligi jihatidan teng va bir xil bo‘lganlarida edi, ba‘zi kishilar boshqalar uchun ishlamaganda edi, o‘zaro yordam va bir-biriga

mukofot berish to'xtar edi. Agarda hamma kambag'al va nochor bo'lganda edi, bu kambag'allik yo'qchilikdan ular ham halok bo'lgan bo'lardilar". Demak, "odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o'zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sababchisidir".

Eng muhimi, ibn Sinoning ta'kidlashicha, har qanday jamiyat fuqarolar manfaatini himoya etuvchi adolatli qonunlar asosida idora etilsa, adolatsizlikka yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun ibn Sino yozadi: "U (davlat boshlig'i) o'zidagi butun kamchiliklarni tugatishi kerak, toki birorta dog' qolmasin. Shundagina u boshqalarda yaxshi sifatlar tarbiyalay olishi mumkin".

Ibn Sino "Rislatu tadbiri manzil" asarida oila va nikoh masalalari to'g'risida ham huquqiy nuqtai nazardan qimmatli fikrlar bayon etadi. "Oila qurish va uni mustahkamlash uchun, – deydi ibn Sino, – ma'lum darajada moddiy ne'matlarga ega bo'lishi kerak. Bu moddiy ne'matlar halol mahnat bilan topilgan bo'lishi shart". Er-xotin o'rtasidagi nikoh o'zaro hurmat va chinakam sevgiga asoslanmog'i lozim, deydi. Shu munosabat bilan u erkak oila boshlig'i, oilaning barcha talablarini qondirish esa uning burchi ekanligini ta'kidlab, erkak kishi oldiga quyidagi talablarni qo'yadi: 1) er shunday bo'lishi kerakki, uni xotini hamisha hurmat qilsin; 2) u dinga e'tiqod qilsin va vijdonli bo'lsin; 3) xotiniga nima va'da bersa, albatta uni bajarsin.

Shuningdek, ibn Sino ayol esa erkakning eng munosib umr yo'ldoshi va bola tarbiyasida ham, oiladagi boshqa ishlarda ham erining eng yaqin yordamchisi va merosxo'ri ekanligini ta'kidlab, xotinlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini uqtiradi: 1) xotin kishi bilimli bo'lsin; 2) dinga e'tiqodli bo'lsin; 3) uyatchan, sharm-hayoli; 4) tabiatan jasur va sabr-toqatli; 5) o'z erini qattiq sevisi; 6) tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylashi; 7) ezma bo'lmasligi; 8) o'z eriga bo'ysunishi; 9) to'g'riso'z, kamtar va farosatli bo'lishi kerak; 10) u hech vaqt o'z sha'niga dog' tushirmasin; 11) eri bilan ehtiyotkor bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib muomala qilishi shart; 12) u o'z vazifasi va burchini yaxshi bilsin; 13) xotin ro'zg'ordagi narsalardan to'g'ri, tejamkorlik bilan foydalana bilsin; 14) u o'z xulq-atvori va yaxshi fazilatlarini bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotishi kerak.

Shu tariqa ibn Sino er-xotin zimmasiga o'ta murakkab va hayotiy vazifalarni yuklaydi. Ayniqsa, oila boshlig'i oldiga katta talablarni qo'yadi. Agar oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natija kelib chiqishi mumkin. "Oiladagi yomon tarbiya, – deb uqtiradi olim, – faqat shu oilaning o'zigagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin".

Ibn Sino ko'rsatadiki, shart-sharoitning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bola tarbiyasi ota-onalarning asosiy burchi va vazifasidir. Ota-ona davlat boshlig'imi yoki jamiyatning bir fuqarosimi, unisidan qat'iy nazar bola tarbiyasi masalasida ularga bir xil talab qo'yiladi. Davlat boshlig'i va boshqa katta mansabli kishilar ham oila tarbiyasi masalasida boshqalarga o'rnak ko'rsatishi kerak. Shuning uchun ham ibn Sino oddiy xalq oilani boshqarishda ham, bolalarni tarbiyalashda ham davlat boshlig'idan namuna olishi kerak. Davlat boshlig'ining eng yaxshi fazilatlariga ega bo'lishini talab qiladi, uni xushmuomalali, adolatli va oilaparvar bo'lishga chaqiradi.

Ibn Sino shuni ham alohida uqtiradiki, oila a'zolarining hammasi o'z kuchi va qobiliyatiga qarab ijtimoiy-foydali mehnatning biror turi bilan shug'ullanishi zarur, biror kishi sababsiz bekor yurmasin: "Kishi boshqa kishilarning ehtiyojini qondirish uchun yashaydi, mehnat qiladi, o'z navbatida boshqalar ham xuddi shunday. Birov ko'chat o'tqazadi, birov oziq-ovqat tayyorlaydi, birov kiyim-kechak va boshqa birov yana boshqa xil, ko'pchilik uchun zarur bo'lgan yumushni bajaradi. Shunday qilib, jamiyatda har bir kishi jamiyat a'zolari uchun foyda keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'ladi..."

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, mehnatsiz hayot kechirish oqibatida jamiyatga ham moddiy, ham ma'naviy zarar yetkaziladi. Shu bois ham u uqtiradiki: "Biz amaldorlar, o'ziga tinch oila farzandlarining ozmunchasini uchratmadikki, ular ota boyligi, davlatiga mag'rur bo'lib, bir kasb-korni o'zlashtirishga kirishgan bo'lsin va shu yo'sinda o'z ma'naviy takomiliga erishgan bo'lsin".

Ayni choqda ibn Sino bekorchilik–o'g'irlik, qimorbozlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishalikni keltirib chiqaradi, degan xulosaga keladi. Ayniqsa, u ichkilikbozlikning zarari haqida to'xtalib, bu barcha yomonliklar va jinoyatlarning sababchisidir, deydi:

*Harom o'lmish sharob olamda balkim jahli johildin,
Nechakim ichdi johil, bo'ldilar mayning adosi.
Sharobni ablah ichsa, chun gunohi haddidan oshgay,
Tilidin lof yog'ilg'ay, o'zgarib fikri-havosi...*

Shunday qilib, Ibn Sino ham boshqa ilg'or fikrli allomalar singari xalqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik bo'lishini, zolim shohlar o'rnida adolatli, ma'rifatparvar shohlar va hokimlar davlatni boshqarishini, shuningdek, jamiyatda ilm-fan taraqqiy etishini orzu qilgan.¹¹

Qomusiy olim **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy** (973-1048) ong, idrok jarayoni va uning kechishini puxta o'rganishga harakat qilgan. Idrok etish faoliyatini faollashtiruvchi o'qitish shakl va usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o'quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsini kamolga yetkazishdagi o'рни va roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi:

- berilayotgan ma'lumotning tushunarligi (bilimlarni berishda o'quvchi-talabalar uchun tanish bo'lgna, ya'ni yaqindagi ob'ektlar asosida unga tanish bo'lmagan, (uzoqdagi) ob'ektlarning mohiyatini yoritib berish, ma'lum bilimlar negizida noma'lum tushunchalarning asoslanishi ijobiy natijalarni kafolatlashiga e'tiborni qaratadi);

- o'quvchi-talabalarni ilmiy asoslar bilan qurollantirish (ushbu jaryonda o'quvchi-talabani ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish, unda tajriba o'tkazish va amaliy kuzatishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni doimiy ravishda takrorlab borish bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam berishini qayd etib o'tadi).

¹¹ Расулова Ф., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. Хоразм Маъмун академиясининг олис-яқин юлдузлари. Т.: 2005, 78-85-бетлар.

Beruniyning ta'limning muhim masalasi ta'lim jarayonida amaliyotda sinalgan, ishonchli dalillar bilan o'quvchi-talabalarni qurollanishidir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday ta'lim jarayoni o'quvchi-talabalarning ongli faoliyatini, uning mantiqiy mushohada yuritishini faollashtirishga yo'naltirilgandir. Chunki anglamagan hodisalar anglagan hodisalar orqali tushuniladi. Tajriba asosida yangilik o'zlashiriladi.

Og'zaki va yozma ma'lumotlarni o'rganish tajribasi, dalillarga tanqidiy yondashishi, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish, bilimni ongda qayta ishlash borliqni anglashning ilmiy uslubidir, deydi Beruniy.

Beruniyning ta'kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi.

O'quvchi-talabalarning yaxshi o'qishi uchun muallim rostgo'y, savodxon, shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo'lishi kerak. Muallim o'quvchi-talabani doimo to'g'ri yo'lga boshlashi, uning sezgir va talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi. Zotan, o'quvchi-talabaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim-tarbiya mezonidir.

Beruniy o'qitish jarayoni muallimning o'qib-o'rgatishi, takror-lashi bilan bevosita bog'liq ekanini alohida uqtiradi. Shuningdek, u kitob o'qishning usul va metodlariga alohida e'tibor beradi. Kitoblarni shunchaki emas, balki fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish, hamma o'qilgan joylarini umumlashtirib, qayta o'qish haqida didaktik mulohazalar bildiradi.

Beruniy o'qitishga faqat *induktiv* yo'l bilangina emas, balki *deduktiv* yo'l bilan ish tutish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o'z joyida qo'llamok zarurligini yaxshi bilgani ko'rinib turibdi. Bunday o'qish tafakkurni o'stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi.

Ma'lumki, o'quvchi-talabani to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish, asosan, alifboni o'rgatish davrida amalga oshiriladi. O'qish bilan savod o'rganish jarayonida o'quvchi-talabaning bilim va malakalari takomillashtiriladi. O'qish darslari grammatika, orfografiya, matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlardan beriladigan bilimlarni mustahkam egallashda muhim rol o'ynaydi.

Abu Rayhon Beruniy dastlab o'quvchi-talabaning ongli o'qishi, matnning hajmi kichik, mazmuni sodda, keyinchalik esa xajm katta mazmuni murakkabrok bo'lganlarini o'qishga kirishishi, o'qish jarayonida taqqoslash, kiyoslashga e'tibor berish talabalarning ongli bo'lishiga asos solishini eslatib o'tgan.

Olim o'qilganlarning xammasini qaytarib o'qish deganda, asosan, xato qilmay, so'zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlatmay, bo'g'inlarni tushirib koldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi. O'qishning tez, to'g'ri va ifodali bo'lishi, o'qish davomida bolaning o'z-uzini tuzatib borishi xatosiz o'qishga yordam beradi. Bunday o'qishda asar mazmunini tushunib so'zlarni to'g'ri talaffuz kilib va ifoda etilgan voqea-larning ichki va tashqi mohiyatini anglab o'qishni ta'kidlaydi.

Hozirga vaqtda o'quvchi-talabaning savodli o'qishida to'rtta asosiy tarkibiy kism, ayniqsa ahamiyatlidir. Bular ongli, ifodali, to'g'ri va tez o'qishdir. Ular

o‘zaro ichki bog‘lanish motivlariga ega. O‘rta asrning buyuk donishmandi Beruniy o‘kish haqida ana shu o‘zaro bog‘liqlik o‘quvchi-talabalarning o‘qish faoliyatini mukammallashtirishga, rivojlantirishga imkon yaratishini nazarda tutgan edi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo‘yadi, shu bilan birga, bilim berish xilma-xil yo‘l bilan, eng muhimi, o‘quvchi-talabani toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan o‘quvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilishni chukurlata borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi. U hakiqiy maqsadga erishish uchun yo‘lini to‘sib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyotkorlik bilan xarakatlanish lozimligi, o‘zlashtirilgan bilimlar xayotda tajriba qilib olinmasa bundan hech naf bo‘lmasligi haqida gapiradi. X-XI asrlarda Beruniyning didaktikasidagi ta‘lim berish usullari va metodlari ayrim jihatlarining soddaligi va qarama-qarshiliklariga qaramasdan, katta kashfiyotligi va ilmiyligi bilan qimmatlidir.

Beruniy “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgor-liklar”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi asarlarida inson va jamiyatning paydo bo‘lishi, davlatni boshqarish siyosati, ijtimoiy adolat, jamoa faoliyati, mehnat taqsimoti va pul muomalasi, oila va nikoh munosabatlari masalalariga ham to‘xtaladi.

Beruniy inson va jamiyatning paydo bo‘lishi masalasiga to‘xtalib: “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”, deydi. Beruniy kishilik jamiyati paydo bo‘lishi haqida fikr yuritarkan, insonlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lsa-da, kishilarning ichki tuzilishi barchada umumiydir, degan xulosaga keladi. Ana shu nuqtai nazardan xalqlarning turli ajdodlaridan paydo bo‘lgan degan ehtimolni butunlay rad etdi. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini juda ko‘p ilmiy dalillar asosida tushuntirib beradi: “Ular a‘zolarining o‘xshashligi bilan, tashqi ko‘rinishlari ham o‘xshab ketadi”.

Beruniy fikricha, inson hayvondan aql bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo‘lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi.

Ayniqsa, mutafakkirning insonning jismoniy tuzilishi va butun faoliyatini aniqlashda jo‘g‘rofiy omilning roli haqidagi fikrlari katta ahamiyatga ega: “...(odamlar) tuzilishlarining rang, sur‘at, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer (odam yashaydigan joy)larning turlichaligidan hamdir”.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma‘naviyat” 2008 yil.
2. E. Yusupov, F. Ismoilov. “Inson barkamolligi”. Toshkent. “O‘zbekiston” 1990 yil.
3. Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” Toshkent. “O‘qituvchi” 1995 yil.
4. R. Saidov, N. Xollijev. “Inson odobi”. Toshkent. 1988 yil.
5. Hoji Sotimxon Munavvar. “Odobnoma”. Toshkent. “Fan” 1992 y.
6. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,

7. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

3-mavzuga doir tayanch atamalar

1. Renaissance- Renessans- Uygʻonish davri- ilm-fan uch yoʻnalishda yuksak darajada rivojlangan.

2.National tradition-Natsionalnaya traditsiya- Milliy anʻana – millat hayotining turli sohalarida namoyon boʻladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga oʻtish hamda meros boʻlib qolish koʻrinishi.

3.Movarounnahr-Maverannaxr-Movaraunnahr--(arab.-daryoning narigi tamoni)-oʻrta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama.

4. Thinker-Moʻslitel-Mutafakkir- Zamonning genial insoni.

Nazorat savollari

1. Abu Nasr Forobiyning taʼlim-tarbiyaga oid gʻoyalarini ifodalangan?
2. Ibn Sinoning pedagogik qarashlarini tushuntirib bering?
3. Ibn Sinoning qaysi asarlarida maʼrifatparvarlik gʻoyalari ilgari surilgan?
4. Beruniyning maʼrifiy-axloqiy qarashlarini tushuntirib bering?

Mustaqil ish mavzulari

1. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari.
2. Ibn Sinoning pedagogik qarashlari.
3. Al-Xorazmiyning pedagogik qarashlari.
4. Ibn Sinoning maʼrifiy-axloqiy qarashlari.

Test savollari

1. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari berilgan qatorini toping.

- A.Yurtga sodiqlik, insonparvarlik, mexnatsevarlik, xushhulqlik insonni komillik sari yetaklaydi;
B. Ta'lim-tarbiyada nazariy va amaliy masalalar muxim oʻrin tutadi
C. Bola tugʻilgandan to oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim;
D. Bilimdon boʻlish tarbiya bilan chambarchas bogʻliq, shu bois bola tarbiyasiga ertaroq kirishmoq lozim.

2. «Inson boʻlib dunyoga keldingmi, biror kasb egalla, hunar oʻrgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek yashamaysan». Yuqoridagi fikrlar kim tomonidan aytilgan?

- A. Abu Ali ibn Sino.
B. Beruniy.
S. Al-Xorazmiy
D. A. Navoiy

3. Ta'lim-tarbiya mazmuni nima asosiga quriladi?

- A. Odob-axloq me'yorlari asosida.
B. Muayyan tuzum yuritgan siyosat oʻz oldiga qoʻygan vazifa va maqsadlar asosiga quriladi.
S. Koʻnikma, malakalarni shakllantirish asosiga.

D. Tashqi muhit ta'siriga ko'ra

4. Komillik suziga ta'rif bering ?

A. Insonning akliy kamoloti boskichlariga muntazam ravishda erishuvchi jarayondir

B. Ma'naviy va jismoniy guzallik

S. Etuklik va bekamu kustlik

D. Mexr-muxabbat, adolat, tʻʻrlik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi asl insoniy azilatlarning majmuidir.

5- Mavzu: Qardosh halqlar mutafakkirlari va ma'rifatparvarlarining ma'rifiy-pedagogik qarashlari.

Reja

1. Abulqosim Firdavsiyning pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan xissasi.

2. Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari.

3. Jaloliddin Rumiyning pedagogik qarashlari.

4. Mirzo Abdulqodir Bedilning ilm-ma'rifatga oid fikrlari.

Tayanch iboralar: pedagogik fikrlar, ilm-ma'rifat, fazilat, aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya.

Abulqosim Firdavsiy (taxminan 940/941-1025/1026) jahon madaniyati va ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakirdir. Uning "Shohnoma"si xalq qahramonligi, vatanparvarlik, markazlashgan davlatni vujudga keltirish, adolatli shoh, yaxshilik va ezgulik, samimiy muhabbat va sadoqat, nasihatnoma hamdir. Unda Firdavsiy mehnat va mehnatsevarlik, ilm va ma'rifatparvarlik, aql va hikmat, sahovat va himmat haqida fikr bildirib, kishilarni oqil va odil bo'lishga chaqiradi, zolimlik, qonxo'rlik, tanballik va himmatsizlikni qoralaydi.¹²

Firdavsiy mehnat va g'ayrat-shijoatli bo'lishni ulug'lab, tanbal, dangasa bo'lmaslikka da'vat etadi. Uning fikricha, ishdan qochgan kishidan nom, or-nomus va jur'at ham yiroqlashadi. Kishilarning dangasaligi yomon qalblik oqibatidir, yomon qalblik dangasalikka hamovozdir... Jahonda mehnatsiz foyda yo'qdir, kimki dangasa bo'lsa, unga boylik kelmaydi...Yosh kishi dangasa bo'lsa, xayotning qalbi undan to'yadi (bezor bo'ladi).

Firdavsiy mehnat qilish bilan kasb-hunar egallashni targ'ib qilar ekan, kasb-hunarning mohiyatini ta'riflab, shohlarga uch narsani orzu qilishni maslahat beradi.

Toza bo'lsa agar podshoh zoti,

Yaxshilikka qolur jahonda oti.

Unga uch nimarsa bo'ladi orzu.

Agar uchdan o'tsa, to'rt bo'ladi u.

Pok zotu, hunaru, nasabing agar,

¹² Н.М.Маллаев., Абулқосим Фирдавсий, УзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти., – Т.: 1962, 55-бет.

Birlashsa ajoyib mevalar berar.
Yazdon inoyati kishi gavhari,
Yomonga yo‘lamas, qochar u nari.
Hunar o‘rganursan har hil kishidan,
Qochmasang mehnatu ranj tashvishidan.

Firdavsiy kasb-hunarni e‘zozlab, kasb-hunar eng avvalo gavhardan yaxshi, xunarmand tomonidan gavhar pardoatlanishini, kasb-hunar tajriba va matonat bilan egallanishini aytadi. Firdavsiyning takidlashicha, inson qancha boylik egasi bo‘lsa ham agar u tajribasiz bo‘lsa, biror kasb-hunarni egallay olmaydi, har bir inson hayotda yaxshilik va yomonlikni boshdan kechirsagina, mo‘min-qobil bo‘ladi.

Firdavsiyning uqtirishicha, aql – idrok va bilim har bir insonning fazilati va boyligidir:

*Xudo ne‘matlarin oliysi idrok,
Aqlni vasf etar kimki dili pok.
Aql bir tirik jon, bilmaydi zavol,
Aql turmush asli, buni yodlab ol.
Aql yo‘l ko‘rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqlli obod.
Aqldan g‘amginlik, shodlik, o‘ktamlik,
Aqldan borligu-yo‘g‘ligu, kamlik.
Agar aqli xira bo‘lsa har inson,
Shodlikka erisha olmas bir zamon
Aql va idrokdan bezak topsa dil,
Uni gavhar to‘la ganjga qiyos qil.¹³*

Mutafakkirning fikricha, aql rahnamodir, ko‘ngilni shod qiluvchidir, shodlik va odamiylik aql tufaylidir, ko‘plik va ozlik undandir. Kimki aqlsiz bo‘lsa, uning bag‘ri o‘z qilmishidan yaralanadi.

Firdavsiy ilmni qudratli kuch hisoblaydi. U toj-taxt uchun ham, shodlik uchun ham bilim bo‘lishi shart ekanligini, ilmsiz toj-taxt foydasizligini ta’kidlab, ilmlarni egallashga chaqiradi:

*Har nechuk ilmdan eshitsang bir so‘z,
Uni tinmay o‘rgan kechayu-kunduz.
Ilmdan bir shu‘la dilga tushgan on,
Shunda bilursanki, ilm bepoyon.*

Firdavsiy har bir insonning pand-nasihatga va ibratli xatti-harakatlarga amal qilishini maslahat beradi. Uning ta’kidlashicha, har bir kishi eshitgan foydali so‘zlarini unutmasligi kerak.

Buyuk alloma ezgulik va yaxshilik, shirinsuxanlik, insoniy fazilatini kamol toptirishni, chin inson bo‘lishni, har bir kishi uchun baxt va sharaf ekanini uqtirib, dunyoda odamiylikdan ko‘ra yaxshiroq ish yo‘qligini aytadi:

*Jahonda qoldirsang agar yaxshi nom,
Bizdan so‘ng faqat shu etadi davom.*

¹³ Қаранг: Ўзбек педагогикаси тарихи. А.Зуннунов умумий таҳрири остида. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997, 242-бет.

Shoir hirs, ochkoʻzlikni qoralaydi, uning inson boshiga keltiradigan falokatini koʻrsatib deydi:

*Faqat odam koʻzin hirs nomli olov,
Koʻr qilib tanitmas kim oʻgʻil, kim yov.*

Firdavsiy manmanlik, takabburlik kishi boshiga tashvish keltiruvchi, ishni orqaga ketkazuvchi illat ekanini uqtiradi:

*Manmanlik, takabbur keltirdi tashvish,
Shundan soʻng orqaga ketaverdi ish.*

Firdavsiy yoshlarni ona-Vatanni yovdan asrashga va eʼzozlashga daʼvat etadi:
*Jahonni bermaylik, keling yomonga,
Barchani boshlaylik yaxshi tomonga.*

Mutafakkir oʻz asarida bola tarbiyasiga alohida eʼtibor berib, bola garchi sher kabi yovvoyilashgan boʻlsa ham, otaning kushandasi boʻlmasligini, agarda u shunday yoʻl tutsa, buning uchun ona javob berajagini aytadi:

*Farzand boʻlsa hamki sher kabi gushna,
Otasin qonigʻa boʻlmagʻay tashna.
Agar boshqacharoq boʻlib chiqsa ish,
Sirin onasidan kerakdir bilish.*

Umuman, Abulqosim Firdavsiy oʻzining «Shohnoma» asari bilan Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining koʻp asrlik maʼnaviy madaniyati taraqqiyotiga, shuningdek, pedagogik fikrlar rivojiga ulkan hissa qoʻshdi. Uning falsafiy, ijtimoiy, axloqiy-tarbiyaviy qarashlari oʻz davri va undan keingi davr uchun ham muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Muslihiddin Saʼdiy Sheroziy (1184-1291) “Guliston” asarida uqtirishicha, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash jarayonida hayot uchun zarur boʻlgan insoniy fazilatlarni shakllantirish kerak, deydi. Bu esa, insonda asta-sekin, avvalo oilada va maktabda tarbiya yoʻli bilan, katta boʻlganda esa hayotiy tajriba yoki oʻz-oʻzini tarbiyalash jarayonida shakllanadi:

*Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulgʻaygach boʻladi baxtsiz, dili gʻash.
Hoʻl novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni toʻgʻrilar faqat oʻt-otash.¹⁴*

Saʼdiyning fikricha, boladagi qobiliyat oʻz-oʻzidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya boʻlmasa, boladagi bor qobiliyat ham yoʻqoladi. Uning kamol topishi uchun kamolotga asos boʻladigan qobiliyat negiz boʻlishi kerak. U oʻz fikrini isbot uchun «Guliston» asarida quyidagi hikoyani keltiradi:

«Bir vazirning takasaltang oʻgʻli bor edi. Vazir oʻgʻlini bir donishmand huzuriga eltib: «Shuni. tarbiya, qil, shoyad aqli kirib, odam boʻlsa» - dedi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi boʻlmadi. Bolaning otasiga bir odam orqali: «Oʻgʻling odam boʻlmadi, meni ham aqldan ozdirdi» – deb xabar qildi.

Saʼdiy bu voqeadan shunday xulosa chiqaradi:

¹⁴ Саъдий. Гулистон. Ғ.Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти. –Т.: 1968, 145-бет.

Qobiliyat bo'lsa aslida,
Tarbiya unga qiladi asar.
Qancha urinsa bo'lmas sayqali,
Temir aslida bo'lmas javxar.¹⁵

Sa'diy o'z pedagogik qarashlarida tarbiyani uch asosiy ko'rinishga - **aqliy, nafosat va jismoniy, mehnat tarbiyasiga** bo'ladi. Mutafakkir bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga yuklaydi, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi va farzand tarbiyasida ota-onaning burchini shunday ta'riflaydi:

«Utay yaxshi nom birla desang agar,
Sen o'g'lingga o'rgatgil ilmu hunar.
Agar bo'lmasa aqlu fikri uning,
Nishon qolmagay sendan o'lgan kuning.
Ota-onasi erkalatsa nuqul,
Juda ko'p qiyinchilikni ko'rgay o'g'il.
Aql o'rgatu, to'g'rilik, poklik,
Sevib erkalatma, qil idroklik...
Agar senda Qoruncha ham, bo'lsa zar,
O'z o'g'lingni qoldirmag'il behunar»¹⁶

Sa'diy ota-onalarga har bir farzandning xulq-atvorini hisobga olgan holda bolalarni qobiliyatli qilib o'stirishni, axloqiy tarbiyani yoshligidan boshlashni tavsiya etadi. Sa'diyning uqtirishicha, xulq-atvor shakllanib bo'lgach, bolaga tarbiya uncha kor qilmaydi, deydi.

Aqliy tarbiya, Sa'diyning nazarida, bilimni egallash va uni hayotga tatbiq etish bilan bog'liqdir. Aqliy tarbiya uni hayotda sinash jarayonida rivojlanib boradi.

Sa'diy bilimni hayotga tatbiq etishni tashviq etar ekan, uning hayotiy mohiyatini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, bilimni egallagan odam aqli va axloqlidir. Bunday odam jamiyatda qadrlanadi, qaerda bo'lmasin, uni hamma hurmat qiladi, u hamma yerda shuhrat qozonadi. Sa'diy ilmga amal qilmagan olim haqida shunday hikoya qiladi:

«Bir odamdan: «*Ilmiga amal qilmagan olim nimaga o'xshaydi?*»—*debs o'radilar. U javobida: «Bolsiz asalariga o'xshaydi!*» – dedi.¹⁷

Sa'diyning fikricha: «... *Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib, foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib, amal qilmagan odam:*

*Harchand o'qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.*¹⁸

Odam bilimni turmushda foydalanish uchun egallaydi, tajribada qo'llanmagan bilim foydasizdir.

Sa'diy hayotiy tajribani axloqiy ma'noda tushunadi. Uning bilimni tajribada qo'llash haqidagi fikri hozirgi davrda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan.

¹⁵ Ўша жойда, 143-бет

¹⁶ Ўша жойда, 110-111-бетлар.

¹⁷ Ўша жойда, 173-бет.

¹⁸ Ўша жойда, 157-бет.

Sa'diy odamlardan axloq me'yorini bilishni va hayotda unga rioya qilishni talab etadi. Shu bilan birga, u bilimni barcha sohada odamlarda go'zal insoniy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirishni talab etadi.

Sa'diy birorta sohada bilim egallashni boshladimi, to uni oxirigacha yetkazishni maslahat beradi: buning uchun odam, birinchidan, bilimga qiziquvchan, hamma yerda va hamma vaqt yangilikka intiluvchan bo'lishi kerak; ikkinchidan, bilimni quruq o'rganishni emas, balki munozara yo'li bilan haqiqatni aniqlab, ongli suratda o'zlashtirish kerak, deydi. Uning fikricha, munozarasiz bilim rivoj topmaydi.

Shunday qilib, Sa'diy kishini hayotga tayyorlash uchun, eng avvalo, aqliy tarbiyani tajriba bilan bog'lash, mustaqil o'qish yo'li bilan amalga oshirish kerakligini tavsiya etadi. Aqliy rivojlanish kamolot uchun zarur, demak, aqliy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uyg'un bog'lanishi kerak.

Sa'diyning pedagogik qarashlarida yosh avlodning axloqiy tarbiyasi markaziy o'rinda turadi. Shu masalani yechishda Sa'diy insonparvarlik prinsipidan kelib chiqadi. Uning pedagogik ta'limotiga ko'ra, insoniy muhabbat va hurmat tuyg'usi inson qadriyatida, axloqiy tarbiyada asosiy o'rnini egallaydi. Shu ma'noda, u yoshlarga murojaat qilib, ularni bilimlarni egallashga, xush axloq bo'lishga da'vat etadi.

Muhtojlarga yordam berishni Sa'diy birinchi darajali insoniy fazilat hisoblaydi. Ayniqsa, u yetim bolalarga ota-onalari kabi g'amxo'rlik qilish zarurligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Uning fikricha, yetimlar va muhtojlarga yaxshilik, ezgulik qilish insonparvarlik va odamiylikka xos xususiyatdir:

*Yetimlar boshiga mudom soya sol,
Arit gardu changin, tikan kirsa ol.
Yetim tursa oldingda ma'yusdil,
O'z o'g'lingni hatto o'pib suymagil...
Art rahm etib, oqib ko'z yoshini,
Yuzin changin yo'qdir qarindosh, tanish,
Uzing parvarish qil, o'zing parvarish»¹⁹.*

Sa'diyning nazarida, inson tadbirkor, tejamkor bo'lmasligi tufayli kambag'allashishi, muhtojlikka tushishi mumkin. Shuning uchun kishi shunday fazilatlarga ega bo'lish bilan birga yana sabrli bo'lishini va nafsni tiya bilishni ham o'rganishni tavsiya qiladi. Bu xususiyatlarga ega bo'lgan insonni a'lo xulqli deyish mumkin, deydi.

Sa'diy nafsni tiyishning foydasi va zarari haqida shunday hikoya qiladi:

«Olimlardan biri o'z o'g'lini ko'p ovqat yemakdan tiyib: «Ko'p yemak tanga zarar», – dedi. O'g'li unga aytdi: «Ey ota, odamni ochlik o'ldiradi. Eshitmaganmisiz, zariflar (askiyachilar): «Ochlik azobini chekkandan ko'ra – to'qlikdan o'lgan yaxshiroq» deydi».

Sa'diy ushbu hikoyati orqali shunday xulosaga keladi:

*Ko'p yema, og'zingdan chiqib ketmasin,
Och yurma zaiflik jondan o'tmasin.*

¹⁹ Ўша жойда, 54-бет.

*Ovqatdan tanaga keladi lazzat,
Ammo ortiqchasi keltirar zahmat.
Gulshakar zarardir ko'p yesang agar,
Me'yorida yesang, non ham gulshakar.
Me'da to'lib ketib, og'risa qorin,
Nafi bo'lmas dori-darmonlar barin*²⁰.

Sa'diy odamlarga sabrli, tejamkor, mehnatsevar bo'lish bilan birga, kamtar bo'lishni ham uqtiradi. U kamtarlikni keng ma'noda tushunib: kamtar odam xushmuomala, tavoze'li, yaxshi va samimiy maslahatlarga e'tiborli bo'ladi, unga maqtancholik, xushomadgo'ylik, chaqimchilik begonadir, deydi.

Sa'diy yosh avlodni axloqiy jihatdan kamol topishiga alohida e'tibor qaratadi, u insondagi rostgo'ylik xislatini eng muhim xususiyatlardan biri deb biladi. Kishi bu fazilati bilan boshqalarning muhabbati va hurmatiga, eng muhimi, ishonchiga sazovor bo'ladi. Rostgo'y kishi rostgo'yligi o'ziga noxushlik keltirganda ham rost gapiradi, deydi. G'iybatchilik, chaqimchilik, yolg'onchilik inson uchun yomon hislatdir, deb hisoblaydi.

Sa'diy yoshlarni kishilar bilan muloqotda bo'lishda ehtiyot bo'lib, xushaxloqlik bilan har bir so'zni o'ylab gapirishga da'vat etadi. Aqlli odam ko'p va o'ylamasdan gapirmaydi, gapirganda ham har so'zini dilidan qimmatbaho yoqut kabi saralab chiqaradi. Bemavrid, behuda so'zlab, o'zining ham, so'zining ham qadrini ketkazmaydi. Uni birov tinglamas ekan, yaxshisi sukut saqlashi kerak.

Ammo barcha holatlarda sukut saqlash kishining aqlliligidan darak emas. Shuning uchun, o'z o'rnida so'zlab, o'z bilimi va donoligini namoyon etmog'i ham lozim. Bu haqda Sa'diy shunday hikoya qiladi: «Sahboi Voilni fasohatda tengi yo'q, deb hisoblar edilar, chunki u bir majlisda bir yil davomida so'zlasa ham bir ishlatgan so'zini takrorlamasdi. Bir fikrni ikkinchi marta aytishga majbur bo'lgan taqdirda ham, boshqa iboralar bilan ifoda etardi, deydi:

*So'zing garchi dilkash va shirin bo'lur,
Mukofoti tasdiku tahsin bo'lur.
Bir aytdingmi, aytma uni o'zga dam,
To'yib bir yedingmi yetar, holva ham.*²¹

Agar kishi munozaraga taklif qilinmasa, u boshqalar gapini bo'lmasligi, kattalarga qaraganda o'zi ko'p narsani bilsa ham hadeb hamma narsaga aralashavermasligi lozim, deydi Sa'diy.

Sa'diy yozadi: «Birov gapini tugatmasidan burun gapga aralashadigan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkor qiladigan odam bo'lmaydi» - deydi va fikrini shunday xulosalaydi:

*Ey oqil, so'zning ham bosh-oyog'i bor,
Uzga so'zga so'zing qistirma, zinhor.
Aqlu xush egasi tadbirli inson,
So'z boshlar suhbatdosh jim bo'lgan zamon*²².

²⁰ Ўша жойда, 96-бет.

²¹ Ўша жойда, 119-бет.

²² Ўша жойда, 120-бет.

Shu zaylda Sa'diy o'zining «Guliston» asarida odamlar bilan muloqot odobini bayon etadi. Uning uqtirishicha, do'stlik ikki muhim xususiyatga - samimiylilik va tarbiyaviylilik xususiyatiga ega.

Mutafakkir boshiga kulfat tushgan odamga muruvvat ko'rsatgan, uning dushmanlarini o'zining dushmani deb bilgan odamni haqiqiy do'stdir deydi. Adib do'stlik mustahkam bo'lishi uchun quyidagilarni shart qilib qo'yadi:

*...Gar oqil esang, do'stdan kechmagil,
O'shanda g'anim ko'z ocholmaydi bil...
Agar sen esang do'st bilan jonu tan,
G'anim yemirilur shohu ildiz bilan*²³.

Sa'diy bu shartlarga amal qilinmas ekan, demak, do'stlik samimiy emas, deydi. Uning nazarida, haqiqiy va samimiy do'stlik inson qalbida o'chmas iz qoldiradi, uning axloqiy-ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

Sa'diy do'stlikning tarbiyaviy ahamiyatini yuqori baholagan holda, otalarni ogohlantirib, o'z bolalarini yomonlar bilan muloqotda bo'lishiga yo'l qo'ymasliklarini uqtiradi. Ota-onalar, ayniqsa, ota bolasi tarbiyasiga e'tibor bermasa, bola yomon odamlarga qo'shib qolishi mumkin. Uning bu fikri xalqning «**Bola aziz, odobi undan aziz**» maqoliga hamohangdir.

Sa'diy o'z asarlarida mehnat tarbiyasiga katta e'tibor beradi: har bir yosh avlod oilasidagi ahvolidan qat'i nazar, kasb-hunar o'rganishi kerakligini uqtiradi:

*Hunar lozim, naqshni chizsa bo'lg'ay,
Devorlarga bo'yoqlar pushti, zangor.
Agar bo'lmas ekan fazlu hunar hech,
Bilib bo'lmas odammi, naqshi devor*²⁴.

«Guliston» asarida Sa'diy bir otaning o'z o'g'liga kasb-hunar o'rganish kerakligini uqtirganini bayon etadi. Ota deydi: "Aziz o'g'lonlarim, hunar o'rganinglar, ... hunar qaynar buloq, tuganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, o'zgalar qo'liga qaraydi".²⁵

Sa'diyning uqtirishicha, oila bolaning baxtli kelajagi uchun zamin yaratadi. U oilada asosiy tayanch deb otani oladi va hayotdan misollar keltirib, bolalar tarbiyasi buyicha bir qancha takliflar bilan ota-onalarga murojaat etadi, shu yo'l bilan o'z davridagi ta'lim-tarbiya mazmuni, xalq pedagogikasi usullarini ularga tushuntirishga harakat qiladi. Mutafakkir ota-onalarga o'z bolalarini tarbiyalashni, o'qitishni, kasb-hunar o'rgatishni, jismonan chiniqtirishni, ularga odamlar bilan muloqotda bo'lish odobini o'rgatishni, sog'lom-bo'lish uchun muayyan me'yorda ovqatlanishga odatlantirishni tavsiya etadi.

Umuman, Sa'diy Sheroziyning pedagogik qarashlari – ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlaridan quyidagi xulosaga kelish mumkin: Uningcha, pedagogik faoliyatiga xos birinchi xususiyat shuki, hayotning o'zi, shuningdek, xalq hayoti va turmush tarzi ifodalangan xalq og'zaki ijodi tarbiya haqidagi qarashlarining negizini tashkil

²³ Ўша жойда, 136-бет.

²⁴ Ўша жойда, 151-152-бетлар.

²⁵ Ўша жойда, 117-бет.

etadi. Birinchi xususiyat Sa'diy qarashlarini xalqqa yaqinlashtiradi, asarlarining xalqchilligini ta'minlaydi; ikkinchi xususiyat – bu qarashlarining baynalminalligi, insonparvarligi va vatanparvarligi, shuningdek, dini, e'tiqodi, jinsi va millatidan qat'i nazar, barcha odamlarga nisbatan hurmat bilan qarashidir; uchinchi xususiyat – yoshlarni mehnatni sevishga va boshqalarga foyda keltirishga da'vat etishidir; to'rtinchi xususiyat – do'stlik va birodarlik burchini shaxsiy manfaatni ko'zlab emas, balki tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy mohiyatiga qarab ado etishdir; beshinchi xususiyati – ota-onalarning yosh avlodda yuksak insoniy axloqiy sifatlarni tarbiyalashga da'vat etilishidir.

Jaloliddin Rumiy (1207-1273) o'zining «Masnaviy», «Devoni kabir» («Ulug' devon»), «Fihi mo fihi» («Unda qanday bo'lsa, bunda ham shunday»), «Makotib», «Majolisi sa'ba» kabi asarlari bilan pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir.

Ulug' shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumiy butun umri davomida inson ruhi erkinligini, irqi, tili va diniy mazhabidan qat'i nazar, insonlar tengligini himoya qildi, inson irodasini ozodlikning muhim vositasi deb hisoblab, shu asosda axloq-odob masalalari haqida fikr bayon etdi.

«**Podsho va kanizak rivoyati**»da bayon etilishicha, bir podsho ko'ngil ochmoq uchun shikorga chiqadi. Yo'lda bir kanizakni ko'rib, chiroyiga maftun bo'lib, uni sevib qoladi. Nogahon qiz bemorlanib hushidan ketadi. Shoh tabiblarni chaqirtiradi, biroq ular davo topolmaydilar. Shunda shoh masjidga boradi va mehrobda turib tangriga nolalar qilib, yig'lab, qizga davo berishni so'raydi, uyquga ketadi. Tushida bir mo'ysafid ko'rinadi va ertaga qizni davolaydigan hakim kelajagin aytadi. Hakim kelganda shoh uni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Hakim malika yotgan joyga kirib, yoqimli so'zlar bilan undan hol-ahvol so'raydi. Malika boshdan o'tgan siru sinoatlarini bayon qilib, sevgilisi Samarqandda zargar yigit ekanini va uning turar joylarini aytib beradi. Hakim shohni voqeadan xabardor qiladi. Shoh Samarqandga odam yuborib, yigitni oldirib keladi, unga in'omlar taqdim etadi. Qiz sevgilisi bilan topishadi, sog'ayadi, yori bilan Samarqandga ketadi. Oradan olti oy o'tganda qizni tuzatgan hakim yigitning do'koniga kelib payt poylab unga ajal sharbatini ichiradi, u olamdan o'tadi. Qiz g'am-anduhda ranglari sarg'ayadi, oxirida taqdirga tan beradi.

Bu rivoyatida Rumiy podshoning kanizakka nisbatan ko'rsatgan mehr-shafqatini, boadabligini e'zozlab, adab birlan jahon nurga to'lishini, falak pok, musaffo bo'lishini ta'kidlab:

Nurga to'lgay, boq, adab birlan falak,

Pok, musaffodir adab birlan malak,—deydi.

Rumiy vafodorlikni, sevgida sadoqatli bo'lishni tashviq etadi, ishq Allohning usturlobi asrori ekanini, unga davo yo'qligini aytadi, odamlarni fitna, xunrezlikni orzu qilmaslikka da'vat etadi.

«**Baqqol va uning to'tisi haqida hikoyati**»da shunday voqea tasvir etiladi: Bir baqqolning to'tisi bor edi. U juda so'zamol edi. Savdo ahllari uni notiq deb bilishardi. Bir kuni baqqol uyga ketganda, u uchmoqchi bo'ladi. Shunda qanoti gul yog'i idishiga tegib, u to'kiladi. Baqqol qaytib kelganda to'kilgan yog'larni ko'rib, to'tining boshiga urib-urib kal qiladi. To'ti shu kundan e'tiboran so'zlashni tark

etadi. Baqqol qilgan ishidan afsuslanib sochlarini yulib yig'laydi, yordam istab darveshlarga hadyalar beradi, to'tidan kechirimlar so'raydi. Ammo to'ti so'zlamaydi. Oradan uch kun o'tadi. Boshida birorta tuki yo'q bir darvesh o'tib qoladi. To'ti tilga kirib, undan qanday gunohi uchun kal bo'lib qolganini so'raydi, balki sen ham yog'ni to'kkandirsan, deydi. Xaloyiq uning gaplarini eshitib kuladi, darveshni o'ziga o'xshatdi, shekilli deyishadi.

Rumiy bu voqeani tasvirlash bilan, hayotda hamma odamlar teng emasliklarini uqtirib, ari ham har xil bo'lib, biri zahar yig'sa, biri asal to'plashini, ohu bir xil giyoh yesa ham, sarhisobda biridan tezak, biridan mushki nob kelishini aytadi va:

Hissi dunyo – shu jahonga narvon,

Hissi diniy – osmonga narvon.

Ul biriga doru darmondir tabib,

Bul biriga doru darmondir habib, – deb hikoyani yakunlaydi.

Rumiyning uqtirishicha, dunyo to'plash, mehnat qilish bu jahonda yashash yo'li, Alloh huzuriga solih banda bo'lib borish yo'li esa, diniy qonun-qoidalarga amal qilish va shu yo'lda sa'yi harakatlar qilishdan iboratdir.

Bu dunyoda baqqolga o'xshaganlarga tabiblar doru darmonlik qiladi, to'tiday fazilat egasi bo'lganlarga esa Muhammad alayhissalomgina doru darmondir, madadkoridir.

«**Hudhud va Sulaymon haqida rivoyat**»ida esa mana bu voqea bayon qilinadi:

Sulaymon shoh shikorda yurganida bir joyga kelib chodir tikadilar. Jahondagi barcha qushlar uchib kelib, unga bosh egishadi, xizmatiga shaylanib turishadi. Hammalari g'oyatda ahil, bilgan hunarlarini namoyish qiladilar. So'z navbati Hudhudga kelganda, u ko'kdan turib nazar solsa, yerning usti va tagidagi barcha narsalarni, rangini, qaerda qancha suv borligini ko'rish hunariga egaligini izhor qiladi. Shoh uning so'zlarini ma'qullab, cho'llarda o'ziga xamroh topib olishini bildiradi. Shu paytda zog'-qarg'a paydo bo'lib, Hudhud so'zlari yolg'on, odobsizlik, deb Shohda shubha tug'diradi. Shoh, uning gaplarida jon bor, deb o'ylab Hudhudni sarxushlikda ayblaydi. Shunda Hudhud o'z so'zlari chin, haq ekanini aytib, zog' qavmi o'ziga azaldan dushmanligini, u o'limga munkirligini uqtiradi va o'zi ko'zi ko'r bo'lmaguncha yiroqdan odamni behad ko'rajagini aytdi.

Rumiy bu rivoyatida hamzabonlik – do'stlikni dilni-dilga oshno-begonani payvand etuvchi vosita ekanligini ta'kidlar ekan, hamdil bo'lish undan ham yaxshiligini aytib, hind bilan turkning bir-biri atrofida parvona bo'lishini e'zozlaydi, ikki turkning bir-biriga begonadek bo'lishidan afsuslanadi. Uning fikricha, agarda odamlar o'zaro ahil bo'lsalar, nutqbozlikka hojat yo'q. Qalblar o'zi tarjimonlik vazifasini bajaradi. Shoir:

Hamzabonlik dilni-dilga band etar,

Oshno-begonani payvand etar.

Turli tilda so'zlashuvchi millatlar o'zaro do'st bo'lsalar, o'rtada vositachiga hojati yo'q, deb biladi:

O'rtada ul nutqi biyron ne karak,

*Tarjima qilmoqqa qodirdir gorak...*²⁶

Alloma rivoyatida Hudhud tilidan hasadni qoralaydi, zog‘ xususiyatiga ega bo‘lgan hasadgo‘ylar haq hukmiga mahkumdirlar, deydi.

Jaloliddin Rumiyning «**Ichindagi ichindadir**» asarida do‘stlik, axloq-odob haqida bildirgan fikrlari g‘oyat muhimdir. Bu asariga kirgan va «**Bittasi**», deb boshlanadigan hikoyatida do‘stlik va inoyatni ulug‘lab, uning sodir bo‘lishini misollarda bayon etadi, haqiqiy do‘st bamisoli ko‘zgu bo‘lishini uqtiradi: «Bittasi: «Biz nuqsonlimiz!» dedi. Boshqasi esa, kishida qanday holdaman, nimalar qilyapman, deya o‘z-o‘zini tergash tuyg‘usining uyg‘onishi do‘stlik va inoyat dalilidir. Chunki «Sevgi bor joyda sitam ham bo‘ladi». Begonalarga emas, do‘stlariga sitam qilinadi. Ammo sitamda ham sitam bor. Sitam undan muxtasar bo‘lganga, uning o‘zi uchun yaxshilik va sevgi ekanligini bilganga qilinadi. Shu bilan birga, hech ta’sir qilmaydigan borki, bu sevgi alomati emas. Masalan, gilamni changdan tozalamoq uchun kaltaklashadi. Aqllilar bunga tanbeh berish demaslar. Ammo bir sevgan kishisini yoxud bolasini ursalar, bunga sitam derlar. Shuning uchun modomiki, sen o‘zingda bir dard yoki pushaymonlik his etarkansan, bilgilki, bu senga Allohning inoyati va sevgisidan bir dalildir. Agar sen og‘a-iningda bir qusur ko‘rsang, bu sendagi nuqsonning aksidan iboratdir. Olam ham xuddi shunday oynadir. «*Mo‘min mo‘minning oynasidir*» (Hadisdan). Sen o‘sha qusurni o‘zingdan uzoqlashtir. Chunki undan hosil bo‘lgan sendagi iztirob o‘zingdan.

Rumiy boshqa bir hikoyatida qanoatsizlik ko‘ngilsiz holatlar keltirishini aytib, kishilarni sabr-qanoatli bo‘lishga chaqirib, mol-dunyoda ham ma’lum o‘lchov borligini ko‘rsatadi.

U deydi: «... attor do‘koniga borishing bilan u yerda shakarning juda ko‘p ekanini ko‘rasan. Biroq attor sening pulingga yarasha shakar beradi... Xuddi shunday, odam borki, dengizlarga qonmaydi, odam bo‘ladiki, bir tomchi suv bilan kifoyalanadi, ortiqchasi unga zarar keltiradi. Bu faqat ma’no olamida, ya’ni ilm va hikmatda emas, balki hamma narsada shunday.

Dunyodagi mol-mulklar, oltinlar, qimmatbaho toshlar konlari so‘ngsiz o‘lchovdadir. Biroq ular insonga bahosi miqdorida keladi. Ortiqchasini esa ko‘tarolmay, aqldan ozadi».

Jaloliddin Rumiy odamlarga murojaat qilib, ularni bu dunyoda hamjihat, hamkor bo‘lishga da’vat ztadi: «Odamlar, - deydi shoir, - biz bu dunyo uyida birga edik, deyishlari va bir-birlari bilan go‘zal bir tarzda kelishib, bog‘lanishlari kerak... odamning yaxshi va yomonligini bir chetga qo‘yib, uning shaxsiyatiga, asliga e’tibor bermoq kerakki, ko‘ramiz, ul zotning qanday o‘zligi va javhari bordir. Ko‘rmoq va bilmoq mana shunaqa bo‘ladi».²⁷

Demak, do‘st tanlashda inson shaxsiyatini, uning kimligini ko‘rish va bilish – muhimdir.

Jaloliddin Rumiy aql haqida so‘z yuritar ekan, uni inson vujudida bir amr dsb biladi. Uning ta’kidlashicha, «Mabodo vujud raiyatlariga unga bo‘yinsunsa, barcha

²⁶ Жалолиддин Румий, Учмоққа қанот йўқ вале учгайман. – Т.: 1994, 12-бет.

²⁷ Шарқ юлдузи, 1995 йил 3-4-сонлари, 192 - 193-бетлар.

ishlar tekis ketadi. Agar aksincha esa, hammasi izdan chiqadi. Sarxushlik kelishi bilan bu qo‘lu oyoqdan va vujudning barcha a‘zolaridan har xil noma‘qullikni kutsa bo‘ladi.

Rumiyning fikricha, inson ana shunday holatga tushmasligi uchun, vujud raiyatlari aqlga bosh egishlari zarur. «Chunonchi, tikuvchilik do‘koniga ishga berilgan yosh bola ustaga itoat qilishi lozim. Modomiki bolaning maqsadi ushbu kasbni o‘rganmoq ekan, demak, u o‘z tasarrufidan voz kechib, ustaning amriga «labbay» deb javob berishi shart. (Xuddi shunday biz ham) Ulug‘ Tangridan faqat Uning inoyati asirlari hisoblangan yuz ming zahmat va riyozatdan ustunroq bo‘lgan inoyat so‘raymiz».²⁸

Rumiy o‘z pedagogik qarashlarida amal va ilm hamda ikkisiga ega bo‘lgan insonning hayotda tutgan mavqeiga alohida e‘tibor beradi, ilmni hamma narsadan ustun qo‘yadi, odamlarni ilmi bo‘lishga da‘vat etadi.

Amal hamda ilm mavjuddir, – deydi Rumiy. Ba‘zilarning amali bor-u, ilmi yo‘q. Ba‘zilarda esa, aksincha. Agar insonda ham amal, ham ilm bo‘lsa, u o‘ta muvaffaqiyatli zotdir».²⁹

Rumiyning inson ruhiyati, unga xos xususiyatlar haqidagi fikrlari ham pedagogik-psixologik ahamiyatga ega. Alloma odamlarni o‘z umrlarini behuda o‘tkazmay, g‘ofillikni tashlab, insonlar uchun foydali ish qilishga chorlaydi. Buni «Fasl» hikoyatida ko‘rish mumkin. Hikoyatda «Insonda, – deydi Rumiy, – shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yuzminglarcha olam o‘ziniki bo‘lsa ham, ko‘ngli tinchimaydi. U mashg‘ul bo‘lgan ishida, san’atda, ilmi nujumda hakimlikda... hamma-hamma joyda ham huzur topolmaydi. Chunki istagan narsasini qo‘lga kiritolmagan. Yer diloromdir, ya’ni ko‘ngilni tinchlantiruvchi, demakdir. Shunday ekan, ko‘ngil boshqa bilan-qanday xotirjam bo‘lsin. Zavq va orzular zinapoyaga o‘xshaydi. Zinalar o‘tirib, dam olishga moslashmagan, aksincha, ustiga bosib o‘tiladi, xolos. Umriga shu zinapoyalarda behuda o‘tkazmaslik uchun g‘ofillikdan tez uyg‘ongan va ahvolning mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli!»

Jaloliddin Rumiy ta’limda har bir o‘qilgan kitobning ma’nosini bilish muhimligini ta’kidlaydi, ma’noga z‘tibor bermaslik ko‘r-ko‘rona o‘qish ekanligini aytadi.

Ma’noga yuzlanishni inson dastlab unchalik sevmaydi. Biroq vaqt o‘tgan sayin yoqtira boradi. Bu jarayon suratda (shaklda) aksincha kechadi. Chunki surat boshida xush va latif tuyuladi, biroq u bilan qanchalik ko‘p birga bo‘lganing sari undan shunchalik qattiq sovub borasan. Qur’onning surati qayda-yu ma’nosi qayda? Xuddi shunday, insonga boq! Agar inson suratidan ma’nosi ketsa, jasadi qoladi. Jasadni esa, hech kim ushlab turmaydi».

Umuman, Jaloliddin Rumiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari yoshlar tarbiyasi rivojida salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Sharqning buyuk shoiri faylasufi, mutafakkiri, o‘z davrining **“Mirzo Malik ush-shuarosi” Mirzo Abdulqodir Bedil (1664-1721)** o‘zining **“Irfon”** asarida

²⁸ Ўша жойда, 208-бет.

²⁹ Ўша жойда, 210-бет.

yoshlarni ham ilm-ma'rifatga, adolatga da'vat etadi, hunarni, san'atni, shaxs erkinligi, do'stlik, muhabbat, vafodorlik va adolatni madh etadi.

Bedil "Qomde va Mudan" dostonida adolatsizlik ustidan adolat, jaholat ustidan ilm-ma'rifat tantana qilishini ifodalash bilan, shohlarni, binobarin barcha insonlarni adolatli bo'lishga undadi, zulmning fojiasini ko'rsatdi:

*Qaerdaki bo'lsa zolim badkirdor,
Bir kuni u yengilib, so'ng bo'lar xor*³⁰.

Bedil insonlarni rahm-shafqatli bo'lishga da'vat etar ekan, g'aribu ojizlarga yordam berish, bu – iqqolli bo'lish, qora kunlarni bartaraf etish ekanligini aytib, shunday deydi:

*G'ariblarga kimki ko'rsatsa yordam,
Qora kundan qutulg'usi u har dam.
Qaerdaki bo'lsa iqqol qo'rg'oni,
Ojizlarga yordam uning narvoni.*³¹

Mutafakkir har bir ish – harakatda sabrli, tashvishli kunlarda chidamli bo'lishni maslahat beradi. U sabr, taskin yo'li, kishini murod maqsadiga erishtirish yo'li ekanligini uqtiradi, har bir ishda shoshmaslikni, sabrli bo'lishni maslahat beradi. Bedil Mudan tilidan shunday deydi:

*Sabr bilan har kim dilga bersa qo'l,
Sevinch oynasin ko'rgay albat ul...
Sabri bilan kishi maqsadga yetar,
Chunki u sabr tashvishlardan or etar.
Sabr joyida hovliqishga yo'l bo'lmas.
U - visoldir, u har kimga qo'l kelmas.
Sabr yo'lini taskin yo'li degaylar,
Murod maqsadga u bilan yetgaylar!*³²

Bedil mardlikni yuqori baholab, mardlik, jasorat kishiga baxt, iqqol, orzularga erishtiruvchi omil ekanligini ta'kidlab insonlarni, ko'proq yoshlarni mardlik fazilatini egallashga da'vat etadi:

*Mardlar chindan bel bog'lasa har mahal,
Baxti kulib, topgay orzusi amal.
Qat'iy bo'lsa mardning ahdu jur'ati,
Ko'kni yerga tutashtirar g'ayrati,*³³ – deydi shoir.

Bedil «Irfon» asarida insoniyatni ulug'laydi, ularni yaxshilikka, yomonlikni bartaraf etishga da'vat etadi, uningcha, irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, hamma inson hurmatga loyiq, ehtiromga sazovor mehribonlikka muhtojdir. Ayni vaqtda inson o'z vatanining sodiq farzandi, o'z elining g'amxo'ri bo'lmog'i kerak.

Bedil ijtimoiy hayotdagi, insonlar o'rtasidagi salbiy hollarni dangasalik, makr-hiyla, xiyonat, qalloblik, ig'vogarlik, yolg'onchilik, ochko'zlik, xasislik,

³⁰ Бедил. Комде ва Мудан. –Т.: 1960, 44-бет.

³¹ Ўша жойда, 44-бет.

³² Ўша жойда, 28-бет,

³³ Ўша жойда, 93-бет.

kibru havoni qoraladi. U yoshlar-ni mehnatsevarlikka undadi, kamtarlikda kamol topishni, yaxshi-lar bilan do‘stlashib, yomonlardan yiroq bo‘lishni maslahat beradi.

Bedil, ko‘ngli ochiq va saxiy kishilar oynadek yorug‘, nurafshon bo‘lsalar, makr-hiylali, ko‘ngli qoralar qorong‘u, zulmatsimon ekanligini uqtiradi:

Agar tabiati kasero moili nifoq dar‘yobi,

*Ba yaqin shinosi, ki suhbat, akobir darnayofti.*³⁴

Ma’nosi: agar biror kishi tabiatida nifoqlikka – ikki yuzlamachilikka, aldashlikka, kelishmovchilikka moyillik topsang, shuni aniq bilginki, u kishidan yaxshilik ko‘rmaysan, undan yaxshilik olmaysan.

Bedil «Komde va Mudan» dostonida insonni qadrlamaydiganlarning munofiqligini uning xulqida, xatti-harakatida namoyon bo‘lishini uqtirib, yoshlarni bu illatdan uzoq bo‘lishga undaydi:

Izzat, hurmat qadri bilmay har kishi,

Tartibsizlik bo‘lsa uning uy, ishi,

Xoli uzrin izlash kerak xulqidan,

Odob kelmas xushsizlarning qo‘lidan.

Telbalik xam, odobdir muhabbatda,

*Lekin mag‘rurlik ko‘z bo‘lur g‘aflatda.*³⁵

Shunday qilib, Mirzo Abdulqodir Bedil o‘z davrining buyuk, ilg‘or mutafakkiri sifatida shuhrat qozondi. U ijtimoiy-pedagogik fikrlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma’naviyat” 2008 yil.
- 2.E. Yusupov, F.Ismoilov.“Inson barkamolligi”.Toshkent. “O‘zbekiston” 1990 yil.
3. Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” Toshkent. “O‘qituvchi” 1995 yil.
4. R. Saidov, N. Xolliev. “Inson odobi”. Toshkent. 1988 yil.
5. Hoji Sotimxon Munavvar. “Odobnoma”. Toshkent. “Fan” 1992 y.
6. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

5-mavzuga doir tayanch atamalar

Moral-Moralno’y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o‘tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Nazorat savollari:

³⁴ Ўша жойда, 47-бет

³⁵ Ўша жойда, 39-бет.

1. Abulqosim Firdavsiyning pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan xissasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ta'lim-tarbiyaga oid qanday g'oyalarni bilasiz?
3. Jaloliddin Rumiyning pedagogik qarashlari haqida gapirib bering.
4. Mirzo Abdulqodir Bedilning ilm-ma'rifatga oid fikrlarini tahlil qiling.

Mustaqil ish uchun mavzular

1. Abulqosim Firdavsiyning pedagogik fikrlari.
2. Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari.
3. Jaloliddin Rumiyning pedagogik qarashlari.
4. Mirzo Abdulqodir Bedilning ilm-ma'rifatga oid fikrlari.

Test savollari

1. Donishmand iborasi kandy kishilarga nisbatan kullaniadi?

- A. Kyp narsa biladigan, bilimdon, olim, dono.
- B. Bu olam xakidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar tuplami.
- S. Bu mifologik negizda shakllangan va rivojlangan dunekarashdir
- D. Bola tarbiyasi shugullanuvchi kishi

2. Milliy iftixor deganda nimani tushunasiz?

A. Millatning (aloxida shaxsning) o'zligini anglashi, millat ravnaqini ta'minlash yo'lidagi hatti-harakat, o'z millati istiqboli yo'lidagi mas'ullikni ongli ravishda xis etishi.

- B. Muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasini ifodalash.
- S. Shaxs ,davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chikarish kabilar
- D. Muayyan davlat yoki jamiyat umumiy mafkurasini ifodalaydi

3. E'tiqod bu ..

A. shaxsning o'z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan

- B. Akliy jarayonga tegishli xolat
- S. Muayyan bir okimga xos konun-koidalarga rioya kilish
- D. Shaxsning kundalik extiyojiga aylangan intilish

4. Qadimgi Yunonistonda o'qituvchilarni nima deb atashgan?

- A. Pedagog
- B. O'qituvchi
- S. Ta'lim beruvchi
- D. Muallim

6-7-Mavzu: Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish

Reja

1. Xalq pedagogikasida insonning ulug'lanishi haqidagi didaktik g'oyalari.

2. Farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati haqidagi etnopedagogika fikrlarni pedagogik jarayonga tatbiq etish.

3. Bola tarbiyasining vorisiyligi xususida.

4. Ijobiy axloqiy sifatlarga erishish va salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish usullarining kursatilishi.

Talaba – yoshlarda milliy tarbiyani umumbashariy qadriyatlar bilan shakllantirishni dunyo miqyosida erishilayotgan umumbashariy yutuqlar va zamonaviy fan asoslarining tarbiyaviy jihatlarisiz tasavvur etish qiyin.

Shunga ko`ra oliy pedagogik ta'limda yoshlarda faqat pedagogik malaka va ko`nikmalarni tarkib toptirish, umumbashariy bilimlarni o`zlashtirishga ham imkoniyat yaratib berish lozim. Milliy qadriyatlar asosida shakllantiriladigan tafakkur va dunyoqarash yoshlarning umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarni to`liq egallashlari uchun zamin yaratadi, zamonaviy bilimlar va ko`nikmalarni egallash esa chuqur va mustahkam bilim olish uchun poydevor vujudga keltiradi.

Shu sababli yoshlarda milliy tafakkurni va zamonaviy bilim ko`nikmalarni o`zaro aloqada shakllantirish va olgan bilimlarni umumlashtirishga, ish jarayoniga xalq pedagogikasini olib kirishga o`rgatish barkamol insonni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Yoshlarni ma'naviy qarashlarini shakllantirishda, ularni ma'naviy qadriyatlarimizni buyuk mutafakkirlar ilimiy merosini, falsafiy qarashlarini, muhim jihatlarini o`rganish, bugungi kun zamonaviy ilm-fan va texnika taraqqiyotiga erishilayotgan bilimlarni o`zlashtirishga yo`naltirish bilan boq`liq tar`lim-tarbiyaviy faoliyatga kuchli e'tibor qilinayotganligi bejiz emas.

Yoshlarning intellektual salohiyatini qo`lga kiritishlarida ta'lim jarayonida ularni mustaqil fikr eritishga o`rgatish, dastlabki manbalarni o`zlashtirishning aniq usullarini egallash, olingan bilimlarga lngli ravishda yondashishga o`rgatish muhim rol o`ynaydi. Bunda asosiy e'tiborni dars jarayoniga qaratib, ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar va zamonaviy bilim hamda ko`nikmalar ustidagi ishlarni qo`shib olib borish zarur. Shunga ham ko`ra, barcha fanlar tizimiga milliy va umumbashariy qadriyatlarning ilmiy asoslarini kiritish darkor. Bundan ko`zlangan maqsad umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Buni ayniqsa «Xalq pedagogikasi»ni o`qitish misolida yaqqol ko`rishimiz mumkin. «Xalq pedagogikasi» bu o`zbek xalqining ta'lim sohasida erishgan buyuk qadriyati sanaladi va u ko`p jihatdan umumbashariy qadriyatga aylanib qolgan.

Talabalarga tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogika»ni o`zaro boq`lovchi to`rtta elementni ko`rsatib o`tish mumkin.

Xalq madaniyati tarixi, tili, dini, urf-odatlar haqida bilimlar majmuasi. Bu bilimlar majmuasini o`zlashtirish orqali bo`lajak mutaxassislarning milliy ongi shakllanadi, amaliy tajribaga to`q`ri metodologik yo`nalish beradi.

Anglash, mehnat qilish va shu kabi vazifalarning asosi bo`lib hisoblanadigan umumiy intellektual hamda amaliy malakalarning tizimi. Bu tizim orqali bo`lajak mutaxassislarning milliy madaniyatini saqlab, yosh avlodga yetkazishni ta'minlaydi.

Bo`lajak mutaxassislarning xalq tajribasini bugungi sharoitda tarbiya jarayonida foydalanish va uni yanada rivojlantirish.

Atrof-muhit orqali olingan bilim, malka hamda unga nisbatan tajribasi bo'lajak mutaxassislarda ishonch, qimmatli hislatlarning o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bo'lajak mutaxassislarning tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogikasi» asosida yondashishga tayyorgarligi – bu xalq pedagogikasining tajribalarini tarbiyaviy ishlarda foydalanishning metodologik asosini bilish, shaxsning har tomonlarga tarbiyasi, beriladigan tarbiyaning mazmuni, uslublari, turlari, shakllari haqida bilimlarni o'zlashtirish.

Xalq pedagogikasi tajribalaridan foydalanishga tayyorlashning quyidagi shakllarini ko'rsatish mumkin: ma'ruza, seminar, amaliy tajriba darslari, maxsus kurslar, auditoridan tashqari darslar pedagogik amaliyot, talablarining ilmiy-tadqiqot ishlari, kurs ishlari, diplom ishlari va hokazo.

Uslublari: hikoya, suhbat, intervyu, treninglar, munozaralar.

Manbalar: xalq oq'zaki ijodi, milliy o'yinlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, xalq an'analari, milliy san'at namunalari va hokazo.

Xalq pedagogikasini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishdan maqsad, tarbiya texnologiyasining ahamiyati, tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogikasi»ning xususiyatini to'liq tushuntirish, tajribalarini foydalanishga tayyorgarligini shakllantirish, tarbiyaviy ishlarning uslublari, shakllari, jihozlaridan o'rinli tartibda foydalana olishga o'rgatish. Olingan nazariy bilimlarni, malaka va ko'nikmaga aylantirish, amaliy jihatdan qo'llash.

Xulosa qilib aytganda shu vaqtga qadar ta'lim-tarbiya ishlarida xalqning boy pedagogik merosidan, hadislar va she'riy mantlarda oldinga surilgan q'oyalardan to'la foydalana olganimiz yo'q. Aslida bular inson ma'naviy kamolotining hamma davrlari uchun ham ahamiyatli bo'lib qoladigan zaminlardir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosidan, ahloq, odob, tarbiya borasidagi an'analaridan qanchalik samarali foydalansak, milliy mustaqilligimizning chinakam fidoiysi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash borasida shunchalik sezilarli yutuqlarga erishamiz.

Jamiyat taraqqiyoti uchun aholining soni emas, balki sifati muhimdir. Sifatning bosh mezonini yuksak ma'naviyatdir.

Talabalardagi yetuk jihatlarni shakllantirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda «Xalq pedagogikasi» fanining ahamiyati katta. Bu fan yoshlarda mavhum qoidalarni emas, balki hayotda halol vijdon va iymon bilan yashashni o'rgatmoq'i kerak. Har bir fan kishilarga muayyan bilimlarni o'rgatadi. Bu bilimlar kishilarning yuksak ahloqiy fazilatlarini bilan qo'shilganda yetuk ma'naviy boylikka aylanadi.

Milliy an'analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avlodlardan-avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish ko'rinishi. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkazadi.

Milliy an'analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo'ladi. Millatning har bir avlodi

milliy an'analarni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Millatning tanazzuli milliy an'analarning ham tanazzulidir.

Xalq qadim zamonlardayoq aql faqat bilimni emas, balki bilimni amalda qo'llashni ham o'z ichiga oladi, degan fikrga keldi. U aql g'oyalar majmuidan iborat, aqlli odamgina barcha hayot hodisalarini tushuna oladi va maqsadga erishadi degan fikrni olg'a surdi. Buning uchun bolaga yoshligidan boshlab ta'lim berish lozimligini ta'kidlaydi. Xalq o'z tafakkur kuchi va tajribasiga asoslanib, o'z ta'lim metodlarini ham tavsiya etadi. Ushbu ta'lim metodlari buyuk mutafakkirlarning didaktik qarashlaridan qolishmaydi.

Etnopedagogika manbalarida ta'kidlanishicha, o'qishning kechi bo'lmaydi. Hadislarda: "Beshikdan qabrgacha ilm izla", - degan fikr xalqning ushbu fikriga mazmunan juda yaqin. Shuningdek, A. Navoiyning:

***"Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" ...***

tarzidagi hikmatli baytlari ham etnopedagogika durdonalaridan mohirlik bilan foydalanish natijasi bo'lib, u o'quvchini ilmlarni boshqalardan tinimsiz o'rganishga chorlaydi. Shuningdek, xalqda: "Agar o'zing bilmasang, bilganlarga quloq tut", deyiladi.

Etnopedagogikada ilm egallash mashaqqatli yo'l ekanligi ta'kidlanib, uning: "Ilm olmoq igna bilan quduq qazish bilan teng" ligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "Takrorlash – bilimning onasi" ekanligi "Bir saboqni ming takror qil!" maqolida yanada kuchliroq mazmun kashf etadi.

Xalq ta'limni tizimli va uzluksiz olish lozimligini allaqachon anglab yetgan. Uning didaktik qarashlarida o'qish – oqimga qarshi suzishga o'xshatiladi. Chunki, oqimga qarshi suzishda to'xtagan kishi orqaga ketganidek, o'qishda to'xtash ham ilm egallashni orqaga suradi.

Ta'limning ko'rsatmaliligi ham xalq e'tiboridan chetda qolmaydi. "O'n marta eshitgandan bir bor ko'rgan yaxshi" maqoli bu fikrni yorqinroq ifodalaydi.

Ta'limning muhim elementi – bilimlarning mustahkamligi tamoyili. Yoshlikda samarali amalga oshishini: "Yoshlikda o'rgangan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir" maqolida bayon qilinadi.

SHuningdek, xalq pedagogikasi manbalarida ilmning qiymati uning amalda qo'llanilishi bilan o'lchanishi alohida ta'kidlanadi. Hayot uchun foydasiz ilmni egallash qoralanadi. Amalda qo'llanmaydigan bilim – yomg'irsiz bulutga, uz bilimini boshkalarga o'rgatmagan kishilar ko'ziga solib qo'yilgan yorug'likka o'xshatiladi.

Tillarni o'rganishga xalq olamni bilish imkonini kengaytiruvchi vosita deb qaraydi. O'zbeklar shuning uchun: "Tilni bilish- dilni bilishga yo'l ochadi", "Yuzta tilni bilgan kishi yuzta aqlning egasidir,-" deyishadi.

Ona tilini bilish, uni asrash – avaylash, ta'limni ona tilida olish aqliy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etishi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan. Ona tili – xalqning bebaho boyligi, u "ona" so'zini aytish, o'z ismini bilish bilan bola qalbiga kiradi. Shu til vositasida bola olamni bila boshlaydi, ilk allalar bola qalbiga xalq san'ati ruhini olib kiradi va uni umrbod sehrlab qo'yadi.

Xalq pedagogikasida ilmni yoshlarga amaliy hayotda zarur bo'lgan tabiiy bilimlar bilan bog'lab tushuntirishga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, qadimgi turkiguy xalqlarda oylar, yil hisobi yevropaliklar tavqimidan farq qilgan. Ularda oylar: "hamal" (mart) - 19 martdan, "savr" (aprel) – 19 apreldan, "javzo" – 20 maydan, "saraton" – 21 iyundan ... boshlangan. Har bir oyning, yil fasllarining boshlanishi va tugashi quyosh va boshqa sayyoralar harakati bilan bog'lanib, bu vaqtda qanday ishlar qilinishi ta'kidlangan. Jumladan: "Hamal – ekinlarga kirar amal", "Asad – ekiningni yasat", "Savr kirdi – ekinlarga davr kirdi", "Saratonda suv quy, asadda tek qo'y", "Yer haydasang kuz hayda ..." singari.

SHuningdek, miflar, afsonalar, dostonlardagi ijobiy qahramonlar ham ilm va ustozlarini hurmat qiluvchi, bilimdon, topqir, kasb – hunarli, matonatli, hayot qiyinchiliklarini o'zi egallagan ilm va hunar vositasida bartaraf etuvchi kishilar sifatida ko'rsatilgan. Dushmanga qarshi kurashdagi mahorat ham harbiy ilm sifatida tasvirlangan.

Laylakning kelishi bahordan, qaldirg'och va yovvoyi kabutar – yozdan, qarg'aning qag'illashi – qordan, sovuqdan darak beradi deb tushunilib, shunga mos yumushlar (hosil yig'ish, ekish ...) bajarilgan.

Bolalarga sigirning 9 oyda, tuyaning 12 oyda, quylarning 5 oyda bolalashi, mollarning yoshini ularning tishlariga qarab aniqlash o'rgatilgan. "Baliq", "sigir" yillari serhosil, "ilon", "ot", "sichqon" yillari qurg'oqchil bo'ladi deb tushuntirishgan.

Matematikaga doir bilimlar masofani, hosilni, qurilayotgan uylar o'lchamini o'lchash bilan; fizikaga doir bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda oddiy richaglar, shamol va suv kuchidan foydalanish misolida; kimyoviy ilmlar chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash (masalan, sutdan qatiq, yog' ... olish, yog'ni kuydirish ...), o'simliklardan bo'yoq olish, kiyimlarni tozalash, yuvish bilan; astronomiyaga doir bilimlar yulduzlar va quyoshga qarab vaqtni aniqlash misolida; tibbiyotga bog'liq bilimlar dorivor o'simliklarni to'plash va hayvonlar hamda o'simliklar yog'laridan foydalanib kasalliklarni davolash misolida o'rgatilgan. Bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog'lab tushuntirilganligi ahamiyatlidir.

Xalq pedagogikasida bolalarning tafakkuri, mushohada qobiliyatini o'stirishda topishmoqlardan unumli foydalanilgan. Topishmoqlar vositasida bolalarga ibtidoiy hisob (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari) o'rgatilgan. Bular jumlasiga: "Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor" (piyoz), "Aylanaverib-aylanaverib semirdi xonim" (urchuq), "Otarda yuz qo'y va echki bor. Ularning nechta oyog'i va qulog'i bor?" (100 ta qo'y va echkida 400 oyoq, 200 quloq bor) va boshqalarni kiritish mumkin.

Yoki otasidan: "Yoshingiz nechada?" deb so'ragan bolaga ota: "O'zingning yoshingga ... yoshni qo'shsang, mening necha yoshga kirganligimni topasan", - deb javob bergan.

3-masala. Etnopedagogikada tarbiyaviy g'oyalar

Xalq pedagogikasida aqliy tarbiya bilan birgalikda yoshlarga tarbiyaning boshqa yo'nalishlarini ham singdirishga alohida e'tibor berilgan.

Biz ushbu bandda xalq pedagogikasida tarbiyaning asosiy yo'nalishlari xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz, xalos. Chunki, keyingi mavzularda tarbiyaning har bir yo'nalishi xususida alohida fikr yuritish ko'zda tutilgan.

Jismoniy tarbiya etnopedagogika manbalarida yetakchi tarmoqlardan biri sifatida ko'rsatiladi. Ularda ichish, chekish singari salbiy odatlar tanqid qilinadi. Jismoniy – tarbiya komil shaxs tarbiyasining ajralmas qismi ekanligi afsona va dostonlar qahramonlari misolida; ertaklar, maqollar vositasida ko'rsatib beriladi. Jismoniy – tarbiya sog'liqning garovi ekanligi, sog'liq esa eng qimmatli boylik, unumli mehnat, to'kin – sochinlik, baxtli hayot vositasi, go'zallik manbai ekanligi, Vatan, el-yurt qalqoni ekanligi yuksak pardalarda kuylanadi.

O'yinlar – bolalarni jismoniy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, milliy tarbiyada zarur vosita ekanligi hisobga olingan. Jismoniy – tarbiya, o'yin, mehnat jarayonida qo'shiqlar aytilib, estetik tarbiya amalga oshirilgan.

Aytishuvli o'yinlar, qo'shiqli o'yinlarni ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Masalan: “Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?” kabi. O'yinlarda aytiladigan qo'shiqlarning mazmuni yil fasllari bilan, mavsum va boshqalar bilan bog'langan:

“Quyosh chiqdi olamga, yugurib bordim xolamga ...”,

“Boychechagim boylandi, qozon-tovog'ing ayronidir ...”,

“Yomg'ir yog'aloq, yam-yashil o'tloq,

Endi ekinlar chiqarar quloq ...” va boshqalar.

“Ko'pkari”, “Uloqtortar”, “Qizquvdi”, “Olomon poyga”, “Kurash”, “Zuvillatar”, “CHillak” “Beshtosh” singari o'yinlar jismoniy-tarbiya vositasi sifatida qo'llanilgan.

Xalq pedagogikasida oilaviy tarbiyaga ham alohida e'tibor berilgan. O'tmishda ota-bobolarimiz yoshlarni ota-onani, qarindosh va yurtdoshlarni hurmat qilishga chorlovchi maqol, matallarni yaratishgan. Oilaviy turmush axloqi puxta egallagan, bolajon, insonparvar qahramonlar afsona va dostonlarda kuylangan:

“Bolaginamning bolasi – qandak o'rikning donasi”, “Davlatning – ota-onang”, “Yomon xotin – umr azobi”, “Ota rozi – xudo rozi”, “Odobli bola elga manzur”, ... kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi manbalarida komil insonni shakllantirish uchun ularga ilm, kasb-hunar o'rgatish; tarbiyaning ijtimoiy turmush uchun zarur yo'nalishlarini mustahkam singdirish lozim ekanligi targ'ib etiladi. Mazkur g'oyalar hozirgi milliy istiqlol davrida ham muxim ahamiyat kasb etmoqda.

1-masala. Xalq pedagogikasida insonning ulug'lanishi

Vatan - bu faqat yer, suv, tog'lar, daryolar, tabiiy boyliklarda emas, balki u odamlar, ularning ma'naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy munosabatlari hamdir. Atoqli shoir G'. G'ulom aytganidek: “Insonga hurmat bu – o'zni tanimak” dir. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida inson olamdagi eng ulug' jonzod sifatida ulug'lanadi. Prezident I. Karimovning “O'zbekiston- buyuk kelajak sari” asarida yangilangan jamiyatning asosiy vazifalari jumlasiga” - Insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik va g'oyalarning oliy maqsadi inson, uning hayoti va shaxsiy dahlsizligi...” kiritilganligi bejiz emas.

Xalq pedagogikasida azaldan insonni ulug'lash, uning qadr-qimmatini, xalq manfaatini yuqari qo'yish targ'ib etiladi. Jumladan xalq maqollarida olamda yashayotgan barcha kishilarga bu yorug' jahonda har bir inson mehmon ekanligi va buni yodda tutib, bir-birini qadrlash zarurligi uqtiriladi:

Bir uy to'la jonsan,

Bir biringga mehmonsan.

Etnopedagogikada inson shaxsining shakllanishi, tarbiyasi va rivojlanishi murakkab, uzluksiz jarayon ekanligi g'oyatda to'g'ri talqin etiladi. SHuning uchun uni qadrlash, insonni arziyas kamchiliklari uchun yerga urmaslik lozimligi targ'ib etiladi. Negaki, shaxsning shakllanishi jarayoni goyat murakkab kechadi va u mashaqqatli mehnat evazigagina yuz beradi. Jumladan:

Bir yigit qirq yilda voyaga yetar, yoki:

O'z qadrini bilmagan, kishi qadrini bilmas.

Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar.

Insonni qadrlash masalasi xalq pedagogikasida bolaga nisbatan munosabatda ham ko'zga tashlanadi. SHuning uchun bolaning tarbiyasiga ona kornidan boshlab e'tibor berish darkorligi ta'kidlanadi. "Bola aziz, odobi undan aziz", "Bolaginamning bolasi, qandak o'rikning donasi" va b.

Xalq pedagogikasida insonning ulug'lanishi ota-ona, oilaning boshqa a'zolari, er-xotin munosabatlari, do'st, qarindoshlarga bo'lgan munosabatlar misolida ko'rsatib o'tiladi. Yomon odamlarni qadrlash befoyda ekanligi ta'kidlanadi. Chunonchi, "Davlatning-ota-onang", "Boqmasang, moling ketar, xo'rlasang, xotining ketar", "Bo'z yaktak qichitar, yaxshi xotin tinchitar", "Yaxshi-qand yedirar, yomon-pand yedirar", "It bilan tenglashma, kuchuk bilan o'ynashma", "Yomon o'zini bilmas, o'zgani ko'zga ilmas", "Dili qing'irning tili qing'ir" kabi maqollar shular jumlasidandir.

Dostonlarda tasvirlangan personajlararo konfliktlar ham inson qadr-qimmatini joyiga qo'ymaslik va boshqa salbiy axloqiy sifatlar zahirida tug'iladi. Jumladan, "Alpomish", "Go'ro'g'li va Bozirgon" va boshqa dostonlarda aka-uka, do'stlararo munosabatlarda bir-birini qadrlamaslik oqibatida inson taqdiri va hayotini o'zgartirib yuborish darajasidagi voqealar sodir bo'ladi.

3-masala. Bola tarbiyasining vorisiyligi xususida

Tarbiyaning vorisiylik xususiyati faqat hozirgi zamon pedagogika fanida emas, balki qadim zamonlardayoq xalq pedagogikasi manbalarida ta'kidlangan. Shuning uchun biz xalq pedagogikasi durdonalaridan yoshlar tarbiyasi borasida foydalanishimiz davr talabidir.

CHunki: "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi"(Konfutsiy. Qarang: Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov va b. T., "SHarq" 1998.114-b.).

Oila noyob va yaqin qon-qarindoshlik hissiyoti asosiga qurilgan jamoa. Bola o'zining eng ardoqli hissiyotlarini oila a'zolari bilan baham ko'radi. Oilaning ichki munosabatlarida ota-onaning o'rni g'oyat kattadir. Unda ota-onaning tarbiyaviy ta'siri bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Chunki, bola muhim tarbiyaviy sifatarni ota-onadan, oila a'zolaridan urganadi. Ug'il otasiga

yoki akalariga, qiz esa onasi yoki opalariga o'xshashga harakat qiladi. Shu maqsadda bola oilada kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Ularni zimdan kuzatib, o'zi uchun ma'qul sifatlarni o'zlashtirib oladi. Shuning uchun xalqda balalar haqida fikr yuritilganda uning otasi yoki boshqa biror qarindoshiga o'xshab ketishi haqida aytiladi. Hatto, kelin tanlash, turmushga berishda ham oilasi, ota-onasi surishtiriladi. Masalan:

“Onasini ko'rib, qizini ol!”

Inson shaxsidagi tarbiyaviy sifatlari har doim ochiq namoyon bo'lavermaydi. Insonning ichki dunyosini bilish uchun uni ba'zan yillar davomida kuzatishga to'g'ri keladi. Hayotda kishi o'zi bilmagan holda gohida bolalikdan uz oilasida ongiga singgan tarbiyaviy sifatlarni namoyon qiladi. Quyida yuqoridagi fikrlar o'z aksini topgan:

“Qariysan, qartasan asl naslingga tortasan”
va boshqalar.

“Qush uyasida ko'rganini qiladi” va b.

“Ilonning bolasi-ilon,
CHayonning bolasi-chayon”.

Tarbiyadagi vorisiylik tarixan keksa avlodlardan kelajak avlodlarga meros sifatida o'tadi. Har bir millat va xalqning o'z milliy tarbiya metodlari shu millat birga yashaydi. Hayotda tajribasiz yoshlarga keksalardan pand-nasihat olish, o'rganish tavsiya etiladi. Ayniqsa, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, tarbiyasiga doir tarbiyaviy o'g'itlar hozirgi davr uchun ham qimmatlidir. Shuning uchun xalq pedagogikasida keksalarni e'zozlashga undaladi. Prezidentimiz tomonidan 2002 yil - “Qariyalarni qadrlash yili” deb e'lon qilinganligi ham xalqimizda tarbiyaning vorisiyligiga misol bo'la oladi. Shuningdek, “Qari bilganni pari bilmas”, “Qarisi bor uyning parisi bor” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi-mualliflar: Sh. Qurbonov va b Toshkent “SHarq”, 1988.
2. barkamol avlod . O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “O'zbekiston”, 1997.
3. Hoshimov K H va b. Pedagogika tarixi T “O'qituvchi”, 1996.
4. Xasanboev J. Va b Pedagogika tarixi. T. “O'qituvchi”, 1996.
5. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi-mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hatomov va b. TOshkent. “FAN”, 1997.
6. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. T. “O'qituvchi”, 1980.
7. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
8. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,
9. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

6-7-mavzularga doir tayanch atamalar

National values-Natsionalnoe znachenie-Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

National tradition-Natsionalnaya traditsiya- Milliy urf-odat- tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketadi.

National rituals-Natsionalno'y ritual-Milliy an'ana- millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish ko'rinishi.

Nazorat savollari:

1. Ilmni egallash yoshlar kelajagi, mamlakat va xalq istiqboli uchun qanday ahamiyatga ega?
2. Etnopedagogika manbalarida ilmni yoshlar ongiga singdirish, kasb-hunar o'rgatish masalasiga qanday yondoshilganligini tushuntiring.
3. Ilm, hunar o'rganish, ularning ahamiyati necha moddiy boyliklardan ustun qo'yilganligini tushuntiring.
4. Ilm sohiblariga munosabati bildiruvchi etnopedagogika durdonalari haqida so'zlab bering.
5. Ta'limning muntazamligi, ongliligi, mustahkamligini ta'minlashga undovchi etnopedagogika g'oyalari tushuntiring.
6. Etnopedagogika manbalarida ilm egallash jarayoni qanday talqin qilingan?
7. Xalq pedagogikasida komil inson tarbiyasining qanday talqin etilgan?.
8. Xalq pedagogikasida insonning ulug'lanishi haqida so'zlang.
9. Bola tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati etnopedagogikada qanday tushuntirilgan?
10. Tarbiyaning vorisiyligi haqidagi etnopedagogika g'oyalarni ayting.
11. Ijobiy axloqiy sifatlarni tarbiyalash, salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish metodlari etnopedagogikada qanday tasvirlangan?..

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Xalq pedagogikasida insonning ulug'lanishi haqidagi didaktik g'oyalari.
2. Farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati haqidagi etnopedagogik fikrlarni pedagogik jarayonga tatbiq etish.
3. Bola tarbiyasining vorisiyligi xususida.
4. Ijobiy axloqiy sifatlarga erishish va salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish usullarining kursatilishi

Test savollari

1 Tarixda buyuk pedagoglar o`zining pedagogik g`oyalarini ilgari surishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratganlar?

- a) xalqning kelib chiqishiga;
- b) xalqning mentalitetiga;
- s) yoshlarning ta'lim-tarbiya, odobi va zehniga;
- d) xalqning ta'lim va tarbiya sohasidagi bosh tajribalariga;

2.«Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan» - degan ta'rif kim tomonidan berilgan?

- a) A. Avloniy; b) H. H. Niyoziy; s) Abu Ali ibn Sino;
- d) Beruniy;

3. Xalq pedagogikasi talaba yoshlarda qanday jihatlarni shakllantiradi?

- a) fanlar bo'yicha olingan bilim, malaka, ko'nikmalarni umumlashtiradi;
- b) pedagogik bilimlarni chuqurlashtiradi, yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda kasbiy maxoratni yuksaltiradi;
- s) Xalq pedagogikasi va pedagogika fani bo'yicha olingan bilimlarni jamlaydi;

d) mutafakkirlar o'gitlaridan baxra olish, udumlar, urf-odatlarga sodiqlik, milliy odob-ahloq me'yorlariga rioya qilish jihatini tarbiyalash;

4. Xalq pedagogikasining asosiy manbalari...

- a) o'gitlar, pand-nasixatlar, odob-axloq mavzusidagi asarlar;
- b) xalq og'zaki ijodi, qadrsunosligi, udumsunosligi, asrlar davomida to'plagan boy tajribalari;
- s) allomalarning pedagogik g'oyalari;
- d) o'rganish ob'ekti shaxs bo'lgan barcha fanlar.

5. Xalq pedagogikasi qay tarzda shakllanib, rivojlanib borgan?

- a) avloddan-avlodga o'tib kelgan tajribalar asosida;
- b) pedagogika fani zamirida;
- s) xalqning boy va betakror odobnoma va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalari asosida;
- d) mavjud shart-sharoit ta'sirida.

6. Insonni shakllantiruvchi odob-axloq haqidagi xalq qarashlari nimalarda ifoda etilgan?

- a) xalq og'zaki ijodi xususan dotsonlarda ifoda etilgan;
- b) xalq pedagogikasi va pedagogika fanidan;
- s) mutafakkirlarning asarlarida;
- d) ertak, maqol, matal, hikmatlarda.

7. O'zbek xalq ijodi bola tarbiyasiga qanday usul orqali singdiriladi?

- a) bevosita;
- b) to'g'ridan-to'g'ri, bevosita;
- s) yangi pedagogik texnologiya yordamida;
- d) o'yin tarzida.

8. Insonni yuksakka eltuvchi, go'zallikdan baxramand qiluvchi mezon – aql – idrok – degan purmano fikr kimga tegishli?

- a) B. Naqshband; b) A. Assaviy; v) N. Kubro; g) Yu. X. Xojib;
d) M. Qoshg`ariy.

9. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari berilgan qatorini toping.

- a) ta'lim-tarbiyada nazariy va amaliy masalalar muxim o`rin tutadi;
b) yurtga sodiqlik, insonparvarlik, mexnatsevarlik, xushhulqlik insonni komillik sari yetaklaydi;
s) bola tug`ilgandan to oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim;
d) inson tarbiyasining maxsuli uning xulqida namoyon bo`ladi.

10. Ta'lim-tarbiya mazmuni nima asosiga quriladi?

- a) muayyan tuzum yuritgan siyosat o`z oldiga qo`ygan vazifa va maqsadlar asosiga quriladi;
b) odob-axloq me'yorlari asosida;
s) ko`nikma, malakalarni shakllantirish asosiga;
d) umumxalq me'yorlariga asosan.

8-9-Mavzular: Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi.

Reja

- 1. Xalq pedagogikasida oila.**
- 2. Oila va unda farzand tarbiyasi.**
- 3. Oilaviy tarbiya metodikasi.**
- 4. Mutafakkirlar oila tarbiyasi haqida.**
- 5. Farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati haqidagi etnopedagogik fikrlar.**

Tayanch so'zlar: Oila, oila tarbiyasi, tarixiy tajriba, xamkorlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar.

O`zbek oilalari asrlar davomida mustahkam, ahil jamoa ma'naviyat va tarbiya o`choq'i bo`lib kelgan. Oiladagi muhit turmush qurish borasidagi an'analar soq'lom ma'naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Ma'naviy, barkamol jismoniy soq'lom farzandlarni voyaga yetkazishda oilada amalga oshiriladigan ahloq odob tarbiyasining ham o`rni benihoya katta. Oila jamiyatning eng kichik o`choq'idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi. Keksalar ko`pincha «Buq'doy eksang buq'doy olasan, arpa eksang, arpa olasan» deyiladi. Shuning uchun ham kelajagimiz bolalarga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyq'ular, qanday orzular bilan to`ldirayotganimizga boq'liq.

Kelajakni qanday bo`lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga boq'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratuvchi asos oiladir. Oila jamiyatning boshlanq'ich ijtimoiy bo`q'ini sifatida murakkab tarkibiga ega bo`lib, u o`z faoliyatida oila a'zolarining

ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatning maqsad va vazifalarigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatni ham aks ettiradi.

Oilaviy tarbiya metodikasi uchun eng muhimi uning aloqador tomonlarini, ya'ni tarbiyaviy vazifalarini bir maromga solish, oilani o'ziga xos xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va xissiy rivojlanishnigina ta'minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va ahloqiy kamolotini o'stiradi.

Xalq pedagogikasida asosiy e'tibor oila tarbiyasida ota-onalarning, ustoz-murabbiylarning faol darajasiga qaratilgan.

Bola tarbiyasi oilaning insonni bunyod etuvchi tabiiy va ijtimoiy mohiyati bilan uzviy boq'liqdir.

Bola oilada, maktabda, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yoshdagilar, o'rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

O'zbek oilalarida bolalarga tarbiya berishda ota-onaning namunasi, ularning mehnatsevarligi oilaviy ishlarga javobgarligi, ish yuritishi, o'q'il bolalarga nisbatan otaning, qizlarga esa onaning ustozlik, rahnamolik ishlari asosiy o'rinni egallaydi.

Oilada bolalarni tarbiyalash o'zining bir qancha milliy xususiyatlariga ega. Ular xalqning shakllangan oilaviy an'analari, urf-odatlar, xalqning ruhiyati, hayoti va turmush tarzidir.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatlari xarakteri, er va ayolning teng huquqligi, o'zaro hurmat farzandlarni e'zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'sayotganligi o'zbek oilalariga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an'analari, ertak, maqol, topishmoqlar shaklida o'z ifodasini topgan va u tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash, bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va inijliklari, o'yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal maqol, aforizmlar yaratilgan bo'lib, ular xalq pedagogikasi saboq'ining yorqin namunasi.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida ularning bolalari bilan munosabatlari, onaning madaniy, tarbiyaviy ta'siri atroflicha yoritilgan.

Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning gapi ikki qilinmagan. Otaning izidan chiqish, u kishining buyruq'ini bajarmaslik, otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblangan.

Xalqchil iboralar hammavaqt tarbiyada muhim o'rin egallagan. Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa, «yomon bo'ladi», erta saharda eshik ochilmasa, «yomon bo'ladi», kunlik rizqimizdan «benasib qolamiz» bolalarni erta turishga undagan.

Xalqimizda faqat o'zining bolasinigina emas, umuman o'ziga yaqin hamma bolalarni sevish, ehtiyotlash, ularning tarbiyasi bilan shuq'ullanish an'analari

avloddan-avlodga o'tib kelgan. «Bir bolaga butun mahalla ota-ona» degan maqol shundan.

As the driving force behind the social development of the human person needs the influence of objective factors, the ordinary people, the biological and physical (material) needs, the higher (spiritual) needs opportunities to meet their needs, as well as a set of relations between the states. Needs or create reasons for this activity. People looking for means and resources to meet their own needs. There are options to meet the needs of people happy. Otherwise, he will be unhappy to learn that the driving force. If moral education, and social development. Moral education and faulty human social breakdown and social benefit (theft, extremism, lies, fraud, etc.) face. Moral education to meet the needs of people looking for ways to communicate with people and to improve the quality of social.

These mutual influences aimed at the efficient use of power leading educational interaction to be successful in the.

Odam ijtimoiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch deb, kishi ehtiyojlari ta'sirida yuz beradigan ob'ektiv omillarni, odamlarning oddiy, biologik va jismoniy (moddiy) ehtiyojlaridan boshlab, oliy (ma'naviy va ruhiy) ehtiyojlariga qadar bo'lgan ehtiyojlar majmui hamda ularni qondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytiladi.

Ehtiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O'zining ehtiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar qidiradi. Ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud bo'lganda, kishi o'zini baxtiyor his etadi. Aks holda, o'zini baxtsiz deb bilib, unda harakatlantiruvchi kuch paydo bo'ladi.

Agar odamning axloqiy tarbiyasi to'g'ri bo'lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatleri nuray boshlaydi va ijtimoiy illat (o'g'rilik, nashavandlik, yolg'on so'z, firibgarlik va hokazo) larga duchor bo'ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to'g'ri yo'llarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo'lib, yaxshi ijtimoiy sifatleri takomillashib boradi.

Oila - xayotiy mazmuniga xamda jamiyat tomonidan ma'kullanadigan xususiyatlarga ega bulgan ijtimoiy xodisa . Unda ijtimoiy xayotning barcha asosiy kirralari , vazifalari xamda xususiyatlari , sinkretik tarzda bulsada , mujassamlashgan .

Inson umri mobaynida oila ta'sirini sezib turadi , dastlab ota-onasining oilasida , sung uzi kurgan oilasida xayot kechiradi . Xaar ikki xolda xam oila insonning shaxs sifatida karor topishiga muxim tarbiyaviy ta'sir kursatadi . Inson oilada nividual va ijtimoiy xayot kunikmalarini xosil kilibgina kolmay , balki unda uzaro munosabatlarni yulga kuyish buyicha ota-ona makomini xam oladi . Aksariyat tadjikotlarda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi turt asosiy vazifasi ajratib kursatiladi .

Birinchi vazifa – farzandlar tugilishi Bilan boglik.

Ikkinchi vazifa – Yangi avlodni Ushbu jamiyat madaniyatidan baxramand etish .

Uchinchi vazifa – shaxsning uzini-uzi kamol toptirish , uning kobiliyatini yuzaga chikarish uchun sharoit yaratish

Turtinchi vazifa - shaxsning muomala-mulokotga , xissiy kulaylikka bulgan psixologik extiyojini kondirish .

Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirishda yaxlit jarayonning bu kirasiga kuplab omillar , jumladan , oilaning moddiy farovonligi , ota-onaning saviyasi , oilaviy kadriyatlar tizimi , bolaning ta'lim olish jarayonida ota-onaning ishtiroki singari jixatlar ta'sir kursatadi .

Oilaning farovonligi shunchaki emas , balki farzandni kamol toptirish uchun moddiy va ma'naviy mablaglar , shuningdek , ishlab chikarish faoliyatidan bush vakt ajratish imkonini beradigan zarur shart sifatida muximdir .

Bunday moddiy shart-sharoitlarda bolaga uyinchoklarni , ukuv-kurollarni , asbob-uskunalarini , kitob-daftarlarni qo'ya oladigan aloxida xona ajratish , oila byudjetidan bolaga boshka shaxarlar va mintakalarga ekskursiya va sayoxatlar kilish uchun , turli sport seksiyalari xamda tugaraklarga katnashish uchun xamda maktabdan tashkari kushimcha bilim olish uchun mablag ajratish imkoni kiradi .

Bolada eng katta ishonchni oila a'zolari xosil kilishi , tabiiy . Bolaning atrofdagi odamlarga munosabati , oila a'zolari urtasidagi munosabat axloqiy jixatdan kanchalik yuksakligiga boglik . Ota-ona mexridan , gamxurligidan baxramand bulmagan , oilaning xar tomonlama ximoyasini xis etmagan bola uz atrofidagi odamlardan xavotirda , xadiksirab yashaydi . Oila muxitidan xayrixoxlik esa , aksincha bolada atrofdagilarga nisbatan xurmatni kupaytiradi , uning ijtimoiy faolligini oshiradi .

Inson uzi tugilib usgan oilada ilk bor tarbiya oladi . Uning tarbiyasi uz oilasidagi oila a'zolari Bilan mulokotda va uzaro munosabatlar orkali shakllanadi . Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, komil inson bulib yetishuvida kanday oilada tarbiyalanganligi , oilada kanday iklim xukm surganligi , uz ota-onasi Bilan bulgan uzaro munosabatlarning kay tarzda kechganligi muxim axamiyat kasb etadi . Shuning uchun xam insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanok oilada farzand tarbiyasiga aloxida e'tibor berib kelingan .

Ming yillik tarixga ega bulgan xalqimizning buyuk dostonlari « Alpomish» , « Gurugli» , shuningdek Shark mamlakatlari xalqlari uchun katta ma'naviy manba bulmish xind xalq dostonlari «Maxobxarat» , « Ramayana» kabilarda mazkur masala yorkin tasvirlangan .

Pedagog , psixolog olimlar izlanishlaridagi jamiyatimiz tarakkiyotining ijtimoiy-siyosiy jixatlari , milliy istiklol mafkurasining tarixiy negizlari , utmishda utgan allomalarning goyaviy karashlari , oila va oilaviy tarbiya masalalariga bagishlangan , fikr-muloxazalar , inson va jamiyat rivojini boyitadi , soglom ma'naviy axloqiy ruxini saklash va mustaxkamlashga xizmat kiladi .

Kadimgi madaniy merosimiz xisoblangan « Avesto»da naslning pokligi , tozaligiga aloxida e'tibor berilgan , karindosh-urug , aka-ukalarni kuda bulishi koralangan .

Shu ma'noda boshka manbalar katori «Avesto»ning mafkuraviy manba sifatidagi kimmatli pedagogika Fani uchun ilmiy asosdir .

Ota-onaning farzandlariga va farzandlarning ota-onasiga mexr-okibatli bulishlari , ularning ota-onalik va farzandlik burchini , mas'uliyatini xis kilish masalalari xalqimizning milliy kadriyatlarining shakllanishida muxim ma'naviy manba bulib xizmat kilganligi shubxasiz . Shariat konunlarida Islom ta'limotida Kur'oni Karim va Xadisi Shariflarda oilaviy munosabat koidalari asosiy urin egallaydi . Zotan , ota-ona farzandni dunyoga keltiruvchi , tarbiyalovchi , xamfikir , dust , xayotda yulboshchi , oilaning moddiy va ma'naviy ta'minotchisi tarzida uluglanadi . Shuning uchun xam Kur'on ta'limotiga kura oilada ota-ona eng mukaddas zot .

Ibn Sinoning « Donishnoma» , «Risoi ishk», «Uy xujaligi» kabi asarlarida xam tarbiya pedagogikasi va tabobat masalalariga oid kimmatli muloxazalar keltirib utilgan .

«Ota-ona , - deb yozadi u , - xam nazariy , xam Amaliy jixatdan oilada tarbiya masalalari mukammal uzlashtirmogi lozim . Agar ular tajribasiz bulsa , uz farzandlarini yaxshi tarbiyalay olmaydi . Yomon tarbiya kurgan bola nafakat Ushbu oila , balki kushnilarga , maxalla-kuyga xam yomon zarar keltirishi mumkin .

Shu sababli xam oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavkeidan kat'i nazar , ularning birlamchi vazifasidir , deb xisoblaydi .

XI asrning buyuk mutafakkirlari Yusuf Xos Xojibning fikricha , farzand kurish va unga tarbiya berish xar bir inson uchun buyuk baxtdir , ularsiz xayotning ma'nosi yuk . Lekin bu narsa ota-onaga katta mas'uliyat yuklaydi , uning uddasidan chikmok , xar bir ota-ona uchun xam farz , xam karzdir . Shuning uchun xam oilaviy tarbiyani Yusuf Xos Xojib bola axloqiy tarakkiyotining asosi , deb xisoblagn . «Agar bolaning xulki yomon bulsa , bunda bolaning aybi yuk , xamma ayb-otasida». Shuning uchun xam ota-ona ayniksa , ota bunga katta e'tibor bermogi lozim .

« Kutadgu bilig»da oilada muomala odobiga katta e'tibor berilgan . Undagi asosiy tamoyil til Bilan dil birligi ekanligi urtaga tashlangan va bularning barchasida bilimning axamiyati ta'kidlangan .

Kaykovus Unsurulmaoniyning oilaviy tarbiya xakidagi karashlari « Kobusnoma» asarining «Ota-ona xakkini bilmok zikrida» bobida atroflicha bayon etilgan . Olim va alloma Kaykovus ota-ona uz farzandi uchun xatto «ulimga xam tayyor» ekanligini ta'kidlab , uz navbatida , ularni aslo ranjitmasliklari , aksincha , shirinsuxanlik Bilan munosabatda bulish lozimligini aloxida uk-

tiradi : « Xaar bir farzandki , okil va dono bulsa , ota-ona mexr-muxabbatini ado etmakdin bosh tortmagay» .

Dunyoda necha millat , necha xalq bulsa , xammasining uziga xos turmush tarzi , utmish xayoti va kelajagi Bilan chambarchas boglik an'analari mavjuddir . Uzbek xalqining xam urf-odatlari , turmush tarzi , oilaviy marosimlari , ta'lim-tarbiya , madaniyat an'analari moziyning uzok-uzok asrlariga borib takaladi . Barg ildizdan kuvvat oladi deganlaridek , xozirgi va

kelajak avlod kishilarining ularni chukur bilishi ma'naviyatning mag'zi to'qligi omilidir . Bu xamisha , xamma avlod tomonidan e'tirof etilgan xakikatdir .

Kaykovusning « Qobusnoma»sidan tortib , Al-Xorazmiy , Abu Nasr al-Farobiy , Abu Rayxon Beruniy , Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida , Yusuf Xos Xojibning «Kutadgu bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Axmad Yugnakiyning « Xibatul xakoyik» , («Xakikat sovgalari») kabi jaxonga mashxur asarlarida Navoiyning ulmas she'riyatida , Munis Xorazmiyning «Savdita'lim» , Kori Niyoziyning « Xayot maktabi» , Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida shark xalqlari , xususan , uzbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochib berilganki , ular kalami orkali xalqimizga xos bulgan ota-onani xurmatlash , insoniylik , mexr-okibat , mexmondustlik , ma'rifatga chankoklik , onani uluglash , farzandga mexrli va fidoyi bulishlik kabi fazilatlar dunyoga tanilgan bulsa , ajab emas .

Xar bir xalq uzining milliy an'analariga asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga egadir. An'ana xalqimizning asrlar osha tuplagan milliy boyligi bilan , shuningdek , uning yangi sharoitda yangi mazmun Bilan boyitilishi , yangidan-yangi an'analarning vujudga kelishi bilan kimmatli va xayotbaxshdir .

An'analarning vujudga kelishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir .

Unda xalqning donno fikrlari , axloq mezonlari , insonni xurmatlash va kadrash uz ifodasini topgan .

Oilaviy an'analarga bolalarning tugilishlari Bilan boglik bulgan marosimlar , urf-odatlar bolalar tarbiyasiga taalukli bulgan va umuminsoniyat tomonidan kabul kilingan Amaliy maslaxatlar , koidalar , metodik usullar va vositalar kiradi .

Xar davrning Yangi an'anasida Yangi avlod vakillari-ning xususiyatlari , shuningdek ularning utmish xakidagi yorkin xotiralari , mexnatkashlar ommasining kelajak uchun intilish uz aksini topib boradi . Boshka xalq an'analari kabi oilaviy an'analarda xam shu xalqning tarixi , uning turmush sharoiti va xayot tarzi Bilan boglik utmishi va kelajagi aks etdi .

Shu ma'noda uzbek xalqining oilaviy an'analari kimmatli va azizdir .

Xalq donishmandligida ota-onalar xakida ularning bolalari Bilan munosabatlari , onaning madaniy , tarbiyaviy ta'siri , donoligi va atroflicha yoritilgan . Masalan , oilada xamma kishi bir kishiga – otaga itoat etgan . Otaning yoki onaning gapi ikki kilinmagan . Otaning izmidan chikish , u kishining buyrugini bajarmaslik , otaga gap kaytarish , unga tik bokish gunox bulgan . Xadisda yozilganidek « Otaga itoat kilish – Tangriga itoat kilishdir . Uning oldida gunox kilish Tangri oldida gunoxkor bulish Bilan barobardir» .

Xalq donishmandligi an'analari avloddan-avlodga utish jarayonida shakl jixatidan uzgarishlarga uchraydi , lekin uz mazmuni , tarbiyaviy ta'sirini yukotmasdan xozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat kiladi . Shu ma'noda xalq pedagogikasini ilgor tarbiya goyalari Bilan uygunlashtirish , oilaviy tarbiyada kullanilgan an'analarni yildan-yilga shakllanib borayotgan yangilari bilan

boyitish , tuzumimiz uchun sadokatli yoshlarni voyaga yetkazish davrimizning eng muxim muammolaridan biridir

«Bola - aziz , odobi undan aziz» . Bu makolda uzbek xalqining tarbiyaga oid karashlari uz ifodasini topgan . Bu e'tikod yillar davomida ular ongiga singib ketgan . Ota-onalar farzand kurish , ularni soglom ustirish Bilan birga , ularning odobli bulishlarini xam orzu kilishgan . Bola tilga Kirishi bilanok axloqiy tarbiyaning alifbosi bulgan salomlashishni urgatishgan . Bolalar uyga kirishda , uzidan kattalar Bilan uchrashganda , yulda ketayotganda ung kullarini kuksiga kuygan xolda «Assalomu alaykum» deb surashadilar . Bu xam tarbiyaning ulmas sabogi bulib , uzbek xonadonida mustaxkam urin olgan .

Masalan , musulmon farzandi kuyosh chikkuncha uxlasa , «yomon buladi» , erta saxarda eshik ochilmasa «yomon buladi» , kunlik rizkimizdan benasib kolamiz iboralari bolalarni erta turishga undagan . Kechki payt kuyosh botish arafasida uxlasa «yomon buladi» deb uktirishgan .

Saranjom-sarishtalik uyning bezagi , tejamkorlik farovonlik kaliti , tugrilik , xalollik-kungil xotirjamligi ekanligini menatkash xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni anna shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vakt topisha olgan .

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomalalikka , xozirjavoblikka aloxida e'tibor berilgan . Shark xalqlari uz bolalariga soxtalik , yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan , samimiy munosabatni uluglagan , urgatgan .

Xalq pedagogikasini chukur urganar ekansiz , mutaffakirlarning ta'lim-tarbiyaga oid , odob-axloqqa oid asarlarini kuzdan kechirar ekansiz , o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi - uyin shaklidan juda okilona foydalanganini kurasiz . O'g'il bolalarni uddaburon , chakkon , topkir kilib , kizlarni mexr-shafkatli , uy ishlariga kirishimli kilib tarbiyalaydigan shunday an'anaviy uyin shakllari bulganki , ularni xalq etnografiyasini urganish yuli Bilan tiklash , xozirgi ishlarimizda xam kullash kerak . N.Krupskaya xalq tarbiyasi tajribasidagi eng yaxshi uslub va usullarni olishni targib kilib , uzbek bolalari uyinlarining uziga xos xususiyatlarini ijobiy baxolab , ularning tabiat Bilan yakin munosabatda yashashlarini juda kup kizikarli uyinlarga egaligini , jismonan rus bolalariga nisbatan chinikkan , chakkon ekanliklarini kayd kilgan edi .

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan bakuvvat , aklan barkamol kilib tarbiyalash Bilan birga ularni xayotga turmushning ogir-engil sinovlariga tayyorlab borishga xam kattik e'tibor berilgan . Bunda ta'lim-tarbiyaning ugit , nasixat , namuna bulish , mexnatda chiniktirish shakllaridan unumli foydalanilgan .

Yoz kunlaridan birida bogda kumaklashayotgan bola otasidan surabdi :

-Nima uchun mana bu daraxt kiyshik , manna bunisi esa tugri ?

- O'g'lim , - deb javob beribdi ota , - bu daraxtning kiyshik usgan joylarini kesib , parvarish kilib turilgan , ikkinchi daraxt esa uz xolicha usgan , shuning uchun qiyshiq

- Unday bulsa , daraxtlarni doimo parvarish kilish kerak ekanda, - xulosa chikaribdi o'g'il .

-Tuppa – to'g'ri , deb javob beribdi ota , - o'g'lim daraxtlarni parvarish kilish kup foyda keltiradi . Sen xam xudi yosh nixolga uxshaysan . Sening xatolaringni tuzatib tursam , yaxshi narsalarga urgatsam sen esa mening suzlarimdan chikmasang , yaxshi odam bulib voyaga yetasan . Agar sen mening gaplarimga quloq solmasang , xuddi mana shu ikkinchi daraxt kabi egri usib voyaga yetasan , debdi .

Ota-onalar farzand fidoyilaridir .

Bu shark xalqlari , xususan uzbek millatiga xos bulgan fazilatdir .

Adabiyotlar:

1.M. Xolmatova «Oilaviy munosabatlar madaniyati va soq'lom avlod tarbiyasi» T. 2000 y.

2. E. Yusupov, Y. Yusupov «Oila – ma'naviyat bulog'i » T. 2003 y.

3. A. K. Munavvarov «Oila pedagogikasi» T. 1994 y.

4. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi-mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hatomov va b. TOshkent. "FAN", 1997.

5. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. T. "O'qituvchi", 1980.

6. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.

7. Joyce, B., Calhoun, E., Hopkins, D «Pedagogy, Teaching Practices» 2004,

8. Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries

8-9-Mavzuga oid tayanch iboralar:

Family-Cemya-Oila-jamiyatning kichik bo'g'ini.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o'tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Xalq pedagogikasida oila tarbiyasi.

2. Xalq pedagogikasida insoniy fazilatlarni ifodalanishi.

3. Bola tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati etnopedagogikada ifodalanishi.

4. O'zbek oilalarida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Ijobiy axloqiy sifatlarni tarbiyalash, salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish usullari.

Nazorat savollari:

Tarbiyada oilaviy muhitning o'rni qandayg`

Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi nimadag`

Bola tarbiyasida hamkorlik tushunchasig`

O'zbek farzandi qanday bo'lishi kerak`

Test savollari:

1. Aqliy tarbiya nima?

- a) yoshlarni odob-axloq ko`nikmalari bilan qurollantirish;
- b) fikrlash, xis qilish, tasavvur, xayol va xotira qobiliyatlarini o`tsirish, bola ichki dunyosini ma'naviy jihatdan boyitish;
- s) mehnat qobiliyatini o`tsirish, bilim olishga qiziqtirish;
- d) bilimdon yoshlarni tarbiyalash, kasbiy mahoratini shakllantirish.

2. Xalq pedagogikasi orqali yoshlarda qaysi jihatlar tarbiyalanadi?

- a) xalqning milliy, tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari va urf-odatlariga sodiqlik xissi;
- b) xalqning qadimiy turmush tarzi tajribalariga sodiqlik;
- s) milliy urf-odatlarga sodiqlik;
- d) milliy g`urur, milliy iftixor.

3. Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo'nalishga safarbar qilishda nimaga tayanadi?

- a) allomalar o`gitlariga;
- b) hadis ilmiga;
- s) xalq og`zaki ijodiga;
- d) ijtimoiy masalalarga.

4. O`zbek xalq pedagogikasida yoshlarni jismoniy jihatdan necha yo'nalishda tarbiyalangan?

- a) 6 yo'nalishda; b) 2 yo'nalishda; s) 4 yo'nalishda; d) yo'nalishlar mavjud bo`lmagan.

5. «Inson bo`lib dunyoga keldingmi, biror kasb egalla, hunar o`rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek yashamaysan». Yuqoridagi fikrlar kim tomonidan aytilgan?

- a) Abu Ali ibn Sino; b) A. Navoiy; s) H. H. Niyoziy; d) Al Xorazmiy.

6. Sa'diy ta'limoti to`g`ri yozilgan qatorni toping.

- a) o`z mehnatidan non yegan kishi;
- b) Hotamtoy himmatidan ozod qilish;
- s) qo`ling mehnatda, qalbing ilm olish va ezgu ishlarda bo`lsin;
- d) bilimli hor bo`lmas.

6. Xalq pedagogikasi yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda qo`llaniladigan muxim usul qaysi?

- a) tushuntirish, rag`batlantirish, suhbat orqali;
- b) ishontirish, o`git, nasixat, namuna ko`rsatish;
- s) ibrat ko`rsatish, ko`rgazma va tanbeh orqali;
- d) nasixat qilish, ibrat ko`rsatish, rag`bat.

7. Xalq pedagogikasi orqali nimalar o`rganiladi?

- a) nozik tuyg`ular orqali eng go`zallikni anglashni o`rgatadi;
- b) yuksak fazilat egasi bo`lib yetishish usullarini o`rgatadi;
- s) milliy me'rosimizga aylangan nafis san'at asarlari, mumtoz kuy-qo`shiqlarning ta'lim-tarbiyada tutgan o`rnini o`rganadi;

d) yoshlarni mutsaqil, erkin firklashga o`rgatadi.

8. Bolaning ota-ona va kattalarga bo`lgan mehribonliklarini qanday tushunasiz?

- a) tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma'naviy fazilatdir;
- b) tug`ma hodisalar;
- s) zaruriyat;
- d) ta'lim-tarbiya natijasi.

10-11- Mavzular: Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari. Tarbiyalash metodlaridan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo`llari.

Reja

1. O`zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.
2. Na`muna va ibrat ko`rsatish metodlari.
3. Rag`bat va jazolash metodlari.
4. Etnopedagogik manbalarda o`z-o`zini tarbiyalash metodlari.

Sharq xalqlari jumladan o`zbek bolalari tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday hatti-harakatning ham oqibati to`q`ri baholangan. Yoshga monand ta`sir ko`rsatish yo`l va vositalari yaratilgan. Kerak bo`lganda raq`batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo`lsa jazolangan. Noahloqiy hatti-harakatlarni qisqa va lekin o`ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan «yomon bo`ladi» iborasi bilan tavsiflangan.

Masalan, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odob-ahloq qoidalariga nonga hurmat uluq`langan va non ushoq`i bexosdan yerga tushib ketsa, «yomon bo`ladi» deb uni qo`lga olib ko`zga surtib, o`pib oq`izga solingan.

Birgina «yomon bo`ladi» iborasi juda katta va ta'sirchan tarbiya vositasi bo`lib xizmat qilgan. «Yomon bo`ladi» iborasi orqali kattalarga xurmat, kichiklarga q`amxo`rlik, tarbiyalangan, yetim bolalarga, boshiga tushgan oilalarga ozor yetkazilmagan. Otaga ters javob berish, xotin-qizlarga behayolik qilish «yomon bo`lishi»ni yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolalarni yoshi xatti-harakatlari o`ziga xos xususiyatlari xisobga olingan. Ayrimlariga noahloqiy xatti-harakatlarining yomonligi qur'oni Karim hadislardan misollar keltirish, xikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-ona; aka-uka, opa-singil, qo`ni-qo`shnilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

O`zbek xalqida bolalar bilan boq`liq juda ko`p an'analar mavjud. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, extiyotlash kabi insoniy qarashlarni tarq`ib qilib kelgan.

Xalqimizning o`zining tarbiya usullarida bolalardan kattalarga birinchi bo`lib salom berishni kattalar suhbatiga aralashmaslikni, ularni hadeb savollar bilan charchatmaslikni, kattalar o`z joylariga o`tirgunga qadar o`tirmaslikni, uyga mehmonlardan so`ng kirishni, lekin eshikni birinchi bo`lib ochib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariga rioya etishni har doim talab qilgan.

Ota-ona dasturxondagi taomga qo`l uzatmaguncha hech kim qo`l uzatmagan. Yuqoridagi odob qoidalari deyarli o`z ahamiyatini yo`qotgan, ular milliy hulq-atvorimiz bezaklaridir.

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomilalikka hozir javoblikka alohida e'tibor berilgan. Sharq xalqlari o'z bolalariga soxtalik yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan samimiy munosabatni uluq'lagan, o'rgatgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, istak bildirish, maslahat berish, yolvorish-iltijo, duo qilish, la'natlash, kaltaklash kabi metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, maqtash, qarq'ash kabi metodlaridan foydalangani ko'zga tashlanadi.

O'git-nasihat xalq oq'zaki ijodida bolalarda insoniy fazilatlarini tarbiyalab yetishtirishda eng ko'p qo'llanadigan metodlaridan biridir. Avvalo, kishilarni kishi tomonidan va rostgo'y bo'lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan panj-nasihat formasida tinglovchiga nisbatan maslahat, nasihat, istak va buyruq formasida ishlatiladi. Masalan:

Yomonnnig yaxshisi bo'lguncha
Yaxshining yomoni bo'li!
Birovga o'lim tilaguncha,
O'zinga umr tila!
qadrlasang qadring oshar,
qadrsizdan hamma qochar

kabi maqollar tinglovchilarga nisbatan o'q'it-nasihat formasida aytilgandir.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli shakllardan biri, xalq donishmandliklarining ahloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatilishidir, ya'ni ahloq va odob masalalariga baq'ishlangan xalq maqollarining naqadar haqiqat ekanligini (Har kimsa etsa-o'ziga) ertagi mazmuni orqali ochib berilishidir.

Training method (from the Greek "metodos") way of achieving the goal of education; pupils in thinking, feelings and behavior will impact methods. School practices, methods that pupils in thinking, feelings and behavior will impact methods. The creation of new methods of education is not the power of a single teacher. There is always the problem of improving the techniques to solve it each according to his trainer, the education process in accordance with the specific conditions of its richness of expression on the basis of common methods. Techniques, positive and negative, the way educational process highly efficient and effective assessment. The effectiveness of the techniques that can be assessed through the use of the exact circumstances. Teaching methods to select a number of factors. Goals and objectives of education. The aim of the training and techniques allow you to choose the right content. What is the purpose, then it must be in accordance with the methods of achieving it. The nature of the formation of the person on the content of the education and social needs. However, the same task can be filled with a variety of opinions. Therefore, the techniques are not

generally content with is very important to connect with the idea.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir. Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash bir qator omillarga bog‘liq. **Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur. **Tarbiyaning mazmuni** shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir³⁶.

Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o‘rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, o‘rnak bo‘lish).
4. Nasihat qilish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma’qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta’sirlar muayyan vositalar yordamida qo‘llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to‘y marosimlari), sayillar, oilaviy an’analar (tug‘ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ma’lumotga egalik to‘g‘risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o‘ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

³⁶ Martin, Jay. **The Education of John Dewey. (2003).** Columbia University Press

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko'rsatish metodi ustida gap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o'tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'zbek xalq ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan namuna ko'rsatish metodi juda ko'p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli tomoni-uning asosan ikki yo'nalishida ko'zga tashlanishidir. Bir tomondan, ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan qochishga tarq'ib qilinadi. Masalan, «Erali va Sherari» dostonida aka-ukaning ustoz bolalarga odob-ahloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi.

Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob va ahloqiy tarbiyalash yuzasidan xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalangani ham ko'rsatiladi.

Folklor materiallarida uchraydigan ahloqiy tarbiya vositalari juda ko'p tur va shakllarga ega bo'lsa ham, asosiy vosita sifatida:

Bolalar o'yinlari.

Choyxo'rlik – choyxona gurungi.

Bolalar gapi – gap yeyish.

To'y marosimlari.

Sayillar va hokazolar.

Shubhasiz, bunday davra yoki yiq'inlarning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan va hozir ham u juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Madaniyat deganda inson xulq-atvorining go'zalligi, sahovat va himatliligi, olijanoblighi, va'dasiga vafodorligi, o'ziga xosligi bilim olishi, donoligi, baq'ri kengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beq'uborligi va shu singari yoqimli urf-odatlar tushuniladi.

...Ma'rifatning insonga ko'rsatadigan ta'sirlaridan biri shuki, u odam dunyoqarashini kengaytiradi, unga notanish uning hayotiga begona hodisalarning asl ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Ma'rifat ilm va madaniyat nuridir.

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilq'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Aqliy tarbiyani shunday tashkil etish lozimki toki o'quvchilar aql-zakovatli, ob'ektiv dunyoni yaxlit idrok etadigan, o'zligini tushunadigan, hayotda tutgan o'rmini anglab yetadigan, o'z oldida turgan vazifalarni ongli bajara oladigan, insoniy qadr-qimmatni uluq'laydigan bo'lishsin. Inson kamolotida bilim egallash ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi.

Hadis kitoblarida har bir mo'min-musulmon uchun ilmning naqadar zarurligi bayon etilgan. «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» - degan nurma'no hadisi shariflar so'zimiz isbotidir.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida – «Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolq'iz damlarda yo'ldosh, baxtli daqiqalarda rahbar, qayq'uli

onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda qurol» deganlar.

Xalq pedagogikasida ham hadislarda ham, xalq oq'zaki ijodida ham ilmiy bo'lishga, ilmga intilishga yuksak darajada shariat berilgan, ular bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida o'z ahamiyatiga ega.

Yusuf Xos Xojib o'z asarlarida bilimdon bo'lish tarbiya bilan chambarchas boq'liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, shuncha yaxshiligi haqida yozadi:

«Agar kimda bo'lsa aql, ilm zehn,
Uni madh etib sen, tugal er degin,
Ziyod bo'lsa kimda o'quv, uquv, aql, bilim,
Yomon va kichik bo'lsa ham maqtagin».

Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida ilm orqali Farhodning aql-idrokli bilimdon, hunarmand, kamtar insonparvar, irodali va e'tiqodli inson bo'lganligi ko'rsatadi.

Demak yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlar aqlini o'stirish uchun birinchi galda vazifa ilm olish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga da'vat etishdir.

Aqliy tarbiya fikrlash, xis qilish, tasavvur, hayol va xotira qobiliyatini o'stirish, ichki dunyosini ma'naviy jihatdan boyitish, yosh avlodni mehnat qilish qobiliyatini o'stirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Tarixiy an'ana va tajribalardan ma'lumki, ta'lim-tarbiya doimo muayyan va tuzum yuritgan siyosat o'z oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlar asosiga qurilgan.

O'zbek xalqi ota-bobolaridan qolgan buyuk madaniy merosga ega. Bu boyliklar jamiyatda fan va madaniyat adabiyot va san'at, mustaqilligimiz ravnaqiga, ma'naviyatimizni yuksaltirishga, milliy q'urur iftixorimizni mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham xizmat qiladi. Bunday ma'naviyatning buloq'idan yosh avlodni baxramand etish, tarbiya jarayonida ulardan mohirlik bilan foydalanish biz pedagoglarni asosiy burchimizdir. Bunday meros xalqni o'zligini anglash, ajdodlar bilan faxrlanish, xalq mentalitetiga mos ravishda shakllanishga ulkan xissa qo'shadi.

Xalq pedagogikasida xalqning milliy – tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an'analari va urf – odatlariga sodiqlik xissini tarbiyalash q'oyalari ilgari surilgan.

Hamma zamonlarda ham inson, uning ma'naviy-ahloqiy kamoloti, bosh masala bo'lib kelgan.

Insonda ana shunday jihatlarni rivojlantirishda quyidagi milliy aqidalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zaro hamjamiyat va jamoa bo'lib yashash hamda mehnat qilish
Kattalarga hurmat kichiklarga shafqat, el-yurtga muhabbat
Ota-onani qadrlash, farzandlik burchini to'la ado etish
Oilaga va farzandlarga q'amxo'rlik qilish
Millat ayirmaslik
Boshqalar qayq'usiga sherik bo'lish
Xasharchilik an'analarni tiklash va yordam berish

Vatanga muhabbat tuyq'usini yanada rivojlantirish
Ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish
Islom diniga e'tiqod tuyq'ularini tarbiyalash
Milliy madaniyatni tobora rivojlantira borish
Bilim olishga ahamiyat berish
Ustoz-ziyolilarga, ma'rifatparvar kishilarga hurmat-ehtiromda bo'lish
Milliy odob-ahloq me'yorlariga to'la rioya qilish

Ko'rsatilgan shu ma'naviy-ahloqiy aqidalarga amal qilish hamda o'tmishdagi olimu fuzalolaru shoirlarning benazir merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan va u hamon o'z ta'sir kuchiga ega ekanini yodda tutgan holda amalga tadbqiq etish zarur. Bu tarbiyada natijaga erishishning muhim shartlaridan biridir.

O'zbek Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo'nalishga yoppasiga safarbar qilishda milliy qadriyatlarga tayangan holda, talaba yoshlar qalbiga kirib boradi, ularni ijtimoiy ongini o'stirishda yetakchi o'rin tutadi.

Komil inson tushunchasi, insonning dunyoqarashi, jumladan diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari, qolaversa, ahloq-odobi bilan bevosita aloqadordir.

Barkamol insonlar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Bunday insonlar mutelikda qaramlikda yashashni istamaydilar. Barkamol inson o'zida insoniylik fazilatlarini mujassam etgan, odob-ahloq me'yorlariga amal qiluvchi, o'z shaxsiy fikriga, q'oyasiga, mukammal bilimga ega bo'lgan jihatlarni qamrab olgan bo'lishi kerak.

Ana shunday maqsadli, e'tiqodli insonlarga jamiyat ishonadi, tayanadi, ular hamma vaqt xalq, millat iftixori bo'ladi

Keksa avlod, ota-ona o'z farzandlarini uzoq zamonlar mobaynida to'plangan va takror-takror sinovdan o'tgan ajoyib insoniy fazilat qoidalari hamda uni amalga oshirish metod va vositalarini yaratganlar va shu asosda zamona yoshlarini o'sha ijtimoiy hayot talablariga muvofiq kishilar qilib tarbiyalab kelganlar.

Xalq ijodi materiallarining ko'rsatilishicha, bolalarda insoniy xis-tuyq'ularni tarbiyalashning mazmuni kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi dastlabki elementar odob va ahloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasi yoshlarda yuqoridagi kabi ma'naviy fazilatlarni tarkib toptirmoq uchun, birinchi navbatda bolalarni o'ziga yaqin kishilarga ota-ona, aka-uka va oiladagi kattalarga bo'lgan tabiiy muhabbat tuyq'ularini tarbiyalab voyaga yetkazish zarurligiga amal qilingani ko'rinadi.

Ma'lumki, kishilarning shu jumladan bolalarning ota-ona va kattalarga bo'lgan mehribonligi, q'amxo'rliqi tuq'ma hodisalar bo'lmay, tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma'naviy fazilatlardir.

Ota-onalarning bolalarga mehr-muhabbat, fidokorlik va q'amxo'rliklarining o'zi bolalarda ota-onani qadrini oshiradi. Ota-ona bolalar ko'z o'ngida muqaddas va mo'tabar bo'lib gavdalanadi. Ularning ota-onaga bo'lgan tabiiy muhabbat

hislarini tarbiyalab boradi. Bolalardagi bu hissiyot ayniqsa, bolalarning maktab yoshigacha bo'lgan davrida, ota-onaning suyushi, erkalashi, ardoqlashi zaminida rivojlanib boradi.

Biroq o'zbek xalq oq'zaki ijodida, shuningdek, xalq pedagogikasida ota-ona bolani qanchalik sevmasin va unga qanchalik mehr qo'ymasin, bu sohada ma'lum me'yor mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Bolani haddan tashqari ardoqlash, erkalash, taltayib ketishiga yo'l ochib bermaslik uqtiriladi. Xalq pedagogikasida ota-onaning o'z farzandini sevishi, ardoqlashi, erkalashi, uning kelajak istiqboli baxtli bo'lishi bilan chambarchas boq'liq bo'lgandagina bolagi ijobiy ta'sir etishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Xalq oq'zaki ijodida ota-onalarning o'z farzandlarini zo'r berib erkalashi va taltaytirishlari natijasida ularning injiq, irodasiz, tantiq, xushyoqmas, dangasa, odobsiz, o'jar va xudbin bo'lib qolishlarini tasvirlovchi asarlar ko'plab uchraydi.

Erka tutsa onasi,

Taltayadi bolasi.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko'rsatish metodi ustida gap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o'tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi, metodi sifatida xizmat qiladi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli tomoni – uning asosan ikki yo'nalishida ko'zga tashlanishidir. Bir tomondan ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga tarq'ib qiladi.

Masalan, «Erali va Sherali» dostonida, aka-ukaning ustozi bolalarga odob-ahloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi. Shu o'git-nasihatlardan xulosa chiqarib, Erali ukasiga: - «Aqli rasolarning gapini ko'rdingmig'» deb, u shunday donolardan ibrat olish kerakligini aytadi.

«Orzigul» dostonida Suvonxon otasi Suyonxonning o'zi uyida parvona bo'lishining qadriga yetmaydi. Arzimagan gap bilan otasiga nisbatan ginaxonlik qilib yuradi. Otasi esa bundan ranjiydi. Shu orada Suvonxon farzand ko'radi. U bolasini juda sevadi. U: «Farzand qanday yaxshi! Yurakning moyidan, kishining mehri joyidan bo'lur. Ko'rar ko'zimni yiq'latma», - deb Orzigul bilan o'q'lining qoshiga kelib: «Kishi farzand ko'rmaguncha ota-onaning qadrini bilmas ekan», deb otasidan ibrat olishiga, uni qadrlashga ahd qildi. shuningdek, «Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga», «Sen ham bo'larsan mendek» ertaklarini ham ko'rsatish mumkin.

Demak, ota-ona va oiladagi kattalarning ijobiy fe'l-atvor va hatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta'sir qilgani holda oiladagi kattalarning nojo'ya hatti-harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq oq'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan raq'batlantirish va qoralash bir necha formada ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik ertak va dostonlarda raq'batlantirish metodi: 1) ma'qullash va maqtash,

2) alqash, 3) mukofotlash shakllarida, jazolash metodi esa: 1) qarq'ash, 2) jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi.

Raq'batlantirish metodi ahloqiy tarbiya yuzasidan eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri, xalq oq'zaki ijodida u turli shaklda ishlatiladi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhga ajratgan holda talqin qilish mumkin.

Ma'qullash va maqtash. Xalq oq'zaki ijodiyoti asarlarida bolalarni insoniylik yuzasidan amalga oshirgan ibratli ishlarini kattalar tomonidan ma'qullash, taqdirlash, rahmat aytish va maqto'v bilan bir o'rinda tasvirlanadi. Masalan: «Erali va Sherali» dostonida, Erali bilan Sheralini insoniylik yuzasidan el-yurt, oshna-oq'ayni o'rtasidagi munosabatlari usta Odilni juda quvontiradi, ularning fe'l-atvoriga qoyil bo'ladi.

Usta Odil ikkalasining yuziga qarab: «Barakalla aka-ukalikda o'zgalar sizlardan ta'lim olishlari kerak. Ta'lim bergan ustozingga ming rahmat, ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat, ikkinchi padaringga rahmat!» deydi.

«Suxrob va Muzrob» ertagida tasvirlanishicha, Suxrob bilan Muzrob ikkisi katta bir mamlakat xalqiga taxlika solib turgan devlarni o'ldiradi. Shunda saroyga yiq'ilgan kishilar Suxrob va Muzrobning baxodirlarcha qilgan xizmatlariga ofarinlar aytib qoyil qolishibdi.

Yuqorida keltirilgan asarda bolalar o'zlarining odobi, insonpavarliklari bilan ota-ona, ustoz ham xalq ommasining olqishlariga sazovor bo'ladilar. Ba'zan ertak va dostonlarda bolalarning taqdirlanish sabablari ko'rsatiladi, ularning kelajakda ham shunday bo'lishiga da'vat etiladi. Masalan: «Chambil mudofaasi» dostonida shunday voqeani ko'ramiz: Go'ro'q'libekning o'q'li Avaz Holdornikiga to'yga boradi. To'y davomida Holdorxonning dushmanligini sezib keladi va bo'lgan voqeani otasiga aytib beradi. Shunda Go'ro'q'libek: Avazning bu so'zlarini eshitib, sherday hayqirib, yo'lbarsday cherpini, qoplonday chopinib, ko'zlari o'tday yonib «Barakalla, o'q'lim, yaxshi ish qilibsan! Indamay kela berganingda mening o'q'lim bo'lmas eding, men sendan xush vaqt bo'lmas edim». «O'q'lim, barakalla, har ish vaqti – soati bilan bo'ladi, dedi».

Ko'rinib turibdiki, Go'ro'q'libekning o'z farzandi Avazning faoliyatidan minnatdor bo'lib uni raq'batlantirdi.

Olqish. Olqish xalqimiz o'rtasida qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan raq'batlantirish shakllaridan biridir. Olqish xalq oq'zaki ijodida raq'batlantirishning boshqa shakllariga qaraganda ko'proq uchraydi.

Odatda olqish va qarq'ish ma'lum sotsial guruh va alohida shaxslarning o'zaro munosabatlarida, bir-birlarining ijobiy yoki salbiy hatti-harakatlariga nisbatan minnatdorchilik yoki q'araz, norozichiliklarini izhor qilishlarida qo'llangan.

Asosan ota-ona, keksalar va umuman ayrim shaxslar o'zgalarning ijobiy harakatlariga minnatdorchilik izhor qilishga qodir bo'la olmasalar taqdirlash, mukofotlash, armuq'on in'om o'rnida o'zlarining chuqur ichki istak va armonlarini izhor qilganlar. Keyinchalik o'zgalar uchun baq'ishlanadigan istak va orzular o'ziga nisbatan qudratli va qodir bo'lgan tashqi kuch – Ollohdan so'raydigan bo'lganlar.

O'z navbatida olqish duo ham bir necha yo'nalishda ko'rinadi.

Birinchidan – oʻz fe'l-atvori va hatti-harakati bilan kattalarni manzur qilgan bolalarning soq'-salomat bo'lishlariga ishlatiladigan olqish: umringdan baraka top, dard ko'rma, tani-joning soq' bo'lsin ilohim va hokazolar.

Ikkinchidan – bolalarning kelajagi haqida: baxtiyor bo'l, niyatingga yet, tuproq olsang oltin bo'lsin, ilohim.

Uchinchidan – tashqi ta'siriga nisbatan: do'stga zor, dushmanga xor bo'lma, qasd qilganlar past bo'lsin, ilohim va hokazolar.

Mukofot. Xalq ijodida raq'batlantirishning mukofot shakli ham uchraydi. Lekin, xalq oq'zaki adabiyoti namunalari ba'zi obrazlar – xalq orzu qilgan – adolatli va xalq sevar podshohlar, qurbi yetgan keksalar, oʻz fe'l-atvori va hatti-harakati, donishmandligi bilan ko'pchilikka manzur bo'lgan, keksalarni shuningdek, el-yurt va hukmdorlarni ma'lum bir topshiriq va niyatlarini mardlik va matonat bilan ado etgan yoshlarni mukofotlaganliklari, ularning mehnatini qadrlaganliklari ifodalanadi.

QADRLASH METODI

Xalqimiz o'rtasida bolalarning ahloqiy tarbiyasi yuzasidan qo'llaniladigan qoralash metodi turli shaklda – uyaltirish, koyish, urishish, so'kish, qarq'ash, oq qilish va jismoniy jazo berish shakllarida qo'llanilishi ma'lum. Biroq xalq oq'zaki ijodida asosan qoralashning qarq'ish va jismoniy jazo berish kabi ayrim shakllarigina uchraydi.

qarq'ish ham ma'lum sotsial guruh yoki ayrim kishilar o'zaro shaxsiy adovatda bo'lganlarida, raqibi qarshisida o'zi kuchsiz ekanligini anglab, o'ziga nisbatan qudratli bo'lgan ikkinchi bir kuchning ko'magidan madad tilab murojaat qilish, ya'ni o'sha kuch orqali o'z raqibiga ko'ngilsizlik, baxtsizlik, qayq'uli hollar, hatto o'lim tilaganlar.

qarq'ish ota-ona va umuman kattalarning o'z bolalari yoki begona bolalarga nisbatan qo'llanilib, u ham o'z navbati bilan shaxsi – jismoniy va fe'l-atvoridagi xususiyatlarga ko'ra turlicha ishlatiladi.

Odatda qarq'ish bola tarbiyasida eng ko'p qo'llaniladigan shu bilan birga eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob, tushkunlik va alam ortadi. Ota-ona va kattalarning tarbiyasi sifatidagi ta'siri yo'qoladi, kattalar bilan bolalar o'rtasidagi mehribonlikka putur yetadi, ahillik va obro' yo'qoladi. Shuning uchun ham xalqimiz:

Ura bersang, eti qotar,

qarq'ay bersang, beti qotar deydi.

Jismoniy jazo – o'zbek xalq pedagogikasi tarixida bolalarga jismoniy jazo berish, juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan shakllaridan biridir.

Tarixda bolalarga nisbatan qo'llaniladigan juda oq'ir jismoniy jazo shakllari bo'lgan. Shuningdek, oilada ota-ona va umuman kattalar tomonidan, tarbiya nuqtai nazaridan qo'llaniladigan jismoniy jazo – tarsaki, quloq cho'zish, xivchin yoki qamchi bilan urish, mushtlash, tepish kabilar bo'lganligi ma'lum. Biroq, xalq oq'zaki ijodida tarbiya yuzasidan faqat shapaloq (tarsaki) urish shakligina uchraydi.

Umuman xalq oq'zaki ijodida jismoniy jazo tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi.

Tarbiya vositalari. Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob-ahloqiy tarbiyasi yuzasidan qo'llaniladigan metodlar bilan birga xilma-xil tarbiya vositalaridan ham foydalanilgani ko'rsatiladi. Bular asosan quyidagilardan iborat bolalar o'yinlari, choyxo'rlik, gap yeyish, kattalar bilan birgalikda to'y-marosimlarida ishtiroki, sayillar, safar sayohatlarga borish va hokazolar.

Xalq pedagogikasini chuqur o'rganar ekanmiz, o'zbek xalqi bolalarini tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan usuli – o'yin shaklidan oqilona foydalanganliklarini ko'ramiz.

O'q'il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib, qizlarni mehr-shafqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday o'yin shakllari bo'lganki, ularni bugungi kunda qayta tiklash va tarbiya jarayoniga qo'llash lozim.

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularni hayotga, turmushning oq'ir-engil sinovlariga tayyorlab borishga ham qattiq e'tibor berilgan.

Ota-onalar farzand fidoiylaridir. Bu sharq xalqlariga xususan o'zbek millatiga xos fazilat. Shunday ekan farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari beqiyosdir.

Fikrlarimizni Navoiyning quyidagi misralari bilan yakunlasak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Boshni fido qilq'il ota boshiga,
Jismni qil sadaqa ano qoshiq'a.
Tun-kunningga aylagil nurposh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati haqidagi etnopedagogika fikrlari

Farzand inson hayotining davomchisi, orzu-umidlarining ro'yobga chiqaruvchisidir. U faqat oila uchun emas, balki millat, elat, xalq, jamiyat uchun ham qadrlidir. Shuning uchun etnopedagogikada bola tarbiyasi faqat oilaningemas, balki jamiyatning ham vazifasi sifatidatalqin etiladi. Shuning uchun "Bir bolaga yetti maxalla ota-ona" ekanligi talqin etiladi. ayni paytda bola tarbiyasida jamiyatdagi muhitning ahamiyati aks etishi ota-onaning, qo'shnilarning qarindosh-urug'larning ahloqiy sifatlariga bog'lab tushuntiriladi. Jumladan, "Onasini ko'rib, qizini ol", "Odobli bola elga manzur", "Yoshdan xato, kattadan uzr", "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l!" singari maqollar shunday sifatga ega.

Yomon axloqiy sifatlar bola tarbiyasining oilada noto'g'ri yo'lga qo'yilishi tufayli yuzaga kelishi "Erkalatsa onasi, taltayadi bolasi", "Qush uyasida ko'rganini qiladi" singari maqollarda ifodalangan. Odamlarga, ota-onaga qarata: "Bolani yoshdan o'rgat, xotinni boshdan o'rgat!", -deb maslahat beriladi. Aks holda: "Buyursa-bola, Buyurmasa-balo" bo'lishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi. Agar bola yaxshi inson bo'lib tarkib topsa, u xalq uchun, mamlakat uchun foydali inson bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi:

"Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi"
Do'st tanlashda adashmaslik uqtiriladi:
"Ishonmagin" do'sting"ga
Somon tiqar po'stinga!"
"Ota dushmani do'st bo'lmas!"
"Yo'ling bilib yo'ldosh qil

Tiling bilib tengdosh qil” va b..

“Alpomish” dostonida Hakimbek, “Tumaris”, “SHiroq” rivoyatlarida Tumaris, Shiroq singari el-yurt uchun o‘z hayotini qurbon qilishgacha borib yetgan Jaloliddin manguberdi, Temur Malik, Sohibqiron Amir Temur singari vatanparvar, xalqparvar tarixiy shaxslar yetishib chiqdi. Ularning jasoratli hayot yo‘lini o‘rganish hozirgi paytda yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Hozir maxhalla, hashar, to‘y, sayil va boshqalar ijtimoiy tarbiya manbaidir.

Ijobiy axloqiy sifatlarga erishish va salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish usullari haqida

Xalq pedagogikasida shaxsning ijobiy va salbiy axloqiy sifatlarning shakllanishi sabablari ob‘ektiv ravishda ko‘rsatib berilgan. Xalq bola tarbiyasining murakkab va sharaflil ish ekanligi to‘g‘ri anglaydi. Shuning uchun xalqda “Bola-aziz, bola tarbiyasi undan ham aziz” deyiladi. Bu fikr g‘oyatda to‘g‘ri. Chunki gap kelajak avlod tarbiyasi haqida borayotir. Xalq tarbiyani umr bo‘yi davom etuvchi jarayon deb xisoblab, bola tarbiyasini bir lahza ham e‘tiborsiz qoldirmaslikka chakiradi. Aks holda bolani qayta tarbiyalash zarur bo‘ladi. Ammo, qayta tarbiyalash jarayoni ancha murakkab ish ekanligi ta‘kidlanadi: “O‘ttiz yil egri o‘sgan daraxni bir yilda to‘g‘rilab bo‘lmaydi”.

Etnopedagogikada ko‘rsatilishiga, barcha ijobiy sifatlarni bolaga yoshligida singdirilishi lozim. Bunda oilaning ahamiyatiga g‘oyat katta. Ayniqsa, otaning yumshoq ko‘ngilli, onaning erkalatishlari bola tarbiyasiga salbiy ta‘sir etishi alohida ta‘kidlanadi:

“Erkalatsa, onasi, taltayadi bolasi”

yoki:

“Egri mo‘ridan tutun egri chiqadi”.

Tarbiya jarayonida ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishda hamkorlik pedagogikasidan foydalanish, bola shaxsini hurmat qilishi zarurligi ta‘kidlanadi. Xalq ham hamisha: “Bolani kim erkalatsa, u o‘shanga yaqin keladi,-” deydi.

Xalq pedagogikasida ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishda katta yoshli bolalardan foydalanish taklif etiladi. Amaliy hayotda ham oiladagi kichik yoshli bolalar katta yoshli akasi yoki opalaridan ko‘proq tarbiya oladilar. Katta bolalar o‘z ukalariga g‘amxo‘r bo‘ladilar. Ular ukalariga tarbiya bera turib, o‘zlarini kattalardek his qiladilar. Ularga mehnat qilish, axloqiy madaniyat ko‘nikmalarini singdiradilar. Shuning uchun bosh farzand tarbiyasiga ko‘proq, e‘tibor berilsa, kichiklarini tarbiyalash oson kechishi ta‘kidlanadi: “Kattasini tarbiya qil, kichigining o‘zi o‘rganadi” deyiladi.

Bolani yutuqlari uchun ortiqcha maqtash uni o‘zbilarmonlikka olib kelishi ta‘kidlanadi: “O‘zini maqtagan axmoq, bolasini maqtagan undan ham axmoq”.

Bolalikda paydo bo‘lgan salbiy axloqiy sifatlarni tuzatish mumkinligi va bu uncha qiyin kechmasligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, yomon xislatlar to‘g‘ma emas, balki o‘zlashtirilgan sifatlarni, noto‘g‘ri tarbiya oqibati ekanligi ta‘kidlanadi.

Boladagi salbiy sifatlarni oiladagi yoki atrof-muhitdagi salbiy omillar tufayli paydo bo‘lgan bo‘lsa, yomon odatni vujudga keltirgan manbalardan bolani uzoqlashtirish, manbani bartaraf etish taklif etiladi. Oilada osoyishta muhit

yaratish, yaxshi do'stlar topishga ko'maklashish tavsiya etiladi: "Do'stingning kimligini ayt, sening kimligingni aytaman", "Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, Yemon bilan yursang qolarsan uyatga" maqollari fikrimizning dalilidir.

O'z-o'zini tarbiyalash inson shaxsining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Xalq bu borada tarbiyalashning o'ziga xos dasturini taklif etib: "Yaxshilarga yondosh, yomonlardan uzoqlash"-deb ta'kidlaydi. "Yetti o'lchab bir kes", "Avval o'yla, keyin so'zla", "Yaxshilikni yomondan o'rgan" kabi maqollarda mustaqil hayotda odamlar yordamida yaxshi sifatlarni egallash, yomon sifatlarni tuzatish mumkinligi ta'kidlanadi.

Etnopedagogika manbalarida yoshlar o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash vositasida eng oliy insoniy sifatlar - izzat-hurmat, kamtarlik, odillik, halollik, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik singari odatlarini egallashi mumkinligi ta'kidlanadi.

Bolalarda akliy va ijobiy axloqiy sifatlarning shakllanishida o'yinlarning ahamiyati ham katta. O'yin jarayonida bolaning bunday sifatlari rivojlanadi. Bola 3-5 yoshda predmetlar bilan, 5-7 yoshda esa bolalar va kattalar bilan o'ynashga, rollarni bajarishga intiladi. O'yin jarayonida u ota, ona rolini bajarishi, qo'g'irchoqni kiyintirish, yuvintirish, uxlatishni o'rganadi, hayvonlar va qushlarga taqlid qilib ovoz chiqaradi, Vrach, o'qituvchi, shofyor, sotuvchi obrazlariga kiradi. Shuning uchun o'yin ham etnopedagogika manbasi sifatida katta tarbiyaviy kuchga ega.

Ertaklarni obrazli qilib so'zlab berish vositasida yaxshi axloqiy sifatlarga havas, yomonlariga nisbatan esa nafrat uyg'otiladi.

Adabiyotlar:

1. M. Xolmatova «Oilaviy munosabatlar madaniyati va soq'lom avlod tarbiyasi» T. 2000 y.
2. E. Yusupov, Y. Yusupov «Oila – ma'naviyat bulog'i » T. 2003 y.
3. A. K. Munavvarov «Oila pedagogikasi» T. 1994 y.
4. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi-mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hatomov va b. TOshkent. "FAN", 1997.
5. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. T. "O'qituvchi", 1980.
6. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
7. Martin, Jay. **The Education of John Dewey. (2003).** Columbia University Press

10-11-Mavzuga oid tayanch iboralar:

Family-Cemya-Oila-jamiyatning kichik bo'g'ini.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o'tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Perfest man- idealno'y chelovek- komil inson–“Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot”.

Sulture-kultura-madaniyat-insonning egallagan bilimlari va xosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo‘lgan

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. O‘zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.
2. Na’muna va ibrat ko‘rsatish metodlari.
3. Rag‘bat va jazolash metodlari.
4. Etnopedagogik manbalarda o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari.

Nazorat savollari:

1. O‘zbek xalqi farzand tarbiyasida qanday metodlardan foydalangan?
2. O‘zbek milliy tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida gapirib bering.
3. Xalq va zamonaviy pedagogikadagi tarbiya metodlarini qiyosiy tahlil qiling.
4. Tarbiya metodlarini didaktik jarayonga tatbiq etish usullari haqida gapirib bering.

Test savollari:

1. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan tarbiya usullari ko‘rsatilgan qator qaysi?

- a) o‘g‘it, nasihat, maslaxat, namuna ko‘rsatish, erkalash, tanbeh berish; nasihat qilish, tanbeh berish, maslaxat ko‘rsatish, rag‘bat;
- b) ibrat ko‘rsatish, raxbatlantirish, uyaltirish, jazo
- s) rag‘bat, jazo, namuna ko‘rsatish;
- d) o‘g‘it, nasihat, maslaxat, namuna ko‘rsatish, erkalash, tanbeh berish.

2. O‘zbek xalq pedagogikasida qoralash metodiga berilgan ta’rif qaysi?

- a) o‘ziga nisbatan kuchli bo‘lgan ikkinchi tomondan kuchini ko‘magidan madad tilash;
- b) turli shaklda uyaltirish, koyish, urishish, so‘kish, oq qilish va jismoniy jazo berish;
- s) bolalarga odob-axloq me’yorlariga rioya qilmaganlarida qo‘llaniladigan jazo usuli;
- d) keraksiz bo‘lgan jazo usuli.

3. O‘zbek xalq pedagogikasining metodologik asoslari bu...?

- a) O‘zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotining moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlari.
- b) Alla, laparlar, ertak, dostonlar;

- s) xalq og‘zaki ijodi;
- d) Pedagogika fanining kelib chikishi va uning rivojiga xissa kushgan olimlar ijodi.

4. Xalq pedagogikasining tarbiyada oiladagi urni?

- a) Oilada ota-onaning o‘rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish kabi masalalarni urganadi;
- b) Oilaga oid Konunlarni urganadi;
- s) Oilada uchraydigan muammolarni urganadi;
- d) Oilani mehnat jamoasi va maxalla -kuy doirasida rivojlantirish.

4. Komillik so‘ziga ta’rif bering ?

- a) mexr-muxabbat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi asl insoniy azilatlarning majmuidir;
- b) Insonning akliy kamoloti boskichlariga muntazam ravishda erishuvchi jarayondir;
- s) Ma’naviy va jismoniy guzallik;
- d) Yetuklik va bekamu kustlik.

12-Mavzu: Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya masalalari

Reja

1. O‘zbek xalqining madaniyati , axloqiy me’yorlari .
2. Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya.
 3. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid karashlari
 4. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida insoniylik va axloqiy tarbiyaga oid karashlari

Tayanch iboralar : Axloqiy va falsafiy yetuklik , xalq odobnomasi , ma’naviy ustivorlik , tarbiyaviy qarashlar.

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomalalikka , xozirjavoblikka aloxida e’tibor berilgan . Shark xalqlari uz bolalariga soxtalik , yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan , samimiy munosabatni uluglagan .

Xalq pedagogikasini chukur urganar ekansiz , mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid , odob-axloqqa oid asarlarni kuzdan kechirar ekansiz , uzbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta’sirchan uslubi – uyin shaklidan juda okilona foydalanganini kurasiz . Ugil bolalarni uddaburon , chakon , topkir kilib , kizlarni mexr-shafkatli , uy ishlariga kirishimli kilib tarbiyalaydigan shunday an’anaviy uyin shakllari bulganki , ularni etnografiyasini urganish yuli Bilan tiklash ,xozirgi ishlarimizda xam kullash kerak . Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati , ayniksa

benixoyadir . Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yulga kuyishda , chinakam xalqchil tarbiyani , oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik kiladilar

Kesalar xakida gap ketganda , biz ularni xonadonimiz farishtasi , xayr-barakasi deb ataymiz . Xalq donoligi , ming yillik tajribalar , milliy an'analar kadriyatlarimiz ongida , faoliyatida , turmush tarzida jamlangandir . Ular yosh avlodning ustozlari , murabbiylari , xayot dorilfununidir . Donishmandlar kari bilganni pari bilmas , deb bejiz aytishmagan .

Uzbek xalq pedagogikasi an'analarida farzandlarni estetik idroki, xissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish xamda mukammallashtirish , tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy kobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish , estetik did asoslarini shakllantirish va kamol toptirish : Estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar uyini folklorining urni va axamiyati , tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari – estetik tarbiya markazi ekanligi , vorislik , ustoz-shogirdlik an'alarining pedagogik , axloqiy-estetik axamiyati , yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish xamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha , dorbozlik , askiya , baxshi-shoirchilik , dostonchilik , kizikchilik , kiroatxonlik , otunlik , buzaxurlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan urni va pedagogik-tarbiyaviy axamiyati , xalq an'anaviy sporti , farzandlar jismoniy bakuvvatligi va yetukligining garovi ekanligi , chakkonlik , epchillik va xar tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi tarbiyalanuvchilar uyini folklorining pedagogik tarbiyaviy axamiyati , xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayoxatning , savdo-sotik va tijoratning urni , jismoniy-tarbiya va sport kunikmalarida xalq sport va tarbiyasida axamiyat berish .

Xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uygunlashuvi muammolari , tabiat va tarixni e'zozlash , saklash va kadrlashning axamiyati , xayvonlar dunyosi , kushlar olami xamda dov-daraxtlar , usimliklar va giyoxlarga ; ruxsat , suv , borlik-atrofga insoniy munosabat - xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslarining asosi ekanligi , odatlar , udumlar , rasm-rusumlar , marosimlar , «Navruz» , «Mexrjon» , «Xayit-ro'za» boshkalarning tarbiyalanuvchining dunyoga kelishi , qulog'iga azon aytish , ilk kadami , beshikka solish , birinchi kiyim-bosh kiydirish , tuy-tomoshalar , odatlar , udumlar , marosimlar va an'alarining ta'lim-tarbiyaviy pedagogik yunalishi , axamiyati va shu kabilar .

Pedagogik madaniyatni egallash uchun avvalo boy pedagogik tarixiy merosimizni chukur bilishimiz zarur . Chunki utmish tajribalaridan sabok olib , amaliy faoliyatga dadil kirib borish mumkin .

Tarixiy merosimizdagi ulkan xazinadan baxramand bulish niyatida uzbek xalq pedagogikasiga murojaat eta boshladik . Ana shunday ulkan pedagoglarimizdan biri Abdulla Avloniy edi .

Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiyaga oid karashlari kengrok tasavvur etish uning xayot faoliyatiga bir nazar tashlash urinli bular . Abdulla Avloniyning otasi Mirovlan asli Kukonlik bulib , tukuvchilik Bilan shug'ullangan . «Ota-onam, - deydi Abdulla Avloniy tarjimai xolida , - savodli bulganlar . Ishdan bushagach xar ikkovlari xam kitob ukirdilar.»

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentdagi Mergancha maxallasida tugiladi . U 7 – yoshida O‘qchidagi eski maktabni , keyinroq madrasani xam ukib bitiradi . Arab , fors , tatar , ozarbayjon va rus tillarini puxta urganadi . 1907 yilda «Shuxrat» , 1908 yilda esa « Osiy» degan Yangi ruznomalarni chikaradi .

Uning 1912 yilda yozgan « Muallimi avval» kitobidan yoshlar savod chikarishgan , 1915 yilda yozgan « Ikkinchi muallim» kitobidan esa she’r va xikoyalar ukib , zurur saboklar olishgan .

Abdulla Avloniy « Birinchi muallim»da shunday deb yozadi : « Muxtaram muallim afandilarimizdan rijo kilurmanki , bizning « Birinchi muallim»imizdan xam olib tajriba kilib , ukitib kursalar. Chunki xar gulning bir isi , xar mevaning bir ta’mi , mazasi bordir .Bu

« buy»yu ta’m esa tajriba soxiblariga nashfuz ma’lum bulur» , « Birinchi muallim» , «eng oson usul ila» tartib etilmish» .

Abdulla Avloniy tanikli shoir sifatida 4000 misradan ortik she’r ijod kilgan , kuplab ilmiy-pedagogik makolalar nashr ettirgan . U 1934 yil 24 avgustda vafot etadi .

Abdulla Avloniyning asosiy ta’lim-tarbiyaga oid karashlari 1913 yilda yozgan «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida ifodalangan . Bu kitob ikkinchi marta 1917 yilda eski uzbek yozuvida Toshkentda nashr kilingan va boshlangich sinflarda axloqdan darslik vazifasini utab kelgan . Bu asarida u islom dini xakida shunday deydi : « Islomiyat-odamgarchilik» demak .

Bu asar xozirgi Kirill yozuvida 1-marta 1967 yilda «Ukituvchi» nashriyotida kayta Chop etiladi .

U 80 bet xajmda 10 ming nusxada nashr etilgan bulsa xam Uzbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy-tadkikot instituti kutubxonasida uning bir nusxasi saklanmokda , xolos .

Demokchimizki , bu asarga bulgan talab ancha katta .

Mazkur asarga pedagoglarimizdan Muxitdin Maxsumov kirish suzi yozar ekan , shunday degan :

«Turkiy guliston yoxud axloq» , Kaykavusning «Kobusnoma» , Yusuf Xos Xojibning « Kutadgu bilik» , Nosir Xusravning « Saodatnoma» , Sa’diyning « Guliston» va « Buston» , Jomiyning «Baxoriston» , Navoiyning « Maxbub-ul-kulub» , Axmad Donishning « O‘g‘illarga nasixat» kabi asarlari tipidagi uziga xos bir asardir . XX asr boshlarida bunday asarni uzbek tilida birinchi bulib Abdulla Avloniy yaratdi va ta’lim-tarbiya ishlarida uni tatbik etdi» .

Muallif ta’lim-tarbiya xakida goyat ibratli fikrlarni bildiradi . «Pedagogika – deydi Abdulla Avloniy , - bola tarbiyasining Fani demakdir» . « Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir» . « Dars oluvchi – biluvchi , tarbiya oluvchi- amal kiluvchi demakdir» .

Bu yerda pedagogika faniga kiska va lunda ta’rif berilgan , ta’lim Bilan tarbiyani jon Bilan tanga uxshatib , ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini erkin ifodalab bergan .

Axloqni Abdulla Avloniy «Yaxshi xulklar» va «yomon xulklar» guruxiga bulib , kuyidagicha tushunchalarni sanab utadi va ularga izox beradi .

U «Yaxshi xulklar»ga kuyidagilarni kiritadi :

Fatonat (utkir zexn, ziyrakli , tezfaxmlilik) , nazofat

(tozalik , poklik ,ozodalik), sa'y (xarakat , tirishish,urinish) va gayrat , riyozat (kiynalish , mashakkatlanish) , shijoat (botirlik , dovyuraklik) ,kanoat , ilm, sabr , xalim (yumshoklik , muloyimlik , yuvoshlik) , intizom , mikiyosi ,nafs, vijdon , vatanni sevmak , xakoniyyat , nazari ibrat (ibrat Kuzi) , iffat (poklik , tozalik , nomus , adab) , idrok va zako (zexnlik , tez tushuna olishlik) , ziyraklik , xifzi lison , xavf va rajo (umid , tilak) , itoat , xakshunoslik , xayrixoxlik kabi ijobiy fazilatlar.

«Yomon xulklar»ga esa : g'azab , shaxvat , jaxolat , razolat

(pastkashlik , tubanlik) , safoxat (aksizlik , nodonlik , ablaxlik) , adovat (dushmanlik , kek) , nifok , tama'

(ochkuzlik , qizganchiklik) zulm kabi salbiy xususiyatlar kiradi .

Unda mana shu xulk tushunchalarining ma'nosi izoxlanadi , ta'riflanadi va ma'lum bir baytlar Bilan yakunlanadi . Masalan : tarbiya Bilan inson kismati xal bulajagini ta'riflab, shunday bayt keltiradi :

Xudoning raxmati , fayzi xama insonga yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.
Tugib tashlov bila bulmas bola , bulgay balo sizga ,
Vujudi tarbiyat topsa , bulur ul raxnamo sizga .
Temurchining bolasi tarbiyat topsa , bulur olim ,
Buzulsa xulki , lukmon ugli bulsa bulgusi zolim .

Xozirgi rus tilidan uzbek tiliga tarjima kilingan pedagogika darslaridagi «Axloqiy tarbiya» , «Estetik tarbiya» deb xar xil turlari tilga olinsa , Abdulla Avloniy tarbiyaning tarkibiy kismlarini kuyidagicha kursatadi :

1. Tarbiyaning zamoni
2. Badan tarbiyasi .
3. Fikr tarbiyasi .
4. Axloq tarbiyasi .

« Tarbiyaning zamoni»da uni kachon boshlash va kimlar shugullanishi zarurligi kursatilgan . Abdulla Avloniy ta'kidlashicha , tarbiyani yoshlikdan boshlash nixoyatda zarur . Xakikatdan xam, kichik yoshdagi bola xali misoli plastilin , kayokka karab ishlov berilsa , shunday shakllanadi , suyagi kotadi . Tarbiya Bilan dastlab ota-ona , keyin fakat maktabgina emas , xatto butun jamoatchilik , xukumat xam shugullanishi zarur , chunki bunda inson takdiri xal etiladi . « Alxosil, - deydi Abdulla Avloniy , - tarbiya bizlar uchun yo xayot , yo mamot , yo najot – yo xalokat , yo saodat – yo falokat masalasidir» .

Abdulla Avloniy fikricha ota-ona , oila badan tarbiyani uz zimmasiga olishi , fikriy , akliy tarbiya soxasida asosan muallimlar kabi javob berishi lozim . Chunki jismoniy tarbiya shartlaridan biri badan , kiyim-kechak , uy-joy ,

asbob-uskunalarini toza tutish zarur . Xar xil iflosliklarni yuktirmaslik masalasida ota-ona extiyot bulishi kerak . Tozalik , poklik , kundalik extiyoj koida , odatga aylansagina faxm , idrok , kishi ruxiyati , fikri rivojlanadi .

Xalqi olam suyusidir tozalik , pokni ,
Poklik orttirgusidir faxm ila idrokni ,
Xar kishini kuksida poklik nishoni bulmasa ,
Tozalik maydonidan kuvgaylar ul bebokni .

Abdulla Avloniy mexnat , gayrat , dangasalik , yalkovlik , jasoratlilik , kurkoklik , kanoat , sabr , intizom kabi axloqiy tushunchalarga aloxida tuxtaladi . U yoshlarni kichiklikdan intizomga urgatish , ilm-ma'rifatli bulish zarurligini uktiradi . Ilm-fan , uning fikricha , yoshlarni yomonlikdan kaytaruvchi , yaxshilikka yetaklovchi , yetuklikka eltuvchi , baxtiyor etuvchi kudratli kuchdir .

« Ilm,- deydi Abdulla Avloniy , - insonlarning madori , xayoti , raxbari najotidir» .

Ilm bir daryo ichi tulumsh duru gavxar Bilan ,
Kiymatu kadrin kachon bilgay Ani joxil yilon .

Vijdon tushunchasi kengrok talkin etiladi , u yaxshi xulk manbai , kishining fazilatini kursatuvchi kuzgu , vijdoni – kishining eng yaxshi mevasi xosili . Xayo , iffat , ibrat , til – kishi uchun eng muxim ziynatlardir . U ona tilining buyukligini eslatadi:

Ey ona til , aziz kadrdonim ,
Iltifoti ruxim , raxmonim .
Tugdim kundan aylading ulfat ,
Ulguncha ayilma ey jonim .
«Menga ilmu adab san urgatding
Chin adib muallim shonim .
Millating ruxini kutarguchi sen ,
Eng mukaddas karami sultonim .

Abdulla Avloniy guzallik-nafosat xakida fikr yuritib , ma'naviy ichki guzallikning suzda ifodalanishini aloxida ta'kidlaydi .

Guzallik yuzda ermay ey birodar ,
Suzi shirin kishi xar kimga yokar.
Suzing oz bulsin-u , ma'noli bulsin ,
Eshitganlar kulogi durga tulsin .

Abdulla Avloniy uzbek-milliy madaniyatiga , xalq ta'limini Yangi yulga kuyishda iste'dodli pedagog sifatida jonbozlik kursatdi . U yoshlarga savod urgatish , tarbiyalash yuzasidan goyat muxim masalalarni kutarib chikdi va ularni yangicha xal etish yullarini kursatdi .

Xullas , Abdulla Avloniy uz durdonalari Bilan uzbek xalq pedagogikasining tarbiya nazariyasiga ulkan xissa kushdi .

Abdulla Avloniy goyalarini kayta anglash , fikrlarini , uylarini Yana bir mushoxada etish uchun uning asarlarini kayta nashr etib , kelajak avlodga yetkazsak , alloma ruxini shod etgan va bu Bilan biz uzligimizni e'zozlagan bulamiz .

Quyida Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan parcha ukiysiz .

Chor Rossiya ulkamizni bosib olgandan sung millatimiz ziyolilari maxalliy xalqlarimizni ma'rifatli kilish maksadida milliy maktablar ochib , yoshlarga milliy- vatanparvarlik tarbiyasi berish yullari xakida bosh kotirganlar .

Ular shu yuldan borib juda kup darsliklar , kulanmalar yaratganlar . Ana shulardan biri Abdulla Avloniydir .

Abdulla Avloniy birinchi bulib 1913 yilda pedagogikaga oid «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobini yaratdi . Mazkur kitob 1917yilda ikkinchi marta kayta nashr etilgan . 1967 yilda esa A.Maxsumova tomonidan xozirgi alfavitda tayyorlanib , « Ukituvchi» nashriyotida chop ettirilgan .

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» boshlangich sinflarda axloqdan darslik sifatida kup yillar foydalanib kelingan .

Adabiyotlar:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.

2. B.Ziyomuxamedov , Sh.Abdullaeva «Pedagogika»- T - 2000

3. Boshlangich ta'lim . 1992 y. 5-6 son

4. «Xalq ta'limi» 2003 y

7-mavzu : Xalq pedagogikasida oila va fanzand tarbiyasiga bulgan munosabat

Nazorat savollari :

1. Abdulla Avloniyning pedagogika ta'limiga kushgan xissasi xakida gapiring .

2. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining yaratilish tarixi .

3. Asarda ilmning qanday qirralari aks ettirilgan ?

4. Asarda kuprok tarbiyaning kanday jixatlariga ta'rif berib utilgan ?

5. Biz asarni urganishimizdan maqsad nimada?

12-mavzu uchun tayanch so'zlar:

National pedagogi- Natsionalnaya pedagogika-Xalq pedagogikasi. Xalqning boy ta'lim- tarbiya borasidagi tajribalari, mutafakkirlarning ilg'or pedagogik g'oyalari hamda diniy manbalar ta'lim-tarbiya borasidagi g'oyalarini qamrab oladi.

Education- Vospitanie-Tarbiya. Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va extiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

A cultural and educational-Kulturno-vospitatelno'y- Madaniy-tarbiyaviy. Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloq'iy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruxiy qaraamlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy va ma'naviy boyliklarni yoshlar onggiga singdirish.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Mustaqil ish uchun mavzular

1. O'zbek xalqining madaniyati , axloqiy me'yorlari .
2. Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya.
3. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid karashlari
4. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida insoniylik va axloqiy tarbiyaga oid karashlari

Test savollari:

1. Axloq bu..

- a) jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'kullangan jarayon;
- b) kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiklash tirish;
- s) arabcha «xulqning ko'pligi»;
- d) shaxsni ijtimoiylashishi.

2. Donishmand iborasi kandy kishilarga nisbatan kullaniladi?

- a) k'yp narsa biladigan, bilimdon, olim, dono;
- b) bu olam xaqidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar to'plami;
- s) bu mifologik negizda shakllangan va rivojlangan duneqarashdir ;
- d) bola tarbiyasi shugullanuvchi kishi.

3. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim tarbiya taraqqiyoti tarixini asosan necha davrga bo'lib o'rganish mumkin?

- a) 3 davrga; b) 4 davrga; s) 2 davrga; d) 5 davrga.

4. Ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim kim?

- a) Aristotel;
- b) Abu Nasr Forobiy;
- s) Ulugbek ;
- d) Ibn Sino.

5. Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat?

- a) Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchilar bilan aniq maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqoti;
- b) Shaxsiy xislatlarni rivojlantirish, kamol toptirish;
- s) Pedagoglar va o'quvchilar, talabalar o'rtasida ma'naviyat va ma'rifat bo'limlarining topshi-riqlarini bajarish bo'yicha o'tkazadigan;
- d) Tajribalarni uzluksiz ravishda yoshlarga ilg'or vositalar yordamida berish.

13- Mavzu: Xalq pedagogikasida jismoniy va mehnat tarbiyasi.

1. Etnopedagogikada jismoniy barkamollikning ijtimoiy axamiyati xakida.
2. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va mehnatsevarlikning ulug'lanishi.
3. Xayoliy mehnat qurollari va mehnat ahlining e'zozlanishi .

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, barkamollik, mehnat tarbiyasi, mehnatsevarlik, mehnat qurollari, mehnat ahli.

Etnopedagogikada jismoniy barkamollikning ijtimoiy axamiyati xakida

Utmishda insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi noma'lum tuyulgan hodisalarga javob topishga undagan. Bo'ron, sel, toshqin, zilzila kabi g'ayri tabiiy ko'ringan kuchlarga qarshi kurasha oluvchi qahramonlar yaratishga olib kelgan. Shuning uchun "Avesto" da Anaxita xushqomat, zabardast, kamtarin, to'g'riso'z go'zal qiz sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. "Avesto" yovuzlikka qarshi kurashuvchi pahlavonlar g'olib bulishida Allohdan madad so'raydi.

"Odami Od" hikoyasida Odami Od obrazi ham jismoniy barkamollikda tengsiz qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning bo'yi bulutga yetadi, kuchli, dengizda baliqni qo'li bilan tutib, quyosh taftida pishirib yeydi. U Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib, toqqa olib chiqibdi. Tog'da to'rtta bahaybat chinorni tomiri bilan sug'urib, ustiga Nuh payg'ambarni o'tirg'izib, dengiz bo'ylab ravona bo'libdi. Nonushtaga bir hovuz suvga non to'g'rab yer ekan, chinordan kema yasab, hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani tortib ketibdi.

"Avesto" dagi adolatli shoh Jamshid ham shunday qudratli qahramon sifatida tasvirlangan. Yetti yuz yil Amudaryoda hukmronlik qilgan er Xubbi, qahramonlik rivoyatlaridagi To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Alpomish singari qahramonlar ham o'z jismoniy barkamolligi tufayli yovuzlikka qarshi kurashganlar.

Hozirgi paytda unumdor yerlar, tabiiy boyliklar, suv resurslarining kamayishi, alkogolizm, narkomaniyaning kuchayishi singari salbiy omillar insonning jismoniy barkamolligi, sog'lig'i, yoshlar salomatligini asrashni taqoza etmoqda. Komil shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiya muhim yo'nalishga aylandi. Xalq hamisha jismoniy tarbiya – salomatlik garovi ekanligini tushungan. Shuning uchun yoshlarga o'yinlar, milliy kurash turlari, sport musobaqalariga, toza havodan foydalanishga alohida e'tibor bergan. Quyosh nuri va suvdan foydalanib, sog'liqni saqlash mumkinligini qadimdayoq tushunib yetgan. Ba'zan o'z sog'lig'iga e'tiborsiz qaragan yoshlarga qarata aytiluvchi o'gitlar shular jumlasidandir:

"Ikki narsa yo'qotilganidan so'ng qadrlanadi – sog'liq va yoshlik", "Tan sihatlik – tuman boylik", qozoqlar: "Kambag'alning boyligi - sog'lig'i", - desa, turkmanlar: "Sog'liq bo'lsa, erkinlik bo'ladi" deyishadi. Shuningdek, xalq sog'liqni saqolash uchun "Boshingni salqin, oyog'ingni issiq tut" deb pand beradi. Sog'liqni saqlashda ovqatlanish madaniyatiga amal qilishga chaqiradi: "Qorning og'risa – og'zingni, ko'zing og'risa – qo'lingni tiy" va b.

Zararli odatlar oqibati achchiq ekanligi ta'kidlanadi: "CHekuvchining ichi ham, puli ham kuyadi".

O'z avlodlarini sog'lom, baquvvat, botir bo'lishini orzu qilgan xalq farzandlariga Quvvat, Polvon, Arslon, Botir, Qahramon, Bahodir, Murod, Komil singari ismlar qo'yishni taomilga kiritgan. Dostonlar va ertaklar qahramonlari qahramonlar darajasida tasvirlangan. Ular vositasida yoshlar jasoratiga, mardlik va insonparvarlikka undalgan.

Jismoniy tarbiyada "Ko'pkari", "Qiz quvdi", "Olomon poyga", "Uloq tortish", "Kurash" singari milliy o'yinlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ular hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Mehnat tarbiyasi ham jismoniy barkamol qiluvchi, ham moddiy to'kin – sochinlikni ta'minlovchi vosita sifatida talqin etilgan. Mehnatsevar yoshlarni tarbiyalash xalqning bosh maqsadi sifatida qo'yilgan: "Mehnat – mehnatning tagi rohat", "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik".

Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va mehnatsevarlikning - ulug'lanishi haqida

O'rta Osiyo va Qozog'iston sharoitida mehnat tarbiyasi yoshlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Uni amalga oshirishda avvalo oila, so'ngra jamoatchilik mas'ul hisoblangan. Mehnat vositasida madaniyat, san'at, axloqiy sifatlar, ona Yerga muhabbat hissi tarbiyalangan. Chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, pillachilik turkigo'y xalqlarda qadimdan asosiy mehnat turi hisoblanib, bolalar ularni amaliy hayot jarayonida o'rganganlar.

Xalq pedagogikasi shuni ta'kidlaydiki, inson faqat mehnati bilan aziz. Shuning uchun "Ko'mirchi yuzi qora bo'lsa ham uyalmaydi", yoki: "Gap bilguncha, ish bil!", "Bugungi ishni ertaga qo'yma!" deb o'git beradi xalq. Xalq hamisha yosh avlod mehnatsevar bo'lishi bilan birga u hunarli ham bo'lishini, hunarni quruq o'rganish emas, balki "qo'li gul usta" bo'lishni targ'ib etadi. Shuningdek: "Ortiqcha kasb boshni aylantirmaydi", yoki: "Bir yigitga qirq hunar oz" deydi xalq. Ayni paytda o'z ishining ustasi bo'lish insonga darhol nasib etmasligi eslatiladi. Buning uchun irodali, sabr-toqatli bo'lishga chaqiriladi. Mehnatni sifatli qilish (ishning o'zini bilguncha, ko'zini bilish) kelajakda pan berishning oldini olishi alohida ta'kidlanadi.

Xalq yengil ish ortidan quvuvchilar, ishyoqmaslar ustidan kuladi, yoshlarni ulardan ibrat olmaslikka chaqiradi; ularni "oqbilak", "tannoz" deb ataydi. "Dangasaning kosasi oqarmas" ligi, "Ishyoqmasga it boqmas" ligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, xalq vijdonan, muntazam, aql bilan ijtimoiy foydali mehnat qilish lozim deb hisoblaydi: "Yomg'ir bilan yer ko'karar, mehnat bilan el ko'karar", "Yer yuzini er ochar, er yuzini yer ochar", "Obro' osmondan tushmas, mehnatdan kelar", "Tekinning minnati ko'p, mehnatning ziynati ko'p" va boshqalar.

Xalq ertaklarida, afsona va rivoyatlarda, dostonlardagi qahramonlar o'z mehnatsevarligi, mehnatda toblanganligi, bir necha kasb-hunar sohibi bo'lganligidan hayot qiyinchiliklarini, og'ir sinovlarni yengib, o'z maqsadlariga erishadi, keng xalq ommasining baxti, manfaati uchun kurashadilar. Chunonchi, A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning mehnati o'z ijtimoiy xarakteri bilan, xalq ertagi "Zumrad va Qimmat" dagi Zumrad mehnatsevarligi va ijobiy axloqiy sifatleri bilan o'quvchini o'ziga tortadi.

Markaziy Osiyoda mehnat tarbiyasi berish bilan bolalarni yoshligidan mustaqil hayotga tayyorlashgan. Jumladan, hatto A. Vamberi ham, bizda qiz bolalarga to'qish, bichish, tikish, sut mahsulotlari tayyorlash, 7-8 yoshdan dehqonchilik, chorvachilik ishlarida qatnashishga o'rgatilishini ta'kidlagan. Chunki xalq: "Terga botgan rohatga botar", "Ter to'ksang, dur terasan", "Uyqu – g'adolat, mehnat - rohat", "Xotin chiroyi erdan, hosil chiroyi yerdan", "Qolgan ishga qor yog'ar", "Quldek ishlasang, bekdek yotib yeysan", "Qo'rada ko'rsam – qornim to'q", "Hunar - birlikda, rizq - tiriklikda", "Ko'pning rizqi mo'l bo'lur",

“Baraka - ko’pchilikda”, “Ko’pdan quyon qochib qutulmas”, “Maslahatsiz bo’lgan ish, boshga keltirar tashvish” va boshqalar.

Xayoliy mehnat qurollari va mehnat ahlining e’zozlanishi

Ma’lumki, ibtidoiy odamlar o’ziga noma’lum bo’lib ko’ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda ularni yengishga harakat qilgan. Ba’zan buning uddasidan chiqa olmay, g’ayri tabiiy hodisalarga sig’ingan, ularni totemistik tasavvurga aylantirgan.

Jonsiz narsalarga jonli deb qarashdan iborat ibtidoiy qarashlar animizm nomini, g’ayritabiiy jonzodlar (qirq boshli ilon, ikki boshli odamsifat shoxli hayvon ...) totemizm nomini olgan. Totemizm ibtidoiy jamiyatda paydo bo’lib, unda odamning hayvon, o’simlik yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligiga ishonishga undaladi. “Yoriltosh” da tosh yorilib, qizni ofatlardan saqlash uchun o’z bag’riga olsa, “Qilich botir” da qahramonning joni qilichida deb uqtiriladi. Shuningdek, o’tmishda turkiy xalqlar ot, xo’kiz, ilon, bo’ri, it kabi hayvonlarga e’tiqod qo’yganlar, og’ir kunlarda bo’ri va otlardan najot kutganlar. O’zbek xalq dostonlarida G’irot, Boychibor, Jiyrongush, Majnunko’k singari otlar obrazlari mavjud. Hatto sohibqiron Amir Temurning “Kuno’g’lon” deb atalgan oti ham g’ayri tabiiy hisoblangan.

Qadimgi etnopedagogika manbalarida hayvonlarda mavjud bo’lmagan xususiyatlar haqida ham fikr yuritiladi. Jumladan, otning qulog’ini burash bilan ko’kka parvoz qilish, suvda suzish, dunyoning narigi chetiga, baland tog’lar osha “uchar gilam” da borish samolyotlarning kashf etilishiga, suv ostida suzuvchi qayiqlar – suv osti kemalarining yaratilishiga, “sehrli etikcha” lar ega mashinalarning yaratilishini orzu qilish tufayli vujudga kelgan. “Sehrli oyna” haqidagi afsona va orzu televizor misolida ro’yobga chiqqan bo’lsa, sehrli dastgoh sehrli dasturxon haqidagi orzular ish unumi juda yuqori bo’lgan dastgohlarning ishlab-chiqarish uskunalarining yaratilishiga olib kelgan. Chunki, har bir yangilik dastlab orzularda, hayol (fantaziya) da tug’iladi. So’ngra inson uni amalga oshirishga harakat qiladi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida mavjud bo’lgan ish qurollari, asboblari, mehnat unumini jamiyat talabi darajasida qondirmagach, yangi qurollar haqida o’ylanadi. Hind badiiy filmi “Ramayana” dagi yoy paykonlarining uchishi, boshqarilishi raketalar haqidagi eng ibtidoiy tasavvurga o’xshaydi.

Etnopedagogikada mehnat ahli g’oyat ulug’lanadi. Mehnatning tarbiyaviy ahamiyatiga ham yuqori baho beriladi:

Donoga ish – shonu shuhrat,

Nodonga ish – g’amu kulfat.

Hosiling kam bo’lsa, havodan ko’rma!

Qolgan ishga qor yog’ar.

Qarasang, qand yersan,

Qaramasang, pand yersan.

Qo'li qimirlaganning og'zi qimirlar.

*CHo'pchak degan – cho'p bo'lar,
Teraversang, ko'p bo'lar.*

Ertalabki ish – ko'ngilni qilar xush.

*To'kilsa, manglay tering,
Unumli bo'lar yering
va shu kabilar.
Mol boqqanning barmog'idan moy tomar.
Molga bersang soz yemish, boqar seni yozu qish.
Moling zotli bo'lsa, yemishing totli bo'ladi ...*

Hozirgi zamon pedagogikasida mehnat tarbiyasini tadqiq etgan buyuk pedagoglar tadqiqotlarini o'rganish shunday xulosaga olib keladiki, ular o'z pedagogik fikrlarini xalq pedagogikasiga tayanib yaratganlar.

Hozirgi paytda yoshlarning mehnat tarbiyasini takomillashtira borish xalq xo'jaligi ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, ayni paytda bu jarayon komil inson shaxsini shakllantirish vositasi hamdir. Chunki, mehnatning mohiyatini, uning inson hayoti uchun zarur omil ekanligini tushunishgina, mehnatni, mehnat ahlini, moddiy ne'matlarni, tabiatni, madaniy yodgorliklarni asrashga, hurmat qilishga o'rgatadi. Xalq pedagogikasida ta'kidlangan bu boradagi fikrlar mazkur muammoni hal qilishga yordam beradi:

*Ko'p yurganga ergashma, ko'p bilganga ergash!
Mullaning qilganini qilma, aytganini qil.
Otang ta'zirini yemay desang, otang ta'sirini ol!
Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q.
O'z qadrini bilmagan, kishi qadrini bilmas.
Aytuvchi nodon bo'lsa, tinglovchi dono kerak.
Ustoz otangdan ulug'. Ish ustasidan qo'rqar.
Asil aynimas, sariyog' sasimas.
Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning ..*

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., O'zbekiston, 1997.
2. Pedagogika tarixi. A. Zunnonov tahriri ostida. T., O'qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K.X. va b. Pedagogika tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif. O. Hasanboeva. Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
5. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., "Pedagogika", 1991.
6. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. T., O'qituvchi, 1980 va b.

7. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y

Nazorat savollari:

1. Xalq pedagogikasida bolalarga jismoniy tarbiya berish usullari haqida gapirib bering.
2. Xalq pedagogikasida bolalarga mehnat tarbiyasi berish usullari haqida gapirib bering.
3. Mutafakkirlar jismoniy va mehnat tarbiyasi haqida.

13-mavzuga oida tayanch so‘zlar:

Physical training-fizicheskoe vospitanie-jismoniy tarbiya-insonning barcha tabiiy qobiliyatlarini chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayon.

Labour training- Trudovoe vospitanie-Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon.

Moral-Moralno’y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o‘tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Mustakil ish uchun mavzular:

1. Etnopedagogikada jismoniy barkamollikning ijtimoiy ahamiyati xakida.
2. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va mehnatsevarlikning ulug‘lanishi.
3. Xayoliy mehnat qurollari va mehnat ahlining e‘zozlanishi .

Test savollri:

1. O‘zbek xalq pedagogikasida yoshlarni jismoniy jihatdan necha yo‘nalishda tarbiyalangan?

a) 6 yo‘nalishda; b) 2 yo‘nalishda; s) 4 yo‘nalishda; d) yo‘nalishlar mavjud bo‘lmagan.

2. Xalq pedagogikasi yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda qo‘llaniladigan muxim usul qaysi?

- a) tushuntirish, rag‘batlantirish, suhbat orqali;
- b) ishontirish, o‘git, nasixat, namuna ko‘rsatish;
- s) ibrat ko‘rsatish, ko‘rgazma va tanbeh orqali;
- d) nasixat qilish, ibrat ko‘rsatish, rag‘bat.

3. Nafosat tarbiyasi bolada qaysi jihatlarni shakllantiradi?

- a) insonlar bilan muloqotda odob-axloq me‘yorlariga rioya qilishni;
- b) chiroyli muomala va kamtarlik;
- s) insoniylikning barcha fazilatlarini;
- d) etsetik zavq-shavq olish va uni anglab yetish.

4. Bolaning ota-ona va kattalarga bo‘lgan mehribonliklarini qanday tushunasiz?

- a) tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma‘naviy fazilatdir;

- b) tug`ma hodisalar;
- s) zaruriyat;
- d) ta'lim-tarbiya natijasi.

5. O`zbek xalq pedagogikasida qoralash metodiga berilgan ta'rif qaysi?

- a) o`ziga nisbatan kuchli bo`lgan ikkinchi tomondan kuchini ko`magidan madad tilash;
- b) turli shaklda uyaltirish, koyish, urishish, so`kish, oq qilish va jismoniy jazo berish;
- s) bolalarga odob-axloq me'yorlariga rioya qilmaganlarida qo`llaniladigan jazo usuli;
- d) keraksiz bo`lgan jazo usuli.

14-Mavzu: Etnopedagogik manbalar tizimi

Reja:

1. Etnopedagogika manbalari tizimi va uning xilma – xilligi.
2. Maqollar, topishmoqlar, olqish va qarg'ishlar tizimi.
3. Marosim folklori, qo'shiqlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati.
4. Afsona, rivoyat, naqlar, ertaklar, latifalar, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari.

Tayanch so'zlar: maqollar, topishmoqlar, olqish va qarg'ishlar, marosim folklori, qo'shiqlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar.

Etnopedagogika manbalari tizimi vaularning xilma-xilligi:

Etnopedagogika manbalari o'z tuzilishi, qo'llanish o'rnini, vazifasiga ko'ra muayyan tizimlar (guruhlar) ni tashkil etadi. Bunday guruhlarini ko'rsatish uchun ma'lum atamalardan foydalaniladi. Etnopedagogika manbalari turlari ijtimoiy taraqqiyot davomida sekinlik bilan o'zgarib boradi: ularning ba'zilarini so'nishi yoki boshqasi bilan almashishi mumkin.

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqozo qiladi. Chunki voqelikning o'zi voqealarga, obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi ojizligi esa so'z magiyasi (afsun) ga sig'inishni paydo qildi. Demak, voqelikning muayyan xarakteri xalq ogzaki ijodida o'ziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

Xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi ham u yoki bu turning yuzaga kelishiga olib keldi. Agar taraqqiyotning ilk bosqichida oddiy shakllar yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik murakkab shakllar paydo bo'ldi.

SHunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasining janrlar turi xilma-xil bo'lsada, u boshqa xalqlar pedagogikasi tizimlaridan farq qiladi. Jumladan, barcha xalqlar pedagogik manbalari tizimida ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq turlari bo'lsada, ruslarda doston, o'zbeklarda blina yo'q, yoki o'zbek va tojiklarda ramozon, hayitlik aytimlari, ukrain va beloruslarda kolyadkalar, ruslarda ratseyka va

chastushkalar tizimlari mavjud. Bir necha xalqlardagi etnopedagogika manbalarining bir xil tizimi ham o'z xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o'z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog'liq. Agar topishmoq va maqol singari turlar ommaviy xususiyatga ega bo'lsa, doston, og'zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta'kidlab o'tish lozim:

1. Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining mushtarakligi;
2. Manbalar janrlariaro o'zaro ta'sir, bir-biriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
3. Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
4. Bir turdagi asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
5. Bir turdagi asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.

SHunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasida manbalar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- | | |
|-----------------------------|----------------------|
| 1. Maqollar, | 8. Latifalar, |
| 2. Topishmoqlar, | 9. Loflar, |
| 3. Olqish va qarg'ishlar, | 10. Dostonlar, |
| 4. Marosim aytimlari, | 11. Og'zaki drama, |
| 5. Qo'shiqlar, | 12. Askiya, |
| 6. Afsona, rivoyat, naqlar, | 13. Matallar va x.k. |
| 7. Ertaklar, | |

Maqollar, topishmoqlar, olqish va qarg'ishlar tizimi:

“Maqol” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulo salarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo'nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma'naviy-axloqiy e'tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham L.N. Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman”, -degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi.

Mehnatga muhabbat, hurmat ulug'lanuvchi makollarda dangasalik qoralanadi: Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda; Dangasaning kosasi oqarmas; Ishyoqmasga it boqmas ...

Vatanparvarlik, dushmanga qarshi nafrat targ'ib etiladi: Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni; Vatan gadosi – kafan gadosi; Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas ...

Botirlik, saxiylik, adolat, insof qadrlanadi: Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan; Erni nomus o'ldiradi; Botirdan yov qo'rqr; Yo'lga chiqsang, yo'ldoshli chiq! ...

Ilmni egallash targ'ib etiladi: Ilm – aql chirog'i; Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'rgan; Kitob – bilim manbai ...

Topishmoq – deb, bir-biriga o'xshash ikki predmetdan jumboq yasali, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy topshiriqqa aytiladi. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmog'ida eng to'yimli ozuqa – patir “Oy” ga o'xshatilgan. Oy ham go'zal, tunda olamni munavvar qiladi.

Topishmoq atamasi “Top” buyruq fe'li va “-ish” hamda “-moq” qo'shimchalaridan yasalgan. Topishmoqlarda ham ta'lim-tarbiyaviy fikrlar olg'a suriladi, ular vositasida insonning tafakkuri, fikrlash doirasi, topqirligi, nutqi, hozirjavoblik sifatlari o'stirilgan. O'tmishda aholi qishning uzun tunlarida to'planishib, maqol, matal, topishmoq, doston, ertaklar aytib vaqtni ko'ngilli o'tkazganlar. Bunday anjumanlarda bolalar ham qatnashgan. Jumladan: topishmoqni topolmaganlar “shahar bergan”. Masalan: Qoziq ustida qor turmas (nima? -tuxum). Agar javob beruvchi topishmoqni topolmasa: “SHahar berdim”, - degan. Shunda topishmoq aytuvchi shunday deb, sherigini uyaltirgan, izza qilib, so'ng o'zi javobini aytgan: “SHahar, unda boru munda kel, kelib yonimga yiqil, Ikkalamiz ketaylik, Sen keta turib bir xaloga yiqilding. Shunda bir devona: “Xey, do'st”, -deb keldi. Men bir kurak tillo berdim, u meni maqtab ketdi. Sen bir kurak go'ng berding, u seni qarg'ab ketdi. Men bir otga, sen bir eshakka minding ... “javobi -tuxum” edi. Yoki, “sotdim - oldim” dialogi bilan topishmoq javobi yakunlangan:

- Sotdim. – Nimasini? –
Nima qilasan?
- Oldim. – Qo'lini. –
O'choqqa kasov qilaman ...
Olqishlar – olqish turkiy tillarda

Suvlarga oqsin,

“maqtash, sharaflash, yaxshi istak tilash” maʼnolarini anglatadi. Oʻtmishda olqishlar ulugʻ yoki oqsoqollar tomonidan ijro etilgan. Hozir ularning quyidagi turlari mavjud:

a) uchrashuv olqishlari: - Kishilar tanish-notanishligidan qatʼiy nazar uchrashganlarida olqish aytib fotiha tortadi: “Omin, qadam yetdi, balo yetmasin” kabi.

b) dasturxon olqishlari: “Omin, taomning haqi, baloning dafi, har kim yesa, oʻzining nafi, esonlik, tan-sihatlik, keng feʼl, ketmas davlat, xotirjamlik ... bersin” singari.

v) ish boshidagi olqishlar (soʻz sehriga ishonishdan paydo boʻlgan). Jumladan, imorat qurishdan oldin: “Omin, boshlagan ishlaringda Alloh madadkor boʻlsin, ishlaring unumli va barorli boʻlsa, Hazrati Nuh oʻzi qoʻllasin, qoʻllaring dard koʻrmasin, shu imorat baxtli kunlarga xizmat qilsin”... singari.

Qargʻishlar – “qargʻish” –“qir” feʼliga “-gʻa” va “-ish” qoʻshimchalari qoʻshilishidan yasalgan. Qargʻishda yomon kishilarga baxtsizlik, yomonlik tilansa, soʻkishda kishi shaxsi haqoratlanadi. Qadimgi kishilar qargʻish insonga tegishiga ishonganlar, qargʻishni yoʻllash va qaytarib olish mumkin deb hisoblaganlar. Jumladan: qargʻishni qaytarish aytimi kuyidagicha bulgan:

Yutganim yumurtimga,
Suvlarga oqsin,

***Koʻzlaganim – koʻzimga.
Yellarga uchsin.***

Urushganim – oʻzimga,

Yellarga uchsin.

Togʻlarga ursin,

***Qarg'aganim – qornimga.
Toshlarga ursin .. kabi.***

Toshlarga ursin .. kabi.

Mifologik qarg'ishlar: “Arvoh ursin”, “Alvastiga yo'liqqur”, “Jin ursin”, “Jin chalsin”, “Jin chaqirsin” va b. .

Tabiat bilan bog'liq qarg'ishlar: “Ko'zingga gul tushsin”, “Go'shtingni quzg'unlar cho'qisin”, “Jonning chiqsin”

Jonsiz narsalar bilan bog'liq qarg'ishlar: “Sut ko'r qilgur”, “Non ko'r qilgur”, “Tobutingni o'zim ko'taray”, “Topganing tobutingga buyursin” va boshqalar.

Olqishlar va qarg'ishlarda tarbiyaviy ta'sirchanlik g'oyat kuchli bo'lib, oilada axloqiy og'ish yuz bergan a'zolar, ularning ta'sirida o'z kamchiliklarini tuzatishga, ota-onaga, oilaga, yaqinlarga nisbatan o'z munosabatini, axloqiy sifatlarini o'zgartirishga majbur bo'lgan.

Marosim folklori, qo'shiqlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati

Insonga sog'liq, to'kin-sochinlik tila sh, uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o'tkaziladigan, an'anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo'linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga: loy tutish, shox moylar (dalaga qo'sh chiqarish), navro'z, yomg'ir chaqirish, “Sust xotin” (“Avesto” da madh etilgan) marosimlari kirgan. Chunonchi:

Havolarni yog'dirgan, Sust xotin,

Bug'doylarni bo'ldirgan, Sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, Sust xotin,

Elu yurtni to'ydirgin, Sust xotin...

Yozgi marosimlar: “CHoy momo” (SHamol ona demakdir, unda shamolda mevalarni to'kilishdan saqlashga undalgan), va boshqalar.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to'y, (beshik) to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, kelin salom, motam marosimi, yig'i-yo'qlovlar va boshqalarda ko'zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifatleri ulug'langan, insoniyat qadr-qimmati yuqori ko'tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg'otishga undalgan.

Qo'shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. “Qo'shiq” – turkiy “qo'shmoq” so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi.

Qo'shiqlarda xalq ma'naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi. U kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, do'stlikka, sevgi sadoqatga chorlaydi. Xalq qo'shiqlarining mehnat qo'shiqlari (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar, termalar singari turlari mavjud.

Doston – qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik,

do'stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo'rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.

Og'zaki drama – etnopedagogika yo'nalishidagi ijodning mustaqil turi bo'lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og'zaki dramada tomosha ko'rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og'zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko'zlik, ko'zbo'yamachilik, zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha "zakiy" so'zidan olingan bo'lib, "so'zamol", "o'tkir", "zehnli" degan ma'nolarni anglatadi. Askiya – so'z o'yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida "Bo'lasizmi", "O'xshatdim", "Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz" kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko'pincha to'y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg'ona vodiysida keng tarqalgan bo'lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

Afsona, rivoyat, naql, ertak, latifa, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari:

Afsona – arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi. Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o'quvchini ushbu qahramonlarga o'xshashga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarni egallashga undaydi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo'lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog'liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat o'quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg'otadi.

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat", "Har kim qilsa o'ziga", "Odam-odam bilan tirik", "Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo'shninikida" kabi.

Naqllarda salbiy-tarbiyaviy sifatlarga ijobiy-tarbiyaviy sifatlar qarshi qo'yiladi. Garchi, To'g'rivoy (Yaxshivoy, Soddavoy) yo'lda Egrivoy (Ayyorvoy, Yomonvoy) ga aldanib qolsada, keyinchalik sehrli yordamchilar tufayli u g'alaba qilib, murodiga yetadi. Egrivoy esa misi chiqib, sharmanda bo'ladi.

Naqllarda yashirin holda tarbiyaviy o'gitlar ifodalanib, nihoyasida qissadan hissa chiqariladi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg'ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og'zaki so'zlash ma'nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg'ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho'pchak” deb ataladi.

Ertaklarda mo'jiza yoki sarguzasht ma'lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik, olijanoblik g'oyalarini targ'ib etadi. Shuning uchun ular bolani o'ziga ko'proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “CHol bilan kampir”, “Bulbuligo'yo”, “Ur to'qmoq”, “Uch og'a-ini botirlar”, “Bo'ri bilan qo'zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No'xatvoy”, “Quloqvoy”, “Handalak polvon”, “Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir. O'zbeklarda latif qaytarish, so'zga chechanlik musobaqasi shaklida o'tkaziladi. mavjud.

Latifa arabcha – latif, mayin, lutf demakdir. Latifa satira va yumorga asoslangan bo'lib

Ulug' Vatan a asarlarining tipik qahramoni Nasriddin afandi hisoblanadi. U latifalarda o'ta aqlli, noziktabiat, insonparvar, mehnatsevar kishi sifatida salbiy axloqiy sifatli kishilarni masxara qiladi. Zaxarxanda kulgi, kinoya, kesatiq, xazil-mutoyiba vositasida yomonliklarni bartaraf qiladi.

Lof – mustaqil etnopedagogik tur bo'lib, ularda notabiiy voqealar, salbiy xislatlar tanqid ostiga olinadi. Loflar mubolag'ali epizodga mantiqiy mos javoburushi yillarida dushmanga nisbatan nafrat ruhida xalq qo'shiqlari yaratildi. Ularda qahramonlikka chorlovchi ruh ustun darajada edi:

Mening yorim qahramon

Dushmanga bermas omon.

Bosqinchi fashistlarni,

Qilar yer bilan yakson .

Qayta tiklash, tinchlik yillarida mehnat tarbiyasini targ'ib etuvchi, kushiklar tugildi:

Ishlov berdik bo'z yerlarga bog' bo'ldi,

Chigit ekdik, “oq oltin” dan tog' bo'ldi.

Kuch ayamay mehnat qildik, tolmadik,

To'kkan terdan rohat, vaqtlar chog' bo'ldi. va b..

Porloq kelajakka umid ko'zi bilan boqqan ajdodlarimiz inson qobiliyati va qudratini ideallashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Mifologik obazlarning ilk namunalari qadimiy mif va afsonalarda o'z aksini topgan.

Mif grekcha “myfhos”-so'z, rivoyat so'zidan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to'qima afsonalardir. Mifologiya - miflarni o'rganuvchi fan bo'lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi (bo'ron, sel, zilzila, dovul...) tufayli ularga qarshi kurasha oluvchi g'ayritabiiy obrazlar yaratishga ehtiyoj tugilgan. Natijada yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo'lgan. Olam haqidagi bunday ibtidoiy miflar ta'sirida osmon, oy, quyosh va turli hayvonlar, xudolar, g'ayritabiiy pahlavonlar haqidagi miflar vujudga keldi. Hayvonlar va tabiat stixiyalariga qarshi kurashga qaratilgan (so'z kuchi, afsun "avrash" vositasida ularga ta'sir etish tufayli, yovuz kuchlarga teng keladigan qurol inson ixtiyorida bo'lmagan bir paytda) miflar yaratildi. Ko'rinib turibdiki, miflar insonga osoyishta yashash, yovuz kuchlarni yengishga ko'maklashuvchi orzular ifodasidir.

Miflarda yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xudbinlik, yorug'lik va zulmat orasidagi kurash jarayoni tasvirlanadi. Komil insonlar hamisha yaxshilik, go'zallik, yorug'likning tantana qilishi ko'maklashadi. Aniqroq aytilganda, miflarni o'qigan o'quvchi ijobiy qahramonlarning tarafdoriga aylanadi. "Avesto" da yaxshilik – Axura Mazda, yomonlik – Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Kitob g'oyasiga ko'ra barcha hodisalar (tabiat va jamiyatdagi) ana shu ikki yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqadi.

Mitra – quyosh va yorug'lik xudosi, Noxit – obodonlik, farovonlik xudosi, Xumo – baxt, tole xudosi va boshqa yaxshilik tantanasiga ko'maklashadi. Yomonlik kuchlari: ajdar, dev, jin, yalmog'iz va boshqa mifologik obrazlarda tasvirlangan. Shuningdek, Kayumars va Jamshid haqidagi miflar ham O'rta Osiyoda qadimdan tarqalgan. Uning turli variantlari mavjud ("Avesto" da, "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar" da, "SHohnoma" da va b.) Kayumars "G'iyosul lug'at" da Govmard (inson - buqa) deb ta'riflanib, Amudaryo bo'yida yashagan, bo'yi daryoning narigi betiga yetgan va hokazo

Miflardagi ijobiy obrazlar xalq manfaati uchun, adolat, go'zallik uchun kurashadi. Kishilarga hayotda, kurashda yordam beradi. Ularga oliy insoniy sifatlarda o'rnak ko'rsatadi, kasb-kor o'rgatadi. Demak, miflarda xalq ommasining ilk pedagogik tafakkuri o'z ifodasini topgan, deyish mumkin.

Jamshid haqidagi mif O'rta Osiyo va Eronda keng tarqalgan bo'lib, unda Jamshid najotkor qahramon sifatida ko'rsatilgan ("Avesto" da).

Jamshid adolatli podsho bo'lib, uning ming yillik shohlik davrida qahraton sovuq, jazirama issiq, kasalliklar va o'lim kamaya borgan. Uning yerida mollar va odamlar ko'paya borgach, u yerni uch marta ko'paytiradi, chorva va qushlarni ham ko'paytiradi. Ammo, to'satdan qahraton qish, toshqin boshlanadi. Odamlarni qutqarish uchun Jamshid (yima) ariqlar ochadi. Bu afsona A. Navoiyning "Mulki Ajam", Firdavsiyning "SHohnoma" asarlarida tasvirlangan. Bunday mifologik obrazlar keyinchalik ertak va dostonlarda rivojlantirildi.

"Odami Od" hikoyasida Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan usta yordamida chinordan kema yasatib, odamlarni kemaga o'tqazib, o'zi kemani torta ketibdi ("Od" – fors-tojikcha "ulkan odam"). "Er Xubbi" mifi ham insonga g'amxo'rlik timsolidagi etnopedagogik asardir. U Xorazm va Farg'onada keng tarqalgan. Xubbi insonparvar, daryoning hokimi, Amudaryoda 700 yil yashagan va bu davrda daryoga jinlar yaqinlasha olmagan. Jamshid taxtga o'tirishi bilan u domdaraksiz g'oyib bo'lgan. Bundan Xubbinig opasi aza tutgan, u bilan birga daryo,

tog'u-toshlar, qushlar, hayvonlar, odamlar, osmonda farishtalar, yer ostida devlar yig'lagan. Ular Xubbi tirik, qiyomatgacha yashaydi, deb tasavvur qilganlar.

“To'maris”, “SHiroq” rivoyatlari, Rustam haqidagi epos, qadimgi qo'shiqlarda ham yuksak tarbiyaviy sifatlar targ'ib etilgan. Ularda kishilar yaxshilik qilishga, xushxulq bo'lishga, yomon odatlardan xalos bo'lishga chorlangan. Jumladan, “Devonu lug'otit turk” da quyidagi pedagogik g'oyalar madh etiladi:

*Boqmas jahon sovuq so'z,
SHilqim, yuzsiz, baxilga.
Yoqimli bo'l, xushxulq bo'l,
Qolsin noming ko'p yilga ...
Ov qushlarin ushlashib,
Tulki, to'ng'iz tishlashib.
Itlarimiz ishlatib,
Hunar bilan gerdaydik.*

Yoki qish – yozning kamchiliklarini shunday ochadi:

*Senda barcha yomonlar,
Chivin, pashsha ilonlar.
Du mi gajak chayonlar,
Hamla qilib yugurishar.*

Yoz qishga deydi:

*Sendan sa'valar ketar,
Bulbullar sayrab qo'nar.
Menda qaldirg'och tunar,
Naru - moda uchrashur ...*

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “O'zbekiston”, 1993.
2. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. Toshkent, “O'zbekiston”, 1993.
3. Hoshimov K.H. va b. Pedagogika tarixi. T., “O'qituvchi”, 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-mualliflar: O. Hasanboeva. Toshkent, “O'qituvchi”, 1993.
5. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. Toshkent “O'qituvchi”, 1980.
6. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. Imomov K. va b. tahriri ostida. Toshkent, “O'qituvchi”, 1990. -304 b.
7. O'zbek xalq maqollari. Yozib oluvchi va to'plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. Toshkent, “G'. G'ulom”, 1978. -288 b.
8. Izmaylov A. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxsta. Moskva, «Pedagogika», 1990.
9. Hoshimov K. va b.. Pedagogika tarixi. Toshkent, ”O'qituvchi”, 2005.

14-mavzuga oid tayanch so'zlar:

Legend-Legenda-Afsona_arabcha soʻz boʻlib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya maʼnosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshgʻariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani ogʻzaki soʻzlash maʼnosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-“Maqol”- atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq soʻzlaridan olingan boʻlib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi loʻnda xulo salarini ifodalaydi.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyo xalqlarida ilk pedagogik tasavvurlar qanday vositalar yordamida bayon etilgan?.
2. Ibtidoiy odamlar soʻzning ilohiy qudratiga nega ishonganlar?
3. Buyuk ajdodlarimiz oʻz asarlarini yaratishda etnopedagogika manbalaridan foydalanganlarmi?
4. Pedagogik gʻoyalar targʻib etilgan qadimgi miflardan misol keltiring.
5. “Avesto” da qanday axloqiy sifatlar bayon etilgan?
6. Rivoyatlarda qanday tarbiyaviy sifatlar tarannum etilgan?
7. Qadimgi turkiy etnopedagogika manbalarida komil inson tarbiyaviy sifatlari qanday talqin etilgan edi?
8. Xalq pedagogikasining tekshirish obʼekti nima?
9. Bola tarbiyasining tugʻma qobiliyat, muhit va oiladagi ota-ona tarbiyasiga bogʻliqligi etnopedagogika manbalarida qay tarzda yoritilgan?
- 10.Oʻzbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yoʻlini tushuntirib bering?
11. Etnopedagogika manbalari tizimining xilma-xilligini (soʻzlab) tushuntirib bering.
12. Maqol va topishmoqlarning pedagogik xususiyatlarini soʻzlab bering.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Etnopedagogika manbalari tizimi va uning xilma – xilligi.
2. Maqollar, topishmoqlar, olqish va qargʻishlar tizimi.
- 3.Marosim folklori, qoʻshiqlar, dostonlar, ogʻzaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati.
4. Afsona, rivoyat, naqlar, ertaklar, latifalar, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari.

Test savollari:

1. **Xalq pedagogikasining asosiy manbalari...**
 - a) oʻgitlar, pand-nasixatlar, odob-axloq mavzusidagi asarlar;
 - b) xalq ogʻzaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi, asrlar davomida toʻplagan boy tajribalari;
 - s) allomalarning pedagogik gʻoyalari;
 - d) oʻrganish ob'ekti shaxs boʻlgan barcha fanlar.

2. Xalq pedagogikasi qay tarzda shakllanib, rivojlanib borgan?

- a) avloddan-avlodga o'tib kelgan tajribalar asosida;
- b) pedagogika fani zahirida;
- s) xalqning boy va betakror odobnoma va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalari asosida;
- d) mavjud shart-sharoit ta'sirida.

3. Insonni shakllantiruvchi odob-axloq haqidagi xalq qarashlari nimalarda ifoda etilgan?

- a) xalq og'zaki ijodi xususan dotsonlarda ifoda etilgan;
- b) xalq pedagogikasi va pedagogika fanidan;
- s) mutafakkirlarning asarlarida;
- d) ertak, maqol, matal, hikmatlarda.

4. Maqollarga ta'rif qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) odob-axloq qoidalarini o'z ichiga olgan, hayot tajribasidan o'tgan eng kichik jarayondir;
- b) mehnat, do'slik, insoniylik kabi fazilatlarga ta'rif beruvchi xalq og'zaki ijodining bir turi;
- s) ibratli pand-nasihatlar to'plami;
- d) xalq og'zaki ijodi namunasi.

5. Ertak va dotsonlarni tarbiya uchun muhim tomoni nimada?

- a) bola dunyoqarashini rivojlantiradi;
- b) unda topishmoq, maqol, qo'shiqlar kabi janrlar ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi;
- s) bolaga sodda til va to'g'ridan-to'g'ri tushuntirish orqali tarbiyada muximdir;
- d) bola tomonidan ertaklar oson o'zlashtirilishi jihati bilan muximdir.

15-Mavzu: Xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi.

Reja

- 1. Xalq pedagogik tushunchalarining yaratilishi va xilma-xilligi.**
- 2. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiyaviy g'oyalarning aks etishi.**
- 3. Xalq og'zaki ijodi manbalari tizimi.**

Xalq pedagogikasi fani xalq og'zaki ijodi namunalariida olg'a surilgan pedagogik g'oyalar vositasida komil insonni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari xususida bahs yurituvchi fandır. "Xalq pedagogikasi" va "etnopedagogika" atamaları bir xil ma'nodagi sinonim so'zlardir. Shuning uchun "Etnopedagogika" atamasi o'rnida ba'zan "Xalq pedagogikasi" ifodasi ham ishlatiladi.

Xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to'planib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. U xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari maxsuli bo'lib, hayot sinovlarida o'zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir.

Prezident I.A. Karimov: "Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir",-degan edi/Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi - Sh. Qurbonov va b.. Toshkent, "SHarq", 1999. 86-b./. ana shu fazilatning erkin ifodasini etnopedagogika manbalarida ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, etnopedagogikaga doir biror-bir manba yo'qki, unda ilm, ma'rifat, ezgulik, aqliy va jismoniy komillik, ma'naviy-ahloqiy go'zallik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik va boshqa sifatlar targ'ib etilmagan bo'lsa. Afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar singari manbalarda yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy sifatlar xalqning o'zi yaratgan qahramonlar timsolida targ'ib etiladi.

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi-bulajak komil shaxs ongida milliy va xalqchil tushunchalarni shakllantirish, baynalmilallik tuyg'ularini tarbiyalash, xalq orzusidagi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Fanning vazifasi esa-mazkur tarbiyaviy sifatlarni shakllantiruvchi pedagogik jarayonga ijobiy ta'sir etish, uning samaradorligini oshirishdan iborat.

Xalq pedagogikasi tarixan xalqning o'zi, uning ijtimoiy ongi, tafakkuri, turmush tarzi bilan bakatmi ravishda shakllangan. U hozirgi zamon pedagogikasi ilmining ibtidosi hisoblanadi. Xalqning o'zi hayot ekan uning pedagogik fikri, o'z milliy pedagogik qarashlari ham yashayveradi.

Markaziy Osiyoda antik davrdayoq badiiy-pedagogik ijod namunalari vujudga kelgan. Farg'onaning Saymalitosh, Samarqandning Afrosiyob, Surxondaryoning Zarautsoy, Qoraqalpog'istonning Qo'yqirilganqal'asida topilgan yodgorliklar va yozuvlarda xalqning ilk pedagogik fikrlari aks ettirilgan. Ularda hozirgi zamon pedagogikasi ilmining shakllanishiga zamin yaratilgan.

Buyuk ajdodlarimiz, pedagog-olimlarimiz o'z asarlarida xalq badiiy ijodi namunalari tayanib ish ko'rganlar. Donishmand xalq olg'a surgan tarbiyaning xalqchilligi va tabiatga uyg'unligiga doir g'oyalarni ijodiy rivojlantirganlar. Xalq

tafakkuri rivoji uchar gilamlar va otlar, oynai jahonlar yaratishni orzu qilishda ifodalangan bo'lsa, hozirgi zamonda ular haqiqatga aylandi. Shu jarayonda xalqning tarbiya haqidagi tushunchalari ham o'sib bordi.

Etnopedagogika geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

Etnopedagogika manbalari jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelgan vaqti ham, muallifi ham noma'lum.

Og'zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir; U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Vorisiylik-etnopedagogika manbalari bulmish folklor asarlariga xos xususiyat bo'lib, ular zahirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ko'pvariantlilik-ma'lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o'zaro farqlanuvchi nusxalarida o'z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, "Alpomish" dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda:

An'anaviylik-etnopedagogika manbalarining avloddan-avlodga o'tish jarayonida o'zining dastlabki shakli va qahramonlarini saqlab qolganligida ko'zga tashlanadi.

MDH mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rusiyalik G.S. Vinogradov, gruziyalik A.F. Xintibidze, chuvashistonlik G.N. Volkov, tataristonlik Ya.I. Xanbikov, ozarbayjonlik A.SH. Hoshimov, tojikistonlik Sh.A. Mirzaev, turkmanistonlik K.Pirliiev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.SHerboev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi. (Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. Toshkent, "FAN", 2000 s.6.).

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardagi pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'nalishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or tarbiya an'analariidan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogiksidan faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki, yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qoraladi.

Xalq pedagogikasi fani o'z faoliyati jarayonida ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayanib ish kuradi. Mazkur qoida va qonuniyatlarni, g'oyalar fanning harakat va faoliyat traektoriyasi (chizig'i) ni belgilab beruvchi metodologik asoslari hisoblanadi. Ular yordamida u jamiyat talablariga ko'ra o'z oldiga quyilgan maqsad va vazifalarni hal qilishga erishadi.

Etnopedagogika fanining metodologik asosini Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib kelajak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlari; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga diyor diniy ta'limotlar tashkil etadi.

Etnopedagogika manbalari tizimi (afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, tortishuvlar, allalar, yallalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, o'lanlar, madhiyalar, marsiyalar, marosim, aytimlari, xalq o'yinlari va b...)ni ko'zdan kechirganimizda yuqoridagi fikrlarning to'g'riligi ayon bo'ladi. Chunonchi, barcha manbalarda, agar ular musulmon dini tarqalgan hududlarda

yaratilgan bo'lsa, etnopedagogik asarlar qahramonlari diniy tushunchalarga ishonadi, shariat qonunlaridan chetga chiqmaydi, milliy tarbiya sifatlariga ega bo'ladi.

Etnopedagogikaning barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni egallash, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarini egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim,"- deganida Prezidentimiz haq edi. (Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik. "O'qituvchilar gazetasi". 1989 yil, 2 dekabr).

Buyuk mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlari mazmuniga xalq pedagogikasi g'oyalari singib ketgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar", Ibn Sinoning "Tadbiri manozil", "Donishnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", va boshqa asarlarida xalq pedagogikasi elementlaridan unumli foydalanilgan.

Xalq pedagogikasi boshqa fanlar bilan ham yaqin aloqada faoliyat ko'rsatadi. Chunonchi, tarix, etnografiya, adabiyot, sotsiologiya, san'at, madaniyatshunoslik fanlarini shu toifaga kiritish mumkin. Pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi barcha fanlar, psixologiya, fiziologiya, gigiena fanlari bilan hamkorlikda rivojlanib boradi.

Xalq pedagogikasida dunyoning moddiyligi, ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, sabab va oqibatlari, shakl va mazmun birligi, qarama-qarshi kuchlar kurashiga doir falsafiy qonuniyatlarga amal qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "Har bir qiyinchilikning rohati ham bor", "Oldinga ketgan halinchak orqaga ham qaytadi", "Quvonch kelmasdan qayg'u ketmas"... kabi ifodalar shular jumlasidandir.

Xalq bola fe'li va ruhiyatini go'dakligidan kuzatish oqibatida uning axloqiy sifatlarini bilib olgan. Shuning uchun tarbiyani ona qornidayoq boshlash

lozimligini tavsiya etgan. Chunonchi, “Bola boshidan, meva ko‘chatidan bilinadi”, “Bolani beshikdan tarbiyalash kerak”, “Uch yoshlining amali sakson yoshda ham saqlanadi” kabi maqollar va hikmatli so‘zlar fikrimizning dalilidir.

Milliy istiqlol tufayli xalqimizning o‘z milliy, madaniy, tarixiy merosini o‘rganish imkoniyatlari qayta tiklandi. Milliylik, o‘zlikni anglash yo‘lidan borib, milliy istiqlol mafkurasi xalq ommasi ongiga singdirilmoqda. Ota-bobolarimiz e‘tiqod qilgan islom dinining tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaydi.

Qadimgi Turon mulkida yaratilgan adabiyot, san‘at, moddiy va ma‘naviy boyliklar barcha turkiy xalqlar boyligiga aylandi. Ularda xalqimizning milliy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida komil insonni tarbiyalashda ular muhim ahamiyat kasb etadi.

Xatto, komil inson haqidagi mukammal ta‘limot ko‘xna Sharq falsafasida yaratilgan. Bu haqdagi fikrlar etnopedagogika manbalarida o‘z aksini topgan. Ularni qayta tiklash, o‘rganish, ijobiy jihatlarini pedagogik amaliyotga joriy etish milliy istiqlol davridagina mumkin bo‘lib qoldi. Modomiki: “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma‘rifat...” ekan, xalq pedagogikasi xuddi shu ma‘rifatni targ‘ib etuvchi tarbiya vositasidir. Shuning uchun Respublikamizda milliy istiqlol davrida komil insonni tarbiyalash kelajagi buyuk davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida talqin qilinmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda etnopedagogika yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Goh g‘amgin, goh quvonchli kechgan o‘tmishni, ajdodlarimiz buyukligi sababini bilmasdan milliy g‘urur va iftixorni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Vujudimiz va qadriyatlarimizda neki bo‘lsa, barchasi o‘tmishdoshlarimiz va buyuk ajdodlarimiz rihiyatida jamlanganligini har bir o‘qituvchi va o‘quvchi chuqur bilmog‘i va his etmog‘i darkor. Bu kabi mas‘uliyatli vazifani amalga oshirishda bizga “Xalq pedagogikasi” fani yaqindan yordam bera oladi. Shuning uchun mazkur fanni o‘rganish, uning manbalari haqida kengroq ma‘lumotga ega bo‘lish bulajak pedagog-kadrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy pedagog-kadrlarni tayyorlashni ushbu omillarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklar asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devoni lug'otit turk" asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g'oyalar targ'ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha yetib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallashib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo'shiqlar paydo bo'lgan.

Demak, o'zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Qadimiy etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida yetib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o'zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqlar, qo'shiqlardan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoda feodalizm davri (XI-XX asr boshigacha) g'oyat ziddiyatli taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davr xususiyatlari etnopedagogika manbalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo bu davrga xos ma'lumotlar bizgacha to'la yetib kelmagan. Mavjud taraqqiotlarda ko'rsatilishicha, eng qadimgi davrlarda miflar, rivoyatlar, aytimlar, mehnat va marosim qo'shiqlarida pedagogik fikrlar targ'ib etilgan. Ayniqsa, dostonchilik vujudga kelgach, kishilar ularda madh etiluvchi qahramonlarning tarbiyaviy sifatlaridan ruhiy madad, zavq olganlar. Yoshlar halollik, ma'naviy va jismoniy yetuklik timsolini his etganlar. Etnopedagogika manbalarining ilk yozma nusxasi O'rta Osiyoda XII asrda ("Abu Muslim" kitobi) yozilgan. XIV asrda Amir Temur o'z g'olibona yurishlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan.

Manbalarda o'zbek dostonchiligining ilk bo'g'ini Ergash Jumanbulbul o'g'lining yetti ota-bobosi (XVI asr) aytgan dostonlarga borib taqalishi ta'kidlangan.

XVII-XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida gullagan davr bo'ldi. Bu davrda "CHambil qamali", "Rayhon arab", "Tulumbiy", "SHayboniyxon", "To'lg'anoy" singari vatanparvarlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, aqliy va jismoniy komillikni madh etuvchi asarlar, shu ruhdagi maqollar, matallar, xalq qo'shiqlari yuzaga keldi.

Rusiya bosqinchiligi davrida xalq ommasi boshiga tushgan beadam azob uqubatlar XIX asr etnopedagogika namunalarida o'z aksini topdi. Jumladan:

Non tishlatdim bolamga, mardikordan qaytsin deb,

Zolimlarni qarg'adim, Ilohi, yer yutsin, deb.

Yoki; mahalliy xalqning bosqinchilarga nisbatan nafrati quyidagi qo'shiqda yanada kuchliroq ko'zga tashlanadi.

So'k oshini ichmayman, Hech haqimdan kechmayman.

Etigimni yechmayman, Mardikorga olgan Nikolayni

Qorda qarag'ay kesganman, Taxtdan yiqitmay qo'ymayman.

SHuningdek, zulmkor mahalliy hukmdorlarga nisbatan nafrat ruhini ug'otuvchi quyidagi qo'shiqlar ham e'tiborga loyiqdir:

Isfandiyor zolimliging bildirding,

Non o'rniga kunjarani yedirding, ...

Haddan oshding, zolim, yoning so'kilsin,

Boshing kesilsinu, qoning to'qilsin! va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, XX asr arafasida tarixiy qo'shiqlarga ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash ruhi kirib kela boshlagan. Bosqinchilik va zulmga nisbatan nafrat ruhi targ'ib etilgan, milliy ozodlik orzusi vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuchaya borgan.

SHo'rolar tuzumi davrida etnopedagogika manbalarini to'plash, yozib olish, nashr etishga etibor kuchaygan bo'lsada, mavjud tuzum ruhiga mos kelmagan

manbalarni o'qish, ulardan foydalanish o'tmish va din sarkiti nomi bilan taqiqlab qo'yildi.

Faqat milliy istiqlol tufayli xalq pedagogikasi manbalaridan keng miqyosda foydalanish imkoniyati tug'ildi. Xalqning madaniy merosini, tarixiy haqiqatni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Biroq, etnopedagogika Respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g'oyat boy tarixiy taraqqiyot yo'lini ilmiy pedagogik jihatdan puxta o'rganish va tizimga solish ishlari o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Shomaqsudov «Hikmatnoma» - T «O'zbekiston» 1990 y
2. X.Bobomirzaev «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi» - T «O'qituvchi» - 1996 y
3. Hoshimov K.H. va b. Pedagogika tarixi. T., «O'qituvchi», 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-mualliflar: O. Hasanboeva. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
5. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. Toshkent «O'qituvchi», 1980.
6. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. Imomov K. va b. tahriri ostida. Toshkent, «O'qituvchi», 1990. -304 b.
7. O'zbek xalq maqollari. Yozib oluvchi va to'plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. Toshkent, «G'. G'ulom», 1978. -288 b.
8. Izmaylov A. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstan. Moskva, «Pedagogika», 1990.
9. Hoshimov K. va b.. Pedagogika tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 2005.

Nazorat savollari:

1. Xalqda pedagogik tushunchalar qanday paydo bo'lgan?
2. Xalqning tarbiya borasidagi fikrlarining poetik ijodda aks etishi haqida so'zlab bering.
3. Xalq og'zaki ijodi deb nimaga aytiladi?
4. Xalq og'zaki ijodi janrlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning ahamiyati qanday?

15-mavzuga oid tayans so'zlar:

Physical training-fizicheskoe vospitanie-jismoniy tarbiya-insonning barcha tabiiy qobiliyatlarini chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayon.

Labour training- Trudovoe vospitanie-Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning

muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intelektual sohada o'tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Legend-Legenda-Afsona-arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha "Etuk" (M. Qoshg'ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og'zaki so'zlash ma'nosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-"Maqol"- atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulo salarini ifodalaydi.

Mustaqil ish uchun mavzular:

- 1.Xalq pedagogik tushunchalarining yaratilishi va xilma-xilligi.
2. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiyaviy g'oyalarning aks etishi.
3. Xalq og'zaki ijodi manbalari tizimi.

Test savollari:

1.Xalq og'zaki ijodi bu...

- a) Xalq ommasining badiiy faoliyati.
- b) Ertak va afsonalar.
- s) Badiiy adabiyot.
- d) Qadimgi yozma manbalar

2. Mavlono suzining ma'nosi kanday?

- a) «Bizning janob»
- b) Xurmat ma'nosidagi suz.
- s) Olim va fozil kishilar.
- d) Amaldor shaxslar

3. Xar bir millatning dunyoga kursatadigan oynai xayoti tili va adabiyotidir» bu fikr kimga tegishli?

- a) A.Avloniy.
- b) A.Navoiy.
- s) A.Cho'lpon.
- d) X.X.Niyoziy.

4. O`rta Osiyo xalqlari orasida tarqalgan harbiy-jismoniy tarbiyaning mazmuni?

- a) kurash tushish, ot chopish, tirondozlik, qilichbozlik, kamon bilan o`q otish, miltiq otish, nayza sanchish, suvda suzish, gurzi urish kabilar.
- b kurash tushish, ot chopish, tirondozlik, qilichbozlik.
- s kurash tushish qilichbozlik, kamon bilan, o`q otish

d) kurash tushish, ot chopish.

5. Ertak va dotsonlarni tarbiya uchun muhim tomoni nimada?

a) bola dunyoqarashini rivojlantiradi;

b) unda topishmoq, maqol, qo'shiqlar kabi janrlar ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi;

c) bolaga sodda til va to'g'ridan-to'g'ri tushuntirish orqali tarbiyada muximdir;

d) bola tomonidan ertaklar oson o'zlashtirilishi jihati bilan muximdir.

16-Mavzu: Xalq og'zaki ijodi xususiyatlari va janrlari.

Reja:

1. Xalq og'zaki ijodida odob-axloq haqidagi g'oyalar .

2. Sinf dan tashqari tadbirlarda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish

3. O'zbek topishmoqlarini matematik ta'limni milliy lashtirishda qo'llash

Tayanch iboralar: Xalq og'zaki ijodi, janr, vosita, aqliy yetuklik, qaxramonlaik dostonlari, Choy momo.

Axloqiy tarbiya masalalariga xalq pedagogikasida keng o'rin berilganligi tufayli , xalq og'zaki ijodi janrlarida axloq-odob xaqida qimmatli g'oyalar ilgari surilgan . Professor Zunnunovning ta'kidlashicha «har bir xalq , jumladan o'zbek xalqi xam axloq qonun-qoidalarini yaratdi va u insoniylik asosi hisoblanadi . Misol uchun , « Olim bulish oson , odam bo'lish qiyin» maqolini olaylik . Unda insonga bo'lgan munosabat riqin ifodalangan . Xalq tasavvurida olim bo'lishga nisbatan odam bo'lish mushkuldir . Shu sababli xam qadimdan insoniylik yosh avlodni go'zal axloqli qilib tarbiyalashda asosiy mezok xisoblangan va t u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda . Milliy maktabda ta'lim-tarbiyani insoniylashtirish masalasi muhim o'rin tutadi . Shunday ekan , xalq pedagogikasi manbalaridan biri bulgan o'zbek folklorlarining yoshlarda , insoniylikni , axloqiy xususiyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanmog'imiz zarur .

Xalq pedagogikasida bolaning mexnat tarbiyasiga , uni kasb-hunar egasi bo'lib yetishishiga jiddiy ahamiyat berilgan . Xalq og'zaki janrlarida mehnatning tarbiyaviy axamiyati katta ekanligi qayd etiladi . Mehnat bola tarbiyasida asosiy vosita deb qaraladi . Masalan , xalq ko'shiqlarida mehnatsevarlik ulug'lanadi , sifatli , ijodiy , ixlos Bilan va samarali kilingan mehnatga yuksak baho beriladi .

Misol tarikasida o'zbek qizlarining mehnat tarbiyasida keng foydalanilgan kashta qo'shiqlarini keltirish mumkin .

Bosma tikar botirib ,

Issiq suvga qotirib .

Shuning uchun botir qiz ,

El ko'rganda shoshirib .

Xalq pedagogikasiga ko'ra yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish insonning aqliy yetukligi, jismoniy salomatligi va kamoloti, axloqiy pokligi va undagi nafosat xususiyatlarini vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Xalq bolaning aqliy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor bergan.

Xalq og'zaki ijodi materiallarida eng ko'p uchraydigan va bola tarbiyasida muxim o'rin tutgan odob va axloqiy tarbiya vositalaridan biri mehmondorchilikdir.

Avvalo shuni aytish kerakki, mehmondorchilik va mehmondo'stlik xalqimiz tarixida uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan eng olijanob insoniy odatlardan biri bo'lib davom etib keladi va davom etib kelmoqda, bundan keyin ham shunday bo'lib davom etilishiga shubha yo'qdir.

Xalq og'zaki ijodida jismoniy tarbiya g'oyalari ham keng o'rin olgan. Xalq azaldan yoshlarning sog'lom, epchil va bakuvvat bo'lib o'sishiga doimo e'tibor berid kelgan. Xalqda jismoniy barkamollik, vatan ximoyasi va marjidik tushunchalari bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazi orqali jismonan kamolotga erishgan, mard va pahlavon inson shunday tasvirlanadi:

Ajabdur uch yoshida ko'zga atfol,
Nechunkim o'n yoshida o'zga atfol,
Qolib bu ishda El hayroni oning
Sehru mehr sargardonini oning.

Ya'ni, Farhod juda aqlli, zehnli bola bo'lib o'sadi, zo'r havas bilan ilm egallaydi, ammo o'kib ilm olish bilangina cheklanib qolmaydi. U jismoniy va harbiy mashg'ulotlar bilan ham shug'ullanib chiniqa boshlaydi.

10 yoshida unda 20-yashar yigitning kuch-quvvati bo'ladi. U o'zining aql va jismoniy mahorati bilan kishilarni xayratda qoldiradi. Farhod o'z ilmi, kuch-quvvati va hunarini ommaning manfaati uchun sarflaydi.

O'zbek qahramonlik dostonlaridagi obrazlar xalq pedagogikasida bolaning jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasida qo'llanib kelgan. Jumladan, Alpomish, Rustamxon obrazlarida jismoniy kamolotga erishgan, vatan himoyasiga tayyor, uning uchun jang qilishga shay kishilar g'aydalantirgan. Qahramonlik eposlaridagi ajoyib-g'aroyiblik, qiziqarlik yoshlarni doimo o'ziga jalb etib kelgan va muhim tarbiya manbai bo'lib xizmat qilgan.

Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan va yozma adabiyotning paydo bo'lishiga zamin hozirlagan. Xalq og'zaki ijodi xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bulgan ishonchni, adolat, haqiqat, tinchlik va baxt haqidagi tasavvurini aks ettiradi.

Xalq shoiri va jamoa tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar Xalq og'zaki ijodi deyiladi yoki folklor deb yuritiladi. Xalq og'zaki ijodiga qo'yidagi janrlar kiradi: qushiq, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, doston, askiya, tez aytish, masal, Alla, yor-yorlar, kelin salomlar va boshqalar.

Lapar, lof, askiya kabi janrlar tortishuv, baxslashuv, aytishuv, hazil, mutoyiba, mubolag'a asosida ijro etiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ayniqsa Bahor faslida « Mavsumiy marosim qo'shiqlari» (yomg'ir chaqirish qo'shiqlari) , Sust Xotin qadim Zardo'shtiylik dinida muqaddas sanalgan Tishtiriya obrazidir . Sust Xotin Zardo'shtiyalar yomg'ir tangrisi (Osmon suvlari xudosi) hisoblangan .

Choymomo (shamol to'xtatish) qo'shiqlari .

Yo , haydar (shamol chaqirish) qo'shiqlari bayram kechalari , tadbirlarda aytilgan va qo'llanilgan .

Bundan tashqari milliy urf-odatlarimiz , an'analarimiz , qadriyatlarimizni ulug'lovchi va davom ettirib kelinayotgan «Navro'z» bayramlarida laparlar , askiyalar , yor-yorlar , kelin salomlardan Xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanib kelinmoqda . Sinfdan tashqari o'tkazilgan «Navro'z» davraga chorlaydi» mavzusidagi kechadan namuna keltiramiz .

Xona bayramona bezatilgan . Navro'z bayramiga atalgan suratlar , shuningdek , devoriy gazeta osilgan . navro'z taomlari Bilan to'ldirilgan dasturxon . Bayram ertaligiga ustoz o'kituvchilar , ota-onalar taklif etilgan bo'lib , ular oldiga anvoyi guldastalar terib quyilgan . Ishtirok etuvchi bolalar milliy kiyimlarda yasanib olishgan .

Nihoyat bayram ertaligi boshlanadi . Magnitafondan «bahor vals» musiqasi yangrab bir oz davom etgach , ohista pasayib , davraga boshlovchi qiz Hulkar chiqib keladi .

Boshlovchi : - Assalomu alaykum muhtaram ustozlar ! Assalomu alaykum , mehribon va qalbi daryo ota-onalar ! kuvnoq davramizga xush kelibsizlar !

- manna bepoyon o'lkamizga zarg'alodoqlardan gulchambarlar taqib , xushro'y Navro'zi olam kirib kelmoqda !

-Marhabo , ey Navro'zi olam !

Gulchehra :

- Keldi nasimi navbahor , o'lkamni pardozi ayladi ,

Ko'k maysalarni bog'aro baxmal poyonoz ayladi .

Ona zamin borliqni , barcha jonzotlarni muborakbod qimoqda .uning farzandi bo'lmish mo'tabar inson ham ko'hna Ona yerni hamisha sevib ardoqlaydi .

Unga ta'zim qiladi :

- Inson to nafas olarkan u kuy-qo'shiqsiz , saroqi qushlarsiz , dala-bog'larsiz , qirmizi lolarsiz yashay olmaydi .

Barno :

- Ochildimi Boychechak , endi har yon gul demak ,

Chunki bahor elchisi shu mitti gul Boychechak .

Hulkar :

-Yangi yilingiz muborak bo'lsin , hoy bobo

Navro'zingiz muborak bo'lsin , hoy momo .

Ayyomingiz muborak bo'lsin , hoy Ona

Boychechak chiqibdi bugun Navro'z ekan .

Barno:

- Hoy bog'bon bobo , niholga bersin baraka

Hoy Dehqon bobo hosilga bersin baraka

Hoy Cho'pon bobo , naslga bersin baraka
Boychechak chiqibdi bugun Navro'z ekan .

Nigora :

-Ariq bo'yiga boring
Yo ko'pchilik yo yolg'iz
Xammangizga birday teng
Atir purkar ko'k yalpiz .

Muborak :

-Ariq bo'yida yaapiz
Atir sochgani sochgan
Barg yozib yashnab gul qiz
Kuchoq yozgani yozgan.

Gulchexra :

(Udda chalingan kuy fonida)
0 navro'zi olamda to'kin dasturxon
Qadimiy taomlar oldimda bugun
Ota-bobolar ruhin shod etib
Chin avlod bo'lmokni dilimga tugdim .
Kuy balandlashadi .

Hulkar – navro'z o'zbek xalqining azalik va uzoq tarixga ega bo'lgan
Bahor bayrami bo'lib bunda ajoyib xalq sayllari , dor o'yinlari , polvonlar
bellashuvi , aytishuv , alyorlar kabi xalq san'atlari namoyish qilingan .

_ Mahallarda ariq va hovuzlar tozalangan . sumalak va ko'k somsa , ko'k
chuchvara hamda xalim navro'zning asosiy taomlari hisoblangan .Arazlashgan
kishilar bir-birlarini kechirib , yarashib olishgan . Kattalarga hurmat ,
kichiklarga mehr-shafqatli bo'lish haqida suhbatlar bo'lgan .

Muborak:

«Odobnoma»da aytilganidek !
Oftob yaxshimi , odob yaxshimi ?
Oftob berur nur , odob-chi huzur !

Rahim :

-Bolalikdan xushyor bo'ling chalishmang
Ming qilsa ham «Siz»ni «Sen»ga almashmang
«Siz» bu xurmat , eldan rahmat oladi ,
«Sen» sonda yo'q , aro yulda qoladi .
(«Bahor keldi» ashulasi ko'tarilib , bir banddan sung tinadi.)

Abror :

- Bugun kurtak o'qir ertak
Bahor keldi , bahor keldi .
Sochi tol-tol silkinar tol
Bahor keldi , bahor keldi .
(Boshdan oyoq oppoq libosga burkangan holda Bahoroy chiqib keladi .)

Nargiza :

- Keldi bahor , keldi Navro'z
U bahorning elchisi

Bizni bahor boshlab keldi .

Navro'z bahor kuychisi .

Xayrullo :

- Munchalar dilkash ko'klam chog'lari

Bezanar Yana o'lkam bog'lari

Novdalar taqar guldari sirg'alar

Arg'imcha solib uchar turnalar .

(birdan momakaldiraq va chaqmoq chaqib , yomg'ir va shamol ovozlari eshitiladi)

Hulkar : - Ko'p o'tmay bo'ron to'xtab , bahor toshqinlari tindi . Osmon Yana billurdek balqidi . Jonivorlar yayrab-yashnab , qizg'aldoqlar zarmunchoq taqdi .

(O'lis-olslardan yoqimli nay ovozi eshitildi)

(ikki bola o'rtaga chiqib o'z juralarini davraga chorlaydi)

Dilshod : - Bor , ho bor

Baxrom : - Kel, ho kel !

Hamalam ho

Yo'l qayda

Tez chopib kel!

O'ynagani kel !

Quvnagani kel !

Saylga kel!

Kelaver h-o-o-o-y (davraga bir guruh bolalar chiqib tugib tashlangan bolbog' atrofida «Kim oladi shuginani-ya» qo'shig'ini aytib qarsak Bilan davom ettiradilar)

Bolalar : - Kim oladi-ya shuginani-ya!

Kim oladi -ya shuginani-ya!

1-o'kuvchi : Men olaman shuginani-ya

Men olaman shuginani-ya

(u davrani aylanib , bir uynab chiqqach , engashib ogzi Bilan belbog'ni olmokchi bo'ladi , lekin ololmaydi)

Bolalar : - Ololmaydi-ya , shuginani-ya

Epchil bo'lsang ham o'zingni ko'rsat

Chaqqon bo'lsang ham , o'zingni ko'rsat

Ololmaysan-o , shuginani-ya !

(2-o'kuvchi xam belbog'ni olomaydi .nihoyat bir kichkina epchil bola o'ynab og'zi Bilan belbog'ni engashib oladi . Bolalar qiyqirishib g'olibga qarsak chaladilar)

O'zbek xalqining azaliy navro'z taomi sumalak qozonlarga solinib , uni atrofida o'tirib , qozonni kovlaydigan xar bir kishi yaxshi niyatlar , orzu-istaklarni aytib , kelgusi sayllarga ham shunday sumalak qozonlarini kovlash nasib etishini aytib , qizlar momalar ijrosida sumalak qo'shig'i yangraydi .

Sumalagim kozonlarda qaynaydi ,

Uni ko'rib qora ko'zim quvnaydi .

Shundan so'ng yor-yor sadolari ostida milliy kiyimda kiyingan kelin davraga kirib keladi. U xalqimizning qadimiy urf-odatlariga asoslangan holda davom etayotgan momolar tomonidan ijro etilgan holda «Kelin salom» lapari ijro etilgan holda barchaga ta'zim qiladi.

Yana davra davom etgan holda kuy va qo'shiq raqslar davom ettirib, bayram dasturxoniga barchani taklif etib, navro'z bayrami ertaligi yakunlanadi.

Xalq bolaning aqliy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor bergan. O'tmishda o'zbek xalqi hayot tarzining ifodasi sifatida tematik jihatdan g'oyat boy va rang-barang bo'lgan topishmoqlar yaratilgan bo'lib, xalq og'zaki ijodining bu namunasi bolaning aqliy tarbiyasida keng qo'llanilgan.

Topishmoqlar xalqimiz ijtimoiy-maishiy turmushining, yashab turgan hudud tabiatining, Jug'rofiyasining va umuman bizni o'rab turgan olamning barcha sohalarini qamrab olgan. Topishmoqlarning nafaqat tarbiyaviy, balki didaktik imkoniyatlari ham katta. Masalan, sanoq sonlar ishtirok etadigan o'zbek topishmoqlari matematik ta'limni milliylashtirishda foydalaniladi. Bunday topishmoqlar narsa va hodisalar sanoq sonlar yordamida jumboqlanadi. Ya'ni ular orasidagi o'xshashlik hisobga olinadi. Shunday ekan, jumbokni yechishda o'quvchilar tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, narsa va hodisalarni o'zaro bog'lagan holda tekshirib so'ngra xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalarni bajaradilar. Topishmoqlar vositasida beriladigan matematik bilimlar hayot bilan bog'liq, Amaliy yo'naltirilgan bo'ladi. Misol uchun Ushbu topishmoqni keltiramiz:

Bir daraxtda o'n ikki shoxa

Har shoxada o'ttiz yaproq

Yaproqning bir yoni qora, bir yoni oq

Javobi: 1 yil, 12 oy, 30 kecha

Simga qundi o'n qaldirg'och

Kelib qo'ndi Yana beshta

Sung uchitasi uchib ketdi

Qaldirg'ochlar qoldi nechta?

Javobi: $10+5-3=15-3=12$

Tayanch iboralar:

Mavsumiy-marosim qushtlari, topishmoq, alla, rivoyat, ertak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Shomaqsudov «Hikmatnoma» - T «O'zbekiston» 1990 y
2. X.Bobomirzaev «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi» - T «O'qituvchi» - 1996 y
3. Hoshimov K.H. va b. Pedagogika tarixi. T., «O'qituvchi», 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-mualliflar: O. Hasanboeva. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
5. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. Toshkent «O'qituvchi», 1980.
6. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. Imomov K. va b. tahriri ostida. Toshkent, «O'qituvchi», 1990. -304 b.

7. O'zbek xalq maqollari. Yozib oluvchi va to'plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. Toshkent, "G'. G'ulom", 1978. -288 b.

8. Izmaylov A. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxsta. Moskva, «Pedagogika», 1990.

9. Hoshimov K. va b.. Pedagogika tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 2005.

Nazorat savollari:

1. Xalq og'zaki ijodida odob-axloq tarbiyasi haqida qanday g'oyalar berilgan ?

2. Sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda xalq og'zaki ijodini qaysi janrlaridan foydalanilgan ?

3. Xalq og'zaki ijodida topishmoqlardan qanday ta'limda qo'llanilgan ?

16-mavzuga oid tayanch so'zlar:

Oral-Ustno'y-Og'zaki- voqea- hodisa mohiyatini so'zlar orqali bayon qilish.

Creative work-Tvorchestvo-Ijod-iste'dod va qobiliyat mahsuli.

Legend-Legenda-Afsona- arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha "Etuk" (M. Qoshg'ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og'zaki so'zlash ma'nosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-"Maqol"- atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulo

salarini ifodalaydi.

Mustaqil ishlash uchun mavzular:

1. Xalq og'zaki ijodida odob-axloq haqidagi g'oyalar .

2. Sinfdan tashqari tadbirlarda xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalanish

3. O'zbek topishmoqlarini matematik ta'limni milliyashtirishda qo'llash

Test savollari:

1. Kuyidagi ma'lumotlar kaysi asarda keltirilgan:«Kadimgi saklar, forslar va massagetlar insondagi sifatarning eng sharaflisi jasurlikdir, deb xisoblaydilar».

a) Gerodot «Tarix» kitobida.

b). Ya.A.Kamenskiyning «Buyuk Didaktika» asarida.

s) Ali Qushchining tarixga oid asalarida.

d) «Avesto» kitobida.

2. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya vositalaridan foydalanilgan?

a) Bolalar o'yinlari, choyxo'rlik, gap yeyish, kattalar bilan birgalikda to'y-marosimlarida ishtiroki, sayillar, safar sayohatlar.

b). Tushuntirish, namuna ko'rsatish, rag'bat va jazo.

s) Ogohlantirish, tanbex berish, jazolash.

d) Ibrat ko'rsatish, na'muna ko'rsatish, rag'batlantirish, jazolash.

3. Xalq pedagogikasida qanday tarbiya vositalaridan foydalanilgan?

- a) Arabcha daryoning narigi tomoni
- b). Ikki daryo oraligi .
- s) Amudaryo va Sirdaryo oraligi.
- d) Urta Osiyo ma'nosini.

4. O'zbek xalq ijodi bola tarbiyasiga qanday usul orqali singdiriladi?

- a) bevosita;
- b) to'g'ridan-to'g'ri, bevosita;
- s) yangi pedagogik texnologiya yordamida;
- d) o'yin tarzida.

17-18- Mavzu:Ta'lim-tarbiya jarayonida ertaklar, afsona, rivoyat, hikmatlar va maqollardan foydalanish

Reja :

- 1. O'zbek xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati .
- 2. Xalq maqollarida pand-nasihatni ifodalanishi .
- 3. Xalq ertaklarining tarbiyaviy mohiyati .

Tayanch iboralar :

Tarbiya metodlari , o'git -nasihat ,ibrat , ertak , tarbiya vositalari .

O'zbek xalqining har bir avlodi xalq ommasining bir necha asrlar mobaynida to'plagan tarbiya an'analarini bolani hayotga va mehnatga tayyorlashda qo'llab kelgan . Ya'ni , xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan amalda foydalangan . Bizning oldimizda esa zamonaviy o'zbek maktabi o'quv-tarbiya jarayonida milliy tarbiya madaniyatini qo'llash uchun ularning imkoniyatlarini aniqlash masalasi taribdi . Xalq pedagogikasining tarbiya ishini amalga oshirishdagi imkoniyatlari deganda nima tushuniladi ?

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tarjibasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar , ma'lumotlar , malakalar va kunikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarni hal etish zarurligi tushuniladi .

Masalan , O'zbek xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi . Tarbiyaning asosiy maqsadi –har tomonlama yetuk insonni shakllantirish .Uning tarkibiy qismlari esa rivojlangan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy , jismoniy , axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir . Maqollar esa , tarbiyaviy jarayonda shaxsni shakllantirishning sanab o'tilgan tarkibiy qismlarini amalga oshirishda kulay shart-sharoit yarata oladi .

Jumladan , xalq maqollaridan aqliy tarbiyaga oid , jismoniy tarbiyaga xos , axloqiy , mehnat va nafosat tarbiyalariga taalluqli o'nlab namunalarni tanlab olish mumkin . Ular esa o'qitishda , sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatida va maktabdan tashqari ishida yuqorida keltirilgan shaxsni shakllantirishning

o‘zaro bog‘liq bo‘lgan barcha yunalishdarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan tadbirlarda keng qo‘llanilishi mumkin .

Xususan , o‘quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin .

Masalan , boshlang‘ich sinflarda , aniqrog‘i 3-sinfda o‘zbek xalq maqollari o‘rganiladi . Mazkur sinf uchun «O‘qish» darslaridan birida « O‘zbek xalq maqollari» mavzusi bor . Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi .O‘qituvchi xalq tarbiya an‘analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e‘tibor beriladi . Ya’ni «O‘zbek xalq maqollari» mavzusidagi darsning qo‘yidagi maqsad va vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin . Xalq og‘zaki ijodi namunalari Bilan tanishtirish , maqollarni o‘rgatish va ular haqida tasavvur xosil qilish ; maqollarning mazmunidan foydalanib , o‘quvchilarni mehnatsevarlikka , kamtar va odobli bo‘lishga , o‘zidan kattalarni hurmat qilishga undash ; xalq og‘zaki ijodi namunalarni tuplash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarni hal etishga imkon beruvchi o‘zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bular xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashkil etadi .

Xalq og‘zaki ijodida bolalarni bosiqlikka , sofdillikka , oddiylikka undash Bilan birga , ulardagi gerdayish , ichi qoralik , chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan .

«Manamanlik qilma , netarsan , obro‘yingdan ketarsan», «Sen o‘zingni maqtama , seni bировlar maqtasin» , «Egilgan boshni qilich kesmas» , « Mevali daraxtning mevasi qanchalik ko‘p bo‘lsa , uning boshi shunchalik past egiladi» , «Birovga go‘r qazisang , o‘zing yiqilasani» , «Ko‘rpangga qarab oyoq uzat» singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan .

Ko‘plab maqol va matallarda bilimli bo‘lish ulug‘lanadi , bilimsizlik qoralanadi . «Bilagi zo‘r birni yiqar , bilimi zo‘r mingni yiqar» , «Ilmi yuqning ko‘zi yumuq» , «Ilmsiz bir yashar , ilmli ming yashar» , «Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar» , « Olim bo‘lsang , olam senniki» , «O‘qigan o‘g‘il otaday ulug‘ va xokozi .

O‘git va nasihat xalq og‘zaki ijodida bolalarda insoniy fazilatlarni tarbiyalab yetishtirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biridir .

Avvalo kishilarni kishi tomonidan qadrlanishi kishilik burchini anglash , halol va rostguy bo‘lish , yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihat , maslahat istak va buyruq shaklida ishlatiladi .

Masalan :

Yomonning yaxshisi bo‘lguncha ,
Yaxshining yomoni bo‘l !

Birovga o‘lim tilaguncha ,
O‘zingga umr tila .

Qadrlasang qadring oshar ,
Qadrsizdan xamma kochar .

Sen o‘zingni maqtama ,
Seni birovlar maqtasin .

Joy berganga joy Ber ,
Jon berganga -jon .

Kabi maqollar tinglovchilarga nisbatan o‘git-nasihat shaklida aytilgandir .

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo‘llaniladigan qo‘llaniladigan eng xarakterli shakllardan biri , xalq donishmandlarining axloq-odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so‘zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ishlatilishidir . Ya’ni odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan xalq maqollarining masalalariga bag‘ishlangan xalq maqollarining naqadar xayotiy haqiqat ekanligini ma’lum ertak mazmuni orqali ochib berilishidir .

Masalan , bir ertakda ota bolasini mehnat qilishga oltin va’da qilib qiziqtiradi ,o‘zining shaxsiy namunasi bilan hunarning foydali , afzalliklarini hikoya qilish orqali hayotga tayyorlaydi , tarbiyalaydi .

Namuna sifatida qo‘yidagi ertaklarni tahlil qilaylik . Bir kambag‘al o‘limi oldidan o‘zining uch o‘glini chaqirib , uzum ishkomlaridan birining tagiga oltin ko‘maganligini eslay olmasligini aytibdi . Agar bolalari oltinlarni topib olishsa , boyib ketishlarini uqtiribdi va olamdan o‘tibdi . Aka-ukalar ota o‘limidan keyin oltin topish ilinjida zudlik Bilan bir necha kun davomida bog‘ni boshdan Chopa boshlashibdi .

Ular qancha chuqur kavlashmasin , oltinni topisha olmabdi .Yaxshi chopilgan yer va uzumzor kelgusi yili juda katta hosil beribdi . Hosilni vaqtida terib , sotgan aka-ukalar tezda boyib ketishibdi . Shunda ular , ota uzumzolarga oltin ko‘mmaganliklarini , shu hiylasi Bilan boqqa yaxshi qarash , parvarishlash lozimligini , halol mehnat qilishlari kerakligini aytganini faxmlab olishibdi .

Jumladan , «Zolim podshoh» , «Qari bilganini pari bilmas» , «Eshonim deb eshagimdan ayrildim» ertagida , «Er-xotin qo‘sh hukiz» , «Maslaxatli ish bitar, bemaslaxat ish boshga yetar» kabi maqollar o‘git-nasihat yusida uqtiriladi .

Demak , xalq og‘zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash haqidagi o‘git-nasihatlarini maqollar orqali o‘qtirilishi Bilan birga ayrim ertaklarda axloq va odob yuzasidan aytilgan maqollarning mazmuni obrazli bayon qilib berilishi orqali xam o‘sha maqollarni hayotiy haqiqat ekanligi uqtiriladi .

Ko‘pchilik ertak va dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash Bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar shakli ham asosiy o‘rinlardan birini egallaydi .

Masalan , Ro‘zivoy Bilan Munavvar chehra» ertagida og‘ir ahvolda qolgan Ro‘zivoy tirikchilik yo‘lini axtarib safarga jo‘namokchi bo‘ladi . Onasini zo‘rg‘a ko‘ndiradi . Onasi bolasiga ijozat Bera turib : «Xo‘p bolam , aqlu-hushing joyida bo‘lsin , borgan yeringda beadabchilik qilma , katta-kichikni farqiga borsang obro‘ topasan» deb nasihat qiladi .

Masalan , « Sen xam bulursan mendek» ertagini ko'raylik. «Rasul ota to'qson yoshdan oshib , asablari bo'shashib , kuch-quvvatdan qolgan kezlari. Unga qanday idishda ovqat bersalar ham qo'llari Bilan tuta olmay tushirib sindira beradi .Kelin o'ta xasislik Bilan cholni ranjitadi , o'g'liga shikoyat qiladi . Nihoyat o'g'il yog'ochdan yo'nib otasi uchun maxsus yog'och kosa qilib beradi . Chol faqat shu kosadagina ovqatlanadigan bo'lib qoladi . Bu ahvol oiladagi to'rt yashar nabirasiga qattiq ta'sir qiladi .Bir kuni ertalab otasi ishga ketayotsa bola qo'liga pichoq olib , ha deb bir g'ochni o'ynayotgan emish. Shunda otasi :

-Nima qilayapsan , o'glim ? –deb so'rasa .Bolasi :

- Siz qariganingizda buvamga o'xshab ovqat yeydigan yogoch kosa qilayapman , -deb javob beradi .

Bolaning javobi otaga qattiq ta'sir qilibdi . Qilmishidan pushaymon bo'libdi . Yogoch kosani chini idishlar Bilan almashtiribdi .

Demak , ota-ona va oiladagi kattalarning ijobiy fe'l-atvor va hatti xarakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi . Oiladagi yosh bolalar , o'z tabiatlariga ko'ra , ko'pincha kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladilar .

Masalan , Yana bir ertak misolida « Usta Nishon» ertagida : «Oq buloq» qishlog'ida yashovchi xalq «Oq buloq» ko'li atrofida yashasa ham suvdan bahramand bo'la olmas edilar .Qo'shni qishloqlik usta Yo'ldoshning o'g'li usta Nishon «Oq buloq» qishlog'iga keladi va xalq kuchi Bilan katta charxpalak quradi . Qishloqda Yana suvga ma'murchilik boshlanadi .Usta Nishon ham shu qishloqda yashab qoladi . Xalq uni juda sevib hurmat qiladi .O'z farzandlaridek g'amxurlik qilishadi . Biroq ko'p o'tmay otasi chaqirtiradi .U ketish uchun xalqdan ijozat so'raydi . Qishloqning katta-kichik hamma odamlari yig'ilib keladi .Shunda usta Nishon xalqqa qarab : «Otalar , akalar , ukalar , men arzimagan sabab Bilan sizning qishlog'ingizga keldim . Tuzlaringizni ichdim , izzat-hurmatingizni ko'rdim .Meni dehqonchilik qilishga , bog' tutishga o'rgatdilaringiz . Sizlardan men juda xursandman . Endi menga ruxsat bersalaringiz o'z qishlog'imga , ota-onam oldiga ketsam . Sizlardan oq fotixa so'rayman» debdi . Shenda qishloq keksalari : «O'g'lim , biz sizdan juda xursandmiz , bizning mushkulimizni oson qildingiz , suvga serob qildingiz, bog'-rog'larimiz qayta ko'kardi , sizdan hech yomonlik ko'rmadik . otangiz chaqirtirgan ekan ilojimiz qancha .Ota-onangizning odiga boring , bola-chaqali bo'ling . Otangizga , volidangizga bizdan duo deng» - deb javob beradilar .

Bundan tashqari xalq og'zaki ijodining boshqa namunalaridagi singari , xalq maqollari va ertaklarida halollik , to'g'rilik , yaxshilik , botirlik , saxiylik , go'zallik , kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi . Va aksincha , tekinxurlik , egrilik , yomonlik , qo'rqqoqlik , baxshilik , xunuklik , manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi .

Misol tariqasida bilimdonlik va ilmsizlikka oid Ushbu maqollarni keltiramiz :

«Bilgan o'kir , bilmagan to'qir» , «Bildirish uchun bilish kerak» , «Bilimsiz kishiga ish yo'q , ilmsiz kishiga Osh yo'q» , «Farxod va shirin» , «

Uch o'g'il», «Aql va oltin» ertaklarida ilm-xunar ulug'lansa, «Etti axmoq», «Kuygan chol», «Soqi mumsik Bilan Boqi mumsik» kabi ertaklarda savodsizlik, axmoqlik, fahmsizlik kabi illatlar kulgi ostiga olingan.

Xalq Tasavvurida olim bo'lishga nisbatan odam bo'lish mushkuldir. Shu sababli qadimdan insoniylik yosh aslodni go'zal axloqli qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.
4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M.«O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Physical training-fizicheskoe vospitanie-jismoniy tarbiya-insonning barcha tabiiy qobiliyatlarini chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayon.

Labour training- Trudovoe vospitanie-Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intelektual sohada o'tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Legend-Legenda-Afsona-arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg’ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og’zaki so’zlash ma’nosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-“Maqol”- atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so’zlaridan olingan bo’lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo’nda xulo

salarini ifodalaydi.

Nazorat savollari:

1. Odob-axloq tarbiya metodlariga oid materiallar kaysi janrla o’rin egallaydi ?

2. Maqollarning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor ?

3. Ertaklarda qanday tarbiya usullaridan foydalanilgan ?

Test savollari:

1. Xalq pedagogikasidagi tarbiya vositalari...

a) bolalar o’yinlari, choyxo’rlik, gap yeyish, kattalar bilan birgalikda to’ymarosimlarida ishtiroki, sayillar, safar sayohatlarga borish va hokazolar.

b) Intellektual uyinlar.

s) Didaktik uyinlar.

d) Ertak va topishmoqlar.

2. Bola tabiyada kanday sharoitda tajriba orttirib boradi?

a) Bola oilada, maktabda, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yoshdagilar, o’rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

b) Maktabda va ko’cha- ko’yda.

s) Faqatgina oilada.

d) Ota-ona va o’qituvchilar bilan muloqotda.

3. Hikoyat nima?

a) sharq va janubi-sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy termin..

b) Ertakka qiyoslangan badiiy asr.

s) 2-3ta kitobdan iborat bo’lgan asar.

d) Og’izdan-og’izga o’tib kelayotgan janr.

4. «Mifologik» tushunchasining lugaviy ma’nosi

a) (yunoncha-mifos naql, rivoyat,logos- tushuncha, ta’limot).

b) Naql va afsonalar to’plami.

s) Naql va afsonalar gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shakli

d) Ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlangich davri.

19-Mavzu: Allalarning tarbiyaviy ahamiyati

Reja:

1. Allalarning vujudga kelishi

2. Allalarning aytilishidagi bosqichlar

3. Allalarning pedagogik ahamiyati

1-masala. Allalarning vujudga kelishi

Beshikdagi farzandiga muhabbat va umid qo’shig’ini kuylamagan ona olamda bo’lmasa kerak, albatta. Bu kushiklar – ona allalari – san’atning bebaho xazinasiga aylandi. Ammo afsuslar bo’lsinki, bu qo’shiq turli nashrlarda sochilib yotibdi va

hech kim ularni bir joyga yig'ishni xayoliga ham keltirmayotir. Nega bizning bolalar nashriyotimiz barcha xalqlar allalarini to'plab, ularni alohida kitob shaklida nashr etishi mumkin emas?! Bunday kitob bizning poeziyamizda ajoyib hodisa bo'lib qolmay, yana ham ma'rifiy, ham tarbiyaviy qimmat kasb etgan bo'ladi. Bu hayratlanarli kitob bo'ladi".

Rasul Hamzatov

Allalar – beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, elat yoki millat yo'qki, ularning tilida alla kuylanmasa ... ruslarda "bayki" yoki "bayushki" deb yuritiluvchi bunday qo'shiqlar turkmanlarda "huvdilar", ozarbayjonlarda "lay-lay", tatarlarda "alli-balli", qoraqalpoqlarda "heyra-heyra", turklarda "ninni", forslarda "lolo", nemislarda "wiegelied", o'zbek va tojiklarda "alla" va "allo" atamallari bilan mashhurdir. Binobarin, alla jahon onalarining mehrga yo'g'rilgan bir qadar farahbaxsh, ammo o'rni bilan esa bir qadar g'amgin, eng muqaddas qo'shig'idir.

Alla ijtimoiy – estetik qimmatiga ko'ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi, bolalarni uxlatish ("alla" so'zining lug'aviy ma'nosi ham allalash – ovutib, avaylab uxlatish) dan iborat. Bunday allalab ovutish yoki uxlatish, kuylash jarayonida namoyon bo'ladi.

Xuddi shu asnoda ularning ikkinchi vazifasi – tarbiyaviy-estetik mohiyati namoyon bo'ladi: bu allaning emotsional ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyati bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga yo'l ochish, shu zaylda estetik didini o'stirish maqsadiga qaratilganligidir. Abu Ali ibn Sino allaning ana shu xususiyatini ming yil ilgariyoq payqab, shunday degan edi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi". Ulug' hakim "bolani sekin-sekin tebratish" ning badantarbiya bilan bog'liqligini maxsus ta'kidlagan ekan, umuman, tebratishni, aytaylik, faqat beshikda tebratishnigina emas, balki belanchakda yoki o'tirib olib, ikkala oyoqni yonma-yon holatda uzala cho'zgancha ustiga qo'yilgan yostiqa bolani tebratib alla aytishni, tikka turgan holda bag'riga bosib tebranishni yoki yelkasiga bir maromda qoqa turib alla aytishni ham ko'zda tutgan. Ammo bu jarayonlar allasiz bajarilishi ham mumkin, shunchaki tebratib turilib, bola uxlatiladi. Shunisi ham borki, bu jarayonlar har bir xalqning etnografik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Aytaylik, o'zbek yoki tojiklarda allaning kuylanish ohangi tebratishning muvozanati va ritmiga mos bo'lib, bunda tebratilayotgan narsa beshikmi yoki belanchakmi – hammasining alla ohangiga mutanosibligiga qat'iy rioya qilinadi. O'zbeklarda beshik yoki belanchakka shaqildoq bog'lash odati bo'lsa-da, baribir, tebranish ritmiga mos ovoz bilangina allaga jo'r bo'linadi, frantsuzlarda alla kuyi shaqildoq jo'rligida hosil qilinadi.

Allalarning Ibn Sino zamonidayoq Markaziy Osiyodagina emas, balki O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar orasida xam muhim ahamiyat kasb etgan mustaqil janr sifatida keng tarqalganligi turkiy xalqlar o'rtasida "balu-

balu” nomi bilan yuritilganligiga oid “Devonu lug’otit turk” dagi ma’lumot ham tasdiqlaydi. Alisher Navoiy ham Farhodning beshikdalik davrida unga mukammal tarbiya berish uchun “navoguy”(uxlatish uchun alla aytuvchi) berkitilganligini shunday tasvirlaydi:

*Arusi charx tun-kun doya kirdor,
Bo’lib har tavri holidin xabardor.
Beshik davrida chiniyu xitoyi,
Bo’lib yuz no’sh lab doston saroyi.
Ko’zining nozi eldin eltib uyqu,
Anga uyqu keturmakka navogo’.*

Bu dalilning qimmatini shundaki, Farhod tarbiyasi bilan shug’ullanuvchilar safida maxsus allachi yoki alla aytuvchi enaga ham bo’lganligini tasdiqlaydi. Ana shu tasdiq, o’z navbatida, alla ijrochiligining maxsus san’at – navogo’lik darajasida tadrijiy takomilga erishganligini, shu soha bilan shug’ullanuvchilarning navogo’ sifatida alohida e’tibor qozonganliklarini yaqqol ko’rsatdi. Jahon madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shgan ana shu uch buyuk siymo – Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy va Alisher Navoiyning bu guvohliklari allaning uzoq zamonlardan beri xalqimiz turmushiga, bolalar tarbiyasiga keng va chuqur singiganligidan dalolat beradi.

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davrida – ular to uch yoshni to’ldirgunlarigacha aytiladi. Shu sababli allalarni “sutda qorilgan va mehrga yo’g’rilgan qo’shiq” sifatida baholashlari bejiz emas. Allalar onalarning minglab avlodidan bir-biriga o’tib, sayqal topib, onalik mehrini, armonini silsilaviy bog’lab kelayotgan umrboqiy qo’shiqdir. Allalarning bu qadar uzoq yashovchanligi sababi, ularda onalik qalbining ayollik mahzunligining barq urib turishidadir. Xuddi shu xususiyat allalarning nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham yoqimlilikini, qolaversa, har bir xonadonda kuylanishini va xush ko’rilishini ta’minlagan.

Ona o’zining tug’ma sezgirligi bilan bola uchun faqat tinchlantiruvchi, yorqin va monoton qo’shiq kerakligini angladi. Shu zaylda alla shakli yuzaga keldi. Onalik sezgilari allalarning qanday mazmunga ega bo’lishini aytib turadilar. Allalarni onalar dunyosisiz, sezgilarisiz, tashvishlarisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Buni rus allashunosligi onalik tuyg’ularining uch bosqichi sifatida bir-biridan shunday ajratib ko’rsatadiki, bu holni o’zbek allalarida ham ko’rish mumkin.

Allashunoslikda onalik tuygularining uch boskichi ajratib kursatiladi:

Birinchi bosqich- allalarda bolani o’rab olgan muhit ifodasi bo’rtib turadi, aniqrog’i, bola bilan bog’liq predmetlar: beshik, belanchak va boshqalar ta’riflanadi. Ammo bu poetik ta’rif onaning shaxsiy kechinmalaridan, onalik tuyg’ularidan holi bo’ladi. Bu turdagi rus allalarida bolani uni o’rab olgan muhit bilan tanishtirishga alohida e’tibor berilgan. Shu maqsadda turli-tuman qushlar va hayvonlar poetik maqtovida ularning ham salbiy, ham ijobiy xususiyatlarini ko’rsatishgan. O’zbek allalarida esa, asosan, beshik yoki belanchakning maqtovi bilan cheklaniladi. Xayvonlar, qushlar va hashoratlar poetik ta’rifidan tarkib topgan allalar yo’q hisobi. Ammo, o’zbek allalarida hayvonlarning bolalari va qushlar nomi bilan aloqador erkalash ohangi bor: bolalar qo’zichoqqa, toychoqqa, toyloq yoki bo’taloqqa, bulbulga, suqsurga, lochinga qiyoslanib e’zozlanadi.

Bunday qiyoslash aslida o'sha jonivorlarga bo'lgan samimiy munosabatlar zahirida tabiiylik kasb etgan.

Ikkinchi bosqich- allalarda bola taqdiri asosiy o'rinda turadi. Lekin endi ona bola taqdiriga befarq qaray olmaydi. Bola taqdiriga bog'liq o'y-kechinmalar onaning shaxsiy kechinmalari fonida chuqurlasha boradi: fikr bola atrofida aylansa-da, unga onalik tuyg'ulari ham aralasha boradi. Ammo bu chuqurlashuv hali bir qadar sayozroq, aralashuv esa bir qadar daxlsizroq kechadi. Bunga ona qalbining uyg'ona boshlashi va undagi to'lg'anish darajasi sababchi bo'ladi. Xuddi shu jarayonda alla ohangiga didaktik yo'nalish – axloqiy-tarbiyaviy qarashlar singga boradi. O'zbek allalarida bola taqdiri bilan bog'liq didaktik yo'nalish g'oyat sezilarli ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Uchinchi bosqich- bu allago'ylikning yuqori bosqichi hisoblanadi. Chunki bu bosqichda ona qalbining to'lg'anishlari behad chuqurlashib, endi u o'z tuyg'ulari girdobiga g'arq bo'lib qoladi. O'z shirin tuygulari bilan ovora bo'lib, bolasi borligini hayolidan soqit qiladi. Dardlari va tashvishlarini yuragidan sizib chiqqan mayin, lekin bir qadar horg'inroq monoton ohangda kuylab yoradi, shu monoton ohangdan taskin topganday bo'ladi. O'zbek allachiligida bu xildagi allalar ancha. Buning sababini o'zbek onalari repertuarining qashshoqligi, binobarin, og'ziga qay bir qo'shiq tushsa, unga alla naqoratini qo'shib kuylagani bilan izohlash to'g'ri emas. Bu o'rinda folklorshunoslarning onalar repertuari boyigach, undagi allalar soni 3-7 tagacha yetgach, ixtisoslashgan allachilik bosqichi shakllanadi va xuddi shu davrda ona o'z tuyg'ulari asirasiga aylanadi, degan xulosasi asoslidir. O'zbek allachiligida bu xildagi allalarning xiyla ko'pligiga extimol, ulug' Navoiy e'tirof etgan usha davrning ixtisoslashgan NAVOGO' lari bo'lganligi ta'sir ko'rsatgandirlar?!

Allalar faqat kuylanadi. Ularni shunchaki aytish mumkin emas. Monoton (bir xil) ohang barcha o'zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Ammo, monoton ohang onaning ijro paytidagi holati va kayfiyati bilan bog'liq. Ona kayfiyati chog' kezlarda allaning monoton ohangida xush yoquvchi mayin yumshoqlik mayli sezilib tursa, xafa, iztirob chekayotganida ma'yus tortuvchi hazinlikka moyil bo'ladi. Har ikkala holatda ham shu monoton ohang bola ruhiga ta'sir etadi, qalbiga orom bag'ishlaydi, uni elitadi. Birinchi holatda bolaning serzavq bo'lib o'sishiga zamin hozirlansa, ikkinchi holatda bolaning ruhan ma'yuslashuviga asos solinadiki, bu keyinchalik bola ulg'ayganda uning xarakterida o'z asoratini, albatta, qoldiradi.

Bola uchun allaning so'zi emas, kuyi yoqimli. Chunki u hali so'zni anglamaydi. Ona uchun esa alladagi suzlarmuhim: ular – ona qalbining nidolari. Bir xil ohangdagi kuy bola ma'naviy ehtiyojining dastlabki asosiy qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Chindan ham “Bola birinchi oyligidayoq musiqiy idrokini – ritm va ohangni idrok eta olishini namoyon etadi. Chunki allalar har qanday holatda ham jismoniy harakat, ham ruhiy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy harakat bolaning muttasil o'sishini, vujudining chiniqishini rag'batlantiruvchi muhim vosita bo'lsa, allalarning monoton ohangi esa shu jismoniy rivojlanishni ma'naviy rivojlanishga ulaydigan, bola ruhiy faoliyatini faollashtiradigan vosita bulib xizmat qiladi. M. Alaviya: “Alla, asosan, to'rtlikdan

tashkil topgan bo'lsa ham, ba'zan allalovchi to'liqlanib ketsa, davom ettirib, boshqa misralarni ham qo'shib yuboradi va bir-biriga yaqin bir qancha to'rtliklarni aytib, bu bilan o'zining tilak, armonini izhor etadi", - degan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.
4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M. «O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o'tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Legend-Legenda-Afsona- arabcha so'z bo'lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma'nosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha "Etuk" (M. Qoshg'ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og'zaki so'zlash ma'nosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-"Maqol"- atamasi arabcha "kavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulo salarini ifodalaydi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Allalarning vujudga kelishi

2. Allalarning aytilishidagi bosqichlar
3. Allalarning pedagogik ahamiyati

Test savollari:

1. Alla bu...

- a) Allalar – beshik qo'shiqlarining keng tarqalgan an'anaviy janri hisoblanadi.
- b) Xalq orasida keng tarqalgan lirik janr.
- s) Onalar qo'shig'i.
- d) Folklor qo'shig'i.

2. Milliy iftixor deganda nimani tushunasiz?

- a) millatning (aloxida shaxsning) o'zligini anglashi, millat ravnaqini ta'minlash yo'lidagi hatti-harakat, o'z millati istiqboli yo'lidagi mas'ullikni ongli ravishda xis etishi.
- b) Muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasini ifodalash.
- s) Shaxs ,davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chikarish kabilar.
- d) Muayyan davlat yoki jamiyat umumiy mafkurasini ifodalaydi.

3. Mentalitet nima?

- a) (lot.mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruxga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'iga xos tarixiy an'anlari, urf-odatlari, diniy e'tiqodi
- b) Oilani mehnat jamoasi, mahalla-ko'y doirasida rivojlantirish.
- s) Vatanga sadoqatli yoshlarni tarbiyalash.
- d) Xar bir millatning o'ziga xos xususiyatlari

4. Afsona bu...

- a) hayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan xaqiqatdek tasavvur etiladi,oo'izdan oo'izga o'tib keladi.
- b) Adabiy asarda aks ettirilgan xodisa, tuygu, personaj, xatti-xarakat, va taqdirdan kelib chiqadigan fikrdir
- s) Adabiy asarda badiiy g'oyaning extiros bilan g'oyat ta'sirchan, xayrat va larzaga solar darajada ifoda etish
- d) Tildan-tilga o'tib keladigan to'qima janr.

20-Mavzu: Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar.

Reja

1. Dostonlarning yaratilish tarixi.
2. Dostonlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar.
3. Dostonlarning turlari.

Tayan ch iboralar:

Bolalar o'yinlari; donishmandlik. odobnoma, xarbiy sport mashqlari; xarbiy – jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi; mehnat mazmuni; nafosat tarbiyasi;

mehnatsevarlik.

«O'zbek xalq pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, baq'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-ahloqiy hayotning barcha tomonlarini xalq oq'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-ahloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba xulosalarini lo'nda, ammo baq'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi.

O'zbek xalq pedagogikasi xalqning oilaviy – maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy, ahloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar – dostonlar, ertaklar, mehnat – mavsumiy marosim qo'shiqlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, olqish va qarq'ishlar «Navro'z», «Mehrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim – qo'shiq ashulalari va shu kabi nasriy asarlar bilan boyitilgan. qur'oni Karim, Hadis hamda Sharq mutafakkirlarining ahloq-odobga oid qarashlaridan xalq pedagogikasi oziq oladi, boyiydi.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar – duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratilgan. Darvoqe xalq pedagogikasida yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o'rniga alohida ahamiyat beriladi.

O'zbek xalq pedagogikasi ayrim shaxslar yoki bir-ikki jamoa tomonidan yaratilmagan. Uni xalqimiz asru-asrlar bilan o'rganuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutumlari, sa'yi-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovotlari bilan yaratgan. Ayni choqda o'zbek xalq pedagogikasi o'z rivojida boyib, mukammallashib borishda ilm-fanning boshqa sohalaridan, ya'ni mumtoz adabiyot, san'at, oq'zaki ijod, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, odatshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar baq'rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo'ladi eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi.

Xalq pedagogikasi insonparvarlik, baynalmilallik, xushyorlik, zukkolik, topqirlik kabi o'zbek xalqining o'ziga xos fazilatlarini uluq'laydi. Sharq odobnomasi ibodatnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalarini o'ziga qabul qilib olgan.

Muxtasar qilib aytganda o'zbek halq pedagogikasi turkiy xalqlar otabobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachiq'iday asrab avaylab saqlab kelgan ota meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnoma va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalari asosida shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan bir to'q'ri yo'ldir.

O'zbek xalq pedagogikasining ajralmas qismi oq'zaki ijod namunalari odob-ahloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar baq'oyat hayotiy xalqchil va

ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari, qo'shiqlar va ertaklar odobnoma darslari ekanligini folklarning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnoma ekanini unutmashimiz kerak.

Darhaqiqat haqiqiy insonni shakllantiruvchi odob-ahloq haqidagi xalq qarashlari, xalq oq'zaki ijodi asarlari xususan dostonlarda yashab keladi, ularda odob-ahloq mavzusi o'ta donishmandlik bilan keng ishlanganiga guvoh bo'lamiz. Buning uchun O'zbekiston dostonchiligiga oid qodir baxshi Rahimovdan yozib olingan va nashrga tayyorlangan mashhur «Go'ro'q'li» silsilasiga kiruvchi «Zaydikon» dostoniga nazar tashlash kifoya. Ushbu dostonida mashhur bahodir va yurt boshliq'i Go'ro'q'lining bolaligi va ilk orzu umidlari, doimiy hamroxi va yo'ldoshi q'irotga ega bo'lib, or-nomus qadr-qimmat va sha'n uchun boshdan kechirgan dastlabki q'aroyib bahodirliklari, ko'rsatgan shijoat-jasoratlari yuksak badiiy saviyada aks etgan.

O'zbek xalq oq'zaki ijodi to'q'ridan-to'q'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Bolalarni topqirligini tarbiyalashda va zexnini o'tkirlashda, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Maqollar odob-ahloq qoidalarini o'z ichiga olgan hayot tajribasidan o'tgan eng kichik janrdir. Deylik, «Ishlaganning oq'zi oshga tegar, ishlaganning boshi toshga tegar», maqolida xalqning uzoq asrlik hayotiy tajribalari mujassamlashgan. Bundan tashqari maqollarda turmush hodisalari bilan boq'liq bo'lgan Vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, vafodorlik kabi ahloq me'yorlari ma'qullanadi, egrilik, yomonlik, umidsizlik, yolq'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik kabi illatlar qoralanadi.

Aql bilan odob egizak!

Aqlli naqlab so'zlar,

Aqlsiz laqillab so'zlar!

Barcha yaxshilik xushxulqlikda!

Bolam odam bo'lsin desang, yoshlikdan odob ber!

Yolq'on-yashiq gapirma, so'ng uyalib o'tirma!

Xulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgudir.

Singari maqollarda odob-ahloq mavzulari o'z ifodasini topgan.

Xalq oq'zaki ijodida ayniqsa qo'shiqlar alla, yor-yor o'lan, aza-yiq'i kabilar xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan. Bu qo'shiqlarda oilaning kundalik odob qoidalariga odatlantirish tamoyillari ifoda etilgan.

Masalan, «Alla»ni olaylik.

Onaning orzu-havasi, niyatlari, bolalari kelajagi haqidagi maqsad-istaklari u kuylagan allalarda ifodalanadi. Farzandining baxtli – saodatli bo'lishini soq'lom va paxlavon, jasur bo'lib voyaga yetishini orzu qiladi. Ularda tarbiya ruhi ham aks etadi. Donishmandlar «Alla aytmagan onaning farzandida mehr kuchli bo'lmaydi» deyilar.

Ertak va dostonlar bolani har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ertak aytib bermay bola o'stirgan ota-ona va kattalarni yoki ertak eshitmay ulq' yoshlarni tasavvur qilish qiyin.

Ertak va dostonlarni tarbiya uchun muhim tomoni shundaki, unda xalq

oq'zaki ijodidagi topishmoq, maqol, qo'shiqlar kabi janrlar jamlangan bo'lib, ular pedagogik q'oyalarni mukammalroq ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Ertak va dostonlar bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari; jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishiga oid ko'pdan-ko'p pedagogik materiallarni uchratish mumkin.

O'zbek xalq pedagogikasi yuqoridagi kabi folklor janrlari bilan bir qatorda bola yashab turgan muhit-sharoitning vositachi roli ham mavjudki, ular yoshlarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi.

Soq'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini farovon hayot asosini qurish demakdir. Soq'lom avlodni tarbiyalash ikki jihatdan – yosh avlodni jismonan soq'lom etib tarbiyalash va ularni ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishni o'zida mujassamlashtiradi. Inson ma'naviy barkamol bo'lishi uchun eng avvalo jismonan soq'lom bo'lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji kelajagini ta'minlovchi omildir.

Tarixdan ma'lum ijtimoiy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi bilan tarbiya tizimi o'zgarib borgan kabi yoshlarga jismoniy tarbiya mazmunini shakli ham o'zgarib borgan.

O'zbek xalq poetik ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida yoshlarning jismoniy tarbiyasi eng aktual muammolardan biri sifatida katta o'rin egallaydi.

Xalq ijodining deyarli hamma janrlari – maqollar, ayniqsa ertak va dostonlarda uchraydigan mehnatsevar, chidamli, qo'rqmas, botir, jasur va qahramon kishilar sifatida tasvirlanadigan asar qahramonlarining hech biri q'ayri – tabiiy kuchga ega bo'lgan tasodifiy odamlar bo'lmay, balki, albatta ma'lum oila yoki ayrim tajribaga ega bo'lgan shaxslar qo'lida muayyan maqsadga muvofiq alohida va tegishli tarbiya olishlari natijasidagina jismoniy kamolotga erishgan kishilardir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasida bolalarning jismoniy kamoloti, jismoniy mehnatga qobiliyatli bo'lib yetishishlari, mustahkam iroda, muayyan fe'l-atvor ham hatti-harakatlarga ega bo'lib yetishishlarini jismoniy tarbiyaning mahsuli deb qaraladi.

O'zbek xalq pedagogikasida bolalarning jismoniy tarbiyasi quyidagicha to'rt yo'nalishda davom etib kelganligidan dalolat beradi:

Bolalarning soq'lom bo'lib o'sishida, ota-ona va umuman keksa avlodning q'amxo'r – tarbiya;

Yoshlarning jismonan yetuk bo'lib o'sishiga yordam beradigan bolalar o'yinlari;

Ayrim sport vakillari tarbiyasi;

Harbiy sport va harbiy – jismoniy tarbiya.

Xalq ijodi materiallarida bolalarning soq'lom o'sishlarida ota-ona va keksa avlodning q'amxo'rliги va tarbiyasiga oid ma'lumotlar nisbatan kam uchrasa ham, xalq pedagogikasida bolalarning yoshlik xususiyatlariga mos keladigan tarbiyaviy tadbirlar amalga oshirilib kelinganligi ma'lum. Ayniqsa, bolalarni o'z vaqtida ovqatlantirish, uxlatish, o'ynatish – kiyintirish, ozoda va toza yurish ham jismoniy rivojiga oid mashq malakalari, rasm, odatlar xalq pedagogikasida uzoq vaqtlardan

buyon davom etib keladi. Masalan, «Uch oq'ayni botirlar» ertagida, keksa ota o'q'illarini safarga jo'natar ekan, bolalarga qarab: «o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Buning ustiga sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, soq'lom vujudli qilib tarbiyaladim – baquvvat bo'ldingizlar. Ikkinchidan yaroq' bilan tanishtirdim – yaroq' ishlatishga usta bo'ldingizlar. Uchinchidan – qo'rqitmay o'stirdim –qo'rqqoq bo'lmay, botir bo'ldingizlar» deb nasihatini davom ettiradi.

Ota-ona va umuman keksa avlodning yuqoridagi kabi q'amxo'rlik va mehribonlik tarbiyasi xalq pedagogikasining bosh muammolaridandir. Bolalarning jismoniy tarbiyasidan kutilgan maqsad o'rinbosar avlodning uzoq umr ko'rishlarini ta'minlashdir.

O'zbek xalqi orasida keng tarqalgan bolalar o'yinining turi juda ko'p bo'lsa ham, xalq ijodida ularning hammasiga oid materiallar uchramaydi. Holbuki, xalq pedagogikasida bolalar o'yiniga alohida e'tibor berilgan va u tarbiyaviy ishlarning markaziy o'rinlaridan birini egallab kelgan.

Ota-ona va umuman kattalar bolalarni doimo xursand va xushchaqchaq bo'lishlari uchun katta kuch sarflaganlar. Ular uchun turli-tuman o'yinchoqlar, bolalar mehnati qurollari ham bolalar o'yinchoqlarining ijodkori bo'lganlar. Shu bilan birga bolalar o'yinlarining yaratilishida bolalarning o'zi ham tashabbuskor va ijodkorlik rolini aslo inkor qilib bo'lmaydi. Binobarin, bolalar hamma vaqt, hamma joyda o'ziga o'yin topib oladi. Ular hech vaqt bo'sh vaqtini o'yinsiz o'tkazmaydi.

Bolalar o'yini ma'lum guruh bolalar ishtirokida tashkil qilish bilan xarakterlanadigan o'yinlardir. O'zbek xalqi orasida ana shunday jamoa shaklida tashkil qilinadigan bolalar o'yinlari juda ko'p bo'lib, ular uzoq zamonlardan beri davom etib keladi. Ana shular jumlasiga tortishmachoq, oq terakmi – ko'k terak, qo'l tegdi – pichoq tegdi, botmon-botmon, kim chaqqon, illak, pir etdi, ok oli, quloq cho'zma, soqqa otish, kurash kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuqoridagi kabi bolalar o'yinlari asosan, jamoa bo'lib o'ynaydigan o'yinlar bo'lishi bilan yoshlarni jamoamizga, o'rtoqlik va do'stlikka, hamkorlik – hamjihatlikka odatlantirishda qudratli vosita bo'lib xizmat qilgan. Demak, bolalar o'yini bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtirishga, soq'-salomat bo'lib yetishlariga xizmat qilgan va shu orqali yoshlarni jismoniy mehnatga tayyorlashda asosiy o'rinlardan birini egallagan.

Sport yoshlarni soq'lom, chiniqqan, baquvvat qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Bunday tarbiya orqali yoshlarni hayotga tayyorlash, yovuz kuch va tabiiy ofatga qarshi kurash, xalq boshiga tushgan turli-tuman azob-uqubatlardan qutqarish. Ayniqsa, vatan himoyachisi yo'lida qahramonlik ko'rsata oladigan kishilar qilib tarbiyalash nazarda tutiladi.

Shu jumladan, a) ov – ovlash, mergan qilib yetishtirish katta o'rin egallaydi. O'zbek xalq poetik ijodining o'ziga xos xarakterli xususiyatidan biri, ko'pchilik ertak va traditsion syujetli dostonlarda voqea u yoki bu asar qahramonining ovga chiqish bilan boshlanishidir; b) Ayrim jismoniy mashq orqali alohida qudrat va mohirlikka ega bo'lgan sport vakillarini tarbiyalab yetishtirish xalq ijodida salmoqli o'rin egallaydi.

O'zbek xalq poetik ijodida maxsus harbiy – sport va harbiy – jismoniy tarbiya podshohlik, saroy ahli ham yirik feodallar oilasi bolalariga xos ekanligini ko'rsatadi;

Folklor materiallarining ko'rsatishicha, O'rta Osiyo xalqlari orasida tarqalgan harbiy harbiy – jismoniy tarbiyaning mazmuni – sipohgorchilik, jangu-jadal, «hunarni» o'rganishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, kurash tushish, ot chopish, tirondozlik, qilichbozlik, kamon bilan o'q otish, miltiq otish, nayza sanchish, suvda suzish, gurzi urish kabi harbiy-jismoniy tarbiya – asosiy o'rinni egallar edi. Bu jihatdan qaraganda, O'rta Osiyodagi qadimdan davom etib kelayotgan harbiy – jismoniy tarbiya juda ko'p jihatdan qadimgi Yunoniston – sport harbiy – jismoniy tarbiyasi mazmunini aks ettiradi. Masalan, «Shaxzoda Asad», «Mamir bilan Samir» ertagida qadimgi davrlarda yoshlarga harbiy – jismoniy mashqlar o'rgatilgani ko'rsatiladi.

O'zbek xalq dostonlari qahramonlarining hammasi harbiy – jismoniy tarbiya olgan kishilar sifatida xarakterlanadi. Xalqimizning suyukli qahramoni – Go'ro'q'li, Xasanxon, Avaz, Rustam, Ravshanxon, Erali, Sherali va boshqalar ana shular jumlasidandir.

O'zbek xalq oq'zaki ijodida ifodalangan yana bir muhim tomoni yuqoridagi kabi xalq farzandlarining jismoniy kamolotini ularning yuksak ma'naviy fazilatlari bilan birga tarannum etilishidir.

Biz ko'rib o'tgan asar qahramonlari ham jismoniy, ham psixologik jihatdan teng rivojlangan kishilardir, ya'ni jismoniy kamolot egalari mustahkam, irodali, intizomli, sabr-toqatli, q'ayratli, matonatli, kamtar, qat'iy, umidsizlanmaydigan, xushyor, tadbirli, chidamli, qo'rqmas, mard-botir va jasur kishilar bo'lib yetishganliklari ko'rsatiladi.

Shunday qilib, o'zbek xalq ijodi materiallarining ko'rsatishicha, o'tmishda yoshlarning jismoniy tarbiyasi yuqoridagicha to'rt yo'nalishda davom etib kelgan va bu xalq pedagogikasining eng muhim va zarur qismi sifatida avlodlardan avlodga o'tib, rivojlanib borgan.

Allomalar tarbiyada mehnatning afzalligi to'g'risida.

Mehnat tarbiyasining mazmuni.

mehnat tarbiyasining usullari.

Xalq pedagogikasida nafosat tarbiyasi.

Ta'lim va tarbiyani milliy istiqlol q'oyalari asosida yuksak darajaga ko'tarish, davrimizning qat'iy talabi hamda jamiyatning ijtimoiy topshiriq'i sifatida pedagoglarga katta mas'uliyat yukladi.

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar va amalga oshirgan kashfiyotlarida ham insonlarni odobli, mehnatsevar, vatanpar qilib tarbiyalash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib o'tganlar.

Jumladan, Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli-tuman hunar sohiblarining hammasiga hafsala, qunt va e'tibor bilan maslahat berib, ularga homiylik qilganlar. Navoiy: «Inson bo'lib dunyoga keldingmi, biror kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan», deb ta'kidlaganlar.

Insoniyat qadr-qimmatini mehnatda, bilim va hunarga tayanishda, birovga xor

bo'lmashlikda deb bilgan. Sa'diy shunday ta'lim beradi:

O'z mehnatidan non yegan kishi,

Hotam himmatidan ozod yoz – qishi.

Mash'alali o'txonaqaddas kitob – «Avesto»da ham mehnat moddiy boyliklar manbai emas, balki u mehnatni asosan ahloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilgani uchun insonlarni mehnat qilishga chaqiradi. Xalq pedagogikasida «yoshlikda egallagan hunar toshga o'yib yozilgan hikmatdir» - deb ta'kidlanadi.

Hunarning nechoq'li zarur ekanligi qator rivoyatlar, maqollar, ertaklar, dostonlarda ham o'z aksini topgan. «Oltin baliq», «Savdogar bilan podachi», «Sirli gilamcha», «Baliqchi bola», «Ikki naqqoshning ishi» kabi ertaklar, «Xasanxon», «Rustam», «Ziyod» kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Darhaqiqat xalqimizning ertak, rivoyat, dostonlari hamda o'tmishdagi olimlarimizning meroslarini chuqur o'rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbqiq etish har bir ma'naviyatli va ijodkor mutaxassislarning muallimlarning mash'alali o'txonaqaddas burchidir! Shuning uchun ham xalq pedagogikasining ustozlik-murabbiylik an'anasini o'rganish o'quvchi yoshlarni tarbiya qilish kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iborat. Xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy usullarini amaliyotda qo'llash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Shuningdek, ushbu masala zamonaviy tarbiyada ham o'z mohiyatini yo'qotmagan holda xalq oq'zaki ijodi, xalq pedagogikasida asosiy o'rinda turadi.

Jumladan:

qunt bilan o'rgan hunar

Hunardan rizqing unar

Hunari yo'q kishining

Mazasi yo'q ishini

Mehnat jarayonida paydo bo'lgan ish tajribalari ko'nikma va malaka xalqimiz tomonidan doimo uluq'langan va xalq poetik ijodining hamma janrlarida muqaddas o'rin egallab kelgan.

Xalq, poetik ijodida yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalash q'oyat muhimdir. Olimlarimizning xalq poetik ijodini o'rganish yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarining ko'rsatishicha, xalq ijodining o'zi qadimdan qadimiy uruq' va qabilalarning mehnat jarayoni zaminida paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Boshqa xalqlardagi o'zbek xalq poetik ijodi ham xalq ommasining mehnat va mehnat jarayonida yaratilgan eng yaxshi traditsiyalari, tajribalar mehnat qilish sohasida paydo bo'lgan ko'nikma, malaka va odatlarni badiiy formada avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida qoldirib kelgan.

«Aql va boylik», «Uch oq'ayni botirlar», «Ko'rpangga qarab oyoq uzat» kabi o'zbek xalq ertaklarida mehnatsevarlik, bolalarni mehnatga odatlantirish, mehnat hamma boyliklarning negizi kabi masalalarga alohida ahamiyat beriladi, hamda shaxsning haqiqiy go'zalligi mehnatda ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Mehnatkash xalq ommasining mehnat jarayonida qo'lga kiritilgan ish tajribalari – mehnat malakasi, ko'nikma, odat va yosh avlodni mehnatga tayyorlash yuzasidan takror-takror sinovdan o'tgan usul va vositalari xalq pedagogikasining didaktik qo'llanmasi bo'lib keldi.

Mehnat – ikki ko`zdan aziz.
Oltin o`tda toblanar,
Odam mehnatda.
Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.
Birni birov beradi, ko`pni – mehnat.

Shuning uchun ham mehnatkash xalq oilasida o`z farzandlarini mehnatsevar qilib yetishirish ota-ona va umuman keksa avlodning dastlabki insoniy burchi hisoblangan.

Yoshlarni kattalarga yordamlashishida xalqimizning qadimdan davom etib kelayotgan oliyjanob an'analaridan biri «xashar»ning tarbiyaviy ahamiyati q'oyat kattadir.

«Xashar» dehqonchilik hayotida ko`p turga ega bo`lib, yilning hamma faslida, shahar sharoitida – ariq qazish, ko`prik qurish, yo`l chiqarish, mahalla obodonchilik ishlari, uy qurish ishlarida uyushtiriladi. Bunday tadbirlarda yoshlar va bolalar kattalar bilan barovar harakat qilib, ularni e'tiboriga sazovor bo`lishar edi.

Keksalarning «barakallo», «qo`ling dard ko`rmasin», «umringdan baraka top» kabi olqishlari ko`pincha o`z mehnatini manzur qilgan yoshlarga nisbatan aytilar edi.

Xalq ijodi materiallarida, ayniqsa, maqol va qo`shiqlarda mehnatning kishi hayotidagi o`rni, mehnat malakasini o`rganish usullari, halol mehnat qilish zaruriyati uqtirib kelingan.

Yoshlarni mehnatsevar qilib yetishtirishda eng ko`p qo`llaniladigan usullaridan biri ishontirish bo`lib, uni tadbqiq qilishda ham xilma-xil vosita va shakllardan foydalanilgan. Ayniqsa, keksalar tomonidan mehnat va mehnat ahlini ardoqlaydigan hamda ishyoqmas, dangasalarni aytib berish, ishontirish vositalaridan biri bo`lib xizmat qilgan. Keksalarimizning yoshlar tomonidan mehnatni, jamiyat taraqqiyotidagi buyuk o`rinni anglab yetishlari, unga e'tiqod qo'yishi uchun aytib beradigan kichik va katta hajmdagi ertaklari ko`p bo`lgan. Masalan, «Kichik kelinning davlati», «Sirli tush» ertaklarini keltirish mumkin.

Xalq pedagogikasida bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevar qilib tarbiyalashda o`git-nasihat, namuna ko`rsatish usullari ham katta o`rin tutadi.

Respublikamizda yosh avlod tarbiyasi borasida muhim tadbirlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda musiqiy qadriyatlarni tiklash, ommaviy xalq musiqa pedagogikasi namunalarini tahlil etish, buyuk donishmandlarning musiqiy, ma'rifiy ijodini, nafis yodgorliklarini, o`rganadigan va amaliyotga tadbqiq etish pedagogik masalalardan biridir.

Alisher Navoiy aqliy, ahloqiy va nafosat tarbiyasi – insonni eng go`zal fazilatlaridan ekanligini bayon etib, ulardan har bir kishi baxramand bo`lmoq`i lozimligini ta'kidlab o`tgan. Ayniqsa musiqaning insonga tarbiyaviy ahamiyatini yuksak baholagan, «ko`ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi», - deb ta'riflagan. Shuning uchun bolani yoshligidan boshlab qunt bilan tarbiyalash, go`zallik olami bilan oshno etish ma'naviy ta'sir ko`rsatish yo`li bilan, uni kamol toptirish, ahloqli, yuksak fazilat egasi qilib tarbiyalash q'oyasini ilgari

surgan.

Nafosat tarbiyasi bolada eng nozik tuyq'ular orqali go'zallikni anglash, unda baxra olish va bevosita go'zallikni yaratuvchilarga aylanish kabi jihatlarni tarbiyalaydi.

Xalq pedagogikasi fani orqali milliy me'rosimizga aylangan nafis san'at asarlari, asari-aqiqalar, mumtoz kuy, qo'shiqlarning ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs kamolotida tutgan o'rni va beqiyos tarbiyaviy ahamiyati o'rganiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. Nashr uchun mas'ul: T. Risqiev. – Toshkent: Sharq NMK Bosh tahririyati, 1999.

2. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.

3. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.

4. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.

5. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N1.-

6. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.

7. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.

8. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.

9. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.

10. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.

11. Sattarov M. «O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.

12. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». Toshkent 1995

13. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

14. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Physical training-fizicheskoe vospitanie-jismoniy tarbiya-insonning barcha tabiiy qobiliyatlarini chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayon.

Labour training- Trudovoe vospitanie-Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Legacy-Nasledie-Meros-intellektual sohada o‘tmishdagi ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari.

Ancient-drevniy-qadimgi- eramizdan avvalgi va tarixiy davrlar.

Legend-Legenda-Afsona-_arabcha so‘z bo‘lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma‘nosini anglatadi.

Tale-Skazka-Ertak-qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy)suzidan olingan bulib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma‘nosini anglatadi.

Proverd- Poslovitsa-“Maqol”- atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo‘nda xulo
salarini ifodalaydi.

Nazorat savollari:

Tarbiyada bolalar o‘yinlarining qanday ahamiyati borg‘

Xalq ijodida harbiy sport va harbiy – jismoniy tarbiyaga qanday ahamiyat berilgang‘

Mehnat tarbiyasining mazmuni sifatida nima deysizg‘

Xalq ijodida mehnatsevarlik qanday ifodalangan?’

Mehnat tarbiyasi uslublari qaysilar?

Nafosat tarbiyasini tushuntiring.

Xalq pedagogikasining asosiy manbalari qaysilar?

Xalq oq‘zaki ijodi turlari.

Xalq oq‘zaki ijodida ilgari surilgan q‘oyalar.

Xalq oq‘zaki ijodida nafosat va jismoniy tarbiya

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Dostonlarning yaratilish tarixi.
2. Dostonlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar.
3. Dostonlarning turlari.

Test savollari:

1. Dostonlarni kimlar aytgan?

- a) Baxshilar
- b) Shoirilar
- s) Askiyachilar
- d) Polvonlar

2. Dostonlarning mazmuniga ko‘ra turlarini aniqlang?

- a) Qahramonlik, jangnoma, tarixiy, kitobiy dostonlar
- b) Lirik dostonlar
- s) Epik, dramatik dostonlar
- d) Qahramonlik, dramatik

3. Dostonlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang?

- a) Lirik, epik va dramatik dostonlar
- b) Qahramonlik, dramatik dostonlar
- s) Qahramonlik dostonlari
- d) Jangnoma dostonlar.

4. Xalq og'zaki ijodida eng yirik janr qaysi?

- a) Doston
- b) Lapar
- s) Ertak
- d) G'azal

21-22-Mavzu: Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni.

Reja

1. Ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi.
2. Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli sifatida.
3. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlari.

Milliy istiqlool mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarga asoslanib yaratilishi bejiz emas , albatta . Bu borada Prezidentimiz I.Karimovning "Har bir fuqaro ajdodlarimizning bebaho merosi , milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish , yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash , ularni yaratuvchanlik ishlarida da'vat qilish , shu muqaddas zamin uchun fidoiyligni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlool mafkuramizning bosh maqsadidir»- deganlari ayni muddaodir .

Ma'naviy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosimlar va istiqlool istiqboli hamda mafkuraviy ong , yashash tarzi haqida, ya'ni avlodlar mushtarakligi to'g'risida fikr yuritish ekanmiz , uni uch toifaga bo'lish lozim :

Xo'sh , ma'naviy qadriyatlarimiz xususida sharq mutafakkirlarimizning ilmiy , ma'rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi qanday? Qayd qilish lozimki o'rta asrlar uyg'onish davri , bunyodkorlari bo'lmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz . Bu borada Ibn Sinoning ma'naviy merosida qator muammolar tizimida axloq-odob masalalari e'tiborli salohiyatga egadir . Uning «Burch haqida risola» , «Axloq haqida risola» , «Insof haqida risola» kabi asarlarida axloq-odobning g'oyat muxim qirralari bayon etilgan .

Mutafakkirlarning asarlarida , jumladan « Tadbiri manzil» risolasida ham inson tabiati azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi , degan g'oya muhim ahamiyat kasb etadi . Aslida odamlar tayyor fazilat , odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar . Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi , ajdodlar an'analari , ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida asta-sekin shakllana boradi . Ta'lim-tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson o'zida ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi yoki «yomon do'stlar» ya'ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi .

Jaxonda XII asrdan boshlab hanuzgacha algebra fani asoschisi sifatida Al-Xorazmiy nomi ulug'lanadi . Hozirgi zamonda kosmik kemalar , havo transporti , hisoblash texnikasi , ishlab chiqarishning texnologik jarayonlar algoritmi qoidasi asosida ishlaydi .

Abu Nasr Farobiy inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillashuvida musiqiy oxanglarning fizikaviy xolatiga asos soldi .

Bunday yaratuvchanlik milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz sifatida ulug'lanar ekan, ularni o'rganish, o'zlashtirish yosh avlodning muxim burchi bo'lmog'i kerak .

Xalq pedagogikasining barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni egallash, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim,"- deganida Prezidentimiz haq edi³⁷.

Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalq-parvarlik tuyg'ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma'naviy – ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

- barkamol inson ota- onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a'zolari, qo'ni –qo'shnlari, mahalla- ko'y, xamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'uradi;
- tevarak atrofni o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo'lishga intiladi;
- milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi;
- milliy qadriyatlar asosida odob-ahloq, fe'l- atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdiriladi;
- ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy- madaniy merosni qadrlaydi;
- Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni xarbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.³⁸

Ma'naviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to'g'risida so'z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o'z asarlarida inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o'stirishga alohida e'tibor qaratganlariga amin bo'lamiz, Ular o'z

³⁷ Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik. "O'qituvchilar gazetasi". 1989 yil,2 dekabr.

³⁸ G.M.Ergasheva.Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy ximoyasining huquqiy mexanizmlarini takomil-lashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- T.: "Akademiya", 2007. 211-212 betlar.

asarlari bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni yetishtirib bergan. Ular- xoh tibbiyotchi va dorishunos, xoh riyozotchi va falakshunos, hox tarixchi va fiqix, xoh tilshunos va munaqqil (naql qiluvchi), xoh adib va shoir, xoh tasavvuf ilmining mashxur namoyandasiyu davlat arbobi bo'lsin yetuk ilmiy asrlar yaratganlar. Ulug' bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, abu nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, az Zamaxshariy Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma- mutafakkirlarning shuningdek, jadichilarning ismlarini va ular tomonidan ta'lim – tarbiyaga oid asrlarini tilga olish kifoyadir.

Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga uzviy bog'liq bo'lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'qdir.

Diniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ajratib o'rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo'shib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda: “Biz islom dini ota- bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz... Dinga hurmat va e'tiqod- biz uchun o'lmas qadriyatdir”³⁹.

Millatning ravnaq topishida tarixan shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana marosimlarning ahamiyati beqiyosdir. Milliy qadriyatlar avvalo, har bir millatning iftixori, faxri shu bilan birga ma'naviy merosining poydevori hamdir.

Islom dini 8 asrning boshlarida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan istilo qilinishi oqibatida kirib kelgan. Keyinchalik Temuriylar imperiyasi va Mongol imperiyasi, shu jumladan, Markaziy Osiyo va bir necha yirik musulmon davlatlarda faoliyat olib borgan ko'plab taniqli islomiy olim va faylasuflar Markaziy Osiyodan etishibchiqdilar. (Islam came to Central Asia in the early part of the 8th century as part of the Muslim conquest of the region. Many well-known Islamic scientists and philosophers came from Central Asia, and several major Muslim empires, including the Timurid Empire and the Mughal Empire, originated in Central Asia).⁴⁰

Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, ularni yanada teranroq anglashimiz uchun keng yo'l ochib berdi. Mustaqillik, tufayli islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar qilindi. Xalqimiz hayoti va turmushida islom dini va islomiy qadriyatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qolgan. Prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, “biz islom dini ota- bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz...dinga xurmat va e'tiqod- biz uchun o'lmas qadriyatdir” .

³⁹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. –T.:2000. 26- bet

⁴⁰ www.pfh.de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf

Hamma davrlarda, barcha xalqlar uchun ta'lim-tarbiya eng dorlzarb masala sifatida qaralgan. Xar bir millatning tarbiya borasida o'ziga xos ma'naviy merosi, tajribalari va yondashuvlari mavjud.

Koreya davlati ta'lim tizimida milliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Davlat maktablarida dinshunoslik o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab "Odobnoma" kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dinshunoslik asoslarini ham qamrab olgan bo'lib, qadriyat sifatida o'qitiladi. Ehromlarga sayyohat qilib borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviyat tarixini o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Xitoy ta'lim tizimining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan) Kun Szi (Konfutsiy) qator ilg'or pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

Globalashuv jarayonining milliy ma'naviyat va ahloqiy qadriyatlardagi o'ziga xosliklari yemirilishining oldiga to'siq bo'la oladigan omillarni yuzaga keltirsa va ulardan samarali foydalanish yo'lida har bir millat harakat qilishga intilsagina integratsiyalashuv jarayonining tabiiy kechishi davom etish imkoniyatlari saqlanib qolishi mumkin. Aks holda globalashuvning milliy o'ziga xosliklarini bir qolipga solishga o'tkazayotgan salbiy ta'siri avj olishi davom etadigan bo'lsa kuchlarning kuchsizlar ustidan hukmronlik qilishi uchun shart-sharoitlar yuzaga kelishi xavfi kuchayib boradi. Yana ham aniqrog'i Integratsiyalashuv jarayonining milliy, ma'naviy madaniyat, qadriyat va ilm-fan sohalarida millatlarning o'zaro tabiiy ta'sir o'tkazish va boyitishdagi imkoniyatlarining cheklanib borishi o'z navbatida har bir millatning mustaqil sub'ekt sifatida mavjud bo'lishiga tahdidning kuchayishiga olib keladi. Aslida globalashuv internatsionallashuv va integratsiyalashuv ta'sirida amalga oshsagina barcha sohalarida tenglik tabiiylik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillarining amal qilishiga zamin yaratiladi.

"Xalq pedagogikasi" fanini o'qitishning ustuvor yo'nalishi:

Zamonaviy milliy pedagogika o'z mazmun va mohiyatini boyitishda, shaxs shakllanishiga ta'sirchanlikni oshirishda xalq pedagogikasi g'oyalariga tayanadi. Xalq pedagogikasi o'z nomi bilan xalqchil usullari, qoidalari va tamoyillari bilan yoshlar tarbiyasida asosiy manba xisoblanadi.

- eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo'lgan pedagogika tariximizni chuqur o'rganish, buyuk mutafakkirlar merosini hozirgi davr mezonida tahlil qilish, xalq pedagogikasi, ma'naviy qadriyatlar asosida qo'llanmalar yaratish, milliy pedagogikada xalqimizning tarbiya borasidagi tajribasini singdirish, undan foydalanish metodikasini yaratish;

- xalqimizning mentaliteti, milliy mafkura, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati talablari asosida mustaqillikni mustahkamlash, ma'naviy salohiyatni oshirish, har bir insonni, yosh avlodni XXI asr sharoitida baxtli yashashga tayyorlash omilini oshirish.

- ta'lim metodlarini takomillashtirish, milliy ta'lim modeli asosida pedagogik texnologiyani yaratish;

- tarbiyaning mazmuni va har bir insoniy fazilatning hozirgi davrdagi mohiyatini aniqlash, tarbiya mazmunida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligiga erishish. Hamkorlikdagi jahon xalqlari milliy qadriyatlarini o'rganish va ommalashtirish;

- tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, Sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insonparvarlashtirish;

- ma'naviy-axloqiy mazmunni takomillashtirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish. Mahallada, oilada axloqiy tarbiya nazariyasi va ommabop metodikasini ishlab chiqish;

- "Xalq pedagogikasi" fanini o'qitish jarayonida rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni didaktik jarayonga tatbiq etish usullarini takomillashtirish;

- Xalq pedagogikasi fani tarkibidagi mavzularni samarali o'qitish orqali bo'lg'usi mutaxassislarda shaxs kompetensiyasi sifatlarini shakllantirish.

Demak, zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi. Shu boisdan fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.
4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. "Xalq pedagogikasi" T. "Bayoz". 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M.«O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995

12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Nazorat savollari:

1. Milliy urf-odat an'ana va marosimlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni?
2. Yoshlar tarbiyasida milliy tarbiyaning ahamiyati?
3. Yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalashda xadis ilmidan foydalanish.
4. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi.
5. Xalq pedagogikasida nafosat tarbiyasi.
6. Xalq pedagogikasida jismoniy tarbiya.
7. O'zbek milliy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Komillik – mexr-muxabbat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir.

Mentalitet - (lot. mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'iga xos tarixiy an'anlari, urf-odatlari, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi.

Ma'naviyat- (arabcha ma'nolar majmu) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviy axloqiy tarbiya – yosh avlodni xalqning boymilliy-madaniy tarixiy an'analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samalali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.

Mudarris – (arab. Dars beruvchi) – madrasa o'qituvchisi.

Muhaddis – (arab. Hadis rivoyat qiluvchi) – hadislarni to'plash, saralash va sharxlash bilan shug'ullangan ilohiyotchi.

Millat- uzoq davom etgan ijtimoiy, siyosiy va etno-madaniy jarayonda, aniq xududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

Milliy iftixor - bu millatning o'zini yaxshi ijtimoiy birlik ekanini ongli ravishda xis qilishidir. Bu eng avvalo, millatning (aloxida shaxsning) o'zligini anglashi, millat ravnaqini ta'minlash yo'lidagi hatti-harakat, o'z millati istiqboli yo'lidagi mas'ullikni ongli ravishda xis etishi milliy iftixorli bo'lishning poydevori xisoblanadi

Mustaqil ish mavzulari:

1. Ma'naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi.
2. Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli sifatida.
3. O'zbek xalqining milliy-ma'naviy qadriyatlari.

Test savollari:

1. Milliy tarbiyada bosh maqsad nima?

- A) Barkamol shaxsni tarbiyalash.
- B) Sog'lom avlodni tarbiyalash.

- S) Axloqli yoshlarni tarbiyalash
- D) Bilimli yoshlarni tarbiyalash.

2. “Axloqi buzuvchi kishilarni muallimlikka emas, maktabda qorovullikka ham yaqinlashtirmaslik kerak” degan fikr muallifi kim?

- A) Fitrat.
- B) Avloniy.
- S) Behbudiy
- D) Cho'lpon.

3. O'tmishda yig'ilgan ma'rifiy boyliklarni buyuk filosof Gegel nima bilan taqqoslagan?

- A) O'zidan kuch taratuvchi ona yer bilan.
- B) Dengiz mavjlari bilan
- S) Tog'larning ulug'vorligi bilan
- D) Quyosh nurlari bilan.

4. Milliy marosimlar ko'rsatilmagan qatorni toping

- A) Qiz uzatish, cho'qintirish.
- B) Beshik to'y, tushov kesish
- S) Sunnat to'yi, qiz uzatish
- D) Aqqa to'yi, uylantirish

23-24-Mavzular: Ma'naviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati

Reja

1. Milliy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlarning ahamiyati.
3. Yoshlar ma'naviyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlar.
4. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlarning tayanish.

Tayanch tushunchalar: xalq pedagogikasi, hikmatli so'zlar, milliy tarbiya, ma'naviyat, qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosim, tarixiy meros, afsona, diniy tarbiya, mahalla, xalq og'zaki ijodi, maqollar, doston, globallashtirish, modernizatsiya, innovatsiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim.

Ma'naviy yetuk va barkamol insonni tarbiyalashda xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, milliy an'analarimizning saqlanishi va mazmunan boyishi, shuningdek madaniyat va san'at, ilm-fan, ta'lim tarbiyaning har tomonlama rivojlanishi alohida kasb etadi. Ta'lim-tarbiya orqali mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

“Islom dini,- deb ta'kidlaydi Islom Karimov “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javobida,- hayotimizning tub zahiriga chuqur singib ketgan. Bu – inkor etib bo'lmaydigan haqiqat, Milliy qadriyatlarimizning zamonlar osha bezavol

yashab kelishiga sabab- avvalo muqaddas dinimiz hisobidan”⁴¹. Bu holat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g‘oyani

Ta’lim –tarbiya jarayonida diniy qadriyatlardan foydalanmaslikning iloji yo‘qdir. Islomiy qadriyatlarning eng muhim tomonlaridan biri - ota-onaga izzat-hurmat va sadoqat ko‘rsatish farzandlarning insoniy burchlari ekanligini ta’kidlashdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida islom olamida katta shuxrat qozongan, hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, dastur amal bo‘lib kelayotgan Hadislarning o‘rni nihoyatda kattadir.

Shunday ekan farzandlarimizni muqaddas dinimizning moxiyati, uning insonparvarlik g‘oyalari, dinga sog‘lom munosabat masalalarini ular ongiga singdirishimiz zarur masalalardan biridir. Shu tariqa farzandlar tarbiyasidagi birinchi maqsadimiz bu xalqimizning qadimiy va boy tariximiz, yuksak madaniyatimiz va urf –odat, qadriyatlarimizga asosan mentalitetimiz asosida xayotga moslashishi, komil inson tarbiyasidagi buyuk maqsaddir. Bu insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba’zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi. Ushbu qadriyatlar milliy xususiyatlarni o‘zlashtirishi tavsiya etish mumkin:

- xalqimiz xayotida qadim qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruxining ustunligi;
- jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el yurt tushunchalarning muqaddasligi;
- ota- ona, mahalla –kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat e’tibor;
- millatning o‘lmas ruxi bo‘lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga hurmat, go‘zallik va nafosat, hayot adabiyligining ramzi –ayol zotiga ehtirom;
- sabr –bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr oqibat.

Kabi masalalar ta’limning mazmuni bo‘lishi davr talabidir

Barchaga ma’lumki, keyingi paytlarda ijtimoiy va ma’naviy muhitni soq’lomlashtirish, milliy urf-odat va an’analарimizni turgі behuda va zararlı ko’rinishlardan tozalash, diyorimiz xalqini insoniy kamolot cho’qqilari sari yuksaltirish kabi xayrli ishlarga muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan katta e’tibor berilmoqda.

Qadriyat – bu qadr qimmat ma’nosini anglatib, u inson uchun qadrli bo‘lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Qadriyatlar – faqat o‘tmish uchun qadrli bo‘lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmiu.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;

⁴¹ Karimov I.A. Milliy istiqloл mafkurasi- xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: 1997. 25- bet

- moddiy qadriyatlar;
- ma'naviy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar;

Tabiiy qadriyatlar – bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan resurslar, ya’ni yer va yer ostiboyliklari, suv, havo, o‘rmonlar o‘simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Moddiy qadriyatlar – bu insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrlı bo‘lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne‘matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshiradigan buyumlar.

Ma'naviy qadriyatlar – bu siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar.

Estetik qadriyatlar – bu barcha ham shaklan, ham mazmunan go‘zalliklardir.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo‘lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu umumbashariy axamiyatga ega bo‘lgan va uning sivilizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir.

Xalqimiz ichida necha asrlar davomida shakllangan urf-odatlar juda ko‘p. Ba'zi manbalarda ularning 376 tasi sanab o‘tilgan.

An'analar qadim-qadimlardan insoniyat turmushi, ijtimoiy faoliyati, mehnatidagi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlod-ajdodlar uchun yo‘l-yo‘riq darslaridir desak yanglishmagan bo‘lamiz.

O‘zbek an'analari, qadriyatlari xususan xalq pedagogikasi, oq‘zaki ijod, uning tarkibidagi pandnomalar, o‘gitlar, nasihatlar, olqish duolar har kun har daqiqa jonli jarayonlarda yashab, turmush tarzimizni bezab, ayniqsa farzandlarimizga to‘q‘ri bo‘lish, to‘q‘ri yashash va odob-ahloqi joyida bo‘lishlikni eslatib turuvchi, da'vat qiluvchi manbalardir.

Qadriyatlarimizning yana bir umumiy mushtarak tomoni shundaki, ularning barchasi, insonning iymon-e'tiqodda ma'naviy ma'rifiy va ahloqiy-ruhiy tarbiyada komil odam bo‘lishlikka qaratilgan. Yoshlarimiz xalqona qadriyatlardan nechoq‘lik ko‘p saboq olsalar, ularning tafakkurlari shunchalik boyib, aql-idroklari qayrilib, har tomonlama kamol topaveradilar.

Xullas qadriyatlar mazmuni xalq pedagogikasi qatlamlariga singdirilgan. Ular baq‘rida kamol topgan. Xalq pedagogikasi maqsadi esa farzandlarimizni yetuk fazilatlari, komil insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyatimizda, xalqimizga xos fazilatlaridan bo‘lgan o‘zaro mehr-oqibat, qadr- qimmat, xayru- sahovat singari insoniy fazilatlarning yanada rivoj topishida mahallalar yetakchi kuchga aylangani sir emas. Zero yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari dadil odimlash

tamoyili huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Sharq xalqlarining me'rosi xilma-xil, ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir- biriga chambarchas bog'langan.

Bu asarlar o'z muxtasarligi, ravonligi, qiziqarliligi, ohangdorligi hamda didaktik ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, ma'naviy to'qligi, hayotiyiligi bilan, xalqqa yaqinligi bilan insonlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda o'zgacha muhim ahamiyatga egaligi bilan ham qadrlidir.

Mutafakkirlarning hikmatli so'zlari bilan birga, ilg'or qarashlari va umumma'rifiy orzularini tarannum etuvchi voqea va hodisalar o'zining tarbiyaviy mazmuni bilan yoshlarni komil insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Zero, mutafakkirlar merosida keltirilgan hikoyalarda, matalu rivoyatlarda nomus va poklik, insof va adolat, muruvvatlilik va haqgo'ylik kabi ijobiy fazilatlarga qarama-qarshi qabixlik, tovlamachilik, riyokorlik, muttahamlik kabilar qo'yiladi. Ko'pgina hikoyalar zamirida inson o'ziga kerakli xulosalar chiqarib oladi. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu o'git va nasihatlar o'tmishdagi ulug' mutafakkirlar va donishmandlarning tarixiy hikoya va hikmatli so'zlari orqali inson ongiga yetkaziladi.

Har bir inson o'z hayotida ijtimoiy faol bo'lishlikka intilishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, o'z shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishga erishishi, oilaviy turmushga tayyor bo'lishi, ilm olishga intilishi, hayoti uchun zarur bo'ladigan mehnat malakalariga ega bo'lishi, madaniy hordiq chiqara olishi va, albatta, Vatan oldidagi burchini bajara olishga tayyor bo'lishi lozim.

Mahalla deganda insonlarning belgilangan ma'lum bir hududda jamoa bo'lib yashashlari tushuniladi. Ta'kidlash joizki, o'zini –o'zi idora qilish qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan. O'zbek mahallalari o'zida jamoatchilik ruxi, insonparvarlik, o'zaro yordam, insof, diyonat, raxmdillik kabi insoniy tuyg'ular bilan sug'orilgan holda shakllangan katta oiladir.

Biz o'z tarixi bilan faxrlanadigan insonlarni tarbiyalashimiz va shakllantirishimiz, bunda milliy g'urur va milliy qadriyatlarimizga tayanishimiz va undan unumli foydalanishimiz zarur.

Navro'zi olamning qaytishi xalqimiz ruhiyatini ko'tardi. Navro'z bayrami bilan birga arlar davomida e'zozlab kelingan urf- odatlarimiz, an'ana va o'yinlarimiz qayta tiklandi.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy- m'naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizni milliy birlik sifatida jahon miqyosida betakrorligimizni ta'minlaydi. Tilimiz, urf- odatlar, an'ana va udumlarimiz shunchaki o'tmishdan qolgan meros emas, balki o'zligimizni anglashimiz shartidir. Biz bu qadriyatlarimizning naqadar muhim ekanligini anglay olsak, millat sifatida o'zligimizni saqlab qolamiz.

Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf- odat va an'analarning qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdur. Bugun yoshlar shunchaki milliy-

ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Ma'lumki, 2008 yilda mamlakatimizda 18yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa- 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni⁴² tashkil etgan edi.

O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali- beri yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turibdi.

Zero, yurtboshimiz qayd qilganlaridek: "Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan komil komil insonlarni tarbiyalashdan iborat".⁴³

Jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o'z istiqboliga erisha olmaydi. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi",⁴⁴ deb ta'kidlaydi I.A.Karimov. Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin.

Yoshlar tarbiyasida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy- siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol- mulkini talon- taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi. Chunki erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olibyu borilgan ishlar va xatti- harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'g'ri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat- adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

⁴² Madaliev Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: "Akademiya", 2008. 5- bet.

⁴³ Karimov I.A. biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7- jild. -T.: "O'zbekiston", 1999. 304-bet.

⁴⁴ Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish- oliy saodatdir. - T.: "O'zbekiston", 2007. 38-bet

I.Ergashev Yoshlar dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilar :

- Yoshlar o‘z dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliy- ma’naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi.

- Yoshlarning milliy- ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatining hozirgi holatini o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar ustivor bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodni mustahkamlashdan iborat.

- Yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodining mustahkam bo‘lishi O‘zbekiston tanlagan o‘ziga hos va mos taraqqiyot yo‘li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi.⁴⁵

I.Ergashev jamiyat ma’naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog‘laydi :

1. Mustaqillik ulug‘ ne’mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo‘lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini chuqur anglab, faollik ko‘rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim.

2. Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma’naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog‘liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar haqida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikriga tayanish, milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi.

3. Demokratik jamiyatda milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o‘z fikrini o‘tkazish, o‘zgalar fikrini bo‘g‘ib qo‘yish hollariga barham beriladi.

4. Milliy – ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o‘z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg‘uga ko‘proq ehtiyoj sezadigan bo‘lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

5. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug‘iladi.

6. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sog‘ada ishlashidan qat’i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o‘zligini anglamog‘i zarur bo‘ladi. O‘zlikni anglash esa ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, asrab-avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.⁴⁶

⁴⁵ Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: “Akademiya”, 2008. 15-16- betlar.

⁴⁶ Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: “Akademiya”, 2008. 15- bet.

Ota- bobolarimiz ilm o'rgatish bilan farzandlariga avloddan- avlodga o'tib kelayotgan milliy ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. Istiqlolning taraqqiyot va o'zgarishlarga boy davrida yoshlarning har tomonlama kamol topishi hozirgi kunning talab va ehtiyojidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.
4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. "Xalq pedagogikasi" T. "Bayoz". 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M.«O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Nazoratsavollari:

1. "Xalq pedagogikasi"ning tarixiy taraqqiyot bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Milliy qadriyatlar mazmunini izohlang.
3. Sharq xalqlari urf-odatlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Qadriyat, urf-odat, an'ana va marosimlarning shaxs ozligini anglash jarayonidagi ahamiyati.
5. Qadriyat, urf-odat, an'ana va marosimlarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni.
6. Xalq og'zaki ijodi yordamida yoshlarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish.
7. Xalq pedagogikasida oila va unda farzand tarbiyasi.
8. Ta'lim-tarbiya jarayonida mutafakkirlarimizning ilg'or pedagogik g'oyalaridan foydalanish.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Afsona - xalq og'zaki ijodi janri. U hayolot, uydirma va to'qimadan

iborat bo'lsa-da, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makoni ham ko'rsatiladi. Afsonalar og'izdan-og'izga, eldan-elga o'tib kelgan.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayondir.

Donishmand – ko'p narsa biladigan, bilimdon, olim, dono.

Doston – poema – liro-epik janr; shu janrdagi badiiy asar. O'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan.

Milliy pedagogika - ya'ni o'zbek pedagogikasi juda qadimgi tarixga ega bo'lib, o'zbek xalqining ta'lim-tarbiya borasidagi boy tajribalari, ulkan pedagogik merosiga tayanadi. Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoni orqali barkamol shaxs tarbiyasi amalga oshiriladi va pedagogika fani asosida tarkib toptiriladi.

Milliy g'urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'zligini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi, o'zga millatlar oldida qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini, faxrlanish xissini ifodalovchi tushuncha.

Mifologik - (yunoncha-mifos naql, rivoyat, logos- tushuncha, ta'limot) dunyoqarash – ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavydalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Movarounnahr - (arab.-dunyoning nariga tomoni) – o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotida Movarounnahr deganda, asosan Turkmanistondan tashqari O'rta Osiyo xududlari, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismi tushuniladi.

Tasavvuf, so'fiylik – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyasidir.

Xalq og'zaki ijodi – xalq ommasining badiiy faoliyati.

Hadis – (arabcha xabar, yaagilik) – Muhammad (sav)ning aytgan so'zlari, fe'l atvorlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlar.

Hikoyat – sharq va janubi-sharqiy Osiyo xalqlaridagi adabiy termin.

Hikmatlar-xalqning yuksak irodali, aql-zakovati donoligining ifodasini aks ettiruvchi so'zlar.

Shariat (arab.- oston va suv ichish joyi, yo'l, musulmonchilikda shariat qonunchilik ma'nosida qo'llaniladi) – Alloh joriy qilgan amaliy xukmlar majmuasi, shu ma'noda shariat fiqh ma'nosida ham tushuniladi.

E'tiqod – bu shaxsning o'z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimi.

O'zbek millatini o'z-o'zini anglashi – xalq haqiqiy mavjud sub'ekt muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning ifodalovchi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mas'ulligini, mafaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetish jarayonining shakllanishi.

Qadriyat – bu qadr qimmat ma'nosini anglatib, u inson uchun qadrlil bo'lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Milliy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlarning ahamiyati.
3. Yoshlar ma'naviyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlar.
4. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlarning tayanish.

Test savollari:

1. Shaxsga tarbiyaviy ta'sir etish, uning hayoti va faoliyatini uyushtirish asosida unda ma'naviy-axloqiy tushuncha, e'tiqod va fazilatlarni tarkib toptirish usullari qanday nomlanadi?

- A) tarbiya metodlari;
- B) tarbiyaviy ta'sir;
- C) tarbiya vositalari;
- D) tarbiya usullar.

2. Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo'nalishga safarbar qilishda nimaga tayanadi?

- A) allomalar o'gitlariga;
- B) hadis ilmiga;
- C) xalq og'zaki ijodiga;
- D) milliy qadriyatlarga;

3. Xalq pedagogikasi o'rganiladi:

- A) nozik tuyg'ular orqali eng go'zallikni anglashni o'rgatadi;
- B) yuksak fazilat egasi bo'lib yetishish usullarini o'rgatadi;
- C) milliy me'rosimizga aylangan nafis san'at asarlari, mumtoz kuy-qo'shiqlarning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rmini o'rganadi;
- D) odob-axloq me'yorlariga, milliy urf-odatlarga rioya qilishni o'rgatadi;

4. Quyidagilarning qaysilari xalq pedagogikasi metodlari sanaladi?

- A) ogohlantirish, uyaltirish, musobaqa;
- B) maqtash, olqash, duo qilish, qoralash, qarg'ash, kaltaklash;
- C) tenbeh berish, pedagogik talab, xayfsan berish;
- D) uyaltirish, o'git, ogohlantirish.

5. Manbalarda urf-odatlarning ma'lum soni keltirilgan, ular nechta?

- a) 255 ta; b) 300 ta; v) 376 ta; g) 380 ta;

25-Mavzu: Xalq pedagogikasida milliy o'yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati

Reja

1. Milliy o'yin turlari.

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida uo'yinlardan foydalanish.

3. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati.

O'yin - inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamroxi" ham deb atash qabul qilingan. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi; o'yin jarayonida bolani xayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'yinning pedagogik nazariyasini uning mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq tushungandagina yaratish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar o'yin nazariyasining asosiy masalalarini birmuncha chuqurroq; yoritish imkonini beradi, chunonchi:

1.O'yinning mohiyati va o'ziga xosligi.

2.O'yinning bola tarbiyasidagi o'rni va uning bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonda tutgan mavqei.

Pedagogikada bolalar o'yini o'zida kattalar harakati va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tarixan tarkib topgan faoliyat turi sifatida baholanadi.

O'yin buyumli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglash ishiga yo'naltirilgandir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra ham, yo'nalishi va mazmuniga ko'ra ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi.

O'yinning turlari. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni favqulodda qiyinlashtiradi, biroq, o'yinlarga to'g'ri rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur. Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar.

Qoidali o'yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarining murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhni xalq o'yinlari tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan avlodga o'tib, bizga yetib kelgan.

O'yinning tuzilishi. O'yin - bu bola faoliyatining turi. Shuunday ekan, barcha faoliyatda bo'lgani kabi unga ham qator hislatlar: maqsadning mavjudligi,

sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar, natijaning mavjudligi kabilar xosdir.

Har qanday ko'rinishdagi o'yin tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Har bir o'yinda bola uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad mavjud: qizchasini ovatlantirish, kosmosga uchish, quvlashmachoq o'ynayotganda o'yin qatnashchisiga qo'l tekkizish, "qopqondan" qutulib chiqish va hokazolar.

Bola katta maktabgacha tarbiya yoshiga kelib, o'yin mavzusi va mazmunini kelisha oladigan, rollarni taqsimlaydigan, o'z o'yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradigan bo'ladi.

Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati: uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi; o'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi.

O'yin o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin - bu bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mutsaqil faoliyatidir. O'yinning rivojlanishi bola shaxsining tarkib topish darajasiga ko'ra kechadi.

Bolalarning o'yindagi erkinligi va musaqilligi. Bola o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi: u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola o'yindan zavq olish maqsadida foydalanadi. Bola o'yinining asosiy sababi "voqelikning uning uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlarini boshdan kechirish" hisoblanadi (S. L. Rubinshteyn).

O'yin faoliyatining ijodiy tabiati. Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik bilan bog'liqdir. O'yinda bolaning tafakkuri va xayoloti faol ishlaydi.

Tashabbus va ijodiylik ko'rsatish turli ko'rinishdagi o'yinlarda turlichadir. Ba'zi hollarda u o'yin syujetining qurilishi va mazmunning tanlanishi, rollarning taqsimlanishi, o'yin vaziyatini yaratishdagi topqirlik (rolli ijodiy o'yinlar) bilan bog'liqdir. Ikkinchi bir hollarda esa ijodiylik harakat usullarini tanlash va ularning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi (berkinmachoq, to'p o'yini, boshqotirma o'yinlar va hokazo). Uchinchi bir holda bilim va ko'nikmalarni tez safarbar etishda (loto, rolli ijodiy o'yin va boshqalar). Ko'pchilik o'yinlar sheriklar harakatlarini oldindan ko'ra olishni va shundan kelib chiqib, o'z hatti-harakatini yoki harakat usulini o'zgartirishni talab qiladi (shashka, lapta, rolli o'yinlar). Dramalashtirilgan o'yinlarda ijodiylik, ifodalilik vositalarning tanlanishida (mimika, pantomimikani, ovoz ohangini) namoyon bo'ladi. Ko'pchilik o'yinlar topqirlikni - vaziyatning o'zgarishiga qarab tezkor harakat qilishni talab etadi va hokazo.

O'yinnng ta'sirchan mazmunga boyligi. Bolalar o'yinlarining ko'pchilik tadqiqotchilari bola o'yin paytida kechiradigan tuyg'ularning haqiqiyliigi va kuchini ta'kidlaydilar. Bu tuyg'ular boy va rang-barangdir. Bolalar rolli ijodiy o'yinlarda rollarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular: mehribonlik, iliqlik, onalik nazokati, haydovchi yoki shifokorning mas'uliyati kabi tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Kollektiv o'yinlarda bolalarning, ijtimoiy (do'stlik, o'rtoqlik) his-tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Bola qiyinchiliklarni yengish, o'yinda muvaffaqiyatga erishish natijasida zavq oladi. Bolalar harakatli o'yinlarda harakatlar maromidan,

ularning muqobilligidan, o'zlarinnng ko'rsatgan epchilliklari, jasurliklari, erishgan muvaffaqiyatlaridan quvonadilar. Topqirlik, zukkolik, ziyraklik talab etiladigan o'yinlardan olinadigan quvonch aqliy xarakter kasb etadi. Ko'pchilik o'yinlarda foydalaniladigan o'yinchoqlarning yoqimtoyligi, o'yin harakatlarining chiroyliligi, badiiy ijod elementlarining mavjudligi tufayli estetik tuyg'ular ham namoyon bo'ladi.

Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega. "Bu - deb yozgan edi,- K.D.Ushinskiy,- insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan". Birok Ushinskiy o'yinlarning paydo bo'lishini nison xayotining biror-bir tarixiy davri bilan bog'lamaydi.

O'yinning kelib chiqishini birinchi bor G. V. Plexanov "Adressiz xatlar" nomli asarida shunday talqin qilgan edi. U san'atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganda bolalar o'yinlariga e'tibor qiladi. Turli xalqlar bolalar o'yinlarini taxlil qilish (asosan ibtidoiy davrning) unga kishilik tarixida o'yinlar san'at kabi mehnat paydo bo'lganidan so'ng va ayni chog'da uning asosida vujudga kelgan degan fikrni aytish imkonini berdi. O'yinda odamlarning mehnat faoliyatn o'z aksini topadi. "O'yin mehnat farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo'lgan hodisadir" deb yozgan edi, V. G. Plexanov. O'yinda kattalar faoliyatiga taqlid etilar ekan, ya'ni o'g'il otaga, qiz onaga taqlidan harakat qiladi. Shuunda bolalar amalda ota-onalar mehnat faoliyatining jamiyat hayotidagi shu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan uncha murakkab bo'lmagan malakalarini egallab oladilar. Shuuning uchun ham G. V. Plexanov o'yinni "...turli avlodlarni bog'laydigan va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatuvchi zanjir bo'lib xizmat qiladigan" aloqa vositasi, deb hisoblagan edi.

G. V. Plexanovning o'yinlarning kelib chiqishi haqidagi fikrlari hozirgi zamon psixologiyasi va pedagogikasida rivojlantirildi. O'yinning rivojlanish tarixi kishilik jamiyati rivoji bilan va bola mavqeining ijtimoiy munosabatlar sistemasidagi o'zgarishi bilan aloqadorlikda ko'rib chiqiladi.

O'yin - "Antonim so'zlar".

Bu o'yin katta va tayyorlov guruhlarda o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi degan umiddamiz. O'yin individual, guruh bilan o'tkazilsa ham bo'ladi. O'yin sharti quyidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama - qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, qorong'i - yorug', qattiq - yumshoq, uzoq - yaqin, shirin - achchiq ...va hokazolar. Odatda bolalar o'yin boshida bir oz qiynaladilar. Aytilgan so'zga javoban antonim emas, sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng absrakt tushunchalarni ham osonlik bilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga harakat qiladilar. Masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa, odobli - odobsiz kabilar.

"Ismlashtirish"

Bu o'yin mashg'ulot shu vaqtga qadar rasmlil tarzda o'tkazilar edi. Biz sizga rasmsiz variantini tavsiya etmoqchimiz. Bu o'yin ham bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yotdam beradi deb o'ylaymiz.O'yin sharti quyidagicha:

tarbiyachi bolaga bir guruhga mansub bo'lgan uchta yoki to'rtta narsa nomini aytiladi. Bola ularning umumiy nomini aytishi kerak. Masalan: Tarbiyachi: ot, qo'y, sigir, buzoq so'zlarini aytsa, bola esa: ot, qo'y, sigir, buzoq - uy hayvonlari deb umumiy nomini aytadi. Tarvuz, qovun, handalak - poliz mahsulotlari, qo'lqop, palto, etik, bo'yinbog' - qishki kiyinlar.

Bolalar faolroq ishtirok eta boshlagach ularga "To'rtinchisi ortiqcha" o'yinini taklif etish mumkin. Bu o'yinni ham rasmlarsiz tashkil etishni tavsiya etamiz. Bolalarga bir guruhga mansub bo'lgan uchta narsa va boshqa guruhga mansub bitta narsa nomi aytiladi. Bolalar ulardan to'rtinchisi ortiqchaligini anglashlari va ayta olishlari kerak. Sababi so'ralganda bola fikrini asoslab bera olishi kerak. O'yin jarayonida faqat to'rtinchisi emas, bolalarda hosil bo'lgan ko'nikmalarni hisobga olgan holda birinchisi, ikinchisi, uchinchisi ortiqcha tarzida ham tashkil etish mumkin. Chunki faqat to'rtinchisi ortiqcha bo'lsa, bola fikrlamay turib, o'zida oldingi o'rtoqlarining javobidan ko'nikma hosil qilib, to'rtinchisi ortiqcha deb qo'ya qoladi. Bu o'yinda bolalarning tafakkuri rivojlanibgina qolmay, shu bilan birga ularning nutqiy faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi. O'yin mashg'ulotlar individual tarzda o'tkazilishi bilan birga, guruhda musobaqa tarzida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda o'yin mashg'ulotlar juda qiziqarli bo'lib yaxshi samara berdi deb hisoblaymiz.

"Avval nima bo'lgan edi?"

Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar tarbiyachi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan: jo'ja (tuxum), ot (toychoq), kapalak - (qurt) kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non - un - bug'doy, uy - g'isht - loy, stol - yog'och - daraxt - urug', ko'ylak - mato - ip - paxta - chigit tarzida.

Eslatib o'tish lozimki, bog'cha bolalari uchun tayyorlangan "Harakatli o'yinlar" to'plamlari anchagina bor. Birgina "1001 o'yin" to'plamining o'zida 200 ga yaqin harakatli o'yinlar mazmun topgan. Sharoitlar va imkoniyatlarga qarab ularning barchasini bog'chalarda qo'llash mumkin. Shu sababli ular orasidan e'tiborga loyiq va ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan ko'proq maqul bo'lgan o'yinlarning ba'zi birlarinigina namuna sifatida keltirdik. O'yinlar qisqartirildi va ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.

Samolyotlar, o'yin mazmuni: Bolalar oralari ochiq holda bir safda turib, tarbiyachining "uchishga tayyorlaning" ko'rsatmasi asosida tirsaklarni bukishadi va "uchinglar" buyrug'i bo'yicha tirsaklarni orqaga (oldin) aylantiradi, ya'ni matorning ishga tushishi ifoda etadi va qo'llarini yozib oldinga yugurishadi (10-15 m). manzilga kelganda to'xtab (qo'nib), bir tizzasini bukib yerga qo'yadi. O'yin 4-5 marta takrorlanadi.

O'yinni tashkil qilish: Maydonda (zal) ikki tomonlama bolalar soniga qarab uzun chiziq tortiladi va ularni safga turg'iziladi. O'yinni ko'rsatishda (so'zlab berish) avvaldan tayyorlangan rasmlarni ko'rsatish zarur. O'yin qiziqarli bo'lish uchun bolalarni 3-4 guruhga bo'lish va kim tez uchishini aytib qo'yish kerak bo'ladi. O'yin o'rta va katta yoshdagilarga mo'ljallangan.

O'yinni yakunlash: Tez va chiroyli harakat qilgan guruh va ba'zi bolalarni rag'batlantirish, namuna qilish lozim. Yanada tezroq harakat qilish (gavda va qo'llarni burish) yo'llarini ko'rsatish va vazifa qilib qo'yish lozim.

Ariqdan sakrab o'tish. O'yin mazmuni va qoidalari: O'yin bolalarning tezlik, epchillik, hushyorlik kabi harakat malakalarini tarbiyalashga qaratilgan. Yerga (pol) uzunligi 2-3 m va eni 25-30 sm'li taxta qo'yiladi, bu ariq ustidan o'tuvchi ko'prik hisoblanadi. Ariqning narigi tomonida turli gullar, maysalarni bildiruvchi harxil rangdagi qiyiqchalar (qog'oz) tashlab qo'yiladi. Bolalar birma-bir ko'prikdan o'tib gullarni terishadi va o'tirib, cho'qqayib dam olishadi. Keyin o'z joylariga qaytishadi.

O'yinni tashkil qilish: Bolalarning ko'prik qilishini o'rgatish uchun yengil taxta (faner) yoki materialni belgilangan joyga qo'yishda ularni jalb etish lozim. ariqda tez o'qar suv borligi, tushib-oqib ketmasligi uchun ehtiyot bo'lish, yo'l talashmaslik, oldinma ketin o'tish kabi holatlar ogohlantiriladi.

O'yinga yakun: Ko'prikdan tez yoki ehtiyot bo'lib o'tgan hamda kim ko'p va chiroyli gullarni tergan bolalarni rag'batlantiriladi.

Chiziqni bosma. O'yin mazmuni: O'yin mustaqil harakat qilish va muvozanatni saqlashni tarbiyalashga qaratilgan. Yerga (pol) yonma-yon ikkita chiziq tortiladi. Uzunligi 3-4 m va oralig'i 40-50 sm bo'ladi. Bolalar navbat bilan chiziqlar orasidan yurib (emaklab) o'tishi lozim. Oxirida turib qo'llarni baland ko'tarib kerishadi va nafas chiqaradi.

Tashkil qilish. chiziqlarni bolalarga chizdirish yoki yupqa taxtalardan foydalanish mumkin. Chiziqni bossa jarga tushib ketishligini ogohlantiriladi.

Yakun: Chiziqlar oralig'idan tetik, qiyshaymay va to'g'ri o'tgan bolalar rag'batlantirilishi va yanada tezroq o'tishini vazifa qilib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nishonga tushir. To'plarni dumalatish va mo'ljallarni bilish hamda chaqqonlik kabi harakat ko'nikmalarini o'rgatishda bu o'yin maqsadga yaqindir. O'yin 1-3 yoshli bolalarga mo'ljallangan.

Mazmuni: Bolalar skameykada o'tirishadi. 3-5 m narida chiziq tortiladi va ular navbat bilan 3-4 ta to'pni oldinma ketin chiziq tomon dumalatadi va keyin borib ularni yig'ib kelib, navbatdagi bolaga beradi. Shu tariqa hamma bolalar bu harakatlarni bajarishadi.

O'yinni tashkil qilish va uning shartlari: Ob-havo qulay paytlari ochiq maydonda tashkil etiladi. To'pni uzoqqa otish mumkin emasligi va chiziqqa tegizishni tushuntiriladi. To'plar uzoqqa dumalab ketsa, boshqa bolalarning ham yordamlashib terib kelishiga ruxsat beriladi. O'yinda kim yaxshi bajarsa, ularni rag'batlantiriladi.

Qush va uning bolalari. Mazmuni: Bolalar ikki yoki uch guruhga (5-6 tadan) bo'linadi va ular sig'adigan darajada doira (uya-in) chiziladi. Bolalar qush bolasi va tarbiyachi esa qush vazifasini bajarishadi. Doira (uya) ichidagi qush bolalariga tarbiyachi (qush) "qani uchaylik" deb o'zi qo'llarini (qanot) yozib har tomonga yuradi (uchadi). Qushchalar ham erkin va mustaqil ravishda harakat qilishadi (uchadi). Tarbiyachi (qush) ularning turli harakat qilishi, "don terib yeyishi", quvlashishlarini nazorat qilib boradi. Keyinchalik esa "endi uyaga uchamiz"

deyishi bilan “qushchalar” tez “uchib” o‘z uyalariga (ini) kirib olishadi. O‘yin 3-4 marotaba takrorlanadi.

O‘yin shartlari va yakunlash: “Uya”da (in) “qushchalar” o‘tirishi va “qushni” (onasi) kelguncha (uchishga ruxsat berganida) ular bir-birlariga qarashi, gaplashishi, qimirlashi lozim. “Uchaylik” topshirig‘i bo‘yicha “qushchalar” uyasidan tez chiqishlari va avvaldan tushuntirilgan harakatlarni (qanot yozish, qoqish, qo‘nish, don terish va h.k) barcha baravariga bajarishlari lozim. Uyaga qaytishda ham “uchish” harakatlarini qilishlari shart.

Eng yaxshi ijro etgan bolalarni saralab, namuna qilib ko‘rsatish lozim.

Quyosh va yomg‘ir. O‘yin mazmuni: Xona yoki maydonda bolalar soniga qarab stullar qator qilib qo‘yiladi. Ularning orqasida bolalar cho‘qqayib turishadi va derazadan (stul teshiklari-panjara) mo‘ralashadi. Tarbiyachi: “quyosh chiqdi, o‘ynab kelinglar”, deb ruxsat beradi. Bolalar tezda yugurishib, turli harakatlar qilishadi. Birozdan keyin tarbiyachi “Yomg‘ir” deb ularni chaqiradi va bolalar tezlikda kelib o‘z joylarini egallashadi. Yana “quyosh chiqdi, o‘ynanglar”-deyishi bilan bolalar yugurishib ketadi. O‘yin 5-6 marta takrorlanadi.

O‘yin qoidolari va yakuni: O‘rindan turganda yoki qaytib kelib joylarini egallashda stulni yiqitib yubormaslik, o‘zlari surinib yoki bir-biriga to‘qnashib yiqilmasliklari kerak. Erkin o‘ynab yurganda sakrash, bir-birlari bilan quvlashish va boshqa harakatlarni qilishi lozim. O‘yinda chaqqon va epchil harakat qilganlarni tarbiyachi rag‘batlantiradi. Shuningdek kuyidagi uyinlarni bolalar bogchalarida uynatish va ularni tarbiyasini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bolalarning yoshiga qarab “Bog‘ hovliga sayohat”, “Mehmonga borish”, “Darvoza”, “Ilon izi”, “Doirada tezroq saf tortib tur”, “Ko‘z boylag‘ich”, “Polizda”, “Qushlar parvozi”, “Kapalak tutish”, “Arg‘amchi bilan yugurish”, “Bayroqchaga qarab tur” kabi harakatli o‘yinlardan ham maqsadli foydalanilsa bo‘ladi.

Xulosa tariqasida aytilganda takidlash joizki, bog‘cha yoshidagi bolalarni jismoniy jihatdan rivojlantirish, qomatni to‘g‘ri o‘stirish va jismoniy sifatlarning barcha belgilarini tarbiyalashda harakatli o‘yinlar muhim o‘rinni egallaydi. Shu sababdan oila sharoiti va bog‘chalarda harakatli o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash, mazmunli hamda qiziqarli qilib o‘tkazish zarurdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassislar bolalar tarbiyasi muassasalarida va oila sharoitlarida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan o‘yinlarni bilishlari va eng muhimi esa ularni tashkil qilish hamda tashkil qilish yo‘llarini yaxshi o‘zlashtirishlari lozim bo‘ladi.

Talabalarning o‘quv amaliyoti (praktika) jarayonlarida bolalar tarbiya muassasalarida bo‘lishlari, kamida 3-4 marta o‘yinlarni tashkil qilishlariga sharoit va imkoniyatlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o‘giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog‘lom avlod uchun .-2009.-N8.

4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M. «O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

National plays-Natsionalno'e igro'-Milliy o'yinlar-O'yin buyumli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglash ishiga yo'naltirilgandir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra ham, yo'nalishi va mazmuniga ko'ra ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi.

Idea-Ideya- G'oya-(yunoncha "idea")-birinchi manzara, dastlabki-ob'ektiv borliq mavjudligining inson fikrida aks etish shakli.

National idea-Natsionalnaya ideya-Milliy g'oya- Milliy –ijtimoiy taraqqiyot mohiyatini yorituvchi qarash bo'lib, uning mazmunida ijtimoiy maqsad, milliy manfaatlar va ularning umuminsoniy manfaatlar bilan uyg'unligi aks etadi.

National ideology-Natsionalnaya ideologiya-Milliy mafkura-(arab. «mafkura» nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui)-milliy g'oya mohiyatini ifoda etuvchi siyosiy, xuquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy va ilmiy qarashlar, fikrlar majmui negizida shakllanadi.

Nazorat savollari:

1. O'yinlarning pedagogik jarayondagi ahamiyati qanday?
2. Milliy o'yinlarning qanday turlari mavjud?
3. Ko'pkari qanday o'yin?
4. Mutafakkirlarning sog'lom avlod haqidagi tarbiyaviy g'oyalarini tahlil qiling.

Test savollari:

1. Xalq o'yinlari orasida eng murakkabi, jasorat va ziyraklikni talab qiladigani qaysi?

- a) Ko'pkari
- b) Kurash
- s) Chillak
- d) Darbozlik

2. Ko'pkari qanday o'yin?

- a) Chavandozlar bahsi
- b) Kurash tushish
- s) Ommaviy musobaqa
- d) Chavgon o'yini

3. «Kishining bilimdonligi uning ... orqali namoyon bo'ladi» gapini to'lg'azing.

- a) Odobi
- b) Qalbi
- s) Tili
- d) Vijdoni.

4. Mardlik nima?

- a) Inson qalbidagi quyosh
- b) Yurt qalqoni, xalq suyanchig'i
- s) Qaxramonlik
- d) Sadoqatlik, vafo.

26-Mavzu: Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm.

Reja

1. G'oyaviy tahdidlarning ko'rinishlari.
2. Fanatizm, fundamentalizm, terrorizm kabi oqimlar tavsifi va ularga qarshi mafkuraviy kurash.
3. Islom falsafasida ma'naviy omil jamiyat rivojida yetakchi o`rin tutishi.
4. Diniy ta'limotning mazmun va mohiyati.

Islom dinining umumbashariy qadriyat, ilohiy, ilmiy-dunyoviy ta'limot sifatida barhayotligini ta'minlab kelayotgan asosiy manbalari **Qur'oni Karim** va **Hadisi Shariflardir**.

Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, "**Ilm**" so'zi asosidagi "**alima**" (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bu o'zak faqat "**Alloh**", "**Rabb**" (Parvardigor ma'nosida), "**bo'lmoq**" va "**gapirmoq**" kabi eng ko'p ishlatilgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan.

Rasullohga nozil bo'lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni Karim matni⁴⁷ 96-surasi ("Alaq")ning birinchi oyatlari bo'lib, shunday boshlanadi: "**Iqra' bi-ismi robbikal-lazi xalaq!**" ("**Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi!**"). Oradan bir oyat o'tib yana "**o'qi!**" so'zi qaytariladi: "**Iqra' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya'lam**" ("**O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi**").

⁴⁷ Qur'oni Karim. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992, 5-532-бетлар (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди).

Ilmga qiziqtirish borasida Alloh Qur'onda shunday deydi: «Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'la oladilarmi albatta bu haqda faqat aqlli kishilargina eslaydilar: (*“Zumar” surasi, 9-oyat*). Boshqa bir oyatda ilmi kishilar Allohning huzurida boshqalardan ko'ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan: «Alloh taolo sizlardan imon keltirganlarni va ilmi bo'lganlarning darajasini ko'taradi» (*«Mujodala» surasi, 11-oyat*).

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri

Islam came to Central Asia in the early part of the 8th century as part of the Muslim conquest of the region. Many well-known Islamic scientists and philosophers came from Central Asia, and several major Muslim empires, including the Timurid Empire and the Mughal Empire, originated in Central Asia⁴⁸.

Islom dini 8 asrning boshlarida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan istilo qilinishi oqibatida kirib kelgan. Keyinchalik Temuriylar imperiyasi va Mongol imperiyasi, shu jumladan, Markaziy Osiyo va bir necha yirik musulmon davlatlarda faoliyat olib borgan ko'plab taniqli islomiy olim va faylasuflar Markaziy Osiyodan chiqdilar.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilari xalqni o'zlariga bo'ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ'ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Natijada o'z oldilariga qo'ygan asosiy maqsadga erishdilar. Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan Shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo'ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig'inish, shuningdek, Ollohning yerdagi rasuli (elchisi) bo'lgan Muhammad Alayhis-salom ko'rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, shuningdek, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Yunon va rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyot, kimyo, matematika va geografiyaga oid deyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

G'oyaviy kurash-xalqaro maydonda ustuvor mavqega ega bo'lish, keng xududda xukumronlikka erishish yo'lida olib borilayotgan harakat shakli hisoblanadi. Xukumronlik uchun intilayotgan kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo'nalishlari hamda ilgari surayotgan ta'limotlarining mohiyatiga ko'ra g'oyaviy kurash turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

G'oyaviy kurash jarayonida ayrim ekstremistik kuchlar insoniyat hayoti uchun o'ta havfli sanaluvchi terrorizmdek g'oyaviy tahdiddan foydalanishga zo'r bermoqda.

⁴⁸ www.pfh.de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf

Terrorizm: terrorchi yoki terrorchilik tashkiloti tomonidan birdan ortiq davlat xududida amalga oshiriladigan yoki bittadan ko'p davlat manfaatlariga zarar yetkazadigan, bir davlatning fuqarolari tomonidan boshqa davlatning fuqarolariga nisbatan yoki boshqa davlatning xududida amalga oshiriladigan haraqlatlaridir.

Insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, XX asrning umumbashariy muammosiga aylangan diniy-siyosiy ekstremistik oqimlarning deyarli barcha terrorchilikka asoslanib, ochiqdan-ochiq hokimiyatni egallash uchun harakat qilmoqdalar.

Manbalarda "ekstremizm- keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik " tarzida talqin etilgan va aksariyat o'rinlarda mazkur tushunchaning yuridik atama ekanligiga urg'u berilgan.

Diniy ekstremizm rasmiy xokimiyatni "keskin qat'iy choralar ko'rish" yo'li bilan o'zgartirish harakatini diniy ta'limot, qarash va g'oyalar asosida amalga oshiradigan oqim hisoblanadi.

Islom ekstremizmida ikki belgini kuzatish mumkin.

1.hozirgi zamon musulmon jamoalari o'zining islomiy xususiyatlarini yo'qotgan va jaholat tusiga aylangan degan mafkurani targ'ib qilish;

2.mamlakatda islom qoidalarini o'rnatish, hokimiyatga haqiqiy musulmonlar kelishi uchun xech bir ikkilanmasdan faol urush xarakatlarini, "kuch ishlatish" zarurligini insonlar ongiga singdirish.

Islom ekstremizmi o'tgan asrning 50-60 yillarda xorijda, ayniqsa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Qslida ekstremistik kuchlarning ildizi juda chuqur, ya'ni islom dini shakllangan ilk davrlardayoq paydo bo'lgan.

"Fundamentalizm" atamasi keng ma'noda islom g'oyalarining Muhammad S.A.V. davrlarida qanday talqin etilgan bo'lsa, shundayligicha saqlashni, ularni o'zgartirmaslikni, muqaddas manba "Qur'oni Karim"da vahiy va mo'jizalar qanday bayon etilgan bo'lsa,shundayligicha qabul qilishni, dinning barcha an'anaviy yo'l-yo'riqlarini qat'iy va og'ishmay bajarishni talab etadigan oqimlarni ifodalaydi.

Ushbu atama dastlab 1908 yilda AQShning Kaliforniya shtati protestantlari tomonidan qo'llanilgan bo'lib, protestant oqimlar harakati mohiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Dastlab fundamentalizm faqat diniy g'oyalarnigina ilgari surgan bo'lsa,bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ham ilgari surmoqda. Bu holat fundamentalizm, xususan islom fundamentalizmining siyosiylashganidan dalolat beradi.

Islom falsafasida ma'naviy omil jamiyat rivojida yetakchi o'ringa qo'yiladi. Ma'naviy-ahloqiy barkamollik hukmron bo'lgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash q'oyasi hadislar mazmunida o'z yechimini topadi.

Alloh o'zining yagonaligiga ham ilimli kishilarni guvoh qilgan: «Alloh albatta uning o'zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo'qligiga shohidlik

beradi. Shuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik berdilar» («*Oli Imron*» surasi, 18-oyat).

Shu oyatda Alloh ilmli kishilarning shohidligini o'z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Bu esa, ilmli kishilarning hurmati Alloh huzurida naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, Qur'on ilmsizlarni tanqid qiladi: "Shunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo'yadi". («*Rum*» surasi, 59-oyat). Qur'on ilmning chegarasi yo'q ekanligini ham bayon qilib o'tgan: "Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor" («*Yusuf*» surasi, 76-oyat).

Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o'z ilmlari bilan mag'rurlanib, o'z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham birov tanqid qilib qolishiga o'zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur'on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo'lishga chaqiradi: «Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt» («*Toho*» surasi, 114 -oyat).

Islom kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asos-larini kishilarga ko'rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo'ladi:

1. Ilm biror narsani hujjatli, aniq dalil bilan bog'lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur'on ham musulmon-larga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo'lsa kiradi. Bu ularning orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to'g'ri bo'lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgin» («*Baqara*» surasi, 111-oyat).

Bir narsaga dalil va hujjat bo'lmasa, ishonib bo'lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e'tiqodida bo'lganlarni Alloh so'roq qiladi: «Kim Alloh bilan qo'shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo'lsa, uning hisob-kitobi Allohning huzurida bo'ladi. Albatta kofirlar najot topmaydilar» («*Mo'minun*» surasi, 117-oyat).

Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Gumonni rost deyish to'g'ri emas. Bir masala to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar xujjati kuchli bo'lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli bo'lmasa, masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur'on ta'limotlariga ham to'g'ri keladi.

Qur'on haqiqiy - ilmiy narsalarga suyanishga, gumon va xayollardan uzoqda bo'lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo'lishini aytib o'tadi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar» («*Rum*» surasi, 29-oyat).

Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko'rsatib, shunday deydi: «O'zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko'z, quloq va qalb barcha narsadan so'raladi» («*Isro*» surasi, 36-oyat). Oyatning ma'nosi shuki, o'zing aniq bilmasang, senga aytiladigan turli-tuman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog'i eshitgan, ko'zi ko'rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so'roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o'tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo'lishi zarurligini, gumon va turli fikrlar bo'lmasligini anglatadi.

Ilm ko'r-ko'rona taqliddan qaytarishda Qur'on bilan muvofiqdir. Qur'onda bir fikrni ota-bobomiz qilgan, deb, o'zlari aql ishlatmay yurganlarni tanqid

qilingan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va paygʻambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan, va toʻgʻri yoʻlda yurmagan boʻlsalar, unda nima boʻladi» («*Moida*» surasi, 104-oyat).

Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar, deyilsa, ular, yoʻq biz ota-bobolarimizdan koʻrganimizni qilamiz, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan boʻlsalar va toʻgʻri yoʻlda yurmagan boʻlsalar, unda nima boʻladi. Kofirlar xuddi bir qoʻy podasiga oʻxshaydilarki, ular choʻponning qichqirigʻini eshitadilar-u, maʼnosiga tushunmaydilar. Ular kar va koʻrdirlar, aqlarini ishlatmaydilar» («*Baqara*» surasi, 170-171-oyatlar).

Qurʻonning shu oyatlaridan koʻrinib turibdiki, aql ishlatmay, oʻzi ishonch hosil qilmay — koʻr-koʻrona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, koʻr-koʻrona taqlid qilgani bilan moʻʼmin boʻla olmaydi. Qurʻon xalqlarni boshliqlar va yoʻlboshchilarga koʻr-koʻrona taqlid qilishdan ehtiyotlanishga chaqiradi. Uning aytishicha, yoʻlboshchilar ham va unga ergashganlar ham notoʻgʻri yoʻlda boʻlsalar — qiyomat kunida teng azob chekadilar.

Buning maʼnosi shuki, bu dunyoda yoʻlboshchilik qilganlar, qiyomat kunida oʻziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor boʻlib oralaridagi aloqa uzilar ekan.

Qurʻon ota-bobolarga, boshliqlarga va yoʻlboshchilarga koʻr-koʻrona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi boʻlsa oʻsha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi: “Ular (musulmonlar) gapni eshitganlaridan soʻng, eng yaxshisiga ergashadilar. Shunday kishilarni Alloh toʻgʻri yoʻlga boshlaganlar va ular aql egalaridirlar” (“*Zumar*” surasi, 18-oyat).

Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha gaplarni eshitib, tushunib, soʻngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va oʻtkir aql egalari, deb ataydi.

Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytiladi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qurʻon barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qurʻonda aqlga taalluqli soʻzlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining soʻzi esa 10 martadan koʻproq ishlatilgan. Shuning oʻzi ham Qurʻon aqlga katta eʼtibor berganini dalililidir. Qurʻon aqlning ulkan neʼmat ekanligini bayon qiladi: “Albatta bu narsalarda aqlli kishilar uchun belgilar bor” (“*Raʼd*” surasi, 4-oyat). “Biz oyatlarni aqlli kishilar uchun bayon qilib qoʻydik. Aqlni ishlatmaydilar” (“*Baqara*” surasi, 76-oyat) va hokazo.

Boshqa oyatlarda esa, aqlni ishlatmaganlarni ayblaydi: “Allohning huzurida eng yomon jonzotlar kar-soqov, aqlni ishlatmaydiganlaridir” (“*Anfol*” surasi, 22-oyat). “Sen ularning koʻplari eshitadilar va aql ishlatadilar, deb hisoblaysanmi. Ular xuddi hayvonlarga oʻxshaydilar, balki hayvonlardan ham battardurlar” (“*Furqon*” surasi, 34-oyat).

Boshqa bir oyatda aqlni ishlatmaslik oxirat azobiga sabab bo'lganligini eslatadi: «Ular (do'zaxilar) agar eshitganimizda va aql ishlatganimizda do'zaxilardan bo'lmas edik, deyishadi» («*Mulk*» surasi, 10-oyat).

Mana shu narsalarning barchasi Islomdan aql va aqliy tarbiyaning naqadar ulkan baholanishini ko'rsatadi.

Ilmning asoslaridan biri shuki, tabiiy haqiqatlar o'zgarmasdir. Ishonchli dalil bilan sobit bo'lgan haqiqat barcha vaqtlarda haqiqatligicha qolaveradi. Bu narsa Qur'onda shunday ta'kidlab o'tilgan: “Avvalgilarning qilganlariga qaramaydilar-mi, Allohning qilgan ishlariga hech qachon o'zgarish topa olmaysan. Allohning qilgan ishlarini hech qachon boshqachasiga aylantir-ganini ham topa olmaysan” (“*Fotir*” surasi, 43-oyat).

Boshqa bir oyatda “Allohning yaratganini o'zgartirib bo'lmay-di” deyilgan (“*Rum*” surasi, 30-oyat).

Bu oyatlarda tabiiy qonunlar va Allohning qilgan ishlari o'zgarmasdan o'z holiga sobit qolajagi ochiq-oydin aytilgan.

Biror narsani atroflicha o'rganish Qur'on buyurgan ilmiy asoslardan biridir. Qur'on oyatlarida bir narsani atroflicha o'rganish uchun ko'z, quloq, xususan aqlni ishlatib oldinga suriladi. «Ankabut» surasida shunday deyilgan: «Er yuzida yurib, maxluqotlar qanday yaratilganligini o'z ko'zingiz bilan ko'ringlar» (20-oyat).

Shunga o'xshash oyatlar Qur'onning boshqa suralarida ham ko'plab uchraydi. Ularning umumiy ma'nosidan ma'lum bo'ladiki, inson onadan tug'ilganidan so'ng ko'rish, eshitish va aqlni ishlatish orqali ilm hosil qiladi.

Qur'on oyatlarida tabiiy ilmlarni o'rganishga chaqiriqlar bor. “*Rum*” surasida shunday deyilgan: “Osmonlarning va yerning yaratilishi Allohning alomatlaridandur, shuningdek, sizlarning tillaringiz, ranglaringizning turlicha bo'lishida ham, albatta, olimlar uchun alomatlar bor” (22-oyat). “*Fotir*” surasida esa: “Ko'rmaysanmi, Alloh osmondan suvni tushiribdi va u suv bilan ranglari turlicha bo'lgan mevalarni o'stiribdi. Shuningdek, tog'larning ham rangi turlichadir – oq, qora, qizil. Odamlar, jonzotlar va uy hayvonlarining ham ranglari turlicha. Albatta, olim bandalar Allohdan qo'rqadi” (27-28-oyatlar).

Bu oyatlarda zikr qilingan “Olimlar”dan murod, Alloh yer yuzida yaratgan mahluqotlarning sir-asrorlarini biluvchi shaxsdir. Bu oyatlarning mavzui ham tabiiy ilmlardir. Chunki tabiiy ilmlar borliqdagi narsalarni va ularning xususiyatini o'rganadi. Avvalgi oyatda aytib o'tilgan “osmondan suv tushirish sirini” faqat tabiiy ilm orqali bilinadi. Bu so'zning tarkibini va xususiyatlarini kimyo ilmi orqali bilinadi. Shu suv sababli o'sib chiqqan o'simliklar va mevalarning sirini esa tabiiyot ilmi tushuntiradi. Tog'lar va ulardagi oq, qizil, qora turlarin jug'rofiya o'rganadi. Inson jinslarini va hayvonot olamini esa, antropologiya, zoologiya, biologiya o'rganadi. Oyatning oxridagi “Albatta olim bandalargina Allohdan qo'rqadi” degan jumlagi nazar solsak, unda Allohni haqiqiy tan olib, unda haqiqatan qo'rqadigan kishilar, tabiiy ilmlarni yaxshi biluvchi kishilar ekanligini tushunamiz. Chunki bunday olimlar agar imonli bo'lsalar, ularning ilmi Allohdan qo'rqishga chorlaydi.

Qur'on oyatlarida insonni o'ziga nazar solish va qanday vujudga kelganini tafakkur qilishga da'vat bor: “Inson nimadan yaratilganligiga nazar solsin, u bir

otilib chiquvchi suvdan yaratilgandir, bu suv sulbdan (orqa umurtqa suyak) va taroibdan (ko'krak suyagi) chiqadi" (*"Tortiq" surasi, 5-7-oyat*).

Vujudga kelishning asliga nazar solish orqali inson biologiya ilmiga yetishadi, bu ilm esa, unga inson bir xujayradan rivojlanib borib, o'zining to'liq inson bo'lib yaratilganicha bosib o'tadigan bosqichlarining sir-asrorlarini bildiradi.

Qur'onda insonni o'z nafs haqida fikr yuritishga chaqiruvchi oyatlar bor: "Va o'z nafsingizda ham alomatlar bor, ularni ko'rmaysizmi" (*"Zariyot" surasi, 21-oyat*). O'z nafsiga nazar solish orqali psixologiya ilmiga yetib boriladi. Bu psixologiya ilmi esa, insondagi his-tuyg'ular, sezgi – hayajonlar va boshqa ko'pgina holatlarni o'rganadi.

Qur'on musulmon kishining ko'z oldida turgan mavjudotlarni o'rganishga chaqiribgina qolmay, avvalgi o'tgan halqlarning tarixi, ularning obodonchilik yo'lida olib borgan ishlari, havoyi-nafsga berilib, oqibatda halokatga uchraganlarini ham o'rganshiga undagan. "Rum" surasida shunday deyilgan: "Er yuzida yurib o'zlaridan avval o'tganlarning oqibati nima bo'lganiga nazar solmaydilar. O'tganlar bulardan ko'ra quvvatliroq edilar, yer yuzida asar qoldirgan edilar, bulardan ko'ra yer yuzini ko'proq obod qilgan edilar va ularga payg'ambarlari ochiq-oydin xabarlar bilan keldilar. Alloh ularga zulm qilmoqchi emas edi, lekin ular o'zlariga – o'zlari zulm qildilar". (9-oyat).

Qarang, bir xalqqa shunday ta'limotlar kelibdi. Unda o'tgan ummatlarning taraqqiyot, obodonchiligi, yuz tuban ketishi va harob bo'lishi sabablarini o'rganishga chaqiriq bor ekan. Bu chaqiriq tarix va sotsiologiya ilmini o'rganishga chaqiriq emasmi?⁴⁹

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.
4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. "Xalq pedagogikasi" T. "Bayoz". 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M. «O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.

⁴⁹ Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Имон. –Т.: "Камалак", 1991, 128-136-бетлар.

11. Xoshimov K. «O‘zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh.de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so‘zlar:

1.Terrorizm-Terrorizm-Terrorizm-terrorchi yoki terrorchilik tashkiloti tomonidan birdan ortiq davlat xududida amalga oshiriladigan yoki bittadan ko‘p davlat manfaatlariga zarar yetkazadigan, bir davlatning fuqarolari tomonidan boshqa davlatning fuqarolariga nisbatan yoki boshqa davlatning xududida amalga oshiriladigan haraqlardir.

2.Idea-Ideya- G‘oya-(yunoncha “idea”)-birinchi manzara, dastlabki-ob’ektiv borliq mavjudligining inson fikrida aks etish shakli.

3.National idea-Natsionalnaya ideya-Milliy g‘oya- Milliy –ijtimoiy taraqqiyot mohiyatini yorituvchi qarash bo‘lib, uning mazmunida ijtimoiy maqsad, milliy manfaatlar va ularning umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘unligi aks etadi.

4.National ideology-Natsionalnaya ideologiya-Milliy mafkura-(arab. «mafkura» nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui)-milliy g‘oya mohiyatini ifoda etuvchi siyosiy, xuquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy va ilmiy qarashlar, fikrlar majmui negizida shakllanadi.

Nazorat savollari:

1. G‘oyaviy tahdidlarning qanday ko‘rinishlarini bilasi?
2. Bunyodkor o‘oyalar haqida so‘zlab bering.
3. Buzg‘unchi qoyalar haqida nimalarni bilasiz?
4. G‘oyaviy immunitet tushunchasini tahlil qiling.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. G‘oyaviy tahdidlarning ko‘rinishlari.
2. Fanatizm, fundamentalizm, terrorizm kabi oqimlar tavsifi va ularga qarshi mafkuraviy kurash.
3. Islom falsafasida ma'naviy omil jamiyat rivojida yetakchi o`rin tutishi.
4. Diniy ta'limotning mazmun va mohiyati.

Test savollari:

1. Quyidagi qaysi janrlar xalq og‘zaki ijodiga kirmaydi?

- A) Qur’oni karim, hadisi sharif.
- B) Ertaklar, dostonlar
- S) Topishmoqlar, maqollar.
- D) O‘lanlar, termalar.

2. “Qori”deb kimlarga aytilgan?

- A) Qur’onni yod bilgan kishiga.
- B) Ustozga
- S) Mullaga.
- D) Imomga.

3. Mudarris deb kimga aytiladi?

- A) Madrasa o'qituvchisiga.
- B) Maktab o'qituvchisiga
- S Masjid imomiga.
- D) Saroy og'asiga.

4. Diniy talimot insonlarni nimaga davat etadi?

- A) Ilm-marifatga.
- B) Hokimiyatga
- S Mansabga.
- D) Mavqega.

27-Mavzu: Diniy ta'limot, hadislarining tarbiyaviy ahamiyati.

Reja

1. Islom dinini insonlar tafakkurini o'stirishdagi xizmati .
2. «Qur'oni Karim»-ibrat kitobi .
3. Xadis ilmining rivojlanishida allomalarning qo'shgan xissasi .

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) Hadisi Shariflarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita deb qaraladi. Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong'ilikda yo'l ko'rsatuvchi mash'al tariqasida talqin qilinadi. Ilm-bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillik, u bilan shug'ullanmaslik nopoklikka va jaholatga olib kelishi ham, ham ulardan ta'kidlanadi.

Islom dinining asosini imon, e'tiqod tashkil etadi. Shuning uchun hadislarida "Dinning ofati uchta: 1) beamal olim; 2) zolim hokim; 3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo" deyiladi;⁵⁰ Shuning uchun ilmni qadrlovchi kishiga o'rgatish lozimligi, uni xo'rllovchi, mensimaydigan kishiga o'rgatish gunoh, deb qaraladi.

Ilm bilan shug'ullanishning o'zi yetarli emas. Boshqalarni undan xabardor qilish muhimdir. Hadislarning birida ilm o'rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: "Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab yetkazsa, qiyomat kunida men uni shafomatiga loyiq kishilar safiga kirgizaman" (112-Hadis).

Tolibi ilmning xolis, kamtarin bo'lishi o'ta muhimdir. Bilganini ko'z-ko'z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e'tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan shug'ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimni o'ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham holisona, beminnat bo'lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: "Kimki birodariga bir ish qilishga

⁵⁰ Хадис. Ал-Жомиъ ас-сахиъ (Ишонарли тўплам). I, II, III, IV жилд. Қомуслар Бош таҳририяти; -Т.: 1991-1996 (кейинги мисоллар одам шу манбалардан олинди).

bilib noto‘g‘ri maslahat bersa, demak birodariga xiyonat qilgan bo‘ladi” (110-Hadis).

Ilm o‘zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir Ilm olimniki pesh qilish vositasi bo‘lmasligi zarur. “Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud odamlarning dillarini o‘ziga moyil qilish uchun ilm olsa do‘zaxga boradi” (108-Hadis).

Ilmli kishilarni e‘zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytiladi: “Ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham” (93-hadis).

Ilm olish hunar o‘rganish olijanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli nopok ishlardan asraydi: “Hattoki bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir” (536-hadis).

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o‘rganib boshqalar yo‘lini yorug‘ qilishlari, ularga rahnomo bo‘lishlari joiz. “Ilm ikki xildir, biri qalbda bo‘ladi – uni ilmi nofe’ (foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo‘ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taoloning xujjatidir” (95-hadis). Ilm foydali bo‘lishi uchun u odamlarga o‘rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo‘lishi, kishilarga yaxshilikni o‘rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo‘lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur.

“Odamlarga yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug‘lik berib, o‘zini quydiradigan shamchiroqqa o‘xshaydi” (106-hadis) yoki “Ilmni o‘rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to‘plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o‘xshaydi” (106-hadis).

Ilmu xikmat o‘tkinchi emas, u abadiy. Shuning uchun mo‘min kishiga vafotidan keyin yetib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmdir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo‘lishi darkor. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarida va’z aytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytilayotgan fikrni tushunarli bo‘lishini ta’kidlagan: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)!” (121-hadis).

Ilmni o‘rganish shaxsiy manfaat uchun bo‘lmasligi darkor. “Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis).

Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdor tuproqqa o‘xshatiladiki, undan ungan o‘simliklar, gilyohlar insonlarni oziqlantiradi. Suv yerlarga hayot bag‘ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezgulik, yaxshilik keltiradi: “Ilm ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydir. Ba’zi yer sof unumdor bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradir-da, har xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradilar va ba’zi yer qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir,

hayvonlarni va ekinlarni sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir", - deyiladi hadislarda.

Ilm, hikmat o'rganmoq mo'minning eng yuksak fazilatidir. Chunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziynat, mo'min uchun ilm hayotining yo'ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. *"Ilm egallang!"*- deb xitob qilgan payg'ambarimiz. – Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir". Shuning uchun ilm olish yo'lida har qanday riyozat bo'lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o'rganish mashaqqatdir. Ammo inson o'z irodasi, aql-zakovati bilan unga intilmog'i lozim. "Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar", deydi (126-hadis) Muhammad payg'ambar.

Ilm – bu ma'rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilm- ma'rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Ilm susaysa nopoklik, fohisha zo'rayadi. Bu borada hadislarda: "Ilmning susaymog'i – jaholatning kuchaymog'i, zinoning avj olmog'i, xotinlarning ko'paymog'i – erkaklarning ozaymog'i", - deyiladi (36-hadis).

Ilm, xikmat jamiyatdagi ma'naviyat manbai. Shuning uchun ilm o'rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o'rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o'rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. Shu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo'minlarning ma'naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o'zidek ilm, xikmat ham umumbashariyat mulki bo'lmog'i lozim.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta'limning hozirgi ko'p muammolari o'ziga xos tarzda bayon etilgan. **"Har bir musulmonga ilmga intilish farzdir"**. Bu fikr ta'limning umumiy majburiyligiga ishora emasmi? Bu fikrlar Ya.A. Kamenskiyning "Buyuk didaktika"si yozilmasdan bir necha asr avval aytilgan.

Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtai-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma'naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o'zi ham xikmat, ham ilmdir.

Shunday qilib, Qur'oni Karim va Hadislarda insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqea-hodisalarning tub mazmun-mohiyatini anglab yetishga targ'ib qilinadi.

Qur'oni Karimda axloq va odob masalasiga alohida e'tibor berilgan. Ta'kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o'rnini bilan chambarchas bog'liq axloq-odob, ota-ona va qarindosh-urug'larga hurmat yetim-esir, qambag'al-miskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to'g'rilik, o'z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o'z bolalarini boqish, ta'lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do'stlik va

birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlaridir.

Qur'oni Karimda sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik, keng fe'lli bo'lish yuksak ma'rifat va yuksak axloqiy fazilat belgisi, deb ta'kidlanadi: "Albatta sabrlilar o'z savoblarini hisob-kitobsiz to'liq oladilar" (*"Zumar" surasi, 10-oyati*). "Sabr-qanoatga ehson bilan bir qatorda eng yuksak fazilat sifatida katta e'tibor beriladi: Muhammad, mashaqatli va ozorlarga sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal qiluvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas" (*"Hud" surasi, 115-oyati*).

Shuningdek insondagi axloqiy fazilatlaridan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: "Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq- ehson qil" (*"Qasas" surasi, 77-oyati*).

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo'yishi, o'z farzandini jismoniy va ma'naviy tomondan yetuk kishi qilib tarbiyalashi, ya'ni ilmu ma'rifatga o'rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o'g'il bola bo'lsa uylantirish, qiz bola bo'lsa turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, mazkur oyatlarda farzandlar zimmasidagi uchta vazifa o'z ifodasini topgan. *Birinchisi, farzandlar ota-onalariga yaxshi muamala, shirinsuxan bo'lishlari, ularga mehribon bo'lmoqlari lozim. Ikkinchidan, ota-ona kafolatini yaxshilash, nafaqa berish, ularni so'rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishdan iboratdir. Uchinchidan, ota-ona o'z farzandlari mol-mulkidan foydalanishga haqlidir va hokazo.* Qur'oni Karimda marhamat qilinadi: "Rabbing o'zidan boshqa narsalarga ibodat qilmaslikka va ota-onasiga xayr-ehson va yaxshi muamala qilishga buyurdi. Ota-onangizdan biri yoki ikkovlari ulug'lik, keksalik yoshiga yetsalar, ularga "uf"demang, gapiring. Va ota-onangizga rahmat qanoatini yozing va hamda "Ey parvardigoro, ota-onamni meni yoshligimdan qanday qilib tarbiyalab o'stirgan bo'lsalar, shundayin rahmat qil" (*"Al-Is" surasi, 23-24-oyatlar*).

Qur'oni Karimning ma'lum oyatlarida insondagi eng zarur insoniy fazilatlaridan sanalgan shirinsuxonlik, to'g'ri so'zlik va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalarini talqin etiladi: "Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz" (*"Baqara" surasi 53-oyati*); "Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalarangizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqqo'l bo'lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar" (*"Ol-i Imron" surasi, 159-oyati*).

Qur'oni Karimni "Nur" surasining 27-28-oyatlarida yaxshi fazilatli kishilar bilan ham, yomon xislatli kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lish va salomlashishning o'ziga xos odob-axloq qoidalarini berilgan. Shuningdek, "Niso" surasining 86-oyatida esa salomga alik olishga oid qoidalar bo'yicha muhim ko'rsatmalar mavjud: "Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborasni qaytaringlar".

Qur'oni Karimda insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan olijanoblik ulug'lanib, baxillik esa lan'atlanadi. Baxillik yo'lini tashlab saxiylikka tomon yuz

o'giranlar najot topguvchilar sifatida talqin etiladi: "Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot topguvchi zotlardir" ("*Xashr*" surasi 9-oyati).

Qur'oni Karimda insonni axloqiy kamolotga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, takabburlik, yolg'onchilik, munofiqlik, xiyonatkorlik, xasislik, zulmkorlik, buzuqchilik, o'g'rilik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, zinokorlik, qimorbozlik, giyohvand-lik, nohaq qon to'kishlar, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, baxillik, g'iybatchilik, hasadgo'ylik, g'azabnoklik, ochko'zlik va hokozalar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan.

Ma'lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur'on Karimni "Isro" surasining 37-oyatida: "Er yuzida Kibr-Havo bilan yurmagin! Chunki sen (oyoqlaring bilan) hargiz yerni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo'yi bastda tog'larga yetolmaysan", - deyiladi.

Bu to'g'rida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: "Kimki o'zini katta olsa, yurishida o'ziga bino qo'ysa, oxiratda Allohning g'azabiga uchraydi" (821-hadis), deb ogohlantiradi.

Ma'lumki, VIII - IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar "ham vatandoshlarimiz bo'lib, ilm – u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al – Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at –Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an – Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar "al-kutub as-sitta" (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan "As-Sahih".

2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al - Hajjoj) tomonidan yozilgan "As-Sahih".

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan "Sunnai".

4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniyy tomonidan yozilgan "Sunnai".

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan "Aj-jami al-Kabir".

6. Ahmad an – Nasoiy tomonidan yozilgan "Sunnai" kabi to'plamlardir.

7. Imom al – Buxoriyning shoh-asari "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") 4 jiddan iborat bo'lib, unga 600 ming hadidan 7275 ta eng "sahih" hadislar kiritilgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta'limoti mujassamlashgan Qur'oni Karimdagi "Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu – ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo'ydik"; "Ey mo'minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan yenglar", "Bandalarimga aytingki, ular eng go'zal so'zlardan so'zlashsinlar", "Odamlarni aldab fitnaga solish o'ldirishdan yomonroqdir", "Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi", "Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik

qilishlaringizni amr etdi...” kabi muhim g‘oyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagi **“Ilm egallang! Ilm-sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir”**; **“Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”**; **“Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz”**, **“Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”**; **“Yolg‘on so‘zlama”**, **“o‘zinga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘r”**, **“Englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o‘tmanglar”**, **“Ahmoqdan uzoqlashing”**, **“Nonni e‘zozlanglar”**; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta’kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg‘oniy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafak-kirlar islom ta’limotini, Qur’oni Karimni, payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, diniy va axloqiy yo‘l-yo‘riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta’sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari-ning asosi, shuningdek, asarlarining mazmun – mohiyati va g‘oyasi ham Qur’oni Karim va Hadisi Sharif ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarini o‘rganish va ulardagi ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko‘ra, Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta’sir etgan va islom ta’limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bularda ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, biz islom ta’limotida, ta’lim-tarbiya masalalarining tutgan o‘rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma’naviy-ma’rifiy tafakkurining xarakterli tomoni shundaki, ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta’limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko‘rinishi sifatida o‘z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkir-larimiz asarlarida keng o‘rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o‘giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog‘lom avlod uchun .-2009.-N8.

4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M.«O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». Toshkent 1995
- 12.« Xikmatlarga tula bu dunyo» T-Ukituvchi . 1997 y
13. Imom Buxoriy « Xadislari»
14. G.N.Volkov « Etnopedagogika» . T-Fan . 2000 y .
15. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
16. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

1.Terrorizm-Terrorizm-Terrorizm-terrorchi yoki terrorchilik tashkiloti tomonidan birdan ortiq davlat xududida amalga oshiriladigan yoki bittadan ko'p davlat manfaatlariga zarar yetkazadigan, bir davlatning fuqarolari tomonidan boshqa davlatning fuqarolariga nisbatan yoki boshqa davlatning xududida amalga oshiriladigan haraqlardir.

2.Idea-Ideya- G'oya-(yunoncha “idea”)-birinchi manzara, dastlabki-ob'ektiv borliq mavjudligining inson fikrida aks etish shakli.

3.National idea-Natsionalnaya ideya-Milliy g'oya- Milliy –ijtimoiy taraqqiyot mohiyatini yorituvchi qarash bo'lib, uning mazmunida ijtimoiy maqsad, milliy manfaatlar va ularning umuminsoniy manfaatlar bilan uyg'unligi aks etadi.

4.National ideology-Natsionalnaya ideologiya-Milliy mafkura-(arab. «mafkura» nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui)-milliy g'oya mohiyatini ifoda etuvchi siyosiy, xuquqiy,axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy va ilmiy qarashlar, fikrlar majmui negizida shakllanadi.

Nazorat savollari :

1. Xadislarning kandy tarbiyaviy axamiyati bor ?
- 2 . Kandy xadisshunos olimlarni bilasiz ?
3. Al-Buxoriy , At-Termiziy xadislardan namunalar keltiring .
4. Xadislarda ilimli bo'lish g'oyasi haqida nimalar deyilgan?

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Islom dinini insonlar tafakkurini o'stirishdagi xizmati .

2. «Qur'oni Karim»-ibrat kitobi .
3. Xadis ilmining rivojlanishida allomalarning qo'shgan xissasi .
4. Xadislarda ilimli bo'lish g'oyasi.

Test savollari:

1. Hadisda bilimning ofati ikkitadir: biri – bilimga rag'batini yo'q kishilarga bilim o'rgatish, ikkinchisi esa:

- A) Unutish.
- B) Xudbinlik
- S) Takrorlash.
- D) Amal qilmaslik.

2. Ilm egallash odobining 54 qoidasi haqida kimning qaysi asarida bahs etiladi?

- A) Imom Buxoriyning "Al Jome as-sahih" asarida.
- B) Sadiyning "Guliston" asarida
- S) Burxoniddin Zarnujiyning "O'qituvchiga talim yo'lida qo'llanma" asarida.

D) Forobiyning "Aql to'g'risida risola" asarida

3. Islomda qaysi fazilat insonning ruhiy tayanchi deb hisoblanadi?

- A) Sabr.
- B) Ilmli bo'lish.
- S) Qanoat.
- D) Aqlli bo'lish.

4. "Al-Jome as-sahih" kimning asari?

- A) Imom al-Buxoriy.
- B) Ahmad Yassaviy
- S) Ahmad Yugnakiy
- D) Yusuf Xos Hojib.

28-Mavzu: Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida

Reja

1. Og'zakiylik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidmi sifatida.
2. Mavsumiy marosim qo'shiqlari.
3. Qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Etnopedagogika genealogik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

Etnopedagogika manbalari jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelgan vaqti ham, muallifi ham noma'lum.

Og'zakiylik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir; U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Vorisiylik-etnopedagogika manbalari bulmish folklor asarlariga xos xususiyat bo'lib, ular zahirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Ko'pvariantlilik-ma'lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o'zaro farqlanuvchi nusxalarida o'z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, "Alpomish" dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda:

An'anaviylik-etnopedagogika manbalarining avloddan-avlodga o'tish jarayonida o'zining dastlabki shakli va qahramonlarini saqlab qolganligida ko'zga tashlanadi.

MDH mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rusiyalik G.S. Vinogradov, gruziyalik A.F. Xintibidze, chuvashistonlik G.N. Volkov, tataristonlik Ya.I. Xanbikov, ozarbayjonlik A.SH. Hoshimov, tojikistonlik Sh.A. Mirzaev, turkmanistonlik K.Pirliiev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.SHerboev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi. (Volkov G.N. va boshqalar. Etnopedagogika. Toshkent, "FAN", 2000 s.6.).

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardagi pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'nalishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or tarbiya an'analaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogiksida faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki, yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qaraladi.

Insonga sog'liq, to'kin-sochinlik tila sh, uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o'tkaziladigan, an'anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo'linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga: loy tutish, shox moylar (dalaga qo'sh chiqarish), navro'z, yomg'ir chaqirish, "Sust xotin" ("Avesto" da madh etilgan) marosimlari kirgan. Chunonchi:

Havolarni yog'dirgan, Sust xotin,

Bug'doylarni bo'ldirgan, Sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, Sust xotin,

Elu yurtni to'ydirgin, Sust xotin...

Yozgi marosimlar: “CHoy momo” (SHamol ona demakdir, unda shamolda mevalarni to’kilishdan saqlashga undalgan), va boshqalar.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to’y, (beshik) to’yi, sunnat to’yi, nikoh to’yi, kelin salom, motam marosimi, yig’i-yo’qlovlar va boshqalarda ko’zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifatlari ulug’langan, insoniyat qadr-qimmatini yuqori ko’tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg’otishga undalgan.

Qo’shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. “Qo’shiq” – turkiy “qo’shmoq” so’zidan olingan bo’lib, misraga misrani qo’shib kuylash, aytish ma’nolarini anglatadi.

Qo’shiqlarda xalq ma’naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi. U kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, do’stlikka, sevgi sadoqatga chorlaydi. Xalq qo’shiqlarining mehnat qo’shiqlari (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), lirik qo’shiqlar, tarixiy qo’shiqlar, termalar singari turlari mavjud.

Doston – qissa, hikoya, ta’rif, sarguzasht ma’nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo’lib, xalqning ma’naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do’stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ’ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlarni bo’rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o’rnak olish hissi tug’iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. “Baxshi” mo’g’ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag’sha” so’zlaridan olingan bo’lib, “ustod”, “ma’rifatchi” degan ma’nalarni anglatadi.

Og’zaki drama – etnopedagogika yo’nalishidagi ijodning mustaqil turi bo’lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og’zaki dramada tomosha ko’rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og’zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko’zlik, ko’zbo’yamachilik, zulm, adolatsizlik, zo’ravonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlarni hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha “zakiy” so’zidan olingan bo’lib, “so’zamol”, “o’tkir”, “zehnli” degan ma’nalarni anglatadi. Askiya – so’z o’yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida “Bo’lasizmi”, “O’xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko’pincha to’y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg’ona vodiysida keng tarqalgan bo’lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o’z-o’zini tarbiyalashga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. T., O’zbekiston, 1998. 56, 419-betlar.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi – mualliflar: Sh. Qurbonov va b. T., “SHarq”, 1999. 104-betlar.

3. Hoshimov K.X. va b. Pedagogika tarixi. T., “O’qituvchi”, 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi – muallif: O. Hasanboeva. T., “o’qituvchi”, 1993.
5. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi – mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hotamov va b. T., “FAN”, 1997.
6. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: ... M., “Prosveshenie”, 1991. str. 162-170.
7. O’zbek xalq maqollari. To’plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. T., “G’. G’ulom”, 1978. 64-72- b. va b.

Mavzuga oid tayanch soʻzlar:

National song- Natsionalnaya pesnya-Milliy qoʻshiq- voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi.

Mentalitet - (lot.mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning oʻiga xos tarixiy anʼanlari, urf-odatlar, diniy eʼtiqodini ham qamrab oladi.

Maʼnaviyat- (arabcha maʼnolar majmu)kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Maʼnaviy axloqiy tarbiya – yosh avlodni xalqning boymilliy-madaniy tarixiy anʼanalariga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samalali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.

Mustaqil ish uchun mavzular:

1. Ogʻzakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidmi sifatida.

2. Mavsumiy marosim qoʻshiqlari.

3. Qoʻshiqlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Nazorat savollari:

1. Milliy qoʻshiqlarning yaratilish tarixi haqida gapirib bering.

2. Qoʻshiqlarning qanday turlari mavjud.

3. Mavsumiy qoʻshiqlar qanday maqsadda kuylangan?

4. Mehnat qoʻshiqlari qanday qoʻshiqlar?

Test savollari:

1. Oʻzbek milliy musiqa asboblari berilgan qatorni toping?

A) Dutor, nay, rubob, tanbur, gʻijjak.

B) Nogʻora, doira, balalayka.

S) Gʻijjak, karnay, skripka.

D) Gitara, fleyta, doʻmbira.

2. «Yorgʻichoq qoʻshiqlari» qanday qoʻshiqlar qatoriga kiradi?

A) Mehnat qoʻshiqlari, dehqonchilik bilan bogʻliq qoʻshiqlar.

B) Marosim qoʻshiqlar.

S) Chorvachilik bilan bogʻliq qoʻshiqlar.

D) Mavsumiy – marosim qoʻshiqlar.

3. Mehnat qoʻshiqlarining turlarini ayting.

A) Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.

B) Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar.

S) Chorvachilik, hunarmandchilik bilan bog'liq mehnat.

D) Mavsumiy-marosim qo'shiqlar.

4. Mavsumiy-marosim qo'shiqlarning turlarini ayting.

A) "Sust xotin", "Choy momo", "Yo, Haydar.

B) Alla qo'shig'i.

S) Lirik qo'shiqlar, "Sust xotin.

D) "Sust xotin", "Choy momo", "Yo, Haydar", alla.

29-mavzu: Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.

Reja

1. Xalq pedagogikasida kasb-hunar egallashning afzalligi haqida
2. Kasb-hunarning vorisiyligi va kasb-hunar sohibining ma'naviy-axloqiy sifatlari xususida.
3. Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi.

Etnopedagogikada kasb-hunar egallashning afzalligi va vorisiyligi haqida

"Insonning o'zi va o'z oilasining baxt-saodati yo'lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi", -degan edi Prezident I.A. Karimov ("O'zbekiston - buyuk kelajak sari", T., "O'zbekiston", 1998. 63- bet). Darhaqiqat, bugungi yoshlarni kelajak hayotiga tayyorlash ularga zamon talabiga mos kasb-hunar o'rgatishni taqozo etadi. Zero: "Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy – texnikaviy taraqqiyot sur'atlari ... tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamul – jam yondoshishni taqozo qilmoqda". Hozirgi paytda yoshlarga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishlariga sharoit yaratmay turib, biz respublika xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartira olmaymiz. Chunki, ishsizlik, maosh kamligi, kadrlar taqchilligi va boshqalar ana shu tufaylidir. Bunda unutib yuborilgan xalq an'analari va udumlarini tiklashga ham e'tibor berish kerak"(Usha manba).

Ko'rinib turibdiki, kasb-hunar tarbiyasi hozir mamlakatimizda ustivor yo'nalishga aylanmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham xuddi shu maqsadga qaratilgan hujjatlardir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda bizga xalq pedagogikasi yordam berishi mumkin. Chunki ajdodlarimiz kasb-hunar tarbiyasiga alohida e'tibor berishgan. Ilmni, kasb-hunarni so'rab urganish or hisoblanmagan, balki "Orlanib so'ramagan o'ziga zolim" hisoblangan.

Qadimgi xalq maqollarida kasb-hunar egallashning afzalligi va ijtimoiy ahamiyati ko'rsatib utilgan. Chunonchi, "Temirchining ming urgani, bosqonchining bir urgani" maqolida temirchiga qaraganda bosqonchining zarbi kuchliligi emas, balki hunarsizdan hunarlining zarbi unumli ekanligi aytilsa: "Ko'ra-ko'ra ko'zchil bo'lasan, so'zlay-so'zlay so'zchil bo'lasan" maqolida esa, ilmni va kasb-hunarni asta-sekinlik bilan o'rganib, mahoratli bo'lish mumkinligiga

ishora qilinmoqda. Xalq maqollarida hunarni mashaqqatsiz o'rganib bo'lmasligi "Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz - hunar" makolida yakkol ko'rsatiladi. Hunar boylikka yetaklovchi yo'l ekanligi shunday ta'kidlanadi: "Tekin boylik axtarguncha, o'zingga bop hunar top!". Hunarni bilimdon ustozdan o'rganish lozim, deyiladi xalq maqolida. Aks holda: "Usta ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar". Har bir ishni shu sohani kasb qilgan kishi bajarsa sifatli bo'lishi: "CHumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" maqolida ta'kidlanadi. Hunarning inson hayotidagi ahamiyati makollarda shunday ko'rsatiladi: "Hunar – zar, hunarsiz - xor", "Hunarli kishi och qolmas", "Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining" kabi va b.. Shuningdek, kasb-hunarni o'rganishda kechikmaslik zarurligi: "Qirqingda surnaychi bo'lsang, qachon chalasan?", yoki: "Qirqida qo'liga soz olgan, qiyomatda qulog'ini burar" maqollarida ta'kidlangan.

Kasb-hunar o'rganishning ijtimoiy ahamiyati ham etnopedagogika manbalarida alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, "CHistoni Elibek" afsonasida jinlarga qarshi kurashgan Elibek, "Xubbi" afsonasida Amudaryoda 700 yil hukmronlik qilgan Xubbi, "Gershasp" afsonasida ajdarga qarshi kurashgan Gershasp, Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" asarida ("... bir kasb-hunarni o'zlashtirishga kirishgan bo'lsin ..."), Kaykovusning "Qobusnoma" sida ("... Ey farzand, ogoh bo'lgilki, hunarsiz kishi ... hech kishiga naf yetqurmas ..." tarzida) kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Kasb-hunarning vorisiyligi, kasb-hunar sohibining axloqiy sifatlari xususida

Pedagogika fanida tarbiyaning vorisiyligi haqidagi tushunchaga asoslanib, kasb-hunar tarbiyasining ham vorisiyligini tushuntirish mumkin. Chunki o'tmishda xalq o'z farzandlariga ilm va tarbiya berish bilan birga ularga ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan kasb-hunar o'rgatishni ham zarur hisoblagan. Bu kasb bolaga kelajakda uning o'zi va oilasi uchun moddiy ta'minot vositasi bo'lishi bilan birga, xalqi va Vatani uchun ham foyda keltirishi zarurligi ta'kidlangan. O'tmishda kasb-hunar o'rganishning ijtimoiy ahamiyatini ajdodlarimiz tug'ri anglab yetganlar. Kasb hunarni ota-ona uz farzandlariga, ustozlar esa shogirdlariga meros koldirganlar. Xozir xam xalq orasida kasb-hunar vorisiyligi davrm etmokda va bu xodjisaning pedagogik ahamiyati pasaygan emas.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida farzand dunyoga kelgach, ota-onaning asosiy burchlaridan biri unga yaxshi ism qo'yish, oqil tarbiyachiga berish, sunnat qilish, savod o'rgatish bilan birga unga hunar va kasb o'rgatmoqni meros deb bilgil, deyiladi. Shuningdek: "Hunarsiz kishi bila do'stlik qilmag'il, nedinkim bunday kishi do'stlik va dushmanlikka loyiq ermasdur,"- deydi Kaykovus.

Islom ta'limotining manbalaridan biri hisoblangan "Hadis" larda dehqonchilik kasbi shunday ulug'lanadi: "Ekin ekinglar. Ekin ekish barokatli kasbdir. Ekinlaringni barakasini oshirish uchun qo'riqchilarni ko'paytiringlar".

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bilimli bo'lishni ham oliy kasb deb hisoblaydi:

Bilim ma'nosin bil, nima der bilim:

Bilimdan yo'lni chap soldi o'lim.

***Bilimsiz barchasi dardmanddir, dardmand,
Bu dard davosiga bilim hunarmand.***

Hatto, 3000 yil ilgari yaratilgan “Avesto” da tasvirlangan “Odami Od” hikoyasidagi Odami Od (forscha – “ulkan odam” demak) ham mohir duradgor usta sifatida chinordan kema yasab, odamlarni qutqarib qolgan bo’lsa, bu g’oya dostonlar, aytishuvlar, madhiya va marsiyalarda ham davom etib, hunarli kishining xalq uchun xizmati buyuk va qimmatli axloqiy sifat ekanligi ta’kidlanadi.

Xalq pedagogikasida ta’kidlanadiki, inson uchun va har qanday kasb sohibi uchun yaxshi axloqiy fazilatli bo’lish katta ahamiyatga ega. Aks holda, xalqqa, Vatanga foydasiz kasbning ijtimoiy ahamiyati yo’q. Hunarli kishi, kasb sohibi xalqning koriga yarashi, ommaning mushkulini oson qilishga bel bog’lasa, uning mehnati qadrlanadi. Jumladan, A. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning toshlarni qo’porish va kanal qazish hunari, “Alpomish” dagi Hakimbekning jang qilish. kamon otish hunari va boshka ijobiy axloqiy sifatlari xalq tomonidan ulug’lanadi. Kaykovus inson xar kanday xunarni egallagan bulsa xam kishi albatta ijobiy axloqli bulishi lozim deb xisoblaydi va bani -nsonni yumshoq so’zli bo’lishga chaqirib: “Barcha hunarlar ichida eng ulug’i, so’z hunaridir”, - deb hisoblaydi.

Navoiy muallimlik kasbini eng ulug kasblar jjasumasiga kiritadi. Muallimga xos sifatlar haqida gapirib, u: “Mudarrisning kerakki g’arazi mansab bo’lmasa va bilmas ilmni ayturg’a murtakab bo’lmasa, hundamolig’ uchun dars havzasin tuzmasa ... va g’avg’o ko’rguzmasa. Jahldin dostori boshida ... uzun bo’lmasa ...”, - deb, salbiy sifatlarini tasvirlasa, ijobiy sifati haqida: “... Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas ...” deydi. Demak, etnopedagogikadagi kasb xunar egallashning ijtimoiy axamiyatiga doir ushbu g’oyalarni, hozirgi bo’lajak pedagoglar, albatta, bilishi zarur.

Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yoritilishi

Xalq pedagogikasida iqtisodiy tarbiya ijtimoiy ahamiyatga ega yo’nalish sifatida tarlkin etiladi. Zero, yer yuzidagi mavjud moddiy boyliklar qancha ko’p bo’lmasin, undan tejab-tergab foydalanish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, inson hayotda yashar ekan o’zi, o’z oilasi, xalqiga moddiy foyda keltirishi zarurligi, moddiy muhtoj bo’lib qolmaslik choralarini ko’rishi lozimligini ta’kidlaydi. Chunki: “Nonsiz yashab bo’lmas, gapni oshab bo’lmas”, “Oz bo’lsa, eplab ko’r, ko’p bo’lsa, seplab ko’r”, “Suv qattiq yerda to’xtaydi”, “Taom – tuz bilan, tuz o’lchov bilan”, “Tejog’lik ish - bejog’lik” ekanligini xalq o’z tajribasida sinab ko’rib, kelajak avlodlarga pandnoma sifatida qoldirgan.

Xalq hamisha yoshlarning tejamkor bo’lishiga g’amxo’rlik qilgan. “Yotib yeyishga tog’ ham chidamaydi” qabilidagi maqolda mavjud moddiy boyliklarni tinimsiz sarf qilish tufayli eng katta boylik ham poyoniga yetishi ta’kidlanadi, so’ngra: “Yo’qni yo’ndirib bo’lmas” ligixam eslatiladi. Shuning uchun: “Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol-dunyong bo’lsin!” deb, o’git beradi. Aks holda “Hisobini bilmagan, hamyonidan ayrilar,-” deydi xalq. Chunki, hayotda hamisha: “Avval iqtisod, keyin siyosat” tarzida ish yuritish taqoza etiladi.

“Avesto” da inson o‘z hayotini moddiy to‘kinlikda o‘tkazishi lozim deb ko‘rsatiladi. Bu moddiy farovonlik tufayli amalga oshadi. Shundagina inson sihat-salomat bo‘ladi, uzoq umr ko‘rib, baxtli bo‘ladi, deyiladi zardo’shtiylik ta‘limotida.

Islomda ham iqtisodiy tarbiyaga jiddiy e‘tibor beriladi. Jumladan, “Qur‘on” da ta‘kidlanishicha, mol—dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan kishi uni to‘g‘ri yo‘lda sarflashi kerak (“Anfol” surasi, 28-oyat). “Kaxf” surasining 28-oyatida “... Ishi isrofgarchilik bo‘lgan kimsalarga itoat etmang!” – deyiladi. Hadislarda ham xayr-saxovatli bo‘lib, yeb-ichish, lekin isrof qilmaslikka da‘vat etiladi.

So‘fiylik ta‘limotida ham iqtisodiy tarbiya musulmon dini qoidalariga muvofiq targ‘ib etiladi. Uning taniqli vakillaridan biri Ahmad Yassaviy nafsga mute bo‘lganlarni qoralaydi:

*Nafsdan kechib, qanoatni pesha qilg‘an,
Har kim topsa, rozi bo‘lib, bo‘yi sung‘an.
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg‘an,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.*

Ibn Sino “Luqmoni Hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasihati” da: ... “8. Do‘stni foyda va ziyonda imtihon qil”. ...21. «Ishni, xarjni kiringa qarab qil”. Ammo: “...67. Bolalaring nima desa, o‘shani qilaverma” slikni, ... 98. Inson o‘zini o‘ta xor (ham) qilmasligi” kerakligini ta‘kidlaydi.

“Qobusnoma” da: “Har narsa qo‘lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o‘z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig‘ va ojizlig‘ vaqtining zaruriy ishlarig‘a ehtiyot qilib qo‘yg‘il”, - deb ta‘kidlangan. Demak, iqtisodiy tarbiya bola uchun hayotda zarur vositadir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T., O‘zbekiston, 1998. 56, 419-betlar.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi – mualliflar: Sh. Qurbonov va b. T., “SHarq”, 1999. 104-betlar.
3. Hoshimov K.X. va b. Pedagogika tarixi. T., “O‘qituvchi”, 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi – muallif: O. Hasanboeva. T., “o‘qituvchi”, 1993.
5. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi – mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hotamov va b. T., “FAN”, 1997.
6. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: ... M., “Prosveshenie”, 1991. str. 162-170.
7. O‘zbek xalq maqollari. To‘plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. T., “G‘. G‘ulom”, 1978. 64-72- b. va b..

Mavzuga oid tayanch so‘zlar:

Komillik – mexr-muxabbat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarining majmuidir.

Mentalitet - (lot.mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘iga xos tarixiy

an'anlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi.

Ma'naviyat- (arabcha ma'nolar majmu) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviy axloqiy tarbiya – yosh avlodni xalqning boymilliy-madaniy tarixiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samalali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.

Mudarris – (arab. Dars beruvchi) – madrasa o'qituvchisi.

Muhaddis – (arab. Hadis rivoyat qiluvchi) – hadislarni to'plash, saralash va sharxlash bilan shug'ullangan ilohiyotchi.

Millat- uzoq davom etgan ijtimoiy, siyosiy va etno-madaniy jarayonda, aniq xududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'zigi xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

Milliy iftixor - bu millatning o'zini yaxshi ijtimoiy birlik ekanini ongli ravishda xis qilishidir. Bu eng avvalo, millatning (aloxida shaxsning) o'zligini anglashi, millat ravnaqini ta'minlash yo'lidagi hatti-harakat, o'z millati istiqboli yo'lidagi mas'ullikni ongli ravishda xis etishi milliy iftixorli bo'lishning poydevori xisoblanadi

Mustaqil ish mavzulari:

1. Xalq pedagogikasida kasb-hunar egallashning afzalligi haqida
2. Kasb-xunarning vorisiyligi va kasb-hunar sohibining ma'naviy-axloqiy sifatlarini xususida.
3. Etnopedagogikada iqtisodiy tarbiyaning yorisilishi.

Nazorat savollari:

1. Xalq poetik ijodida kasb-xunar egallash qanday ifodalangan?
2. Kasb-xunarning vorisiyligi nima?
3. Kasb-xunar egasining ma'naviy-axloqiy sifati xususida gapirib bering.
4. Mutafakkirlar ijodida kasb-xunar egallashga oid qanday g'oyalar mavjud?

Test savollari:

1. Hunarmandchilikka oid halq maqolini toping?

- A) Hunar, hunardan rizqing unar.
- B) Mehnat qilib topganing-qanday asal totganing.
- S) Farzand belning quvvati.
- D) Ko'kka boqma, ko'pga boq.

2. Xalq pedagogikasida kasbga tayyorganlik usullari?

- A) Ustoz-shogirdlik an'anasi, ota-onadan meros kasb-hunar
- B) Daromadli kasb-hunar.
- S) Ota-onadan meros kasb-hunar
- D) Shogirdlikka tushish.

3. Xalqimizning go'zal mehnat an'anasi?

- A) Hashar.
- B) Mehmon kutish
- S) Marosimlar

D) Urug' qadash.

4. Tangri nazdida eng yaxshi uy qaysi?

A) Yetimlar izzat qilinadigan uy.

B) Mehmon kelgan uy.

S) Ahil oila.

D) Ota-ona bor uy.

30-Mavzu: Xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at, musiqa san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda muhim omil sifatida

Reja

1. Etnopedagogikada insonparvarlik tarbiyasi xususida.

2. Do'st tanlash va do'stlik odobi xususida.

3. Estetik tarbiya haqidagi etnopedagogik tasavvurlar.

Etnopedagogikada insonparvarlik tarbiyasi xalq pedagogik qarashlarining negizini tashkil etadi. Umuman, etnopedagogika manbalarida tasvirlangan barcha obrazlarda insonparvar shaxslar ijobiy obraz sifatida tasvirlanadi.

Xalq pedagogikasida insonparvarlik ruxidagi g'oyalar(gumanizm), avvalo, sevgi, oila, bolalar, ota-onalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, do'stlar va butun halqqa bo'lgan munosabatlar doirasida ko'p asrlar davomida shakllangan.

Ma'lumki, Respublikamizda chinakam insonparvarlik siyosati milliy istiqlol davrida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston aholisi milliy tarkibining o'ziga xosligi, ko'pmillatligi, aholi tarkibining 60 % dan ortig'i bolalar ekanligi, ajdodlar yashab kelgan yurtda ularning tarixan turg'un hayot kechirishi va boshqalar insonparvarlik tarbiyasini yanada kuchaytirishni taqozo etayotir. Shuning uchun Respublikamizda xalqqa siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o'zi tanlash huquqi berilgan. O'zbekistonda tug'ilgan va yashayotgan har bir kishi teng huquqli fuqaro sifatida yashamoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatiga qaratilgan. Bu yo'nalish kelajakda ham rivojlanib boradi. Shuning uchun kelajagi buyuk davlatimizning istiqboldagi egalarini haqiqiy insonparvar, komil shaxslar kilib tarbiyalashimiz kerak.

Insonparvarlik tuyg'usini tarbiyalash xalq pedagogikasida, avvalo, oilada va oilaviy munosabatlarda amalga oshirilishi zarur deb ko'rsatiladi. Agar bu fikrni hozirgi zamon pedagogik mezonlari doirasida bayon etsak, xalq o'z amaliy hayotida shunga amin bo'lganki, oilada bolaga tarbiyaviy ta'sir etish uchun xalq pedagogikasi tarbiya metodlarini belgilashda tashabbuskor bo'lishi lozim: u bolaning dam olishi, o'quv va mehnat mashg'uloti, ota-ona va qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar bilan munosabat tarzini belgilab berishi kerak. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarni to'g'ri o'rnatish g'oyat nozik ish. Unda ota-onaning tarbiyachilik vazifasi amalga oshadi. Oilada bola oila a'zolariaro insonparvarlik tuyg'ularini sezadi. Qarindosh-urug'larga nisbatan odamiylik munosabatlari axloqini his etadi. Ularga nisbatan mehribonlik, izzat-hurmat, insonparvarlik tuyg'ularini tuyadi va buning oqibatida xalq ommasiga bo'lgan muhabbati o'sadi. Yoshlar orasidagi sof do'stlik tuyg'ulari sevgiga aylanadi. Xalq pedagogikasi: "Faqat ilk sevgi - haqiqiydir", - deb ta'lim beradi. "Sevgi – maslahat so'ramaydi", va "Sevgi – o'limdan kuchli" ekanligi ta'kidlanadi.

Qadimgi Turon xalqida nikoh to'yi oldidan va to'y jarayonida bajariladigan ko'plab insonparvarlik urf-odatlarini shakllangan (sovchi qo'yish, qalin solish, to'qqiz tovoq, asal yalatish ...).

Xalq ertaklarida, afsona va rivoyatlarida, topishmoq va qo'shiqlarida, do'stlik va sevgi ulug'lanadi. Jamiyatning ilk beshigi hisoblanmish oilada yuz beruvchi ziddiyatlarni hal etishning insonparvarona metodlari ko'rsatiladi: "Er bilan xotinning urushi – doka ro'molning qurishi" ga o'xshatiladi. "Yaqinlar urushganda begonalar bayram qilishi", do'stlikni kayta tiklash uchun yon berish ("Bir marta yon bersang, yuz marta yutasan") zarurligi ta'kidlanadi.

Bolalarga insonparvarlik tarbiyasi berishda ularga ertaklar, dostonlar aytib berish, qo'shiqlar o'rgatish, marosimlarda qatnashtirish, ukalariga muhabbat ruhini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, quyidagi maqollarni o'rgatish bu borada muhim ahamiyatga ega: "Bola aziz, odobi undan aziz", "Davlatning – ota-onang", "Yomon xotin – umr azobi", "Oriqmidi, sariqmidi – erim edi, yoriqmidi, yuriqmidi – uyim edi", "Ota-onang o'tirgan uyning tomiga chiqma", "Tengini topsang tekin ber", "Yaxshi xotin ishlik bo'lar, yomon xotin tillik bo'lar", "Qozilashgan qarindosh bo'lmas", "Hovli olma, qo'shni ol", "Hazil edi chin bo'ldi, o'ynash edi er bo'ldi", "Mehmon – otangdan ulug'", "CHaqirgan yerga bor, chaqirmasa nima bor?", "Kunda kelgan mehmonning qadri yo'q" va boshqalar.

"Dunyoda do'stlikdan qudratliroq tuyg'u yo'q", - deb ta'lim beradi xalq pedagogikasi. Shuning uchun uning turfa xil manbalarda do'stlik, boshqalar bilan ahil va inoq bo'lish g'oyasi olg'a suriladi. Hayot muammolarini hamkorlikda bartaraf etish, zulm va razolatga qarshi birgalikda kurashish, do'stni hayotning achchiq damlarida sinovdan o'tkazish haqidagi fikrlari maslahat beriladi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi pallasida yosh avlodga milliy totuvlik, baynalmilal do'stlik ruxini singdirishda etnopedagogikaning mazkur g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bugungi global xalqiy muammolarni insoniyat yaxshi ko'shinishlik, hamjihatlik, do'stlik aloqalarisiz hal kila olmaydi.

Etnopedagogikada, avvalo, "Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qoladi" maqolida kechirimli bo'lishga undaladi, mayda kamchiliklar tufayli do'stlikni uzish qoralanadi. Chunki, xalqning ta'kidicha: "Birlashgan kuch yengilmas". Lekin do'stlar orasidagi "Gumon do'stni do'stdan ajratadi". Shuningdek: "Dil og'ritgan do'st emas". Shuning uchun "Do'stga dilingni toza tut!", kezi kelganda "Do'sting uchun zahar yut". Negaki, "Do'stlik barcha boylikdan afzal". Ayni paytda, hech kim dunyoda yolg'iz yashay olmaydi. Shuning uchun "Baliqning tirikligi suv bilan, odamning tirikligi odam bilan". Chunki: "Ahillik baxtning boshi", negaki: "Arg'amchiga qil quvvat" deganlaridek, "Birlashgan kuch yengilmas" ligi ta'kidlanadi.

Etnopedagogikada do'stlararo munosabatlarda mehr-muhabbatli bo'lish zarurligi ham ta'kidlanadi. Aks holda, "Bemehr qarindoshdan, mehr bilgan yot yaxshi" bo'lishi ham mumkin.

Do'st tanlash haqida xalq pedagogikasida ming yillar davomida sinalgan metodlarni tavsiya etadi. Xalqning ta'kidlashicha, "Do'st achitib gapiradi", "Dil og'ritgan do'st emas". Do'st boylikka, dasturxonga boqmaydi, orqadan

gapirmaydi, yurakdan soʻzlaydi. Shuning uchun u tugʻishgan bilan teng hisoblanadi. Bunday doʻstlarga hamisha eshikni ochib qoʻyish mumkin.

Doʻstlikning ijtimoiy ahamiyati etnopedagogikada yuqori qoʻyiladi. Hamjihatlikda yashash, tinch hayot kechirish, ulugʻvor vazifalarni bajarish, obodonchilik uchun va dushmanga qarshi birgalikda kurash jarayonlarida doʻstlikning ahamiyati katta ekanligi taʼkidlanadi: “Quyosh havoni isitsa, doʻstlik qalbni isitadi”, “Piyozi poʻsti koʻp, yaxshining doʻsti koʻp”, “Yolgʻiz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongʻi chiqmas”, “Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar”...

Lekin: “Hisobli doʻst ayrilmas”, yoki: “Doʻstingdan top” maqollari doʻst tanlashda kishini sergaklikka undaydi.

Etnopedagogika manbalarida xalqning goʻzallik, nafosat tarbiyasi haqidagi tasavvurlari afsonalar, miflar, dostonlar, ertaklardagi badiiy obrazlar vositasida bayon etiladi. Ayniqsa, xalq qoʻshiqlari, marosim va mavsumiy aytishuvlarida insonning, Ona yurtning, farzandlarning, togʻ va daryolarning, qir-adirlarning, qushlar va hayvonlarning goʻzalligi yuksak pardalarda kuylanib, oʻquvchi va tinglovchining vatanparvarlik, insonparvarlik hislarini yanada kuchaytirishga zamin yaratadi.

Etnopedagogikada goʻzallik tushunchasi haqida gap ketar ekan, insonning zohiriy va botiniy goʻzalligiga dahldor xususiyatlari alohida koʻrsatib oʻtiladi. Insonning ham tashqi, ham ichki dunyosi mutlaq goʻzallikka erishgandagina tarbiya jarayonida maqsadga toʻla erishilgan deyish mumkin. Shuningdek, goʻzallik insonning boshqalar bilan muomalasida, nutqida, kiyinish va yurish-turish odobida, mehnatsevarligida namoyon boʻladi.

Mustakil Respublikamizda jamiyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirishning kuchayishi bilan estetik tarbiyaning ham ahamiyati yanada kuchaydi. Yoshlar ongida goʻzallik hissini oʻstirish, estetik didni kuchaytirish, sanʼat asarlari va yodgorliklarini tushunish va qadrlash, tabiat goʻzalligini asrash va boshqalar har bir kishining vazifasiga aylandi. Xalq ustalari yaratgan yodgorliklarda, binolarda (Samarqand, Buxoro, Xiva ...), ayollar toʻqigan gilamlarda, joynamoz va kashtalarda, zardoʻzi tun va doʻppilarda estetik did, goʻzallikka chorlovchi gʻoya va ruh ufurib turibdi.

Xalq goʻzallikni yarata turib, oʻz ijodi namunalariga qoʻshyurak (sevishganlar belgisi), qoʻsh uzuk, gullar, palaklar, nakshlar tasviri singari belgilarni qoʻygan.

Xalq qoʻshiqlari, marosim aytishuvlarida mehnatga muxabbat; toʻy, Navroʻz, qovunsayli, toʻquvchilar qoʻshigʻi, sogʻuvchilar qoʻshigʻi, alla va shu kabilarda xalqning ichki tuygʻulari tasvirlangan. Gijjak, qoʻbuz, tor, dutor, rubob, tanbur, doira, sibziq, karnay, surnay singari musiqa asboblarining bezaklari vositasida yoshlar qalbida goʻzallikka muhabbat uygʻotilgan.

Binolarni bezashda oʻymakorlik, naqqoshlik, rangli metallar oʻymakorligi, teriga badiiy ishlov berish singari estetik tarbiya vositalari yoshlar tarbiyasida muhimdir. Bunday sanʼat asarlarida Xalq oʻz maʼnaviy dunyosi goʻzalligini aks ettirib, kelajak avlodlarga meros qilib qoldirgan. Ammo, «Husn tuyda, aql kunda kerak» ligi alohida taʼkidlangan.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998. 56, 419-betlar.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi – mualliflar: Sh. Qurbonov va b. T., “SHarq”, 1999. 104-betlar.
3. Hoshimov K.X. va b. Pedagogika tarixi. T., “O'qituvchi”, 2006.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi – muallif: O. Hasanboeva. T., “o'qituvchi”, 1993.
5. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. Tuzuvchi – mualliflar: M. Xayrullaev, N. Hotamov va b. T., “FAN”, 1997.
6. Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: ... M., “Prosveshenie”, 1991. str. 162-170.
7. O'zbek xalq maqollari. To'plab nashrga tayyorlovchilar: S. Xudoyberganov va b. T., “G'. G'ulom”, 1978. 64-72- b. va b.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

National pedagogi- Notsionalnaya pedagogika-Xalq pedagogikasi. Xalqning boy ta'lim- tarbiya borasidagi tajribalari, mutafakkirlarning ilg'or pedagogik g'oyalari hamda diniy manbalar ta'lim-tarbiya borasidagi g'oyalarini qamrab oladi.

Education- Vospitanie-Tarbiya. Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

A cultural and educational-Kulturno-vospitatelno'y- Madaniy-tarbiyaviy. Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qaraular, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy va ma'naviy boyliklarni yoshlar ongiga singdirish.

Moral-Moralno'y-axloqiy-jamiatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

Mustaqil ish uchun mavzular

1. Etnopedagogikada insonparvarlik tarbiyasi xususida.
2. Do'st tanlash va do'stlik odobi xususida.
3. Estetik tarbiya haqidagi etnopedagogik tasavvurlar.

Nazorat savollari:

1. Xalq amaliy san'ati va nafosat tarbiyasi uzviyligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Nafosat tarbiyasi etnopedagogik manbalarda qanday ifodalangan?
3. Mutafakkirlar nafosat tarbiyasi xususida.

Test savollari:

1. “Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal” maqoli o'qitishning qaysi printsipligiga taalluqli?

- A) Nazariyani amaliyot bilan bog'lash.
- B) Yodlash.
- S) Takrorlash.
- D) Ma'lumdan noma'lumga qarab borish.

2. Nafosat tarbiyasining muhim manbai nima?

- A) Musiqa.
- B) Hunarmandchilik.

- S Amaliy san'at.
D) Me'morchilik.

3. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik sohalariga nimalar kiradi?

- A) Zargarlik, zardo'zlik, kulolchilik.
B) O'ymakorlik, kulolchilik, bastakorlik.
S) Maishiy buyumlar yasash, musiqa.
D) Zargarlik, kurash tushish.

4. Quyidagi maqolning davomini toping? Betashvish bosh qayda...

- A) Mehnatsiz osh qayda.
B) Qup - quruq tosh qayda.
S) O'smasiz qosh qayda.
D) Kurmaksiz osh qayda.

31-Mavzu: O'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalari mazmuni.

Reja

- 1. O'zbek xalqining muomala madaniyati.**
- 2. Muomala axloqiy fazilat sifatida.**
- 3. Mutafakkirlar muomala odobi haqida.**

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o'rganishga, tadqiq qilishga bag'ishlagan ekan. Ittifoqo, o'sha olim bizning yurtimizga tashrif buyurib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'libdi. Yuritga qaytib borgach: "Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshli o'zbek qizalog'ining o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganchoy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim", degan ekan. Biz shunday yuksak odobli, madaniyatli xalqning farzandi ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketadi.

Yuksak ma'naviyatli xalqlar o'z milliy axloq-odob xususiyatlarini saqlab qolganlar. Masalan, yaponlar, hindlar, arablar. Imon-e'tiqodi sust xalqlar esa o'zga millat va xalqlarning axloq-odobiga berilib ketib o'zligini yo'qotadi.

Quyida Sharq axloqi uchun mushtarak bo'lgan muhim va mo'ʻtabar jabhalar, xalq xikmatlari va buyuk allomalarning axloq haqidagi g'oyalari bayon qilinadi. Shoyad donolar xikmati o'zligimizni yangidan kashf etish va axloqiy –ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanishiga ko'mak bersa degan umiddamiz.

Turli xalqlar pedagogikasini o'rganar ekanmiz xar bir millatning o'zga xos bu boradagi boy tajribalari, tarixiy merosi, tarbiya jarayoniga yondashuvlari bilan bizning milliy tarbiya o'rtasida mushtarak jihatlar mavjud ekani va tarbiya jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanish samarali natija berishini guvohi bo'ldik.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar bilan endi taraqqiyot yo'lga kirgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik o'rnini, iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan mamlakatlarning dunyo siyosatini belgilab beruvchi kuch darajasiga ko'tarilishi, ularning o'z ma'naviyat, madaniyat va ahloqlarini ommaviy madaniyatning negiziga aylantirish borasida olib borayotgan amaliy harakatlarini ham ifodalaydi.

Xalq pedagogikasi insonning turmush tarzi, ahloq-odobi, urf-odatlar, an'analari, marosimlari, ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqod, ozodlik yo'lidagi vatanparvarligi kabi xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish sohasida orttirgan tajribalari avloddan-avlodga o'tib keldi, ma'naviy boylik sifatida xizmat qilmoqda.

Xususan Sharq mutafakkirlarining boy merosi, ularning falsafiy qarashlari, ayniqsa ahloq-odob, insof, diyonat, iymon, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari insonni har tomonlama va uyq'un rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan qaraganda Bahovuddin Naqshband ta'limoti mazmunida insonni yuksaklikka eltuvchi, go'zallikdan baxramand qiluvchi mezon – aql – idrok yotadi.

Naqshbandiya tariqati va ta'limoti qur'oni Karim va Hadisga asoslanadi. Hadislar inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan ahloq-odob tarbiyasining barcha muammolarini o'z ichiga oladi. Umuman olganda, hadislar ahloqiy-tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Hadislarni o'rganar ekanmiz ularda halollik va poklik, iymon va vijdon bilan boq'liq bo'lgan birorta ham masala e'tibordan chetda qolmagan, faqatgina poklik tantanasi orqaligina jamiyatda adolatga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlarini to'q'ri yo'lga qo'yish milliy va umuminsoniy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqozo qiladi. Jahon xalqlarining ilq'or madaniyati milliy ma'naviyatimizni yanada yuksak darajaga ko'tarishga ijobiy ta'sir etishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshqa xalqlar merosining ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik, baribir o'zbek milliy qadriyatlari ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qoladi.

Bu borada xalq pedagogikasining an'analari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu an'analari uzoq vaqt davomida rivojlanib, falsafiy tafakkurda umumlashib, xikmatli so'zlar, xalq maqollari shakliga kirgan. Ular yozma yodgorliklarda Maxmud qoshq'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan. Ularda ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan boq'liq ko'pgina muhim muammolar ilgari surilgan. Bular hozirgi kunimiz uchun ham

katta ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy omillardir. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy asarlarida ham milliy pedagogikaning o'ziga xos tarixiy an'alarini ko'rish mumkin. Forobiyning «Fozil shahar aholisi» nomli asarida o'rta tashlangan masalalar xalqning adolatli jamiyat va uning ma'naviy kamolot cho'qqisiga erishgan fuqarolari to'q'risidagi falsafiy – ahloqiy fikrlar o'z ifodasini topgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin qubro, Xoja Axror Valiy ta'limotida ham odamlarni halollik, poklik, mehnatsevarlik va insonparvarlikka chorlovchi q'oyalarga asoslangan fikrlar mavjud. O'zbek she'riyatida ham ahloq-odob masalasining falsafiy muammolari nihoyatda keng o'rin olgan. Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira q'azallarida kishilarda millatimizga xos bo'lgan jihatlar: yurtga sodiqlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, insonni mehr-muhabbatini uluq'lovchi falsafiy-didaktik fikrlarni ko'rish mumkin. Mutafakkirlar pedagogik qarashlari, ta'lim-tarbiyaga oid asarlari bizlarga buyuk meros, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun bitmas tugalmas javohirotni sifatida yetib kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan O'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. qolaversa, ahloq-odob, pedagogika fanlari butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Ibn Sino yosh bolalarni tugilishidan boshlab tarbiyalash mahallasiga katta e'tibor beradi. Bola tuq'ilganidan to oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim.

Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor. Bir – bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchisi – uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, q'azab kuchli qizdiradi, qayq'u kuchli quritadi. (Ibn Sina. Kniga o dume. Izd. Fils. Pr. s 111).

Ibn sino fikricha, avvalambor ahloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, q'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi. U soq'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan bo'lishi kerak. (Ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki. T. 1985 g. s 112).

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino inson kamoloti va bu sohada qilinadigan ishlarni tajriba asosida amalga oshirish, dunyoviy ilmlarni o'rganish yo'llari haqidagi ta'limotlari q'oyatda qimmatlidir.

Ibn Sino o'qituvchining shaxsiy xislatlariga ruhiyatiga e'tibor berib, uning aqliy xususiyatlari, ruhiyati, mehnatsevarligi, bilimi, irodasiga asoslangan holda ta'lim-tarbiya ishini olib borish kerakligi haqidagi fikr-mulohazalari bilan milliy va umuminsoniy pedagogik fikr rivojiga ulkan xissa qo'shdi.

Allomaning qimmatli fikrlari bugungi kun avlodni tarbiyalashda ko'rsatma sifatida juda ahamiyatlidir.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarimi va XI asrning boshlarida – q'oyat murakkab tarixiy davrda yashadi

va ijod etdi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Ta'lim berish jarayonida talabani zeriktirmaslik, bir xil fanni o'rgatavermaslik; usviylik; izchillik, mavuzlarni qiziqarli asoslab, ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligi uqtiriladi.

Olim bilim oluvchilarga qalbini yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlash zarurligini uqtiradi.

U barcha illatlarning asosiy sababchisi bilimsizlikda, deb bilgan. Bilimlar egallashda esa kishida bilimga intilish, qiziqish va ijtimoiy muhit o'rnini alohida ta'kidlaydi.

Bilim olishda tushunib o'rganishga, ilmiy taqdiqotchining ma'naviy poklikka rioya etishiga alohida e'tibor bergan. Beruniy firicha, ahloqiy insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmay, u kishilarning o'zaro muloqoti davrida saralanib, muayyan ijtimoiy muhitda tarkib topadi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma'nosida ishlatib, «Yodgorliklar» asarida shunday deydi: «Fahrlanish – haqiqatda yaxshi xulq va oliy fe'llar, oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa hukm uning zarariga bo'ladi».

Mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasining o'zni haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Oq'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, ilm-fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, ularga xayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifatchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar, deb biladi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi – bu hozirgi ma'rifat ilm-fani ham e'tirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va to'q'ri ta'lim-tarbiyadir. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining muhim omillari ma'rifatli bo'lish va yuksak ahloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga doir, ta'lim usullari haqidagi qarashlari bilan ma'rifat nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Sharqda mashhur bo'lgan allomalardan biri, o'rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir.

Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini falsafiy, ijtimoiy qarashlari bilan boq'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishga da'vat etgan. Chunki ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqoq'idir». Zero, bilimli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligini, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligini, inson o'z bilimini haqiqiyligini anglash

uchun mantiqdan ham xabardor bo'lishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim usullari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak, degan q'oya yotadi.

Ibn Sino bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
ta'limda yengildan oq'irga borish orqali bilim berish;
olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Yuqoridagi masalalarga Ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» asarining «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida to'xtalib, ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining asosiy burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
ta'limda turli usullardan foydalanish;
fanga qiziqтира olish;
berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
har bir so'zning bolalar hissiyotini uyq'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan ijtimoiy muhit alohida rol o'ynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishini, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish, uni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, ahloqiy tarbiya bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi.

Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida yaxlit ta'limot yaratilmagan edi. Bolaga hali u tuq'ilmasdan turib q'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, ahloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishishida asosiy mezon sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Ajdodlar o'giti, hikmatlar, hikoyalar, tamoyillar. T. 1991 y.
3. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog'lom avlod uchun .-2009.-N8.

4. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog'lom avlod uchun .- 2009.-N1.-
5. Bobomirzaev X. «Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi samarasi». T. «O'qituvchi». 1996 y. 173-bet.
6. Volkov G. N., Baubekova G. D. «Etnopedagogika» Toshkent 2000 y.
7. Mutalipova M. «Xalq pedagogikasi» T. «Bayoz». 2013y.
8. Musurmonova O. «O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish» T. «Fan» 1993 y. 105-bet.
9. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol ta'lim metodlari: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
10. Sattarov M.«O'zbek udumlari» (Millatning kenja bo'g'iniga). T. «Fan». 1994 y. 223-bet.
11. Xoshimov K. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent 1995
12. Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).
13. WWW.pfh. de/fileadmin/Content/PDF/forschungspapiere/the-state-and-islam-in-central-asia-wolters.pdf.

Mavzuga oid tayanch so'zlar:

Education- Vospitanie-Tarbiya. Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

